

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**IQTISODIYOT FAKULTETI
MENEJMENT
KAFEDRASI**

**MUHOFAZANI BOSHQARISH FANIDAN
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

<u>Bilim sohasi:</u>	300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
<u>Ta'lif sohasi:</u>	310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
<u>Ta'lif yo'nalishi:</u>	60310400 – Iqtisodiy xavfsizlik

Ushbu o`quv-uslubiy majmua “Muhofazani boshqarish” fanidan ishlab chiqilgan o`quv dasturi asosida tayyarlangan hamda Namangan davlat universiteti O`quv-uslubiy Kengashining 2024 yil “18” sentyabrdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:

D.Baymirzayev

“Menejment” kafedrasи dotsenti, PhD.

Taqrizchilar:

K.Sirojiddinov

“Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasи dotsenti, i.f.n.

R.Xojimatov

NamMQI Menejment kafedrasи dotsenti v.v.b.,
i.f.f.d.

Fanning o`quv-uslubiy majmuasi Menejment kafedraning 2024 yil 28-avgustdagи 1-sonli yig`ilishida muhokamadan o`tkazilgan va fakultet kengashida ko`rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

D.Baymirzayev

Fanning o`quv-uslubiy majmuasi Iqtisodiyot fakultetining kengashing 2024 yil 29 avgustdagи 1-sonli yig`ilishida muhokamadan o`tkazilgan va universitet kengashida ko`rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Fakultet dekani v.v.b.:

D.Tojiboyev

O‘QUV-USLUBIY MAJMUANING TARKIBIY TUZILISHI

Nº	Majmuaning tarkibiy qismlari	Betlar
----	------------------------------	--------

Majmuaning qisqacha annotatsiyasi

1. O‘quv materiallari

- Ma’ruzalar matni
- Amaliy va seminar mashg‘ulotlari materiallari

2. Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari

3. Glossariy

4. Ilovalar

- Fan dasturi;
- Ishchi fan dasturi;
- Tarqatma materiallar;
- Testlar;
- Baholash mezonlari;

MAJMUANING QISQACHA ANNOTATSIYASI

O‘quv-uslubiy majmua – Namangan davlat universitetida bakalavriat va magistratura ta’lim bosqichilarining O‘quv rejalarida aks etgan fanlar bo‘yicha professor-o‘qituvchining dars jarayoniga o‘quv-uslubiy tayyorligini tasdiqlovchi eng muhim mezon, me’yoriy-uslubiy hujjatdir.

Majmuaning asosiy maqsadi – avvalombor fanning o‘qituvchisi, xuddi shuningdek talaba uchun, fanni har tomonlama sermazmun, chuqur nazariy, uslubiy va amaliy tarzda etkazish (talaba uchun – o‘zlashtirish) uchun yagona o‘quv-uslubiy va axborot-resurs manbaini yaratish hisoblanadi.

O‘quv-uslubiy majmua Namangan davlat universiteti bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u jumladan quyidagi tarkibiy tuzilishga ega:

- *fanning me’yoriy-uslubiy ta’minoti,*
- *fanning mazmuni va axborot-resurs ta’minoti,*
- *fanni o‘qitishning interaktiv texnologiyalari,*
- *talabalarning bilimini baholash uslubiyoti,*
- *qo‘sishimcha elektron ta’lim resurslarini o‘z ichiga olgan.*

Ilg‘or xorijiy tajriba bilan uzviylik.

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, davrimizning axborot asriga aylanishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar shuni ko’rsatadiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholaydigan, har qanday holatda ham to’g’ri va oqilona qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis qilib tayyorlash uchun faqat an’anaviy uslublarga tayanib dars o’tish yetarli emas. Bu esa ta’lim tizimida jahon tajribasidan keng foydalanishni talab etadi.

Dunyo tartibotida chuqur transformatsiya jarayonlari kechmoqda. Tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, xalqaro savdoning pasayishi, investitsiya oqimlarining kamayishi, iqlim ofatlarining kuchayishi–vaziyat naqadar beqaror va zaif ekanini yaqqol ko’rsatmoqda.

Jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlari so'nggi uch yil davomida pasayotganligi tahlillardan ko'rishimiz mumkin. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq tendentsiyalar ham kutilgan umidlarni oqlamayapti. 2023 yilda rivojlanayotgan davlatlarga kiritilgan investitsiyalar umumiyligi hajmi 9 foizga kamaydi.

Albatta, biz bugun jahonda investorlar uchun mislsiz kurash ketayotganini yaqqol dalillar bilan ko'irishimiz mumkin. Biroq bir o'zgarmas haqiqat tobora oydinlashmoqda. Hech bir mamlakat bu kabi o'tkir muammolarni yakka holda hal eta olmaydi. O'zaro ishonch va hurmat ruhi, bir-birini qo'llab-quvvatlash tamoyili uzoq muddatli hamkorlikning mustahkam ustuni bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 02.05.2024 yilda Toshkent shahrida o'tkazilgan xalqaro iqtisodiy forumdagi nutqida so'nggi yillarda iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o'sganligini alohida ta'kidlab o'tdi. O'tgan yil yakuni bo'yicha bu o'sish 6 foizni tashkil qildi. Inflyatsiya 9 foizgacha pasaydi. Savdo aylanmasi ko'rsatkichlari muttasil oshmoqda. Valyuta bozori va oltin-valyuta zaxiralari barqarorligi saqlab qolinmoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda 60 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlarining 14 milliard dollardan ortiq mablag'lari ijtimoiy va infratuzilma sohalariga jalb qilindi.

Investorlar uchun yana bir muhim ko'rsatkich. Oxirgi yetti yilda oliy ta'lim qamrovi 9 foizdan 42 foizga oshdi, oliy o'quv yurtlari soni 200 tadan ortdi.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi.

¹ 02.05.2024 yillardagi Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Учинчи Тошкент халқаро инвестиция форумидаги нутқи

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoyishiga ko'ra "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi.²

Kelgusi 7 yilda O'zbekistonning asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjat – «O'zbekiston – 2030» strategiyasi qabul qilindi. Cstrategiya 5 ta ustuvor yo'nalish doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan.

Ushbu strategiyada oliy ta'lim tizimi islohotlariga ko'ra Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, talabalar uchun qo'shimcha 120 ming o'rinali o'quv binolari hamda 150 ming o'rinali talabalar turar joylarini qurish ham ushbu strategiya dasturigi kiritilgan. Ushbu stategiyaning eng muhim jixatlaridan biri shundaki, 30 ta oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish ham belgilandi.

Respublikadagi OTM muassasalarini jaxonning "Top-500" ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida "ikki diplomli tizim"ni joriy etish ko'zda tutildi. Yana muhim OTM muassasalari uchun juda katta indikator vazifasini o'taydigan 10 ta oliy ta'lim muassasasini dunyoning eng nufuzli "Top-1000" oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish maqsadi qo'yildi. Qolaversa, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish hamda 5 ta oliy ta'lim muassasasini milliy tadqiqot oliygochlariiga aylantirish ham ushbu dasturda belgilandi.

² <https://uzbekistan2030.uz/uz?year=2023>

OTM muassasalari kutubxonalarini kamida 1 million ta zamonaviy adabiyotlar bilan to’ldirish va kutubxona fondini to’liq raqamlashtirish orqali talabalarni bilim darajasini ularni ilmiy tadqiqot ishlari uchun zarur shart-sharoitlarni sifati yanada oshishiga zamin yaratadi.

Ushbu dasturning yana bir muhim jihatlaridan bir shundaki, fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun 3 trillion so’m, amaliy tadqiqotlar uchun esa Davlat byudjetidan 4 trillion so’m mablag’ yo’naltirilishi ham bu ilmiy tadqiqotlarni samaradorligini oshishi uchun xizmat qiladi.

O’quv adabiyotlarining tarkibi, tuzilishi va mazmunini uzluksiz takomillashtirib borish mana shu chora-tadbirlardan biridir.

Iqtisodiy fanlarni yoshlarga o’rgatish uchun o’qituvchining o’zi bu fanlarni yaxshi bilishi, dars berish metodlarini mahorat bilan qo’llay olishi talab etiladi. SHu bilan birga, pedagogika, psixologiya, maxsus fanlarni o’qitish metodikasi, pedagogik texnologiya va boshqa fanlarni ham chuqur bilishi zarur bo’ladi.

Kadrlar tayyorlashdagi asosiy maqsad zarur bilimlarni o’zlashtirish bilan birga talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko’nikmasini hosil qilishdir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 8 oktyabrdagi O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risidagi PF-5847-sonli Farmoyishi tasdiqlandi. Ushbu Farmoyishga asosan tasdiqlangan O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida eng muhim bo’lgan zaruriy vazifalar belgilandi.

Ushbu Kontseptsiyada Respublika oliy ta’lim muassasalari xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1 000 ta o’rindagi oliy ta’lim muassasalari ro’yxatiga, ularning rasmiy veb-saytlari Webometrics xalqaro reytingining 1000 talik ro’yxatiga kirmaganligi, a’lim dasturlari va talabalar bilimini baholash tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilmaganligi, mavjud talabalar turar joylari hamda

ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari xorijiy talabalar ehtiyojlariga moslashtirilmaganligi, xorijiy fuqarolarni mamlakatimizda ta'lim olishga keng jalg qilish borasidagi targ'ibot ishlari, jumladan PR-loyihalar (O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari kunlarini tashkil qilish, taqdimotlar o'tkazish va boshqalar) yetarli darajada tashkil qilinmagan, bu borada interaktiv virtual platforma mavjud emasligi alohida taxill bilan tanqid ostiga olingan.

Yuqoridagi muammolardan kelib chiqib, oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish eng dolzarb vazifa etib belgilandi.

CHunki, sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash bu bugungi kunning ta'lim oldida turgan eng muhim vazifalarimizdan bir ekanligi Kontseptsiyada ko'rsatib o'tildi.

Bugun ushbu Kontseptsiya har-bir OTM muassasasi oldida eng muhim vazifalarni qo'ydi. Jumladan,

- mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

- individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish;

- mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim

standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish;

-o'quv rejalarida fanlar sonini nomutaxassislik fanlari hisobiga bosqichma-bosqich kamaytirish hamda tutashlikdagi fanlarni tanlov fanlari ro'yxatiga kiritish;
-ilg'or xorijiy tajribalar asosida oliv ta'lim muassasalariga yuqori malakali pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirib borish kabi vazifalarni bajarish dolzarb ekanligini ko'rsatib berdi.

Kadrlar tayyorlashdagi asosiy maqsad zarur bilimlarni o'zlashtirish bilan birga talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil qilishdir.

Ma'lumki, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar o'z navbatida ishchi kuchiga ham alohida talablar qo'yadi. Ya'ni, ishchilar malakali, mahoratlari, talabning o'zgarishiga moslashuvchan, o'z malakasini oshirishga intiluvchan bo'lishi talab etiladi. Ishchi kuchiga bo'lgan talablarni talabalar chuqr idrok etishlari, mustaqil izlanish, fikrlash, turli qarashlarni taqqoslash, tahlil qilishga, oqilona xulosa chiqarishga o'rGANISHLARI lozim. Jahon pedagogikasida diqqat e'tibor talabalarda ana shu xislatlarni hosil qilish va tarbiyalashga qaratilgan.

Majmuani takomillashtirish masalalari

Elektron o‘quv-uslubiy majmua o‘quv yili mobaynida xalqaro va milliy iqtisodiyot tizimidagi o‘zgarishlar va tendensiyalar, yangi qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlarni, xorijda va respublikada chop etilgan yangi o‘quv va ilmiy adabiyotlarni, fan-texnika va texnologiya borasida erishilgan yangi yutuqlarni hisobga olgan holda muntazam takomillashtirilib boriladi.

“Muhofazani boshqarish” fani o‘z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- ***birinchidan***, fanni ilg‘or, zamonaviy, innovatsion tendensiyalar orqali shakllanishi va rivojlanishi;
- ***ikkinchidan***, fannini innovatsion iqtisodiyotgio‘rmini tobora oshib borshi ;
- ***uchinchidan***, fanni shakllantirishda innovatsion iqtisodiy nazariyalar, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan korporativ innovatsion tizimlar;
- ***to‘rtinchidan***, bilimlarga tayangan iqtisodiyotda innovatsion strategiyalarni yaratishning nazariy asoslari to‘g‘risida talabalarda tushuncha hosil qilish;
- ***beshinchidan***, milliy innovatsion tizimlarning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish;
- ***oltinchidan***, Ta’lim sohasidagi siyosatga tayangan holda innovatsion biznesni loyihalashtirish, innovatsion loyiha va dasturlarning iqtisodiy tahlilini amalga oshirish;
- ***ettinchidan***, Ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni tashkiliy shakllari va uni moliyalashtirish tizimi to‘g‘risida yaxlit tasavvurni shakllantirish;
- ***sakkizinchidan***, Kadrlar saloxiyati va ularning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlanmalar va innovatsion qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda bilimlar iqtisodiyotining o‘rni va roli oshirishdan iborat;

KIRISH

Mamlakatda xavfsizlikni ta'minlashda muhofazani boshqarish masalasi alohida o'ringa ega bo'lib, uning holati turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qarorlarni qabul qilishda muhim o'rinni tutadi. Ma'lumki, muhofazani boshqarish har bir davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Xavfsizlikni ta'minlashning dolzarbligi uning milliy va mintaqaviy xavfsizligi, barqarorlikni ta'minlash masalalari, jahon hamjamiyatining zamonaviy shuroitlarida asosiy tahdid va xavfsizlik tizimidagi har qanday o'zgarishlar turli xavf-xatar va tahdidlarning namoyon bo'lishi bilan birga kechadi. Shuning uchun muhofazani boshqarish, unda bo'ladigan zamonaviy xavf-xatarlar va tahdidlarni oldini olish masalasi yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" dagi PF-60-sonli Farmoniga muvofiq tasdiqlangan dasturda "jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning furovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirdorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zniz tu'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarni davom ettirish" kabi vazifalar belgilangan. Shundan kelib chiqib qayd etish lozimki, mamlakatimizda zamonaviy xavfsizlikni ta'minlashning ilmiy va amaliy asoslarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, mazkur darslikda zamonaviy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional yo'nalishlari bo'yicha maqsad va vazifalar bayon etilgan¹.

Shundan kelib chiqib qayd etish lozimki, mamlakatimizda zamonaviy xavf-xaturlarni boshqarishning ilmiy va amaliy asoslarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, mazkur o'quv qo'llanmada zamonaviy xavflarni boshqarishning institutsional yo'nalishlari bo'yicha maqsad va vazifalar bayon etilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" dagi 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

Muhofazani boshqarish fanining maqsadi aholi muhofazasini ta'minlash bo'yicha bilimlarni berishga, xavfsizlikni ta'minlovchi organlar haqida umumiy tushunchaga, xavf-xatarlar turlari va uni oldini olish hamda to'g'ri tadbiq etish va ta'sir darajasini kamaytirish yo'nalishlarini o'qitishga qaratilgan. Fanning tarkibini muhofazani boshqarishga ta'sir etadigan ichki va tashqi omillarni, xatarni kamaytirish yo'llarini aniqlab, boshqaruv faoliyatini to'g'ri olib borishni o'rgatish, umuman olganda zamonaviy muhofazani boshqarish faoliyatni o'rganish kabi jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Muhofazani boshqarish fanining vazifasi – talabalarda innovatsion rivojlanish sharoitida muhofazani boshqarishni tashkil etish, amalga oshirish va ularning samaradorligini baholash bo'yicha bilim va ko'nikmalarни shakllantirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

- "muhofazani boshqarish" fanining maqsad va vazifalarini; fanning predmeti va obyektini; iqtisodiy xatar ko'rsatkichlarini;
- muhofazani boshqarishga ta'sir etadigan ichki va tashqi omillarni;
- xatarni kamaytirish yo'llarini aniqlab, boshqaruv faoliyatini to'g'ri olib borishni o'rgatishdan iborat;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish yo'llarini;
- bozor iqtisodiyotiga o'tishning umumiy strategiyasining nazariy va uslubiy asoslarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- muhofazani boshqarishning umumiy tamoyillari va usullari;
- respublika iqtisodiyoti taraqqiyotining xarakterli xususiyatlari;
- mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va ularni xal etish mexanizmlari;
- muhofazani boshqarish mezonlari yo'llari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- muhofazani samarali boshqarishning xorijiy tajribasini qo'llay olishi;
- korxona faoliyatini rivojlantirishda ichki va tashqi xatarlarni tahlilini amalga oshirishni;

- muhofazani boshqarish ko'rsatkichlari va ularni aniqlash hamda baholash usullarini;
- aholining turmush darajasiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy jurnyonlarni bashorat qilish va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Shuningdek, "Muhofazani boshqarish" fan kursi maxsus mutaxassislik fanlardan biri bo'lib, boshqa mutaxassislik kurslarini chuqur o'rganishda ~~usos~~ bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun va mohiyatini hamda uni qo'llashda xulqaro konvensiya va normativ hujjalariiga, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlariga, farmon va qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asoslanadi.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi talablari va Oliy va o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvoqqiqlashtiruvchi kengashning qarori bilan tasdiqlangan hamda kredit modul tizimi asosida ta'lim olayotgan 5232400 - "Iqtisodiy xavfsizlik" ta'lim yo'nalishida "Muhofazani boshqarish" fanining o'quv fan dasturi ~~usos~~ yozilgan bo'lib, ushbu o'quv qo'llanmada o'qitishning yangi ta'lim texnologiyasidan foydanilgan holda har bir mavzu bo'yicha maqsadi, mazmun, mohiyati va ahamiyati yoritilgan hamda mavzu bo'yicha nazorat va muhokuma uchun savollar, tayanch iboralar, glossariylar va foydalanimadigan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

"Muhofazani boshqarish" fanining o'quv qo'llanmasi asosan oliy o'quv yurtlarining 60310400 - Iqtisodiy xavfsizlik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljalangan. Bundan tashqari, muhofazani boshqarish muammolari bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, talabalar, tadqiqotchilar, ilmiy izlaniuvchilar hamda muhofazani ta'minlovchi soha xodimlari ham foydalanishlari mumkin. Ushbu o'quv qo'llanma muhofazani boshqarish bilan bog'liq muammolari, musalalar va ularni yechish uchun imkoniyatlарини kengaytirishga yordam beradi degan fikrdamiz.

I BOB. “MUHOFAZANI BOSHQARISH” FANINING ASOSIY MAZMUNI VA IJTIMOIY AHAMIYATI

1.1. “Muhofazani boshqarish”fanining predmeti va vazifalari

“Muhofazani boshqarish” fani sodir bo‘ladigan turli shakldagi xavflarni bartaraf etish va ulardan himoyalanish yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan nazariy fandir. U keng qamrovli ilmiy-amaliy izlanishlar va tadqiqotlar asosida rivojlanib, takomillashib boradi.

Muhofazani boshqarishni ta’minlashda ilmiy-nazariy izlanishlar asosida vujudga kelgan qonunlar, nizomlar, standartlar, ko‘rsatmalar, qoidalar va sanitар-texnik me’yorlar, samarali boshqaruв qarorlari hamda ularni o‘rganish bo‘yicha uzlucksiz ta’lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish, uni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi.

Muhofazani boshqarish fanining asosiy maqsadi talabalarga korxona va tashkilotlarda boshqaruв jarayonini samarali tashkil etish va bu asosda ishlab chiqarishni jadallashtirish borasida ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishda muhofaza haqida umumiy tushunchaga, muhofaza turlari va uning oldini olish hamda to‘g‘ri tatbiq etish va ta’sir darajasini kamaytirish yo‘nalishlarini bilishlarini ta’minlash bo‘yicha nazariy bilim berish va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Muhofazani boshqarish fanining vazifasi – talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida muhofazani boshqarishni tashkil etish, amalga oshirish va ularning samaradorligini baholash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Ushbu fanni o‘rganishlari davomida talabalar bilim, ko‘nikma va malaka masalalarida quyidagilarga ega bo‘lishadi:

- “Muhofazani boshqarish” fanining maqsad va vazifalarini;
- fanning predmeti va obyektini;

- iqtisodiy xatar ko'rsatkichlarini;
- muhofazani boshqarishga ta'sir etadigan ichki va tashqi omillarni;
- xatarni kamaytirish yo'llarini aniqlab, boshqaruv faoliyatini to'g'ri olib borishni o'rgatishdan iborat;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish yo'llarini;
- bozor iqtisodiyotiga o'tishning umumiy strategiyasining nazariy va uslubiy asoslarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- muhofazani boshqarishning umumiy tamoyillari va usullari;
- respublika iqtisodiyoti taraqqiyotining xarakterli xususiyatlari;
- mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari;
- muhofazani boshqarish mezonlari yo'llari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- muhofazani samarali boshqarishning xorij tajribasini qo'llay olishi;
- korxona faoliyatini rivojlantirishda ichki va tashqi xatarlarning tahlilini amalga oshirishni;
- muhofazani boshqarish ko'rsatkichlari va ularni aniqlash hamda baholash usullarini;
- aholining turmush darajasiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilish va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

1.2. "Muhofazani boshqarish" fanining iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'rni

"Muhofazani boshqarish" fani ko'p jihatdan: fiziologik, psixologik, ijtimoiy, ergonomik, ekologik, tibbiy, texnik, tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy fanlarni umumlashtiradi. Umuman olganda, muhofazani boshqarish uchta mustaqil tizimda amal qiladi (1-rasm).

Muhofazani boshqarish tizimi

Aholi va hududning
xavfsizligini
boshqarish

Atrof muhit
muhofazasini
boshqarish

Mehnat
muhofazasini
boshqarish

1-rasm. Muhofazani boshqarish tizimi

Insonning hayot faoliyati davomida xavfsizligini ta'minlash birinchi navbatda uning muhofaza faoliyati jarayonini va uni amalga oshirishda yuzaga keladigan xavfli faktorlarni o'rganishni talab etadi. Shu sababli, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tadqiqot ishlari eramizdan oldingi 384-322-yillarda ijod qilgan Aristotel, eramizdan oldingi 460-377-yillarda yashagan Gippokrat asarlarida ham uchraydi.

Xavfsizlikni ta'minlash qadimgi davrdan hozirgi kungacha inson faoliyatining muhim tomonlaridan biri hisoblanib kelindi. Shu sababli "Muhofazani boshqarish" mustaqil fan sifatida shakllandi va o'z nazariyasiga, uslubiga hamda tamoyillariga ega bo'ldi. Shu bilan bir qatorda "Muhofazani boshqarish" fani iqtisodiy xavfsizlik, xavfsizlik va texnologiya, risklarni boshqarish, mehnat muhofazasi, favqulodda holatlarga qarshi kurash, inson faoliyati xavfsizligi, menejment, ergonometrika kabi fanlar bilan chambarchas bog'liqlikga asoslanadi. Ushbu fanlar bir-biridan tadqiqot qilinadigan yoki o'rganiladigan obyektlarining turi bilan farq qiladi. Lekin, real holatda barcha turdag'i bog'lanishlar bir vaqtda yuzaga keladi va shu sababli muhofaza bir necha omillar bilan bog'lanadi, o'za ro'ya ta'sirda bo'ladi. Shu sababli, inson faoliyatida umumlashgan xavfli va zararli faktorlarning namoyon bo'lishi va uni bartaraf etish orqali muhofaza qilinishini alohida mustaqil fan – "Muhofazani boshqarish" fani o'rganadi.

1.3. Muhofaza kategoriyasining iqtisodiy mohiyati va mazmuni. “Xatar”, “tasodif”, “tavakkalchilik” tushunchalarining talqini

“Muhofaza” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, turli ma’nolarda talqin etiladi. Shunga qaramasdan ularda umumiy g‘oya ham mavjud bo‘lib, bunga ko‘ra muhofaza insoniyat hayotining turli sohalarida vujudga keladigan xavf-xatardan himoyalanish, kafolatlanish ma’nosini anglatadi. Xatar esa davlat va jamiyat rivojlanishiga, normal amal qilishiga tahdid soluvchi potensial yoki real kuch, omil hisoblanadi. Xatar namoyon bo‘lishining keskin shakllariga tabiiy, ijtimoiy kataklizmalar, portlashlar va larzalar, krizislар, tangliklar, revolyutsiya, qo‘zg‘olon, isyon, urush, qurolli to‘qnashuvlar kiradi.

Muhofazani boshqarish asosida rivojlanish va rivojlanish barqarorligini ta’minlovchi muhitga o‘xshash muhitni tashkil etuvchilar yotadi. Rivojlanishsiz iqtisodiy taraqqiyot bo‘lishi mumkin emas. Barqarorlik – bu, jamiyatning favqulodda holatlarda hamda o‘z manfaatlarini qondirish qobiliyati, vaziyatni tiklash imkoniyatidir.

Muhofaza qanday sohada, qanday shakl va qiyofada namoyon bo‘lmisin ularning barchasi umumiylig xususiyatiga egadir. Umuman, muhofaza xatardan himoyalanish sharti va strategiyasi sifatida ijtimoiy tizim, shaxs, jamiyat va davlat faoliyatining normal amal qilishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

“Muhofaza” tushunchasiga ko‘plab olimlar o‘zlarining qarashlarini berishgan. Ularni umumlashtirgan holda oladigan bo‘lsak, muhofaza – bu, davlatning iqtisodiy tizimiga ta’sir qiluvchi va uning eng kam sarflar bilan barqaror rivojlanishi, shu asosida jamiyatning potensial imkoniyatlarini har tomonlama amalga oshirish uchun, milliy manfaatlar eng ko‘p ifodalananishiga imkon beruvchi shart va omillar yig‘indisi, shuningdek, davlatning turli xil xatarlar va yo‘qotishlarga qarshi turish qobiliyatidir.

Mavjud adabiyotlarda tavakkalchilikning xislat, xususiyat va elementlari obyektiv va subyektiv jihatlari o‘zaro munosabatlari, uning mazmunini anglash turlicha tavsiflangan.

Tavakkalchilikning mohiyati to‘g‘risidagi xilma-xil fikrlar, ko‘p hollarda bu hodisaning serqirraligi amalda mavjud xo‘jalik faoliyati qonuniyatlarida uni to‘liq tan olinmasligi, real iqtisodiy amaliyotida va boshqaruv faoliyatida yetarlicha qo‘llanilmasligi bilan sharhanadi.

Undan tashqari tavakkalchilik bu – bir-biriga mos kelmaydigan, ba’zida hatto qarama-qarshi real holatlar yig‘indisidan iborat murakkab jarayondir. “Tavakkalchilik” termini grekcha ridsikon, ridsa, so‘zlarida tik qoya, qoyatosh mazmunini anglatsa, italyancha “risiko” so‘zida xavfli, xavf-xatar, risicare so‘zida qoyalarga chap bermoq mazmunini anglatadi.

Fransuzcha “risdoe” – tahlika, xavf-xatar, qo‘rqinch (tik qoyadan aylanib o‘tishda go‘yoki tavakkal qilish) mazmunini anglatadi.

Vebster lug‘atida “risk” – zarar yoki ziyon ko‘rish imkoniyati, xavf-xatari deyilsa, Ojegova lug‘atida “risk” so‘ziga “xavf-xatar holati imkoniyati” yoki “muvaffaqiyatli harakat” deb ta‘rif beriladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, maxsus lug‘atlarda (falsafa, harbiy, iqtisodiy va h.z) – “risk” tushunchasi umuman uchramaydi. U hatto katta sovet ensiklopediyasi va Sovet ensiklopedik lug‘atning oxirgi nashrlarida, besh tomli falsafiy ensiklopediya va falsafiy ensiklopedik lug‘atida, hamda “Ilmiy-texnik taraqqiyot” lug‘ati va boshqalarda ham uchramaydi. Tahlillar adabiyotlarda “risk” to‘g‘risidagi tushunchaga omadsizlik yoki xavf-xatarga (xavf-xatar holati) imkoniyat degan ta‘rif keng tarqaganini ko‘rsatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ham shu hol ko‘rinadi.

“Tavakkalchilik”ning ta‘rifini to‘liq belgilash uchun, oldin “tavakkalchilik vaziyati” tushunchasiga ta‘rif berishimiz kerak, chunki u bevosita “tavakkalchilik” - termini mazmuni bilan uzviy bog‘liq.

Tavakkalchilik terminiga ekvivalent o‘zbek tilida “qaltislik” va “risk”ni o‘zini ishlatish kerak degan fikrlar bor. “Vaziyat” tushunchasi u

yoki bu faoliyat uchun imkoniyat yaratuvchi turli holat va shart-sharoitlar jamlanmasining birikuvi deb ta’rif berish mumkin. Bunday holda vaziyat mazkur faoliyatini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratish yoki unga to’sqinlik qilishi mumkin.

Har xil vaziyat turlari ichida, tavakkalchilik vaziyati alohida o‘rin tutadi. Aksariyat iqtisodiy jarayonlarni amal qilish va rivojlanishi noaniqlik ya’ni mavhumlik elementlarga tayanadi. Bu esa bir xil yechimi bo‘lмаган vaziyatlarning yuzaga kelishiga asos bo‘ladi.

Agar u yoki bu vaziyatni ehtimoliyati darajasini miqdor va sifat jihatdan aniqlash imkoniyati mayjud bo‘lsa u tavakkalchilik vaziyati bo‘ladi. Bu yerda tavakkalchilik vaziyati statistik jarayonlarga bog‘liq bo‘lib, unga mayjud bo‘lgan uchta shart hamrohlik qiladi: degan xulosa kelib chiqadi.Ularga:

- noaniqlikning (mavhumlikning) mavjudligi;
- muqobil (alternativ) tanloving zarurligi (bu holda, shuni ham nazarda tutish kerakki, tanlovdan voz kechish bo‘yicha tanlash ham tanlov xilma-xilligiga doir bo‘ladi);
- tanlangan muqobil variantni amalga oshirish ehtimoliyatini baholash imkonи borligi kiradi.

Shuni qayd etish lozimki, tavakkalchilik vaziyati sifat jihatdan noaniqlik (mavhumlik) vaziyatidan keskin farq qiladi.

Noaniqlik vaziyati amalda o‘rnatish imkonи bo‘lмаган hodisa va qarorlar natijalarining hosil bo‘lish ehtimoliyatidir.

Shunday qilib, tavakkalchilik vaziyatining aniqlanishi mumkin bo‘lgan va amalga oshuvchi hodisalar ehtimoliyatidagi noaniqliklar xilma-xilligi deb ta’rif berish mumkin.

Ya’ni bu holda taxminan sheriklarning ishlab chiqarishdagi hamkorligidagi faoliyati, raqiblarning qarshi harakati, iqtisodiyot taraqqiyotiga tabiiy muhitning ta’siri, ishlab chiqarishga ilmiy texnik yutuqlarni joriy etish natijasida paydo bo‘luvchi hodisalar ehtimolini obyektiv bigholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Tavakkalchilikni bir necha turlarga bo‘lish mumkin:

- ixtiyoridagi bir nechta muqobililikdan tanlovchi subyekt, bashorat qilinayotgan natijalarни olish uchun obyektiv ehtimoliyatiga (statistik tadqiqlar natijalariga asoslanuvchi) ega bo‘ladi;
- kutilayotgan natijalarни ro‘y berish ehtimoli faqatgina subyektiv baholash orqali olinadi, ya’ni subyektiv ehtimollik bilan ish ko‘radi;
- alternativlarni amalga oshirish va tanlash jarayonida obyektiv va tanlash jarayonida obyektiv va subyektiv ehtimollik ega bo‘ladi;
- kutilayotgan natijalarning ro‘y berish ehtimoli faqatgina subyektiv baholash orqali olinadi, ya’ni subyekt, subyektiv ehtimollik bilan ish ko‘radi;
- alternativlarni amalga oshirish va tanlash jarayonida obyektiv va subyektiv ehtimolliklarga ega.

Tavakkalchilik – faoliyatining xilma-xilligini ifodalar ekan, bir tomondan tanlov muqarrarlik vaziyatida va noaniqlik sharoitidaligi murakkab uslublar bilan umumahamiyatga moyil natijalarни olishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda u konservativizm, dogmatizm, qoloqlik kabi jamiyat taraqqiyotiga ruhiy to‘sqliarni bartaraf etadi. Tug‘anoq bo‘luvchi ruhiy to‘sqliarni bartaraf etadi va yangi istiqbolli faoliyat turlarini joriy etishga qarshilik jamiyat taraqqiyotiga xavf qiluvchilarga qarshi muvafaqqiyatni ta’minlashga yo‘naltirilgan yangi istiqbolli faoliyat turlarini joriy etishga tashabbuskor ijtimoiy eksperimentlarni yangi g‘oyalarni amalga oshirishni ta’minlaydi.

Tavakkalchilikning bu xususiyati muhim iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy ruhiy oqibatga sabab bo‘ladi chunki u jamiyat va texnika taraqqiyotini ta’minlaydi, jamoatchilikning fikrlash doirasiga ijobjiy ta’sir etadi. Ikkinchisi tomondan, tavakkalchilik avaityurizm, valyuntarizm, subyektivizmga, ijtimoiy taraqqiyotni tormozlashga olib keladi.

Tavakkalchilikning qarama-qarshi tabiatи mavjud tavakkal harakatlarning to‘qnashuvida namoyon bo‘ladi. Masalan, u yoki bu harakatni amalga oshirish uchun maqbul yo‘lni tanlagan kishi o‘zini tavakkal ish qilgan deb hisoblasa, boshqa odamlar tomonidan u

ehtiyotkorlik, har qanday tavakkalchilikdan xolis yoki aksincha deb baholash mumkin.

Asosiy tayanch tushunchalar

Muhofazani samarali boshqarish, respublika iqtisodiyoti, muhofazani boshqarish ko‘rsatkichlari, aholining turmush darajasi, aholi va hududning xavfsizligi, muhofaza kategoriyasi, tavakkalchilikning mohiyati.

Takrorlash uchun savollar

1. “Muhofazani boshqarish” fanining mohiyati nimadan iborat?
2. Muhofazani boshqarishni ta’minlashda nimalar muhim o‘rintutadi?
3. “Muhofazani boshqarish” fanining asosiy vazifasi va maqsadi deganda nimani tushunasiz?
4. “Muhofazani boshqarish” fanining iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o‘rni qanday?
5. “Muhofazani boshqarish” fani nima uchun o‘rganiladi?
6. “Muhofazani boshqarish” tushunchasiga ta’rif bering?
7. Muhofaza kategoriyasining iqtisodiy mohiyati va mazmuni deganda nimani tushunasiz?
8. “Muhofazani boshqarish” fanining predmeti va obyekti nimadan iborat?
9. Muhofaza va tavakkalchilik tushunchalariga izoh bering?
10. Muhofazani boshqarish omillari to‘g‘risida gapirib bering?

II BOB. MAHALLIY BOSHQARUVDAGI JAMOAT XAVFSIZLIGI

2.1. Mahalliy boshqaruv organlari faoliyati vazifalari

Mahalliy boshqaruv organlari respublika hududidagi viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari mahalliy davlat hokimiyatining vakillik boshqaruv organlaridir. Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliv mansabdon shaxsi hisoblanadi va tegishli hududdagi mahalliy boshqaruv organi faoliyatini boshqaradi. Viloyat, Toshkent shahar hokimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir.

Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilarga asoslanadi: qonuniylik, ijtimoiy adolat, demokratizm, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, hududlarni barqaror rivojlantirish, ochiqlik va faoliyatning shaffofligi, davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik.

Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy vazifalari:

- viloyat, tuman va shahar uchun umumiyligini bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish vazifalarini amalga oshirish;
- aholining hayoti darajasi va sifatining muntazam ravishda o‘sishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- hududning sanoat salohiyatini rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, fermerlik harakatini rivojlantirish, dehqon xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tarkibiy o‘zgartirishlarni ta’minlash;
- tadbirkorlikni rivojlantirish hududiy dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish;

- tegishli hududda davlat ekologik nazoratini amalga oshirish, tabiiy resurslarning holatini baholash, ekologik zararli obyektlar hisobini yuritish, chiqindilar bilan bog'liq obyektlarni joylashtirish masalalarini hal qilish;
- aholi bandligi sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilash, shuningdek byudjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish;
- mahalliy kommunal xo'jaligiga rahbarlik qilish;
- hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqboli va aholini joylashtirish tizimidan kelib chiqib, shaharlar va shahar aholi punktlarini qurish va rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi hududiy dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirot etuvchi organlar va muassasalarning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi hududiy dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tadbirlarning mahalliy byudjetdan moliyalashtirilishini ta'minlash;
- turizmni rivojlantirishning hududiy dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish;
- ijtimoiy xizmatlarga muhtoj shaxslarni aniqlash va ularning hisobini yuritish, ijtimoiy xizmatlar sohasidagi davlat boshqaruvining hududiy organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- dori vositalari va farmatsevtika faoliyati sohasidagi hududiy dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish;

– vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarning, shuningdek vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

– terrorizmga qarshi kurashishni, odam savdosiga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi hamda soliq va bojxona qonunchiligiga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlariga zarur yordam ko‘rsatish;

– qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash;

– davlat strategik va zaxira rezervlarini shakllantirishni, ularni to‘plash, saqlash va yangilashni inobatga olgan holda ta’minlash bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

– aholi punktlari va boshqa hududlar uchun yong‘in xavfsizligi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– davlat chegaralarini qo‘riqlash, fuqarolarning harbiy tayyorgarligini tashkil etish va rahbarlik qilish, umumiy harbiy majburiyatni bajarish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni moliyaviy hamda moddiy jihatdan ta’minlash;

Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatiga rahbarlik, nazorat va muvofiqlashtiradigan davlat vakilining (viloyat, tuman va shahar hokimi) asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– qonunlarning, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qaror va farmoyishlarining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlarining, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining ijrosini tashkil etadi;

– qonuniylikni, huquq-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va salomatligini muhofaza etish bilan bog‘liq chora-tadbirlar ko‘radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarda tegishli ishlarni tashkil etadi;

- viloyat, tuman, shaharni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi hududlarni barqaror rivojlantirish strategiyasini, boshqa kompleks dasturlarni, viloyat va Toshkent shahar mahalliy byudjetining, tuman va shahar byudjetining tegishli loyihasini, shuningdek uning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni xalq deputatlari Kengashiga ko‘rib chiqish va tasdiqlatish uchun taqdim etadi;
- tasdiqlangan mahalliy byudjet parametrlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida tegishli xalq deputatlari Kengashiga, zarurat bo‘lganda, taklif kiritadi;
- ma’muriy-hududiy tuzilish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va tegishli xalq deputatlari Kengashiga iltimosnomasi kiritadi;
- munisipal mulkni boshqaradi, uni himoya qilish choralarini amalga oshiradi;
- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq yer va suv munosabatlarini tartibga solishni amalga oshiradi;
- agrar sektorning oqilonaga va samarali ishlashini ta’minlaydi, viloyat, tuman va shahar hududida tadbirdorlik faoliyati va investitsiya muhitini rivojlanishi uchun sharoitlar yaratadi;
- tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga doir ruxsatnomalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartib va shartlarda beradi;
- hududlarni qurishning bosh rejalarini ishlab chiqishni tashkillashtiradi, uni xalq deputatlari Kengashiga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;
- mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan va munisipal mulkdagi, ijtimoiy-madaniy maqsadlarga mo‘ljallangan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash bo‘yicha buyurtmachi bo‘ladi;
- kommunal tarmoqlar va inshootlarni qurishga ruxsat beradi;
- ma’muriy hududning tumanlar bo‘yicha rejalshtirish sxemasini ishlab chiqadi va uni xalq deputatlari Kengashiga tasdiqlatish uchun kiritadi;

- o‘z vakolat doirasida sog‘liqni saqlash sohasida tadbirlar o‘tkazilishini, belgilangan davlat standartlariga rioya qilgan holda fuqaroning kafolatlangan hamdagi bepul tibbiy yordam olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirilishini ta‘minlaydi, davlat mulki shaklidagi sog‘liqni saqlash tashkilotlarini kadrlar bilan ta‘minlash bo‘yicha nazoratni amalga oshiradi;
 - fuqaroning bepul va sifatli umumiy ta’lim olishga bo‘lgan huquqining amalga oshirilishini ta‘minlaydi;
 - aholi bandligiga ko‘maklashish va kam ta‘minlangan oilalarining qismini kamaytirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqadi va xalq deputatlari Kengashiga tasdiqlatish uchun kiritadi, ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;
 - tarixiy-madaniy meros obyektlarini qo‘riqlash va foydalanish bo‘yicha ishlarni tashkillashtiradi;
 - aholining tarixiy, milliy va madaniy urf-odat va udumlarining rivojlanishiga ko‘maklashadi;
 - jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga ko‘maklashadi;
 - aholining kam ta‘minlangan qatlamlariga ijtimoiy yordam berish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi va qonun hujjatlariga muvofiq ayrim toifadagi fuqarolarni uy-joy bilan ta‘minlaydi;
 - tegishli xalq deputatlari Kengashiga o‘zininig faoliyati bo‘yicha, shuningdek viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobot taqdim etadi;
 - o‘z o‘rinbosarlari va davlat boshqaruvi organlari tarkibiy bo‘linmalarining rahbarlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod etadi;
 - hokim devoni bo‘linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;
 - o‘zi qabul qilgan, shuningdek quyi turuvchi hokimning qarorini bekor qiladi yoxud to‘liq yoki qisman to‘xtatib qo‘yadi va xalq deputatlari Kengashiga quyi turuvchi xalq deputatlari Kengashining hujjatini bekor qilish to‘g‘risida taqdimnomaga kiritadi, basharti ular

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonuniga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qaroriga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qaror va farmoyishiga, Vazirlar Mahkamasi qaroriga, shuningdek yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashi va hokimning qaroriga zid bo'lsa;

- qonun hujjatlariga muvofiq davlat boshqaruvi organlarining tarkibiy bo'linmalarining ishini muvofiqlashtiradi;
- hokim hujjatlarining ijrosini nazorat qilishni amalga oshiradi va ularni bajarmaganligi yuzasidan mansabdor shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish haqida qonunda belgilangan tartibda taqdimnomalarini kiritadi;
- davlat mukofotlari bilan taqdirlashga doir iltimosnomalarni ko'rib chiqadi va takliflar kiritadi;
- respublika va xorijda viloyat, tuman hamda shaharning rasmiy vakili sifatida ish ko'radi;
- qonun hujjatlarida belgilanadigan alohida soliqlar bo'yicha belgilangan stavkalarga hududlarning hamda faoliyatni amalga oshirish joyining xususiyatlarini inobatga olgan holda pasaytiruvchi va oshib boruvchi koeffitsientlarni kiritadi;
- aholini qabul qilishni tashkil etadi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi.
- hududni rivojlantirish, rejalahtirish, byudjet, moliya, hisob-kitob, viloyat, tuman, shahar mulkini boshqarish sohasida qonun hujjatlari bilan uning vakolatiga berilgan boshqa masalalarni ham hal etadi.
- Viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda unga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlat boshqaruvi organlari tarkibiy bo'linmalariga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi.

2.2. Mahalliy boshqaruvdagi jamoat xavfsizligiga tahdidlar

O'zbekistonda mamlakatning dunyo hamjamiatida munosib o'rinni egallashi, xalqimizga munosib turmush tarzini yaratib berish, inson

huquqlari va erkinliklarini samarali ta'minlash maqsadida, jamiyatning barcha sohalarida tizimli va izchil islohotlar amalga oshirib borilmoida. 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi asosida olib borilayotgan ushbu islohotlarning ikkinchi muhim yo'nalishi qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasini qamrab olgan bo'lib, undagi dolzarb vazifalardan biri jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillash-tirishga qaratilgan.

Aytish joizki, so'nggi yillarda respublikada jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi bir qator qonun hujjatlari, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi, "Milliy gvardiya to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga doir qator farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilinishi ushbu islohotlarning huquqiy ustqurmasini yaratib berdi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasida turli tushunchalar mavjud: jumladan, jamoat xavfsizligi bu jamoat xavfsizligi obyektlarinjing yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va ularga zarar keltiradigan xavf va tahdidlardan himoyalanganligi holati.

Jamoat xavfsizligi obyekti – jamoat joylarida fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, shaxsning xavfsizligi hamda mulkni himoya qilinishini ta'minlash. Jamoat xavfsizligini ta'minlash-davlat tomonidan belgilanadigan, jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan siyosiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot, huquqiy va boshqa chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish. Jamoat tartibi – axloq, ma'naviyat, urf-odat va an'analar normalariga asoslangan jamoat hayotining ma'lum bir tartibini belgilaydigan, fuqarolarning jamoat joylarida birga bo'lganda yurish-turish huquqiy norma va xulq-atvor qoidalari majmui. Jamoat joyi – to'siqlarsiz kirish (bo'lish) uchun ruxsat etilgan yoki fuqarolarning turli ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan

joylarning uchastkasi, binolar, inshootlar va ularning qismlari, shuningdek transport kommunikatsiyalari.

Doimiy tusdagi jamoat joylari – fuqarolar doimiy bo‘ladigan yoki doimiy bo‘lishi imkoniyati bilan tasniflanuvchi, ish vaqtı rejimi bilan belgilanmagan va fuqarolarning doimiy yashash obyektlari mavjud bo‘lgan jamoat joylari. Doimiy tusdagи jamoat joylariga transport magistrallari, ko‘chalar, turar mavzeler, mahallalar, dahalar, kichik tumanlarning hududlari, aeroportlar, temir yo‘l va avtomobil vokzallarining binolari hamda shu kabilar kiradi.

Vaqtinchalik tusdagи jamoat joylari – fuqarolar vaqtinchalik bo‘ladigan yoki vaqtinchalik bo‘lishi imkoniyati bilan tasniflanuvchi, ish vaqtı rejimi bilan belgilangan va fuqarolarning doimiy yashash obyektlari mavjud bo‘lmagan jamoat joylari. Vaqtinchalik tusdagи jamoat joylariga xiyobonlar, maydonlar, madaniyat va istirohat bog‘lari, savdo, ko‘ngilochar majmualari va markazlari, gipermarketlar, supermarketlar, bozorlar hamda boshqa fuqarolar ommaviy gavjum joylari kiradi va h.k..

Bir martalik tusdagи jamoat joylari – ommaviy jamoat tadbirdari o‘tkaziladigan obyektlar va ommaviy jamoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa (tantanali tadbirdar va diniy marosimlar) tadbirdar o‘tkazish vaqtiga mo‘ljallangan obyektlar va alohida hududlarning obyektlari.

Jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimi – jamoat xavfsizligini ta‘minlashga bevosita mas‘ul bo‘lgan va o‘z vakolatlari doirasida jamoat xavfsizligini ta‘minlovchi subyektlar, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, tashkilotlar va boshqa fuqarolar orasidagi o‘zaro hamkorligi;

Jamoat xavfsizligini ta‘minlash subyektlari – jamoat xavfsizligini bevosita ta‘minlovchi davlat organlari va muassasalar, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa organlar va tashkilotlar hamda jamoat xavfsizligini ta‘minlashda ishtirok etuvchi fuqarolar.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash vositalari – axborotlarni to'plash, shakllantirish, qayta ishlash, uzatish yoki qabul qilish uchun foydalani-ladigan texnologiyalar, texnikalar, transport, maxsus, dasturiy vositalar, jumladan, telekommunikatsiya kanallari va avtomatlashtirilgan jarayon-larni boshqarish tizimlari, shuningdek jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar.

Jamoat xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi tahdidlarga quyidalarni tavsiflash mumkin:

- turli shakldagi jinoyatchilikning ko'payishi;
- huquqni muhofaza qilish organlarining xizmat samaradorligining pastligi;
 - jamoatchilikning davlat organlariga bo'lgan ishonchning pasayishi;
 - jamoat tartibini ommaviy va guruhli ravishda buzish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan harakatlar;
 - odatdag'i xatti-harakatlarning buzilishi;
 - axloqiy me'yorlar va nazorat darajasining pasayishi va h.k.

Jamoat xavfsizligiga tahidilar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida turli toifasi bo'yicha guruhlarga bo'lingan. Jumladan, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga:

- jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar;
- transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar;
- giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar;
- jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar;
- axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar;
- jinoi uyushma tashkil etish;
- jinoi daromadlarni legallashtirish;
- ommaviy tartibsizliklar;
- jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish;

- diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish;
- diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish;
- shaxsni garov sifatida tutqinlikka olish;
- kontrabanda;
- o‘qotar quroq, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallah;
- o‘qotar quroq yoki o‘q-dorilarni beparvolik bilan saqlash;
- portlash xavfi bo‘lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzish;
- pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi;
- kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallah;
- radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallah;
- radioaktiv materiallardan foydalanish qoidalarini buzish;
- yadro qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish;
- bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg‘in qurollari turlarini ishlab chiqarish, to‘plash, olish, birovga o‘tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egallah va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish;
- neft quvurlari, gaz quvurlarini, neft va gaz quvurlarini yaroqsiz holatga keltirish;
- tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish;
- mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish;
- sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish;
- tog‘-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish;
- yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzish;
- bezorilik, qimor va boshqa xavfli o‘yinlarni tashkil qilish va o‘tkazish;

- fuqarolarning jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishi;
- jamoat joylarida alkogol mahsulotlarini iste'mol qilish;
- qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar;
- voyaga yetmagan shaxsning (dam olish) joylarida tungi vaqtida bo'lishiga yo'l qo'yish;
- tilanchilik;
- o'q otar qurollardan belgilangan tartibni buzgan holda otish;
- maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzish;
- diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish;
- fohishalik bilan shug'ullanish;
- milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish;
- zo'ravonlik yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish;
- pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi;
- etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalлага kiritish;
- voyaga etmagan shaxsni g'ayri ijtimoiy harakatlarga ja'b qilish.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi tahdidlarni oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun turli vosita va usullardan foydalanish asosida ta'minlash mumkin.

2.3. Mahalliy boshqaruvdagagi jamoat xavfsizligini ta'minlash usullari

Respublika hududlarida jamoat xavfsizligini ta'minlash usullari jamoat munosabatlari tizimi va huquqiy normalar sifatida jamoat xavfsizligini saqlash bo'yicha qonun bilan mustahkamlangan choratadbirlar fuqarolarga ularning huquq va erkinliklarini mahallalarda va turar-joylarda xavfsiz va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash,

fuqarolarning normal ishlashi, shuningdek, ularning tinchligini ta'minlashga qaratilgandir.

Ayni paytda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashga oid eng muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlarga tizimli yondashmasdan ushbu institutning ayrim elementlarini ochib beradi. Ularning asosiyлари Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, "Ichki ishlar organlari to'g'risida", "Milliy gvardiya to'g'risida", "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida", "Jamoat joylarida chekish va elektron sigaretalarni cheklash to'g'risida", "Alkogol va tamaki mahsulotlarini tarqatish va iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi qonunlardir.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashning kompleks chora-tadbirlar usullariga quyidagilarni tasniflash mumkin:

Jamoat joylari, ko'chalarda va yo'llarda harakatlanish, shaxsiy va jamoat transportidan foydalanish, jamoat tadbirlarida ishtirot etish. Shu bilan birga, ular, shuningdek muomalasi cheklangan buyumlar (moddalar) bilan bog'liq bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning munosabatlariiga qaratilgan davlat organlarining vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq davlat xizmatlarini taqdim etish vakolatini ham o'z ichiga oladi (arizalarни ko'rib chiqish).

Fuqarolarning ommaviy turadigan joylarida xavfsizlikni ta'minlash, transport vositalarini kuzatib borish, ruxsat berish va muddatlarini uzaytirish, ruxsatnomalarni va boshqa hujjatlarni qayta rasmiylashtirish.

Tabiiy ofatlar, falokatlar, avariylar, yong'inlar, epidemiyalar, epizootiya va tartibsizliklarning oldini olish va ularni bartaraf etish jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Jamoat xavfsizligining asosini tashkil etuvchi jamoat joylarida shakllanadigan munosabatlar, ya'ni odamlarning muloqot joylarida, ularning moddiy, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish.

Jamoat xavfsizligi holatiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatmoqda, ular orasida aholi punktlarining obodonlashtirilishi, odamlarning ommaviy

tashrifi uchun mo'ljallangan inshootlarning jihozlanishi, katta guruhlarning harakatlanishini tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Jamoat xavfsizligini qonun bilan tartibga solish davlat organlari tomonidan fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha samarali va tegishli qarorlar qabul qilinishini kafolatlash, shuningdek davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ushbu organlarning fuqarolar va yuridik shaxslar bilan aniq shakllangan barqaror munosabatlarni shakllantirish.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashning o'rmatilgan mexanizmlarining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi javobgarligini oshirish, davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyat organlari, shuningdek jamoat tashkilotlari kuchlari va vositalarini samarali safarbar etishdan iborat.

Shuningdek, jamoat xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi va vujudga keltiruvchi tahdidlarni inobatga olgan holda mahalliy boshqaruvdagi jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali usullarini qo'llash ham muhim ahamiyatga egadir.

• Asosiy tayanch tushunchalar

Mahalliy boshqaruv organlari, jamoat xavfsizligi, jamoat joylari, huquqni muhofaza qilish organlari, axloqiy me'yorlar, ommaviy tartibsizliklar, jamoat xavfsizligini ta'minlash, tabiiy ofatlar, mahalliy hokimiyat organlari.

Takrorlash uchun savollar

1. Mahalliy boshqaruv organlari deganda nimani tushunasiz?
2. Mahalliy boshqaruv organlarning asosiy prinsiplari nimaga asoslanadi?
3. Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

- 4. Tuhdid deganda nimani tushunasiz?**
- 5. Tuhdidlarning jamoat xavfsizligiga ta'sir doirasini izohlab bering?**
- 6. Muhalliy boshqaruvdagi jamoat xavfsizligiga tahdidlarga misol keltiring?**
- 7. Jamoat xavfsizligi obyekti deganda nimani tushunasiz?**
- 8. Jamoat tartibini saqlash jamoat xavfsizligini ta'minlashga oid qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimini bilasiz?**
- 9. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning kompleks chora-tadbirlar oxullariiga nimalarni misol qilib keltirish mumkin?**
- 10. O'zbekistonda jamoat tartibini saklash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi qanday qonun hujjatlari yaratildi?**

III BOB. XAVFSIZLIKNI BOSHQARISHNI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

3.1. Xavfsizlikni boshqarishni tartibga soluvchi asosiy huquqiy- me'yoriy hujjalarning tarkibi

Xavfsizlikni boshqarishni tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy bazasini ishlab chiqish quyidagi asosiy qoidalarga asoslanadi:

- "Xavfsizlik" tushunchasini iqtisodiy sohaning holati va institutsional muhit sifatida aniqlash, har qanday mumkin bo'lgan salbiy omillarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi, milliy manfaatlarni himoya qiladigan, yuqori turmush darajasi va mamlakatning zarur himoya darajasini ta'minlaydigan;

- tegishli huquqiy hujjalarning ishlab chiqish orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tahdidlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish choralarini ishlab chiqish orqali tovarlarni ishlab chiqarish, tarqatish sohalarida, almashinish va iste'mol qilish sohalarida xavfsizlikni ta'minlaydigan jamoat munosabatlarining shakllanishi;

- xavfsizlikni ta'minlashga yondoshuvlar ustuvorligi, masalan:
- ilmiy-tadqiqot, iqtisodiy jarayonlar;
- iqtisodiy sohada xavflarni amalga oshirishni kutishga qaratilgan chora-tadbirlarni shakllantirish;
- innovatsion texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqishni tashkil etish;
- iqtisodiyot sohasida xalqaro faoliyatda maqsadlarni shakllantirish va ularga erishish;

- iqtisodiy sohada xavfsizlikni ta'minlashning strategik maqsadlariga erishish uchun xavfsizlik tuzilmalarining kelishilgan harakatlarini tashkil etish;

- investitsiyalarni samarali boshqarishning oqilona siyosatini shakllantirish;

- O'zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashining iqtisodiy sohada xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar tizimini tashkil etuvchi Idoralararo komissiyasining faoliyati samaradorligini ta'minlash;

- tegishli huquqiy choralar, jamiyatdagi munosabatlar, iqtisodiyotga tahdidlar sabablarini o'rganish, qonun ijodkorligi va huquqni qo'llashga uchunlungan iqtisodiy sohada xavfsizlikni ta'minlash tizimini yaratish.

Xavfsizlik tizimining faoliyati zamonaviy konsepsiyalarga javob beradigan ilmiy tushunchalar va huquqiy normalarni, huquq subyektlarining o'zaro muvosiq ishlashini rivojlantirishning muhimligini belgilaydigan huquqiy sohada amalga oshiriladi. Xavfsizlikni ta'minlash millatning rivojlanishi uchun muhim sharoitlarni yaratadi.

Agar "xavfsizlik" tushunchasini huquqiy tomondan ko'rib chiqsak, unda: birinchidan, bu huquqiy sohada tartibga solinadigan tovarlarni ishlab chiqarish, ayrboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning holati; ikkinchidan, bu iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash vazifalari bilan belgilanadigan me'yoriy-huquqiy sohaning holatini ifoda etadi. Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi qonun hujjatlarni tartibga solish predmeti bu sohada amalga oshiriladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Davlat va jamiyat institutlarini o'z ichiga olgan huquq subyektlari, shuningdek, shaxslar iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlariga erishish uchun huquqiy sohada birgalikda harakat qilishlari kerak. Iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarga tahdidlarni aniqlash bu harakat emas, balki jarayon, chunki vaqt o'tishi bilan ko'plab tahdidlar o'zgurandi. Shu sababli, huquq sohasidagi tartibga solish tahdidlarni faol aniqlashga, ularni tahlil qilishga va tegishli mezon va ko'rsatkichlardan foydalangan holda oqilona qarshi choralarни ishlab chiqishga yo'naltirilishi kerak.

Xavfsizlik sohasidagi strategik qarorlarni tayyorlash Milliy xavfsizlik konnepsiysiga asoslanishi kerak. Strategiya hokimiyat tomonidan tegishli qonuniy hujjatlarni qabul qilish orqali amalga oshirilishi kerak. Xavfsizlikni ta'minlash muammolari byudjetni rejalashtirish, pul-kredit nazoratida qurorlar qabul qilishda hisobga olinishi kerak.

Iqtisodiy xavfsizlik ta'minlanadigan huquqiy bazani shakllantirish mu'lum umoyillarga muvosiq amalga oshiriladi, unga ko'ra, quyi

darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar ba'zi turdagি ijtimoiy munosabatlarga nisbatan yuqori darajadagi aktlarga zid bo'lmasisligi kerak, bu esa o'z navbatida ushbu munosabatlarni tartibga solmasligi kerak.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishida huquqiy tizimni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilishni talab qiladi:

- amaldagi huquqiy normalar va yangi qonun hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash;

- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash talablariga javob beradigan yangi qonunchilik bazasini shakllantirishdan iborat.

Tegishli huquqiy bazani shakllantirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning zaruriy sharti bo'lsa ham, qonunlarning amalda bajarilishi muhimdir. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar tizimining uslubiy tarkibi quyidagicha. Xavfsizlik sohasidagi (xususan, iqtisodiy) shaxs, jamiyat va davlatning obyektiv ehtiyojlari to'g'risida subyektiv xabardorlik milliy manfaatlarni belgilashdan iborat. Ya'ni, milliy manfaatlarni inson, jamiyat va davlatning iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi obyektiv ehtiyojlarini ifoda etishning subyektiv shaklidir. Bundan tashqari, iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni aniqlash orqali normativ huquqiy xavfsizlikning tuzilishi shakllantiriladi. Keyingi qadam milliy manfaatlarga tahidlarga qarshi kurashish siyosatini aniqlash, ya'ni tegishli qarshi choralarни ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Mamlakatimizning xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 1997-yil 29-avgustdagi 467-I-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari, xalqaro shartnomalar va boshqa hujjatlardir. Xavfsizlik sohasida o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari.

Davlatning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat tomonidan ko'rilibotgan choralar milliy xavfsizlik subyektlarining birgalikdagi

harakatlari natijasida amalga oshiriladi. Xavfsizlik choralarini shakllantirish va ularni amalga oshirishga rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi. Bunday harakatlarning muvofiqlashtirilishini O'zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashi amalga oshiradi, u mamlakat ichkarisida va xalqaro miqyosda mamlakat Prezidenti tomonidan belgilanadigan masalalarni ko'rib chiqadi.

Davlatning xavfsizlik strategiyasini aks ettiradigan hujjatlar tizimining eng muhim elementlari orasida:

- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida rivojlanishining konseptual qoidalari;
- rivojlantirish dasturlari;
- sanoatning rivojlanish strategiyasi;
- mintaqalarni rivojlanish strategiyasi;
- Xalqaro hamkorlik doirasidagi dasturlar;
- davlat darajasidagi maqsadli dasturlar;
- davlat mudofaasini saqlash tartibi;
- Milliy xavfsizlikning konseptual qoidalari, asosiy yo'nalishlari va strategiyalarini aks ettiruvchi boshqa hujjatlar.

Millat xavfsizligi bilan bog'liq va keng qamrovli xususiyatga ega bo'lgan ba'zi masalalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining kufolati sifatida davlat rahbarining vakolatlari bajarilishini ta'minlaydigan tegishli vazifalar Xavfsizlik Kengashi, yuqori va quyi palatalarning qo'shma majlislarida muhokamasiga kiritilishi mumkin.

O'z fuoliyatida milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimi xalqaro va muhulliy huquq normalariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasining eng muhim normativ hujjatlariga quyidagilar kiradi: Konstitutsiya, qonunlar, mamlakat Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamusining farmon va qarorlari hamda boshqa normativ hujjatlar.

Davlat miqyosida xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy asoslari bu davlat darajasida qabul qilingan qaror va farmonlar hamda boshqa me'yoriy hujjatlar hisoblanadi. Shuningdek, davlat organlarining

huquqiy hujjatlari, mahalliy hokimiyatlar faoliyatidagi qabul qilingan qarorlar va boshqa huquqiy hujjatlardan iborat.

3.2. Xavfsizlikni boshqarishni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlarning tuzilishi

Iqtisodiy xavsizlikni ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklariga og'ishmay rioya etish, jamiyatdagi millatlararo totuvlik, tinchlik va osoyishtalik, mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish huquqiy hujjatlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Xavfsizlik mamlakatning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi, iqtisodiy va mudofaa salohiyatini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish tizimidan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy hujjatlар tizimi qonuniylik, tenglik, insonparvarlik va baynalmilallik tamoyillariga asoslangan holda qurilgandir. Mazkur huquqiy hujjatlар o'z oldiga quyidagi vazifalarni belgilaydi:

- davlat xavfsizligi manfaatlariga daxldor bo'lgan terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish;
- O'zbekiston Konstitutsiyasi va mustaqilligini g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilish;
- respublika davlat chegarasining daxlsizligini ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, mudofaa qurilishi va fan-texnika taraqqiyoti, tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq xavfsizlik choralarini ta'minlash;
- maxfiy axborotlarni muhofaza qilish, kriptografik va texnik jihatdan muhofaza qilish;
- xalq xo'jaligining barcha tarmoq va sohalarida xavfsizlikni ta'minlash;

- davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligini himoya qilish, shuningdek, transport va aloqa, aholi hayotini ta'minlash obyektlarini, muhim xalq xo'jaligi va harbiy obyektlarda xavfsizlikni ta'minlash;
- xavfsizlik bo'yicha qonunchilik va huquqiy tartibotni tiklash, ommaviy tartibsizliklar, millatlararo nizolarni oldini olishga;
- atom energetikasi obyektlari, neft va gaz mahsulotlari quvurlari, sanoatning mudofaa tarmoqlari obyektlarida, tabiiy ofatlar, epidemiyalar, epizootik kasalliklar, ekologik halokatlar va boshqa favqulodda hodisalarни oldini olish bo'yicha xavfsizlik choralarini ta'minlash;
- maxsus yuklarni tashishning xavfsizligini ta'minlash;
- bojxona, qurol va o'q-dorilar masalasida xavfsizlikni ta'minlash;
- makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash asosida iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish;
- iqtisodiyotning real sektori holati, ichki va tashqi bozorlar kon'yunkturasi hamda global va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari bilan bog'liq holda iqtisodiyotning asosiy sohalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish;
- iqtisodiyotning real sektoridagi holatni oldindan baholashning zamonaviy indikatorlarini ishlab chiqish va samarali foydalanish tizimini joriy etish;
- inson kapitalini yaxshilash va mehnat unumdarligini oshirish, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash;
- zarur infratuzilmani shakllantirishga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning konseptual yo'nalish va vazifalarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash;
- makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, shu jumladan inflyatsiya darajusini pasaytirish va qo'yilgan maqsadlarga erishish borasida muvosiqlashtirilgan siyosatni amalga oshirish;
- eksportni qo'llab-quvvatlash, eksport va importda tarif va notarif tartibga solish siyosatlarini shakllantirish;
- qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasida ko'zda tutilgan tadbirlar vu islohotlar amalga oshirilish;

- xalq xo'jaligining ishlab chiqarish tarmoqlarida mehnat unum-dorligi, mahsulot yetishtirish va qayta ishlash hajmlarining o'sishiga, ish o'rinalarining yaratilish;

- iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini tahlil qilish va ta'minlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan kambag'allikni qisqartirish bo'yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqish;

- milliy barqaror rivojlanishning maqsad va vazifalariga erishish chora-tadbirlarini amalga oshirish, yashash minimumi va minimal iste'mol savatchasini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish hamda aholi daromadlari tabaqalashuvini o'rganish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish hamda ularning davlat maqsadli dasturlari bilan o'zaro muvofiqligini ta'minlash;

- mehnat bozori va uning tarkibini sifat jihatdan rivojlantirish, ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish, takomillashtirish hamda mehnat resurslarini taqsimlash;

- hududlarning tabiiy xomashyo va mehnat resurslarini hamda "nisbiy ustunliklari"ni inobatga olgan holda ularni rivojlantirishga turki beradigan omillar va yo'naliishlarni belgilab olish hamda amalga oshirish;

- hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari doirasidagi loyihalarni o'z muddatida va sifatlari bajarishga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish, hududlararo rivojlanishning tabaqalashuvini qisqartirish choralarini ko'rish;

- hududlarda sanoat zonalarini tashkil etish, ularni joylashtirish yuzasidan uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish, ularni rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

- ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda hududlarni rivojlantirishning milliy metodologik asoslari va yondashuvlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish;

- mamlakatda kichik va o'rtaligining hamda tadbirkorlikning barcha shakllarini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini yuritish;
- iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kichik va o'rtaligining muhim drayverga aylantirishning konseptual va strategik yondashuvlarini hamda sohani rivojlantirish borasida fundamental to'siq va muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy choralarini - yangi vositalar va axborot tizimlarini yaratish, kreditlashning mavjud mexanizmlari va qo'llab-quvvatlash vositalari orqali ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori samara beruvchi yo'nalish va loyihalarni amalga oshirish;
- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va diversifikatsiya qilishni, shuningdek, hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg'unligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish asosida mamlakat sanoatini rivojlantirish strategiyalarini (modellarini) ishlab chiqish;
- asosiy sanoat tarmoqlari va yirik korxonalarini isloh qilish bo'yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqishda ishtirot etish;
- sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasini monitoring qilib borishda xalqaro tajribada keng qo'llaniladigan asosiy indikatorlarni aniqlash, "yashil iqtisodiyot" hamda energiya samaradorlikning asosiy prinsiplari va usullarini amaliyatga joriy etish va monitoring qilish uslubiyatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- respublika sanoat korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, hajmlari, ichki bozor talabining qondirilish darajasini bo'yicha hamda ichki va tashqi bozorlarda muhim sanoat mahsulotlari narxlarining o'zgarish tendensiyalari bo'yicha tahlillar tayyorlash va ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishini tashkil etish;
- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish maqsadlaridan kelib chiqib, hamda iqtisodiy o'sishga ta'siri nuqtayi nazaridan samaradorligi pust "bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash" asosida davlat ishtiropi mavjud

tarmoq va korxonalarни isloq qilish bo'yicha takliflarni kiritish orqali yaxlit davlat siyosati amalga oshirilishida ishtirok etish;

- davlat ishtirokidagi korxonalarни xususiylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish, xususan ular tomonidan ishlab chiqariladigan xizmat va mahsulotlarning erkin va raqobatbardosh bozorini shakllantirish bilan bog'liq tarkibiy islohotlar bo'yicha asosiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash;

- davlat ulushi mavjud strategik tarmoq va korxonalarda mehnat unumdarligini, energiya va boshqa ishlab chiqarish resurslari tejamkorligini oshirish hamda mahsulot tannarxini kamaytirishda zamonaviy mexanizm va yondashuvlarning qo'llanilishi bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish;

- barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish sohalari va tarmoqlarini aniqlash orqali mamlakatning faol investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiysi, tarmoqlar va bududlarni rivojlantirish strategiyalari va dasturlarini ishlab chiqish;

- davlat investitsiya dasturlarini makroiqtisodiy nuqtayi nazardan tahlil qilish hamda bu borada shakllantirilgan xulosalardan kelib chiqib, investitsiya yo'nalishlarini belgilash;

- davlat investitsiya siyosatining umumiy investitsiyaviy faollikka, shu jumladan xususiy va xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimiga ta'sirini tahlil qilish, prognozlash;

- shaharlarni rivojlantirish bo'yicha yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, turar joylarni muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilma bilan birgalikda qurishni inobatga olgan holda urbanizatsiya jarayonlarining davlat tomonidan samarali tartibga solinishini ta'minlash,

shuningdek, yer uchastkalariga oid zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish;

- jahon amaliyotini hisobga olgan holda shahar aholisini joylashtirish tizimini kompleks rivojlantirishni tartibga solish, kichik, o'rta, katta va yirik shaharlarning samarali nisbatini shakllantirish;

- uy-joy qurilish bozorini ipoteka kreditlari orqali rivojlantirish hamda mavjud uy-joylar fondini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgangan holda renovatsiya tizimini takomillashtirish va dasturlar ishlab chiqish;

- iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida boshqarish bo'yicha institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali biznes faoliyati sohasidagi asossiz majburiyatlar, taqiqlar va cheklowlarni olib tashlash, joriy tartibga solish jarayonlarini takomillashtirish hamda sohada amaldagi va qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarning biznes muhitiga ta'sirini baholash;

- xalqaro iqtisodiy reytinglar bilan ishslashda ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda reytinglarni har bir tarkibiy indikatori kesimida mutasaddi vazirlik va idoralarning malakali mutaxassislaridan iborat maxsus ishchi guruhlarni tuzish hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirish;

- mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish strategiyasidan, shu jumladan o'rta va uzoq muddatli tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash maqsadlaridan kelib chiqib, xalqaro iqtisodiy hamkorlikning ustuvor yo'naliшlarini ishlab chiqish;

- iqtisodiy sohada turli integratsiya birlashmalari bilan, respublika hududlari xorijiy davlatlar hududlari bilan, shu jumladan chegaraoldi hamkorlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollariga ta'sirini keng qamrovli tahlil qilish va kengaytirish;

- xavfsizlikni ta'minlovchi organlarining moddiy-texnika bazalarini rivojlantirish choralarini amalaga oshirish.

Iqtisodiy xavfsizlikga oid huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar huquqiy tizimining metodik mazmunini o'zida ifoda etadi.

3.3. Iqtisodiy xavfsizlikni boshqarishga oid huquqiy hujjatlarning maqsad va vazifalari

Iqtisodiy xavfsizlikni boshqarishga oid huquqiy hujjatlarda quyidagi maqsad va vazifalar belgilangan:

Byudjet-soliq siyosati bo'yicha:

- moliya tizimining, soliq va narx-navo siyosatining O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, milliy daromadning, korxonalar va tashkilotlar daromadlarining va boshqa moliyaviy resurslarning o'sishini ta'minlash, moliya- kredit vositalarining xo'jalik mexanizmning boshqa elementlari bilan aloqalarini mustahkamlash;

- respublikaning moliyaviy resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga jamlash, ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirish, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan yaxlit xalq xo'jaligi dasturlarini mablag' bilan ta'minlash, zarur moliya, valyuta rezervlarini tashkil etish;

- ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish, moliyaviy resurslarni rejalashtirish va ulardan foydalanish masalalarini hal' etishda markazlashtirilgan asoslarni mintaqalarning o'zini o'zi boshqaruvi, korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning mustaqilligi bilan qo'shib olib borish asosida moliya, sug'urta, narx belgilashning davlat tomonidan boshqarilishini takomillashtirish;

- moliya va narx mexanizmining aksil xarajat yo'nalishini oshirish, uni resurslarning barcha turlaridan oqilona foydalanishni rag'batlantirish tomon yo'naltirish, nobudgarchiliklarni bartaraf etish, ishlab chiqarish va muomala chiqimlarini kamaytirish, foyda (daromad)ni ko'paytirish;

- moliya, byudjet, valyuta va soliqni rejalashtirish va mablag' bilan ta'minlash usullarini takomillashtirish;

- sug'urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududidagi sug'urta tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish;

- iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;
- soliqlarni unifikatsiya qilish orgali ularning sonini optimallash-tirish, shuningdek, o'xshash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish;
- makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta'minlash;
- soliq qonunchiliginin soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ- huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;
- soliq solish masalalarini tartibga soladigan havolaki normalar va qonun osti hujjatlarni maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini ta'minlash, shu jumladan kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to'ovlar stavkalarining miqdorlarini belgilash;
- xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;
- soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish obyektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish.

Umumxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha:

- O‘zbekistonning davlat xavfsizligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishni ta’minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;
- O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo‘yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish;
- Davlat chegaralarini qo‘riqlash va himoya qilish;
- Qurolli Kuchlar va mudofaa-sanoat majmuasini davlat xavfsizligiga xavf- xatarlar hamda tahdidlardan himoya qilish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo‘yicha strategik tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etish;
- terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yarog‘, qiyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish;
- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib etishga qaratilgan buzg‘unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish;
- iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va axborot sohalarida davlat xavfsizligini ta’minlash, xalqimizning tarixiy-madaniy va boy ma’naviy merosini himoya qilish;
- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish;
- telekommunikatsiya va transport sohasida davlat xavfsizligini ta’minlash, favqulodda holatlarni yuzaga keltiruvchi omillarning oldini olish, aniqlash va ularga barham berish;
- uning tergov qilish vakolatiga kiruvchi jinoyat ishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov olib borish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;
- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat sirlari saqlanishi, maxsus aloqa xavfsizligining ta’milanishi hamda axborotlarni

criptografik himoya qilishni tashkil etish ustidan nazoratni amalga oshirish;

- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi huquq-buzarliklar sodir etilishiga imkon beradigan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

- Davlat xavfsizlik xizmatining jangovar va safarbarlik tayyorgarligi holatini takomillashtirish va saqlab turish, kuch va vositalarni favqulodda holatlar yuzaga kelgan hamda harbiy holat joriy qilingandagi harakatlarga tayyorlash.

Pul-kredit siyosati bo'yicha:

- pul-kredit siyosatini, shu jumladan valyuta siyosatini ishlab chiqish va samarali amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasida doimiy inflyatsiya darajasini monitoring, tahlil va prognoz qilish, tegishli axborot materiallarini hamda statistik ma'lumotlarni e'lon qilib borish;

- O'zbekiston Respublikasining to'lov balansini, xalqaro investitsiyaviy mavqeyini, tashqi qarzini va zaxira aktivlarini o'z ichiga olgan bank, pul-kredit statistikasini, tashqi sektor statistikasini shakllantirishni hamda e'lon qilishni amalga oshirish;

- valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilishni amalga oshirish;

- valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistik hisobotlar va boshqa hisobotlar maqsadlari uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida bojxona hamda boshqa majburiy to'lovlarini hisoblab chiqarish uchun valyuta kursini muntazam ravishda belgilab borish;

- banklarni va kredit byuolarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshirish;

- banklarning, mikrokredit tashkilotlarining, lombardlarning, to'lov tashkilotlarining, to'lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byuolarining faoliyatini va qimmatli qog'ozlar blankalarini ishlab chiqarishni litzenziyalash, shuningdek kredit tashkilotlarining, to'lov

tashkilotlarining, to'lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining va banklar guruhlarining faoliyatini tartibga solish hamda ushbu faoliyat ustidan nazoratni amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasida to'lov tizimlari barqaror ishlashini ta'minlash choralarini ko'rish;

- ichki nazorat qoidalariiga hamda jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibiga Markaziy bank tomonidan litsenziyalanadigan tashkilotlarning rioya etishi yuzasidan monitoring hamda nazoratni amalga oshirish;

- Xalqaro valyuta fondining O'zbekiston Respublikasi valyutasidagi mablag'lari depozitariysi hisoblanadi, operatsiyalarini va bitimlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan operatsiyalar va bitimlarni amalga oshirish;

- kredit tashkilotlari xizmatlari iste'molchilari huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, moliyaviy xizmatlarning ochiqligini hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish choralarini ko'rish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralarini, shu jumladan kelishuvga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Hukumatining zaxiralarini boshqarishni, hisobga olish va saqlashni amalga oshirish.

Daylatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan boshqa huquqiy hujjatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'llari belgilangan.

Asosiy tayanch tushunchalar

Ilmiy-tadqiqot, iqtisodiy jarayonlar, innovatsion texnologiyalar, tegishli huquqiy choralar, huquqiy normalar, yangi qonun hujjatlari, qonunchilik bazasi, rivojlantirish dasturlari, davlat mudofaasini saqlash tartibi.

Takrorlash uchun savollar

1. Xavfsizlikni boshqarishni tartibga solish deganda nimani tushunasiz?
2. Xavfsizlikni boshqarishni tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy bazasini ishlab chiqish nimalarga asoslanadi?
3. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishida huquqiy tizimni rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?
4. Tejishli huquqiy bazani shakllantirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda qanday ahamiyatga ega?
5. Normativ huquqiy xavfsizlikning tuzilishi qanday shakllantiriladi?
6. Davlat miqyosida xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy asoslari deganda nimani tushunasiz?
7. O'z faoliyatida milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimi qanday normalarga asoslanadi?
8. Iqtisodiy xavfsizlik ta'minlanadigan huquqiy bazani shakllantirish qanday tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi?
9. Iqtisodiy xavfsizlikni boshqarishga oid huquqiy hujjatlarning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
10. Davlatning xavfsizlik strategiyasini aks ettiradigan hujjatlar tizimining eng muhim elementlariga nimlar kiradi?

IV BOB. MEHNAT MUHOFAZASINI BOSHQARISH

4.1. Mehnat muhofazasi tushunchasi va mohiyati

Insoniyatning uzoq o'tmish hayotiy tajribasi har qanday faoliyat potensial xavfga ega ekanligini tasdiqlaydi. Albatta, bu tasdiq aksiomaviy xususiyatga egadir. Vaholanki, ishlab chiqarish sharoitida xavf darajasini boshqarish hamda kamaytirish ham mumkin. Lekin qanday holatda bo'lmasin, absolyut xavfsizlikka erishib bo'lmaydi.

Xavfsizlik – ma'lum darajada xavf tug'ilishi bartaraf etilgan faoliyat holati, ya'ni faoliyatni amalga oshirishdagi asosiy maqsadlardan biridir.

Mehnatni muhofaza qilish – ishlab chiqarishdagi mehnat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan vositalar usullar majmuidir. Demak, insonning mehnat xavfsizligini ta'minlash birinchi navbatda uning mehnat faoliyati jarayonini va uni amalga oshirishda yuzaga keladigan xavfli faktorlarni o'rghanishni talab etadi. Shu sababli, inson mehnat faoliyatining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot ishlari eramizdan oldingi 384–322-yillarda ijod qilgan Aristotel, eramizdan oldingi 460–377-yillarda yashagan Gippokrat asarlarida ham uchraydi.

Tiklanish davriining buyuk, taniqli olimi Paratsels (1493–1541) tog' ishlarini bajarishda yuzaga keladigan xavfli faktorlarni o'rghanib chiqqan. U o'z asarlarida: "Barcha moddalar zahardir va barcha moddalar dori-darmon hamdir. Faqat bir me'yor ushbu moddani zaharga aylantirsa, ikkinchi me'yor esa uni dori-darmonga aylantiradi", deb yozadi. Nemis olimi Agrikol (1494–1555- u.) o'zining "Tog' ishlari haqida" *potli* asarida, shuningdek, italyan olimi Ramatstsin (1633–1714), rus olimi M.V.Lomonosov (1711–1765) o'z asarlarida mehnat muhofazasi masalalariga katta e'tibor qaratgan.

XIX asrda sanoatning intensiv rivojlanishi natijasida mehnat muhofazasi muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan bir qancha olimlar yetishib chiqdi. Jumladan, V.L.Kirpichev (1845–1913), A.A.Bess (1857–1930),

D.R.Nikolskiy (1855–1918), V.A.Levitskiy (1867–1936), A.A.Skochinslay (1874–1960), S.I.Kaplin (1897–1943) shular jumlasidandir. Yuqorida ta'kid-langanidek, mehnat xavfsizligini ta'minlash qadimgi davrdan hozirgi kungacha inson faoliyatining muhim tomonlaridan biri hisoblanib kelindi. Shu sababli "Mehnatni muhofaza qilish" mustaqil fan sifatida shakllandи va o'z nazariyasiga, uslubiga hamda tamoyillariga ega bo'lди. Shu bilan birqatorda "Mehnatni muhofaza qilish" fani muhandislik psixologiyasi, psixofiziologiya, mehnat fiziologiyasi, mehnat gigiyenasi, antropometriya, ergonomika, texnikaviy estetika kabi fanlarning yutuqlariga asoslanadi. Ushbu fanlar bir-biridan tadqiqot qilinadigan yoki o'rganiladigan obyektlarining turi, ya'ni "inson-mashina", "inson-muhit", "inson- mashina-muhit" tizimlari bilan farq qiladi. Birinchi turdagи tizimlar qonuniyatlarini muhandislik psixologiyasi, psixofiziologiya, mehnat fiziologiyasi o'rgansa, "inson-muhit" tizimi qonuniyatlarini mehnat gigiyenasi o'rganadi. "Inson-mashina-muhit" qonuniyatları esa ergonomikaning asosiy tatbiq obyekti hisoblanadi. Lekin, real ishlab chiqarish sharoitida barcha turdagи bog'lanishlar bir vaqtida yuzaga keladi va shu sababli inson o'z mehnat faoliyatida bir necha omillar bilan bog'lanadi, o'zaro ta'sirda bo'ladi. Shu sababli, ishlab chiqarish sharoitidagi umumlashgan xavfli va zararli faktorlarning inson sog'ligi va mehnat qobiliyatiga birgalikdagi ta'sirini alohida mustaqil fan – "Mehnatni muhofaza qilish" fani o'rganadi.

"Mehnat muhofazasi" – bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyatini saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyenik va davolash profilaktik tadbirlar hamda vositalar tizimidan iboratdir.

Ishlab chiqarish vaqtida ishchilar va xodimlar salomatligini saqlash, uloring mehnatini to'liq muhofaza etish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu respublikamizning "Mehnatni muhofaza qilish" to'g'risidagi qonunida o'z aksini topgan bo'lib, unda quyiidligilar alohida ta'kidlangandir:

- korxonaning ishlab chiqarish faoliyati natijalariga nisbatan xodimning hayoti va sog‘ligi ustuvorligi;
- mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning boshqa yo‘nalishlari bilan muvofiqlashitirib borish;
- mulk va xo‘jalik yuritish shakllaridan qat’i nazar, barcha korxonalar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasida yagona tartib-qoidalar belgilab qo‘yish;
- mehnatni ekologiya jihatidan xavfsiz sharoitlar yaratilishini va ish joylarida atrof-muhit holati muntazam nazorat etilishini ta’minlash;
- korxonalarda mehnatni muhofaza qilish talablari hamma joyda bajarilishini nazorat qilish;
- mehnatni muhofaza qilishni mablag‘ bilan ta’minlashda davlatning ishtirok etishi;
- oliy o‘quv yurtlarida mehnat muhofazasi bo‘yicha bakalavrular va magistrler tayyorlash;
- xavfsiz texnika, texnologiyalar va xodimlarni himoyalash vositalari ishlab chiqilishi hamda joriy etilishini rag‘batlantirish;
- fan, texnika yutuqlarida hamda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha vatanimiz va chet el ilg‘or tajribasidan keng foydalanish;
- ishlovchilarin maxsus kiyim va poyabzal, shaxsiy himoya vositalari, parhez ovqatlar bilan bepul ta’minlash;
- korxonalarda mehnatning sog‘lom va xavfsiz shart- sharoitlarini yaratishga ko‘maklashuvchi soliq siyosatini yuritish;
- ishlab chiqarishdagi har bir baxtsiz hodisani va har bir kasb kasalligini tekshirib chiqish hamda hisobga olib borishning va shu asosda ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar hamda kasb kasalliklariga chalinishlar darajasi haqida aholini xabardor qilishning majburiyligi;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasb kasalligiga yo‘liqgan ishlovchilarining manfaatlarini ijtimoiy himoyalash;
- kasaba uyushmalari va boshqa jamoat birlashmalari, korxonalar hamda alohida shaxslarning mehnatni muhofaza qilishni ta’minlashga qaratilgan faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

- mehnatni muhofaza qilish muammolarini hal etish chog‘ida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish tamoyillariga asoslanadi.

4.2. Mehnat muhofazasi turlari

Ergonomika – insonning mehnat faoliyati davomida faoliyatni samarali bo‘lishini va inson uchun qulay sharoitlar yaratilishini ta’minlay oladigan funksional imkoniyatlardir. Boshqacha aytganda, -inson xususiyati, mashina imkoniyatlari va tavsifnomalari hamda muhit xususiyati orasidagi o‘zaro muvofiqlik hamda o‘zaro ta’siridir. Ergonomika atamasini qo‘llash polyak olimi Yastshembovskiy tomonidan taklif etilgan va u o‘zining “Chert ergonomiki, to yest nauki o trude” nomli kitobida ushbu atamani ishlatgan.

Ergonomika sohasida “inson-mashina-muhit” tizimining kafolatli faoliyatini ta’minlovchi quyidagi besh xil muvofiqlik mavjud: ma’lumotlar (axborot), biofizik, energetik, fazoviy- antropometrik va texnik-estetik:

Ma’lumotlar muvofiqligi. Murakkab tizimlarda ishchi odatda, bevosita fizik jarayonlarni boshqarmaydi. Chunki ko‘pincha xavflilik nuqtayi nazaridan ishchi, ushbu jarayonning bajarilish joyidan ma’lum masofada uzoqda bo‘ladi. Boshqarish obyektlari esa ko‘rinmaydigan, eshitilmaydigan, sezilmaydigan holatda bo‘lishi mumkin. Ishchi fuqutgina o‘lhash asboblari va jihozlarining ko‘rsatkichlarini ko‘rishi, signalarni eshitishi va bu orqali jarayon borishini boshqarib, nazorat qilib borishi mumkin. Bu turdagи barcha qurilmalar ma’lumotni aks ettiruvchi vositalar deb yuritiladi. Ayrим hollarda, ishchi boshqarish dastaklaridan, yoqib- o‘chrigichlardan va shu kabi boshqa boshqarish jihozlaridan soydalanishi mumkin. Bunday boshqarish vositalarining birgalikdagi holati sensomotor qurilmalar deb ataladi. Ma’lumotni aks ettiruvchi vositalar va sensomotor qurilmalar mashinaning axborot modelini tashkil etadi. Ishchi ushbu model orqali eng murakkab tizimlarni ham xavfsiz boshqarishi mumkin bo‘ladi.

Ish davrida mashinaning barcha texnologik va energetik ko'rsatkichlarini ta'minlaydigan va shu bilan bir vaqtida ishchining xotirasi va fikrini charchatmasdan (zo'riqtirmasdan) barcha ma'lumotlarni qabul qilish hamda qayta ishlash imkonini beradigan ma'lumot modelini yaratish – ergonomikaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Albatta, bu masala yechimi xavfsizlikni ta'minlash, ishdagi aniqlik, sifat, ish unumдорлиги каби ко'rsatkichlarga bog'liq bo'ladi. Shu sababli, ma'lumot modeli insonning psixofiziologik imkoniyatlariga mos kelishizarur.

Biofizik muvofiqlik. Biofizik muvofiqlik deganda, ishchining maqbul ish qobiliyatini va me'yoriy fiziologik holatini ta'minlaydigan mehnat sharoitini yaratish tushuniladi. Mehnat sharoitining asosiy omillarini ruxsat etilgan miqdorlari (**REM**) standart asosida belgilangan. Lekin ular ko'pincha ishchining funksional vazifalari bilan bog'lanmagan bo'ladi. Shu sababli, mashinalarni ishlab chiqishda (loyihalashda) shovqin, titrash, yoritilganlik, havo muhiti va shu kabi omillarni maxsus tadqiqot qilish va ularning miqdorlarini **REM** bo'yicha o'rnatish talab etiladi.

Ma'lumki, insonning kuch va energetik ko'rsatkichlari ma'lum chegaraga egadir. Sensomotor qurilmalarini harakatga keltirish ko'p yoki juda kam kuch talab etishi mumkin. Birinchi holda, inson tez charchashi va bu boshqariluvchi tizimda ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ikkinci holatda esa, ishchi ish dastagi qarshiligini his qilmaganligi sababli ish aniqligi pasayishi mumkin.

Energetik muvofiqlik deganda, sarflanadigan kuch, quvvat, tezlik va harakat aniqligi nisbatida mashinaning sensomotor qurilmalari bilan insonning optimal imkoniyatlarini mos kelishi tushuniladi.

Fazoviy-antropometrik muvofiqlik – faoliyat davrida, ya'ni ishni bajarish vaqtida, insonning gavda o'lchamlarini, tashqi fazoviy imkoniyatlarini, ishchining ish holatidagi gavda joylashuvini hisobga olish demakdir. Bu masalani yechish ish joyi hajmini, ishchining faoliyat davridagi oxirgi ta'sir nuqtasini, boshqarish asboblaridan ishchigacha bo'lgan masofani aniqlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu masala

yechimining murakkab tomoni insonning antropometrik ko'rsatkichlarini turlichaligidadir. Masalan, o'rtacha bo'yli kishini qanoatlantirgan o'tirgich past yoki baland bo'yli kishilar uchun noqulaylik tug'diradi. Xo'sh, bunday holatda qanday ish tutmoq lozim? Albatta, bu savolga ergonomika javob beradi.

Texnik-estetik muvofiqlik – mashina va ish texnologiyasini texnik-estetik jihatdan ishchining talabini qanoatlantirishidir. Inson mashinada ish bajarganda yoki asbob va qurilmalardan foydalanganda o'zida ijobjiy hissiyotlar hosil qilishi, ya'ni har qanday mashinaning tashqi ko'rinishi, shakli, qulayligi, rangi va boshqa ko'rsatkichlari ham ish jarayoniga, ham ishchining hissiyotiga mos kelishi lozim. Bu masalani yechishda ergonomika konstruktorlar, dizaynerlar, rassomlardan foydalanadi.

Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida baxtsiz hodisalarini (jarohatlanishlar, shikastlanishlar, kasallanishlar, yong'inlar va b.) kamaytirish muammosini faqatgina muhandislik uslublari orqali hal etib bo'lmaydi. Shu sababli, mehnat xavfsizligi psixologiyasi faoliyat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rinni tutadi.

Tajribalarning ko'rsatishicha ishlab chiqarishdagi avariylar va jarohatlanishlarning ko'pchiligi mashinalardagi muhandislik-konstrukturlik nuqsonlar yoki texnik- texnologik sabablar orqali emas, balki tushkiliy-psixologik, ya'ni xavfsizlik texnikasi bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lmaslik, yetarli darajada o'qitilmaslik, ishchining bilib-bilmay xavfsizlik qoidalariga rioya qilmasligi, xavfli ishlarga maxsus o'qishlardan o'tmaganlarga ruxsat berish, ishga mutaxassislik bo'yicha qabul qilmaslik va shu kabi qator sabablar ta'sirida yuz beradi. Shu sababli, ko'pincha jarohatlanishlarning 60–70 foiziga bevosita jurohatlanuvchi-larning o'zlarini aybdor bo'ladi.

Xavfsizlik psixologiyasi deganda insonning mehnat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan psixologik bilimlardan foydalanish tushuniladi.

Xavfsizlik psixologiyasi mehnat faoliyati davomida yuz beradigan turli jarayonlarni, xususiyatlarni va holatlarni chuqur o'rganadi hamda tahlil qiladi. Shunga bog'liq holda, *insonning ruhiy faoliyatini uch xil*

komponentga ajratish mumkin, ya'ni ruhiy jarayonlar, xususiyatlar va holatlar.

Ruhiy jarayonlar – ruhiy faoliyatning asosini tashkil etadi. Ruhiy jarayonlar bilish, emotsional va irodaviy sezish (his qilish, idrok etish, xotirlash va b.) kabi turlarga bo'linadi.

Ruhiy xususiyatlar (shaxsiy fazilatlar). Ruhiy xususiyatlarga insonning xarakteri, dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati, shaxsiy fazilatlarga esa intellektual, emotsional, axloqiy va mehnat qobiliyati hamda irodasi kiradi. Xususiyatlar turg'un va doimiy hisoblanadi.

Ruhiy holat – ruhiy jarayonlarga ijobjiy yoki salbiy ta'sir etuvchi ruhiy faoliyat xususiyatini bildiradi.

Mehnat psixologiyasi vazifalari hamda mehnat xavfsizligi psixologiyasi muammolaridan kelib chiqqan holda, ruhiy holatni: ishlab chiqarish ruhiy holati va maxsus ruhiy holatlarga ajratish mumkin. Maxsus ruhiy holat ishlab chiqarish jarohatlari, shikastlanishlar va shu kabi ko'ngilsiz oqibatlar bo'yicha profilaktik tadbirlarni tashkillashtirishda yuzaga kelishi mumkin.

Insonning mehnat faoliyati samaradorligi (ish qobiliyati) ruhiy zo'riqish, ya'ni hayajonlanish darajasiga bog'liq holda o'zgaradi. Ruhiy zo'riqish ma'lum chegaragacha ish natijasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin bu xususiyatni chegaradan, ya'ni kritik darajadan ortiq bo'lishi ish qobiliyatini pasayishidan tortib umuman yo'qolishigacha olib kelishi mumkin. Bunday ruhiy zo'riqish, chegaradan tashqari zo'riqish deb belgilanadi. Ishchining mehnat faoliyat davridagi me'yoriy ruhiy yuklanganligi maksimal yuklanish darajasining 40–60 foizini tashkil etishi lozim, aks holda, yuklanganlikning bu chegaradan oshishi ishchining ish qobiliyatini susayishiga olib keladi. Chegaradan tashqari ruhiy zo'riqish tormozli va asabiy ko'rinishlarga bo'linadi. Tormozli ruhiy zo'riqish harakatning cheklanganligi va sekinlashishi orqali tavsiflanadi. Bunday holatda, ishchi oldingi holatidagiday epchillik, chaqqonlik va ustalik bilan o'z kasbiy mahoratini namoyon qila olmaydi,

yu'ni fikrlash jarayoni sekinlashadi, eslash qobiliyati susayadi, e'tibornizlik va shu kabi boshqa salbiy belgilar yuzaga keladi.

Anabiy zo'riqish, hayajonlanish, ruhiy zo'riqish giperaktivligi, ko'r no'zlilik, qo'l va ovoz qaltirashi kabi belgilarda namoyon bo'ladi. Bunday holatda ishchi dag'al, xafaqon ko'rinishga tushishi, tez-tez beixtiyor ish jihozlari va asboblari holatini kuzatishi, ust-kiyimini to'g'rilashi, qo'lini artishi va shu kabi qiliqlarni bajarishi kuzatiladi. Albatta, bu holatlarning barchasi xatoga yo'1 qo'yilishiga va natijada buxtniz hodisalarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ishchining ruhiy ishonchliligini belgilovchi alohida ruhiy holatlar: paroksizmal hushdan ketish, kayfiyatni psixogen o'zgarishi, ruhiy aktiv vositalarni (stimulatorlar, trankvilizatorlar, alkogol ichimliklar) qabul qilish ta'siridagi ruhiy o'zgarishlar ko'rinishlarida bo'ladi.

Paroksizmal holat – turli xil toifadagi hushdan ketish (bosh miyaning organik kasallanishi, epilepsiya, hushdan ketish), ya'ni bir necha sekunddan bir necha daqiqalar oralig'ida hushni yo'qotishdir. Albatta, bunday holat turli xil og'ir oqibatlarga olib keluvchi, ba'zida o'lim bilan tugovchi baxtsiz hodisalarga sabab bo'lishi mumkin.

Psixogen o'zgarishlar va "affektiv" (affekt-hissiy portlash, emotsiyal portlash) holatlar ruhiy ta'sir orqali yuzaga keladi. Kayfiyatning tushishi va uputiya bir necha soatdan bir necha oygacha davom etishi mumkin. Albatta, bunga turli xil ko'ngilsiz hodisalar, ixtilofli, mojaroli vaziyatlar xabub bo'ladi. Bunday holatda befarqlik, lanjlik, lohaslik, tormozlan-yanlik, e'tiborsizlik, muskul harakatining susayishi sodir bo'lishi yazaga keladi va bu holatlar o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatini susayishiga, natija esa turli ko'rinishdagi baxtsiz hodisalarni kelib chiqishiga olib kelishi mumkin.

Xafa bo'lish, haqoratlanish, ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatsizlik oqibatida esa effektiv holat yuzaga keladi. Insonda, effektiv holat vaqtida fikrlash- tafakkurlashning psixogen (emotsional) torayishi kuzatiladi. Bunda harakatning tezligi, aggressivligi va qo'polligi ortadi. Ruhiy aktiv vositalar, ya'ni dori-darmonlar va alkogol ichimliklarni qabul qilish ham

ruhiy holatni salbiy o‘zgarishiga olib keladi. Ruhiy aktiv vositalarga: stimulyatorlar (pervitin, fenamin) va trankvilizatorlar (seduksen, elenium) kiradi.

Ushbu dorilar asabiylashishni kamaytirib, xotirjamlikka olib kelish bilan bir qatorda, ruhiy aktivlikni kamaytiradi, reaksiya tezligini susaytiradi, apatiya va uyqusirashga sabab bo‘ladi. Bu esa, mehnat faoliyat davrida yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan xatolarga sharoit tug‘diradi hamda baxtsiz hodisalarни keltirib chiqaradi.

Ruhiy faoliyatni maishiy va ishlab chiqarish omillari ta’sirida o‘zgarishi ishlab chiqarish faoliyatidagi muhandis-tashkilotchilar oldiga ishchining ruhiy holatini nazorat qiluvchi tizimni vujudga keltirish hamda takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarishda kasb kasalliklarining oldini olish va ishlab chiqarish jarohatlarini kamaytirishda, ushbu baxtsiz hodisalarни chuqur tahlil qilish asosida ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni hamda ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillarni puxta o‘rganish muhim rol o‘ynaydi.

Baxtsiz hodisalarning sabablari asosan quyidagi 4 guruhgа bo‘linadi: texnikaviy, sanitар-gigiyenik, tashkiliy va psixofiziologik.

Texnikaviy sabablarga mashina va mexanizmlar hamda ish jihozlarining nosozligi, elektr qurilmalarining yerga ulanmaganligi, yuklashtushirish mashinalaridan noto‘g‘ri foydalanish, mashina va mexanizmlar konstruksiyasini mehnat muhofazasi talablariga javob bermasligi kabilar kiradi. **Sanitar-gigiyenik sabablarga** esa mehnat gigiyenasi, sanitар me’yorlar va qoidalarga amal qilmaslik, yoritilganlik, harorat, nisbiy namlik, havoning harakatlanish tezligi, havoning bosimi kabi ko‘rsatkichlarni me’yordan chetga chiqishi, yuqori miqdordagi shovqin, titrash, havoning changlanganligi yoki gazlanganligini kiritish mumkin.

Tashkiliy sabablarga ish rejimi va dam olish rejimini noto‘g‘ri tashkil etilganligi, sog‘lom va xavfsiz ish sharoitini yaratilmaganligi, ishchilarni xavfsizlik texnikasi qoidalari bo‘yicha o‘qitilmaganligi, ish joylarida ogohlantiruvchi belgilarni bo‘imasligi, nomutaxassislarni ishga

qabul qilish, maxsus kiyimboshlar hamda shaxsiy himoya vositalari bilan ishlchlarni ta'minlanmaganligi va boshqalar misol bo'la oladi.

Psixofiziologik sabablarga bajarilayotgan ishga e'tiborsiz qaralishi, ishchining o'z faoliyatida bo'lган nazoratining bo'shligi, jismoniy yoki asabiy toliqish va boshqa shu kabilar kiradi.

Ishlab chiqarishdagi xavfli va *zararli omillar* baxtsiz hodisalarini keltirib chiqaruvchi sabablardan farq qiladi. Baxtsiz hodisalarining sububluri mehnat muhofazasi bo'yicha standartlar, qonun-qoidalar va ko'rnatimalarning buzilishi, ularga amal qilmaslik oqibati bo'lsa, ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillar esa bevosita jarohatlanishlarni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlar hisoblanadi.

Ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillar ishning turi va mehnat sharoitiga bog'liq holda 4 guruhga bo'linadi: fizikaviy, kimyoviy, biologik va psixofiziologik.

Fizikaviy omillarga harakatdagi mashina va mexanizmlar, ularning himoyalanmagan qo'zg'aluvchi mexanizmlari, ish joyi havosining yuqori darajada changlanganligi, gazlanganligi, baland darajadagi shovqin, titrash, infratovush, ultratovush, turli xil nurlanishlar, statik elektr zaryudlari, yuqori kuchlanishdagi elektr yoki magnit maydonlari, yoritilganlik darajasining me'yordan chetga chiqishi kabi omillar kiradi.

Kimyoviy omillarga ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladigan yoki ajralib chiqadigan turli xil kimyoviy moddalar kiradi. Ularni insonga tu'sir etish xususiyatiga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: umumiy zaharlovchi, ko'payish funksiyalariga ta'sir etuvchi; inson n'zolariga kirish yo'li orqali esa: nafas olish yo'li orqali ta'sir etuvchi, ovqatlnish va hazm qilish tizimi orqali va bevosita teri orqali ta'sir etuvchi.

Biologik omillarga esa har xil jarohatlar va kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikro va makro- organizmlar: bakteriyalar, viruslar, rikket, zumburug'lar, har xil zaharli o'simliklar va hayvonlar kiradi.

Psixofiziologik omillarga jismoniy va asabiy zo'riqishlar misol bo'la olandi. Jismoniy zo'riqishlar statik, dinamik va giperdinamik holda

bo‘lishi mumkin. Asabiy zo‘riqish esa kuchli aqliy mehnatdan, mehnatni doimiy bir xil ko‘rinishda bo‘lishidan, kuchli hayajonlanish yoki asabiylashishdan sodir bo‘ladi.

Ishlab chiqarishdagi ko‘pgina holatlarda ushbu faktorlar umumlashgan holda uchraydi. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarning oldini olish zararli va xavfli faktorlarning ta’sir darajasini susaytirish maqsadida texnologik jarayonlarni to‘liq mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish va ish joylarini germetiklashtirish, ishlab chiqarish xonalarida yoritilganlik, shovqin, titrash darajalarini hamda mikroiqlim ko‘rsatkichlarini me’yorashtirish, ishchilarni maxsus kiyim-boshlar va shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minalashni o‘z vaqtida amalga oshirish talab etiladi.

Yuqorida ta’kidlangan zararli va xavfli faktorlarning ta’siri ishning turiga, xususiyatiga va og‘irlilik darajasiga bog‘liqdir. Shunga mos holda, barcha *jismoniy ishlar* 3 sinfga ajratiladi: *yengil ishlar* (I), *o‘rtacha og‘irlilikdagi ishlar* (IIa, IIb) va *og‘ir ishlar* (III).

Yengil ishlarni bajarishga – 172 j/s, o‘rtacha og‘irlilikdagi ishlarni bajarishga – 172...293 j/s, og‘ir ishlarni bajarishga 293 j/s dan ortiq energiya sarflanadi. Lekin ishlarni og‘irlilik darajasini aniqlashda, faqatgina ularni bajarishga sarflanadigan energiya miqdoriga asoslanish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shu sababli, mehnat sharoitini, ishlab chiqarish muhitini, ularni insonning (ishchining) asab torlariga ta’sirini ham hisobga olish zarurdir. Umuman, ishlarni og‘irlilik darajasi bo‘yicha guruhlashda 50 ga yaqin mezon (“Kriteriya”) hisobga olinishi mumkin.

Ishlar xavflilik va zararlilik darajasiga qarab esa zararli, xavfli va o‘ta xavfli turlarga ajratiladi.

Zararli ishlarga nomaqbul iqlim sharoitida bajariladigan ishlar (kuchli shamol, past yoki yuqori harorat, namlik, yuqori darajada shovqin, titrash, har xil nurlar ta’sirida ishslash) kiradi.

Xavfli ishlarga, o‘t yoquvchilar, elektriklar va shu kabi boshqa ishlarni misol qilish mumkin.

O'ta xavfli ishlarga esa, yong'inni o'chirish va uning oqibatlarini tugutish, tabiiy ofatlar davrida avariya-tiklash ishlarini olib borish kubilarni kiritish mumkin.

Ishlab chiqarishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisa tufayli ishchi o'z mehnat qobiliyatini bir kun va undan ortiq vaqtga yo'qotsa yoki asosiy kasibidan boshqa ishga o'tishiga sabab bo'lsa N-1 shaklli dalolatnama tuziladi. N-1 shaklli dalolatnama tekshirish materiallari bilan birgalikda baxtsiz hodisa ro'y bergan boshqarmada 45 yil saqlanishi kerak.

Og'ir ahvoldagi, ikki yoki undan ortiq kishilarning guruhli o'limi bilan tugagan baxtsiz hodisalar maxsus tekshiriladi. Agar bunday baxtsiz hodisalar sodir bo'lsa, boshqarma rahbari darhol yuqori tashkilotlarga, mehnat muhofazasi bo'yicha texnik inspektorga, mahalliy prokuraturaga xabar berishi lozim.

Baxtsiz hodisalarni to'g'ri tekshirish, ularni sabablarini o'rghanish va baholash jarohatlanish ko'rsatkichlarini aniqlash orqali tahlil qilinishi mumkin. Ishlab chiqarishda ro'y bergan jarohatlanishlarning holatini xarakterlovchi ko'rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Jarohatlanish chastotasi - K_{ch}

$$K_{ch} = (n_1 / n_u) 1000$$

bu yerda, n_1 – baxtsiz hodisa tufayli ish qobiliyatini yo'qotgan va halok bo'lgan ishchilar soni; n_u – o'rtacha ishchilar soni.

Jurohatlanish og'irligi – K_o $K_o = D_n / n_2$

bu yerda, D_n – hisobot davrida yo'qotilgan jami ish kunlari soni;

n_2 – ish qobiliyatini yo'qotgan ishchilar soni. Ish kunining yo'qotilishi ko'rsatkichi – K_{ik}

$$K_{ik} = (D_n / n_u) 100, \%$$

Ma'lumki, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlarni kamaytirish uchun ularning sabablarini to'g'ri aniqlash va atroflicha tahlil qilish zarur. Ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalarning sabablarini o'rghanish va baholashni quyidagi uslublar orqali amalga oshirish mumkin:

Monografik usul. Ushbu usul har bir baxtsiz hodisani alohida chuqur tahlil qilish, uning aniq sabablarini o'rghanishga asoslangan. Bunda ishlab

chiqarish jarayonida ishlataligan mashina, mexanizmlar va boshqa texnik jihozlarning mexanik holati, ishlataladigan materiallarning tarkibi, havo va suvning sanitar-gigiyenik holati kabi faktorlar tekshirilib o'rganiladi.

Statistik usulda esa jarohatlanishlarning sabablari keng masshtabda, ya'ni tuman, viloyat, vazirliklar, tarmoqlar va umuman respublika miqyosida o'rganiladi. U tashkilotlar va korxonalarning baxtsiz hodisalar bo'yicha hisobotlarini statistik qayta ishlash va tahlil qilishga asoslangan bo'lib, baxtsiz hodisalarни ishchilarni kasbi, yoshi, jinsi, ish stagi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha taqsimlanishini yoritadi.

Topografik usul baxtsiz hodisa ro'y bergan joyni o'rganish va tahlil qilishga asoslangan bo'lib, ushbu joyni ishlab chiqarish rejasiga yoki topografik kartaga tushirish orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodiy usulda esa mehnat muhofazasi uchun ajratiladigan mablag'lar va materiallarning baxtsiz hodisalarini kamaytirishga qanchalik ta'sir etishi va baxtsiz hodisalarning iqtisodiy oqibatlari o'rganiladi.

4.3. Mehnat muhofazasini boshqarishni tashkil etish

Mehnat xavfsizligini boshqarish – bu bir qator, tashkiliy, texnikaviy va sanitar-gigiyenik hamda iqtisodiy tadbirlar tizimini tayyorlash va joriy qilish asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 7-noyabr 1994-yildagi 538-sonli qaroriga asosan korxonalarda mehnatni muhofaza qilish davlat boshqaruviga o'tkazildi va bu masalada bosh mutasaddi qilib Mehnat vazirligi tayinlandi. Keyinchalik Vazirlar Mahkamasining 16-fevral 1995-yildagi 58-sun qarori bilan Mehnat vazirligi qoshida "Mehnatni muhofaza qilish boshqarmasi" tuzildi. Bu boshqarmaning vazifasi respublikamizdagi korxona va muassasalarda mehnat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan barcha tashkiliy va texnikaviy muammolarni o'z vaqtida yechilishini nazorat qilish hamda xavfsizlik mezonlarini muhokama etish va tasdiqlash jarayonida ishtirot etishdan iboratdir.

Mehnat xavfsizligi xizmatini bevosita tashkilotning bosh rahbari boshqaradi. Unga amalda bu xizmatni tashkil etish uchun uning yordamchisi va asosiy mutasaddi shaxs sifatida texnika xavfsizligi muhandisi tayinlanadi va unga hamkorlik uchun ko‘p yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan muhandis hamda texnik xodimlar, mehnat jamoalari va kasaba uyushmasi qo‘mitasi tomonidan mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘zları saylagan vakillari jalb etiladi.

Mehnat xavfsizligi xizmatining asosiy vazifasi ishlab chiqarishda sodir bo‘ladigan jarohatlanish va boshqa baxtsizliklarni keltirib chiqaradigan sabablarni bartaraf qilish va tashkilot ma‘muriyatining ishchi-xizmatchilarga ish sharoitini yaxshilab borishi ustidan nazorat qilib turish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish asosida mehnat xavfsizligi va himoya vositalarini muttasil takomillashtirish, mehnat madaniyatini oshirish, baxtsizliklarni oldini olishga qaratilgan tashkiliy va texnik hamda sanitariya tadbirlarini ishlab chiqish va ularni joriy qilishdan iboratdir.

Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimining birdan bir maqsadi, mehnat muhofazasi qonun-qoidalariga ishchi va xizmatchilarining e’tiborini oshirish, sog‘lom va xavfsiz ish sharoitini yaratishni yagona, to‘g‘ri yechimini aniqlash hamda uni ishlab chiqarishda tatbiq etishga tuvniya qilishdir.

4.4. Mehnat muhofazasini boshqarishni takomillashtirish yo‘llari

Fransuz filosofi Gelvetsiy (1715–1771) xavfsizlik tamoyillarining ahumiyyati to‘g‘risida quyidagicha yozadi:

“Ayrim tamoyillar to‘g‘risidagi bilimlar, osonlik bilan ba’zi omillarni bilmaslikning o‘rnini to‘ldiradi”. (“Ob ume”, 1758).

Tamoyillar – bu g‘oya, fikr, umumiy tushunchalar va umumiy qoidalardir.

Ushbu bu umumiy .qoidalardan kelib chiqadigan va maqsadga olib boradigan yo‘l, maqsadga erishishning usulidir.

Xavfsizlikni ta'minlovchi tamoyillar. Xavfsizlikni ta'minlovchi tamoyillar turli xil bo'lib, ularni oriyentirlovchi, texnik, tashkiliy, boshqarish kabi guruhlarga ajratish mumkin.

Oriyentirlovchi tamoyillarga ishchining faolligi, faoliyatning insonparvarligi, operatorni almashinishi, tasniflash, xavfni bartaraf etish, tizimlash, xavfni kamaytirish kabilalar kiradi.

Texnik tamoyillarga blokirovkalash, vakuumlash, germetiklash, masofadan himoyalash, bosim ostida himoyalash, mustahkamlik, bo'sh (zaif) zvenodan foydalanish, ekranlashtirish misol bo'ladi.

Tashkiliy tamoyillar vaqt bilan himoyalash, ma'lumot, zaxiradan foydalanish, muvofiqlashmaslik, me'yorlash, kadrlarni tanlash, ketma-ketlik o'rnatish, ergonomik kabi turlargab'o'linadi.

Boshqarish tamoyillari adekvatlik, nazorat, teskari bog'lanish, javobgarlik, rejalashtirish, rag'batlantirish, boshqarish, samaradorlik kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Quyida ayrim tamoyillarni ma'nosi bilan tanishib chiqamiz:

Me'yorlash tamoyillari insonni turli xil xavflardan himoyalash maqsadida, standart asosida xavfli va zararli faktorlarning ruxsat etilgan miqdorlarini o'rnatish demakdir. Masalan, REM (PDK), qo'sha ko'tarish yuk me' yori, ish vaqt me' yori va boshqalar.

Vo'sh (zaif) zveno tamoyillari. Texnik tizimning xavfsiz ishlashini ta'minlash maqsadida unga zaif element o'rnatiladi, ya'ni belgilangan ko'rsatkich me'yordan oshgach, birinchi navbatda zaif element ishdan chiqadi va texnik tizim buziladi, jarayon to'xtaydi va natijada xavf bartaraf etiladi. Bularga saqlash klapanlarini, elektr saqlagichlarini va muftalarini misol keltirish mumkin.

Ma'lumot berish tamoyillari. Ishchiga ish davrida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yo'1-yo'riqlar, ko'rsatmalar berishga asoslangan. Bunga kurs o'qishlari, yo'riqnomalar o'tish, xavfsizlik belgilari, ogohlantiruvchi yozuvlar va boshqalar kiradi.

Tasniflash tamoyillarida obyektlarni xavflilik darajasiga bog'liq holda sinflarga yoki kategoriyalarga ajratish tushuniladi. Masalan, sanitarni

himoya zonalari (5 sinfga ajratilgan), portlash-yonish xavflligi bo'yicha ishlab chiqarish binolarining kategoriyalari (A, V,V,G,D, Ye), yong'in zonalari va boshqalar.

Xavfsizlikni ta'minlash uslublari. Xavfsizlikni ta'minlovchi uslublarni o'rganishdan oldin ishchi zona va xavf zonasini kabi iboralarga tushuncha beramiz. Mehnat jarayoni davrida ishchi turadigan yoki harakat qiladigan joy, ishchi zona – gomosfera deb yuritiladi.

Doimiy yoki davriy ravishda xavf sodir bo'ladigan zona–noksosfera deb yuritiladi.

Mehnat jarayoni davrida xavfsizlikni ta'minlash uslublarini quyidagi 3 turga ajratish mumkin:

1. Gomosfera va noksosferani fazoviy va (yoki) vaqt bo'yicha ajratishga asoslangan uslub. Bu asosan distansion boshqarish, avtomatlashtirish, robotlashtirish va boshqa tashkiliy tadbirlar orqali, amalga oshiriladi.

2. Xavfni bartaraf etish orqali noksosferani me'yorlashtirish uslubi. Bunga insonni shovqin, gazlar, changlar ta'siridan himoya qilishga qaratilgan tadbirlar majmui va jamoa himoya vositalari kiradi.

3. Ma'lum muhitda insonni himoyalash darajasini oshirishga qaratilgan usullar va vositalar majmui. Bu uslub ishchilarni xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitish, ShHVdan foydalanish, psixologik ta'sir etish va boshqa shu kabi tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Xavfsizlikni ta'minlovchi vositalar – bu xavfsizlik tamoyillari va uslublarini amalga oshirishdagi konstruktiv, tashkiliy namda material mujassamlikdir.

Tamoyillar, uslub va vosita – bu xavfsizlikni ta'minlovchi mantiqiy bosqichdir. Ularni tanlash faoliyatning aniq shart-sharoitlariga, xavf darajasiga, iqtisodiy ko'rsatkichlarga va shu kabi bir qancha mezonlarga bog'liq bo'ladi.

Xavfsizlikni ta'minlovchi vositalar jamoa himoya vositalari (JHV) va shaxsiy himoya vositalariga (ShHV) bo'linadi. O'z o'mida JHV va ShHVlar ham xavfning xususiyati, amalga oshish tartibi, ishlatalish

sohasi va shu kabi ko'rsatkichlarga bog'liq holda bir necha guruhlarga bo'linadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Mehnatni muhofaza qilish, mehnat gigiyenasi, antropometriya, ergonomika, texnikaviy estetika, biofizik muvofiqlik, energetic muvofiqlik, texnik-estetik muvofiqlik, mehnat psixologiyasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Mehnat muhofazasi tushunchasi va mohiyatiga izoh bering?
2. Mehnat muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz?
3. Mehnat muhofazasining qanday turlarini bilasiz?
4. Xavfsizlik psixologiyasi deganda nima tushuniladi?
5. Insonning ruhiy komponrnti nima va u qanday turlarga bo'linadi?
6. Mehnat xavfsizligi psixologiyasi faoliyat xavfsizligini ta'minlashda qanday o'rincutadi?
7. Ishchining mehnat faoliyat davridagi me'yoriy ruhiy yuklanganligi maksimal yuklanish darajasi qanday bo'lishi lozim?
8. Ishlab chiqarishdagi xafli va zararli omillar ishning turi va mehnat sharoitiga bog'liq holda qanday omillarga bog'liq?
9. Ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlarni kamaytirish uchun asosan nimalarga e'tabor berilishi lozim?
10. Mehnat xavfsizligini boshqarish qanday amalga oshiriladi?

V BOB. XAVFSIZLIKNI TA'MINLOVCHI HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR

5.1. Xavfsizlikni ta'minlovchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning davlat organlari tizimidagi o'rni

Davlat organi - davlat funksiyalarini ijro etishda qatnashuvchi va buning uchun hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat mexanizmining bo'g'ini (unsuri)dir. Ushbu organ xususiyatlarini o'rganish umuman davlat mexanizmini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

1. Davlat organi muayyan mustaqillikka, avtonomlikka ega bo'lsada, u yaxlit davlat mexanizmining bir qismidir, davlat tarkibida o'z o'rniغا ega bo'lib, uning boshqa qismlari bilan mustahkam aloqada bo'ladi.

2. Davlat organi o'zaro va organ bilan alohida huquqiy munosabatlarda bo'lgan davlat xizmatchilaridan iborat. Ular rasmiy xodimlar bo'lib, o'zaro oilaviy, fuqaroviylar va boshqa munosabatlarga kirishmaydi. Davlat xizmatchilarining mavqeyi, huquqi va burchlari qonunchilik tomonidan belgilanib, ularning huquqiy maqomini ta'minlaydi. Ular tomonidan hokimiyat vakolatlaridan foydalanish hajmi va tartibi qonunchilik tomonidan belgilanib, lavozim yo'riqnomalari, shtat jadvallari va shu kabilarda izohlanadi. Hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan, huquqiy hujjatlar chiqarib, ularni mustaqil ravishda hayotga joriy etuvchi mansabdor shaxslar davlat xizmatchilari qatoriga kiradi. Davlat xizmatchilari bevosita moddiy boyliklar yaratmaydi, shu sababdan ularni jamiyat boqadi. Ular egallab turgan lavozimiga hamda bajargan ishiga muvofiq tarzda davlat tomonidan ish haqi oladi.

3. Davlat organlari ichki tuzilishga (tarkibga) ega. Ular yagona maqsad atrofida uyushgan bo'linmalardan iborat bo'lib, hamma uchun bir xil bo'lgan tartib- intizomga rioya etadi.

4. Davlat organining eng muhim belgilardan biri vazifa muayyan mohiyatga va hajmiga ega bo'lgan hokimiyat vakolatlari (huquq va majburiyatlar yaxlitligi)ning mavjudligida. Uning vakolat davlat organi

tomonidan ular bo'yicha qabul qiladigan va bajaradigan) aniq masalalar va vazifalar bilan belgilanadi.

5. O'z vakolatiga muvofiq ravishda davlat organi quyidagi hokimiyat vakolatlariga ega:

a) ijro etilishi majburiy bo'lgan huquqiy hujjatlar.


Bu hujjatlar me'yoriy yoki individual (huquq me'yorlarini qo'llashga doir hujjat) bo'lishi mumkin.

b) davlat organlari huquqiy hujjatlarining ijrosi turli usullar shu jumladan majburlash va ishontirish tarzida ijro etilishini ta'minlash.

6. O'z vakolatini amalga oshirish uchun davlat organi zarur moddiy baza bilan ta'minlanadi moliyaviy mablag'lar, bankdagi hisobraqami moliyalash manbaiga (byudjet hisobidan) ega bo'ladi.

7. Davlat organi davlat vazifalarini bajarishda faol qatnashadi buning uchun tegishli shakl va usullardan foylanadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar – ishki ishlar, prokuratura, adliya organlari, davlat xavfsizlik xizmati, soliq, bojxona xizmatlari, shuningdek, advokatura, Oliy majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasinnig milliy markazi, Interpolning Milliy markaziy byurosi hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tuzilishini belgilab beruvchi konstitutsiyaviy, ma'muriy, moliya, jinoyat protsessual va boshqa bir qator qonunchilik sohalarining normalari kiradi. Masalan,

konstitutsiyaviy huquq normalarida O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va davlat tuzilishi, butun davlatning huquni muhofaza qilish mexanizmini, jumladan, uning muhim organlari bo'lgan sud va prokuratura organlarini tashkil etish belgilab berilgan.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning davlat organlari tizimidagi o'rni shu bilan belgilanadiki, ular davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasini bajarish uchun maxsus yaratilgan. Bu esa ularning asosiy va bosh ishidir. Shu bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati boshqa davlat va boshqaruva organlarining funksiyasidan ajratib turiladi. Bu ularning davlat organlari bilan aloqasini istisno qilmaydi, lekin huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mustaqilligini talab qiladi.

5.2. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining asosiy maqsadi, vazifalari va yo'nalishlari

Davlat tuzilmasi va davlat chegaralari daxlsizligini ishonchli himoya qilish, inson huquqlari va erkinliklariga og'ishmay rioya etish, jamiyatdagi millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, tinchlik va osoyishtalik - demokratik huquqiy davlat qurishning hamda mamlakatni judal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarni tashqi va ichki tahidlardan himoya qilish borasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida, shuningdek, 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi vazifalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018 yil 14 martdag'i "O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5379-son Farmoni qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy

yaxlitligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qiluvchi maxsus vakolatli organ etib belgilangan.

Ushbu farmonga muvofiq Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- Xizmatning maxsus vakolatli davlat xavfsizlik organi sifatidagi huquqiy maqomi, vakolatlari va faoliyat yo'nalishlarini aniq belgilab beruvchi mustahkam qonunchilik bazasini yaratish;

- bugungi kundagi xavf-xatarlar va tahdidlarga qarshi kurashishning ta'sirchan shakl hamda uslublarini joriy etish;

- yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy vaziyatni inobatga olgan holda davlat xavfsizligini ta'minlash borasidagi vazifalarni bajarishda mavjud kuch hamda vositalardan samarali foydalanish imkonini beruvchi tashkiliy tuzilmani shakllantirish;

- Xizmat faoliyatini davlat xavfsizligini ta'minlash ishlarining shakl va uslublari, shuningdek, xizmat harbiy xizmatchilarining idoraviy mansubligi haqidagi ma'lumotlar oshkor bo'lishini istisno etuvchi konspiratsiya tamoyili asosida tashkil etish;

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga og'ishmay rioya etilishini kafolatlaydigan ta'sirchan mexanizmlarni joriy qilish;

- O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini munosib himoya qilishga qodir, har tomonlama yetuk va vatanparvar yoshlarni Xizmatga jalb etishga qaratilgan kadrlarni tanlash va tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini yaratish;

- mehnatga munosib haq to'lash, uy-joy va maishiy shart-sharoitlarni yaxshilash, sog'lijni saqlash tizimini takomillashtirish orqali Xizmat harbiy xizmatchilarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.

Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishni ta'minlash, mazkur sohada

qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, huquqbazarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;

- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo'yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasining Davlat chegaralarini qo'riqlash va himoya qilish;

- O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari va mudofaa-sanoat majmuasini davlat xavfsizligiga xavf-xatarlar hamda tahidlardan himoya qilish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha strategik tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etish;

- terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yarog', giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish;

- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, irqi va diniy adovatni targ'ib etishga qaratilgan buzg'unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish;

- iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va axborot sohalarida davlat xavfsizligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi xalqining tarixiy-madaniy va boy ma'naviy merosini himoya qilish;

- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish; telekommunikatsiya va transport sohasida davlat xavfsizligini ta'minlash, favqulodda holatlarni yuzaga keltiruvchi omillarning oldini olish, aniqlash va ularga barham berish;

- xizmat tergov qilish vakolatiga kiruvchi jinoyat ishlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov olib borish va tezkor-qidiruv fuoliyatini amalga oshirish;

- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat sirlari saqlanishi, muuxnis aloqa xavfsizligining ta'minlanishi hamda axborotlarni kripto-gilistik himoya qilishni tashkil etish ustidan nazoratni amalga oshirish;

- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon beradigan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

- xizmatning jangovar va safarbarlik tayyorgarligi holatini takomillashtirish va saqlab turish, kuch va vositalarni favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan hamda harbiy holat joriy qilingandagi harakatlarga tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimida Prokuratura alohida o'rinni tutadi. U mamlakatimizning butun hududida qonunlarni fuqarolar, mansabdor va yuridik shaxslar tomonidan bir xilda tushunilishi va qo'llanilishi nazorat qildi. 2001-yil 29-avgustda "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II-sonli qonuni qabul qilingan. Prokuratura organlari qonuniylik, markazlashganlik, birlik, mahalliy va boshqa davlat organlaridan mustaqil prinsiplari asosida faoliyat ko'rsatadilar.

Barcha prokurorlar faqat O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuroriga bo'y sunadilar.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat.

Prokurorlar qonunlar va Oliy Majlis qabul qilgan qarorlarning hamda quyi turuvchi hokimiyat va boshqaruv organlarining qonun osti hujjatlarining bajarilishini qat'iy nazorat qiladilar, qonuniylik va huquqtartibotning ta'minlanishi bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradilar.

Prokuratura organlari o'z faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradi:

- vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

- fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;
- tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;
- sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda iqtisodiy nizolarni ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariiga protest keltirish;
- soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbazarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;
- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;
- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy mada-niyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Prokuratura organlarining tizimi quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurururası;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurururası;
- viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;
- tumanlar va shaharlar prokuraturalari;
- viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokurururası;
- tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar;

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi, shuningdek ularning joylardagi bo‘linmalari faoliyat ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori prokuratura organlariga rahbarlik qiladi va ular faoliyatı ustidan nazoratni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat etishi mumkin;

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining majlislarida ishtirok etishi, uning ko‘rib chiqishi uchun masalalar kiritishi va ko‘rilayotgan masala yuzasidan fikr bildirishi mumkin;

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlislarida ishtirok etadi, muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr bildiradi, qonun hujjatlarini qo‘llash bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha Plenum tushuntirishlar berishi xususida takliflar kiritadi;

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hay’atining tarkibini tasdiqlash to‘g‘risidagi takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritadi;

- prokuratura organlari xodimlariga darajali unvonlar beradi va oliy darajali unvonlar berish to‘g‘risidagi taqdimnomalar bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etadi;

- prokuratura organlari xodimlarini O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofotlariga taqdim etadi;

- prokuratura organlari xodimlarini “O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlaydi;

- buyruqlar chiqaradi hamda prokuratura organlarining tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

- chet el davlatlarining tegishli organlari bilan hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar tuzadi;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Mamlakatimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tarkibidagi Adliya organini huquqni qo‘llash amaliyoti va norma ijodkorligi

faoliyatida qonuniylikka qat'iy rioya etilishini ta'minlash bo'yicha faoliyati samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida uning rollini kuchaytirish, Mamlakatda demokratik islohotlarni yana da chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish Konsepsiyasining qoidalarini izchil amalga oshirish maqsadida faoliyat ko'rsatadi.

Adliya organining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida fuqarolar-ning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni, qonun ustuvorligini, davlat va jamiyat qurilishi sohasida qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini izchil amalga oshirish;

- demokratik, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarning qonunchilik bazasini izchillik bilan takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish; amaldagi qonun hujjatlaridagi "oq dog'lar"ni, shuningdek davlat hokimiysi va boshqaruvi tizimida korrupsiyaning kelib chiqishiga, boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishiga sharoit yaratayotgan qoidalar va normalarni aniqlash;

- markazda va joylardagi davlat boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalari faoliyatida inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni ta'minlash;

- sud hokimiysi mustaqilligini yanada mustahkamlashga, sud hujjatlarining so'zsiz ijro qilinishiga, sudlar faoliyatini har tomonlama moddiy-teknik va moliyaviy ta'minlashga yo'naltirilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- nodavlat notijorat tashkilotlar, boshqa fuqarolik jamiyati institatlari faoliyat ko'rsatishining qonuniyligini, tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni, ularning aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qilishda, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyulashda faol ishtirokini ta'minlash; mamlakatda ro'yxatdan o'tgan

xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoring o'tkazish;

- kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining ishchonchli himoya qilinishini ta'minlash; shartnomaviy-huquqiy intizomni mustahkamlash, shartnomalarni tuzish va bajarishda xo'jalik yurituvchi subyektlarga amaliy huquqiy yordam ko'rsatish, ularning moliya-xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashishlarga, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlari, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish sohasida ma'muriy to'siq va g'ovlarni yaratishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- notariat, advokatura, FHDYO organlari hamda fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar faoliyatining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan davlat tomonidan tartibga solish tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

- tegishli davlat organlari bilan birgalikda xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining ishchonchli huquqiy himoya qilinishini ta'minlash;

- jamiyatda aholining huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni oshirishga va qonuniylikni mustahkamlashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalarining huquqiy targ'ibot va ma'rifat sohasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

- davlat va jamiyat qurilishi sohasini demokratlashtirishning zamnaviy talablari va jarayonlarini hisobga olgan holda huquqshunos kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish bo'yicha faoliyatni nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Adliya tizimining tashkiliy tuzilmasi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparatining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligining tuzilmalari, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalaridan iboratdir.

Adliya organinig asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni, qonun ustuvorligini ta'minlashga yo'naltirilgan jamiyat va davlat qurilishi sohasida norma ijodkorligi va huquqni qo'llash umaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshirish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalarining norma ijodkorligi faoliyatini tizimli tahlil qilishni tashkillashtirish, ular tomonidan kiritiladigan yoki qabul qilinadigan qonun hujjatlari va boshqa hujjatlar loyihibarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonun hujjatlariga, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga, shuningdek qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligini aniqlash yuzasidan har tomonlama ekspertizani amalga oshirish; amaldagi qonun hujjatlarida "oq dog'lar"ni, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida korrupsiyaning kelib chiqishiga, boshqa huquqbazarliklar sodir etilishiga sharoit yaratayotgan qoidalar va normalarni aniqlash;
- fuqarolik jamiyatni institutlarining har tomonlama rivojlanishini, ularning aholining turli qatlamlari huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashda faol ishtirokini huquqiy ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalarida mustahkamlangan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlash;
- nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatishining qonuniyligini, tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni ta'minlash; mamlakatda ro'yxatdan o'tgan xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoring o'tkazish;
- jamiyatda aholining huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni oshirishga va qonuniylikni mustahkamlashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalarining huquqiy targ'ibot va ma'rifat kolonidagi ishlarini samarali muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

- sudlar faoliyatini har tomonlama moddiy-texnikaviy va moliyaviy ta'minlash, sud hujjatlarining so'zsiz ijro etilishiga, sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlashga yo'naltirilgan davlat siyosatini, tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- notariat, advokatura, FHDYO organlari hamda fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar faoliyatining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan davlat tomonidan tartibga solish tizimini izchil takomillashtirib borish;
- bozor islohotlarini chuqurlashtirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlarining, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, bu sohada byurokratik to'siq va g'ovlarni yaratishga yo'l qo'ymaslik;
- shartnomaviy-huquqiy intizomni mustahkamlash, shartnomalarni, eng avvalo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasida shartnomalarni tuzish va bajarishda xo'jalik yurituvchi subyektlarga amaliy huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- tegishli davlat organlari bilan birgalikda xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining samarali huquqiy himoya qilinishini ta'minlash;
- davlat va jamiyat qurilishi sohasini demokratlashtirishning zamonaviy talablari va jarayonlarini hisobga olgan holda huquqshunos kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish bo'yicha faoliyatni nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat

etilgan. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonun 2000-yil 14-dekabr kuni 162-II son bilan qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasida: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi; harbiy sudlar; Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari; Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlari; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari; fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari; jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari; tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari; tuman (shahar) ma'muriy sudlari faoliyat ko'rsatadi.

Sudlar – hokimiyatning butun tarmog'ini tashkil etuvchi maxsus ogandir. Fuqarolarning huqularini qonunga zid ravishda buzuvchi mansabdar shaxslarning xatti harakati ustidan belgilangan tartibda sudga murojaat qilish mumkin. Ma'muriy va jinoiy ishlab bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish ham qat'iy sudlarning vaklatidir. Shuning uchun ular ma'lum ma'noda jamiyatdagi axloqiy ruhiy muhitni shakllantiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning organlari kuntu murakkab tuzilishga ega. Bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar sholiyatidun kelib chiqadi. Ichki ishlar vazirligi va organlarining muhim vazifasi qonuniylik va huquq tartibotini muntazam mustahkamlab borish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashishdir.

Ichki ishlar vazirligi va uning organlari tezkor qidiruv faoliyatini tushkil qiladilar va ta'minlaydilar, o'z vakolatlardagi ishlar bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergovni ta'minlaydilar, tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar, O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar hamda milliy xavfsizlikni saqlash bo'yicha boshqa tadbirfarning o'tkazilishiga ko'maklashadilar.

Ichki ishlar organlari ishining muhimligi huquqiy davlatni shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasida huquq tartibotni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishni kuchaytirish zaruriyati, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha qat’iy tadbirlar ko‘rish munosabati bilan oshib bormoqda.

Advokatura – fuqarolar va tashkilotlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, odil sudlovnvi amalga oshirish, qonuniylikni saqlash va mustahkamlash, fuqarolarni qonunlarini aniq va so‘zsiz bajarish ruhida tarbiyalash, boshqa shaxslarning huquqlari, sha’ni va qadr qimmatiga hurmatda bo‘lishga ko‘maklashadi.

Interpol – xalqaro politsiya tashkilotidir. U jinoyatchilikka qarshi kurashni muvofiqlashtiradi. Milliy politsiya (militsiya) muassasalariga jinoyatchilikka qarshi kurash, ayniqsa, bir mamlakat hududida jinoyat qilgan jinoyatchini boshqa mamlakatda yashiriningan yoki xalqaro jinoyatchilar guruhi jinoyat sodir etgan hollarda yordam beradi.

Interpol ma’lumotlar va eng yaxshi kriminalistik vositalar, yangi texnikalar, jumladan, turli mamlakatlarning politsiyachilari foydalana-digan kompyuterlarning namunalari te‘plangan. Interpol orqali uning a’zosi bo‘lgan har qanday mamlakat u yoki bu texnika turini sotib olishda maslahat va yordam olishi mumkin.

Interpol jinoyatlarning yaxshi yo‘lga qo‘yilgan hisobotlariga ega. Uning ishida kontrabanda, narkobiznes, quroq sotish, qalbaki pul yasash, suratlar, ikonalar va boshqa milliy madaniy buyumlarni o‘g‘irlashga qarshi kurash alohida o‘rin tutadi. Oxirgi 10-15 yil ichida Interpol xalqaro terrorizmga ham qarshi kurasha boshladi. Interpol siyosatdan tashqari turishga harakat qiladi va BMT bilan hamkorlik qilayotgan nohukumat tashkilotlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq tizimi – Davlat soliq qo‘mitasi, uning joylardagi organlaridan iborat. Soliq organlari yagona davlat soliq siyosati o‘tkazish, mamlakatimiz iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan. Davlat soliq qo‘mitasining o‘z vakolati doirasidagi qabul qilingan qarorlari mahalliy hokimiyat organlari, vazirliklar,

idoralar, korxonalar va tashkilotlar, fuqarolar tomonidan bajarilishi shart. Davlat soliq qo'mitasini ta'minlash borasidagi yagona davlat organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasini asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga riousha etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan nazoratni ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jumg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida va bir xildagi tushumini ta'minlash hisobiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jumg'armalarining daromad qismini barqaror shakllantirish;

- soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarining o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, ularning to'liq qamrab olinish mexanizmlarini soliq ma'muriyatichiligi jarayoniga ma'lumotlarni to'liq yig'ish va qayta ishlashmi ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirish;

- soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha tahlil qilish va tu'sirchan choralar ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko'rnatkichlarning dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali tu'sirchan choralar ishlab chiqish, soliqlar yig'ilishini oshirish bo'yicha choralarни amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

- pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, uholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to'liq va o'z vaqtida topshirilishi yuzasidan muntazam nazoratni ta'minlash;

- bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga riousha etilishi yuzasidan

nazoratni amalga oshirish hamda ularning hududida aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazib, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish;

- soliq to'lovchilar o'z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati – insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkor" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarish;

- soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish, soliqqa oid huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni bajarish;

- soliq to'lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish yo'li orqali soliq to'lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish;

- qonun hujjalarni takomillashtirish va soliq to'lovchilarning faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritish;

- kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, davlat soliq xizmati organlarini yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali xodimlar bilan to'ldirish, shuningdek, kadrlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

- davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani singdirish, korrupsiya faktlariga keskin barham berish bo'yicha ta'sirchan choralarini, shu jumladan xodimlar manfaatlarining to'qnashuvini hal qilish yo'li bilan amalga oshirish, ishga rasmiyatchilik bilan yondashishga barham berish, shuningdek, xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash, o'z xizmat faoliyati samaradorligini oshirish motivatsiyasi tizimini joriy etish va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish;

- hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat soliq xizmati organlariga biriktirilgan sektorlarda soliq solish sohasidagi tizimli muammolarni o'rganish va aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Bojxona organlari – O‘zbekiston respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, uning markaziy apparati, Davlat bojxona qo‘mitasining hududiy boshqarmalari, maxsus bojxona komplekslari va bojxona postlaridan tashkil topgan. Shundan kelib chiqib, ushbu bo‘linmalar Davlat bojxona qo‘mitasining organlari tizimini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi 472-1- sonli qonuni 1997-yil 29-avgust kuni qabul qilingan. Davlat bojxona organlari asosiy vazifasi quyidalardan iborat:

- yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va o‘z vakolati doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash;
- bojxona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- bojxona haqidagi qonun hujjatlariغا rioya etilishini nazorat qilish;
- bojxona to‘lovlarini undirish;
- bojxona nazoratidan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan tovarlar va transport vositalari shunday nazoratdan o‘tkazilishini ta’minlash;
- bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishining, shu jumladan kontributandaning oldini olish, uni aniqlash va ularga chek qo‘yish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatga doir bojxona statistikasini hamda tovar nomenklaturasini yuritish;

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona tashiga oid qismidan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta’minlash.

Jumiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish va isloh qilishning hozirgi bosqichi talablariga muvofiq iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarining hokimiyat vakolatlarini qisqartirish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi vazifalarini aniq chegaralab qo‘yish, shuningdek respublika davlat boshqaruvi organlari shuolynti sumaradorligini oshirishdan iborat.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, qo'mitalar, agentliklar, shuningdek ular huzurida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladigan davlat boshqaruvi tuzilmalari respublika davlat boshqaruvi organlari jumlasiga kiradi.

5.3. Davlat boshqaruvi organlari tizimi

Davlat hokimiyatini amalga oshirish masalasi barcha zamонларда dolzарb bo'lgan va hozir ham shunday. Davlatning institutsiyaviy elementi – davlat hokimiyatining uyuşhtirilishi, tashkillashtirilganligi, ya'ni tashkilot sifatida rasmiylashtirilganligidir. Davlatni tashkilot sifatida turli nuqtayi nazardan talqin etish mumkin. Teran ma'noda, davlat – bu mamlakatning butun aholisini qamrab oladigan iyerarxik (pog'onama-pog'ona uyushgan) tashkilot bo'lib, bunda aholi davlatning boshlang'ich elementi hisoblanadi. Aholining bu uyushmasi – tashkilotida, bir tomonda – "boshqariluvchi fuqarolar" bor, ikkinchi tomonda – butun tashkilotni boshqaruvchi organlari mavjud.

Davlatga o'z hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy - moddiy kuch - bu davlat boshqaruvi organi(apparati)dir. Bu apparat davlatning nimadan tashkil topganligini anglatadi. Davlat apparati - davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi organlar tizimi. U davlat oldida turgan maqsad va vazifalarni bajarishga qaratilgan asosiy funksiyalarini ado etadi. Apparat – jamiyatda boshqaruvni amalga oshiruvchi lavozimli xodimlar va boshqaruvi organlari yig'indisidir. Davlat va huquq nazariyasida davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi maxsus tashkilot "davlat apparati" atamasi bilan ifodalananadi.

Davlat organlari bevosita davlat funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan, o'zaro bog'liqdir va nisbiy mustaqil bo'lgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sudlov organlari(tashkiliy tuzilmalar)ning hamkorlikda faoliyat yurituvchi yagona tizimidir. Mazkur organlar davlati apparatining bir qismi hisoblanib, davlat funksiyasini amalga oshiruvchi ma'lum davlat hokimiyati vakolatlariga ega bo'lgan,

bajarilishi majburiy huquqiy hujjatlar chiqaradigan, ma'lum tartibda tashkil etilgan idoralardir. Davlat organlari tuzilishi jihatidan alohida va mustaqil tashkilot ekanligi, doimiy personallar - davlat xizmatchilarining mavjudligi, faoliyatining moddiy-moliyaviy jihatdan barqaror ta'minlanganligi bilan ajralib turadi.

Davlat organlarining belgilari quyidagilardan iborat:

Operativ boshqaruvda bo'lgan ommaviy mulkka ega va byudjet tomonidan moliyalashtiriladi. Davlat organlari o'z vakolatini amalga oshirish uchun moddiy mablag' bilan ta'minlanadi. Shuningdek, moliyaviy qimmatliklar, bankdagi hisob raqami, byudjet hisobidan moliyalanish manbaiga ega bo'lishi shular jumlasidandir. Masalan, barcha vazirliklar uzining bankdagi shaxsiy hisob raqamiga ega hamda tegishli davlat xizmatchilariga maosh to'lash, ularning xizmat faoliyati uchun zarur texnik vositalar va boshqa jihozlar sotib olish uchun davlat byudjetidan doimiy ravishda moliyaviy mablag'lar ajratiladi.

Davlat nomidan muayyan holda uning vazifa va funksiyalarini amalga oshiradi. Davlat organlari jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat yuritadi. Jumladan, davlatdagи huquqiy tartibotni ta'minlash sohasini lehki ishlар vazirligi, prokuratura organlari amalga oshirsa, davlatning tushqi funksiyalarini Tashqi ishlар vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, mamlakat mudofasini esa Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va boshqa organlar amalga oshiradi.

Hokimiyat vakolatlariga egaligi. Davlat organlari muayyan hokimiyat vakolatlariga egaligi bilan boshqa davlat muassasalari va tashkilotlaridan farq qiladi. Davlat organlari ishontirish va majburlash usullaridan foydulangan holda qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlaydilar. Davlat tashkilotlari va muassasalari esa bu kabi hokimiyat vakolatlariga ega emas.

Turkibiy tuzilishga egaligi. Davlat organlari xizmat turlari va tarkibiy miqdoriga ko'ra muayyan tuzilishga ega. Masalan, ijro etuvchi hokimiyat organlari vazirlik va davlat qo'mitalaridan iborat; vazirlik (qo'mita) turkibi esa bosh boshqarma, boshqarmalar, bo'lim, bo'limlilar tarzida

tashkil etiladi. Masalan, Adliya vazirligida qonunchilik bosh boshqarmasi, Ichki ishlar vazirligida Tergov bosh boshqarmasi, Jinoyat qidiruv bosh boshqarmasi va boshqa tuzilmalar mavjud.

Hududiy faoliyat miqyosiga egaligi. O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat organlarining faoliyat ko'lami butun O'zbekiston hududini qamrab oladi, mahalliy davlat organlarining faoliyati esa faqatgina tegishli viloyat, shahar, tuman hududi miqyosida amalgalashiriladi.

Qonun vositasida tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasida barcha davlat organlari qonun yo'li bilan tashkil etiladi va tegishli qonunlarda belgilab qo'yilgan tartib hamda vakolatlar asosida faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasida noqonuniy tashkilotlar tuzish qat'ian man etiladi. Davlatimiz asosiy qonuning 57-moddasida quyidagilar ta'qidlangan: Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz, qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish qat'ian man qilinadi.

Davlat organlarining turlari. Davlat organlari xilma-xil bo'lib, ular turli vazifa va funksiyalarni amalgalashiradi. Ular faoliyati mazmuni va mezonlariga ko'ra turlicha tasniflanadi:

Davlat faoliyatini amalgalashirish shakli bo'yicha: vakillik, ijroiya, sud organlari va prokuratura organlariga ajratiladi. Davlat organlarini tasniflashning dastlabki asosi – ularning konstitutsiyaviy bo'linishidir. Yagona davlat hokimiyati Konstitutsiyada belgilangan xalq hokimiyatchiligi va demokratizm prinsiplari asosida tarkibiy-funksional belgiga ko'ra alohida organlarga bo'linadi.

Vakillik organlari. O'zbekiston Respublikasida markaziy va mahalliy vakillik organlari mavjud. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi respublikada qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi davlatning oliy vakillik organidir. Ikki palatali Oliy Majlis (Qonunchilik palatasi va Senat) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq o'z vakolatiga kiradigan har qanday masalani o'z muhokamasiiga qabul qilish va hal etish huquqiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyat va tumanlardagi Xalq deputatlari kengashlari mahalliy davlat hokimiyati organlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'i va Konstitutsiyaning kafili hisoblanadi. U davlat hokimiyati organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib turadi hamda ularning hamkorligini ta'minlaydi. Prezident O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish choralarini ko'radi; fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlanishining kafili bo'ladi; mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi; O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini parlament tasdig'iga kiritadi, Bosh vazirning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqdaydi va lavozimlaridan ozod qiladi; O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi, qonunchilik tushshabusi huquqlaridan foydalanadi; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi; Konstitutsiyaviy sud bilan bunnaslahat qabul qilinadigan qaror asosida parlamentni yoki uning palatalaridan birini tarqatib yuborishi mumkin; Konstitutsiya va qonunlarda nazarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Ijroiya organlar. Vazirlar Mahkamasi – iqtisodiy, ijtimoiy va moli'iy sohalarning samarali faoliyat ko'rsatishiga, O'zbekiston Respublikasining qonunlari va Oliy Majlisning hamda uning palatalarini qurorlarini ijro etilishini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

tomonidan qabul qilingan farmon, farmoyish va qarorlar bajarilishini ta'minlovchi ijro organi. Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaning 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga, Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, shuningdek Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri farmoyishlarini bekor qilishga haqlı.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir. Ijro etuvchi organlar vazirliklar va davlat qo'mitalaridan iborat tarzda tarkib topadi.

Sud hokimiyati organlari O'zbekiston Respublikasida besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sndlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sndlari, harbiy va xo'jalik suddaridan iborat. Favqulodda sndlар tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi – barcha normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini nazorat qiladi. U siyosat va huquq sohalaridagi mutaxassislar orasidan Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o'rinosari va sudyalaridan, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi vakilidan iborat tarkibda saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sndlari,

viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sndlari va Harbiy sndlarning faoliyati ustidan nazorat olib boradi. Oliy sud tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat’iy va bajarilishi barcha uchun majburiydir.

O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sndlari – mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar hamda tadbirkorlar o’rtasidagi, iqtisodiyot va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo’jalik nizolarini hal etish masalasi bilan shug’ullanadilar.

O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudi Qoraqalpog’iston Respublikasi xo’jalik sudi, viloyatlar xo’jalik sndlari ustidan nazoratni amalga oshiradi. Xo’jalik sndlari tumanlar miqyosida tashkil etilmaydi.

Prokuratura organlari. O’zbekiston Respublikasi hudud qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O’zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo’ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi. O’zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo’ysunuvchi prokurorlar barcha vazirliklar, davlat qo’mitalari, idoralar, davlat nazorati idoralari, hokimlar, shuningdek, kimning tasarrufida bo’lishidan va mulkchilik shaklidan qat’i nazar, muassasalar, harbiy qismlar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar, fuqarolarning qonunlarni aniq va bir xilda ijro etishlari ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Yuqorida quyiga qarab bo’ysunuviga (iyerarxiyaga) ko’ra: markaziy va mahalliy davlat organlari. O’zbekiston Respublikasida davlat organlari pog’onama-pog’ona bo’ysunish tamoyili asosida tashkil etilgan bo’lib, mahalliy organlar markaziy organlarning itoatida bo’ladi. Markaziy davlat organlari chiqargan normativ-huquqiy hujjatlar mahalliy davlat organlari uchun majburiy xususiyatga ega. Shuningdek, mahalliy davlat organlari tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar markaziy davlat organlari tomonidan bekor qilinishi mumkin. Masalan, Vazirlar Mahkamasing barcha qaror va farmoyishlari mamlakatning barcha viloyatlari, Toshkent shahri hokimlari uchun majburiy xususiyat kasb etadi, viloyat, Toshkent shahar hokimining qarori faqatgina u rahbarlik qilayotgan viloyut (shahar) hududda amal qiladi va bu qarorni yuqori turuvchi organ rahbari Bosh vazir yoki Prezident bekor qilish huquqiga ega.

Vakolat muddatiga ko'ra: doimiy va vaqtinchalik davlat organlari. Doimiy organlar – faoliyat muddati cheklanmagan, doimiy faoliyat olib boruvchi davlat organlari. O'zbekiston Respublikasidagi huquqni muhofaza qiluvchi organlarini doimiy faoliyat olib boruvchi organlar sifatida ko'rsatish mumkin. Masalan, prokuratura, ichki ishlar, soliq, bojxona organlari va boshqalar. Vaqtinchalik organlar – jamiyat oldida turgan biron-bir muhim vazifani muayyan muddat davomida amalga oshiruvchi va mazkur ishlar yakun topishi bilan o'z faoliyatini to'xtatuvchi organlar hisoblanadi. Masalan, turli xil tabiiy ofatlar yuz berganda yoki ommaviy tartibszizliklar yuzaga kelganda davlat tomonidan ushbu xavfni bartaraf etish bo'yicha Hukumat komissiyasi yoki "operativ shtab" tashkil etiladi. Mazkur komissiya yoki operativ shtab yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan muddat davomida faoliyat yuritadi.

Shakllanish manbaiga ko'ra: Birlamchi va ikkilamchi davlat organlari. Birlamchi davlat organlari – xalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylash yo'li bilan tashkil etiladigan organlar. O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati (qisman) saylash yo'li bilan tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham xalq tomonidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudining raislari va sudyalari Senat tomonidan saylanadi. Ikkilamchi davlat organlari - xalq tomonidan saylangan, tashkil etilgan yoki shaxslar tomonidan shakllantiriladigan davlat organlari. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xalq saylagan Prezident va Oliy Majlis tomonidan shakllantiriladi. Vazirliklar va davlat qo'mitalari Prezident tomonidan tashkil etiladi.

Vakolatni amalga oshirish tartibiga ko'ra, kollegial organlar va yakka tartibda vakolatni amalga oshiruvchi organlar. Kollegial organlar - o'z ish faoliyatini jamoaviy tarzda, ya'ni kollegial asosda tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida qonunlar deputatlarning jamoaviy muhokamasi va umumiy ovozi asosida qabul qilinadi. Mahalliy xalq deputatlari kengashlari ham kollegial tarzda faoliyat yuritadi. Yakka tartibda faoliyat yurituvchi davlat organlari –

mazkur organ rahbarlari xizmat faoliyatida muayyan bir ish yuzasidan jamoa bilan maslahatlashuv yoki muhokama qilish shaklidan ma'lum bir ma'noda mustaqil bo'ladi va o'zi yakka holda qaror qabul qiladi. Bunga Prezident, Bosh vazir, Bosh prokuror, hokim va boshqalarни misol tarzida ko'rsatib o'tish mumkin. Ta'kidlash joizki, yakka tartibda qaror qabul qilish va ish yuritish faqat katta vakolat, huquqigina emas, balki ulkan mas'uliyat hamdir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Davlat organi, byudjet hisobi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, prokuratura, adliya organlari, davlat xavfsizlik, soliq, bojxona xizmatlari, davlat tuzilmasi, davlat chegaralari, soliq intizomi.

Takrorlash uchun savollar

1. Davlat organi tushunchasiga izoh bering?
2. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar kimlar va ularning asosiy vazifasi nimadan iborat?
3. Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari nimalardan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimida Prokuratora qanday ahamiyatga ega?
5. Prokuratora organlarining tizimi nimalardan iborat?
6. Adliya organining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari nimalardan iborat?
7. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning organlari qanday tuzilishga ega?
8. O'zbekiston Respublikasi Soliq tizimi nima maqsadda tuzilgan va soliq qo'mitasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
9. Davlatga o'z hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tushkiliy-moddiy kuch nima deb o'ylaysiz?
10. Davlat organlari faoliyati mazmuni va mezonlariga ko'ra qanday tasniflanadi?

VI BOB. SHAXS XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH

6.1. Shaxs xavfsizligini ta'minlash mohiyati va ahamiyati

Shaxs xavfsizligi – bu insonni, uning oilasini va do'stlarini, shuningdek mol-mulkni boshqa odamlarning harakatlaridan va atrof-muhitning salbiy ta'siridan ma'lum darajada himoya qilishni ta'minlaydigan inson faoliyati, bilim va ko'nikmalarining majmui. Boshqacha qilib aytganda, bu insonning o'zini, yaqinlarini va mol-mulkini himoya qilish qobiliyatining umumiy miqdori.

XXI asr odamlarga nafaqat hayotni osonlashtiradigan texnologik taraqqiyot sohasidagi yutuqlarni, balki uni murakkablashtiradigan va ba'zan uni shunchaki chidab bo'lmas holga keltiradigan ko'plab muammolarni ham olib keldi. Kasallik, iqlim o'zgarishi, ekologik muvozanat, urush va boshqalar. Bularning barchasi bizda u yoki bu tarzda aks etadi.

Ko'pchilik bu muammolar ularni chetlab o'tishiga ishonadi, hech qanday global muammolar ularga ta'sir qilmaydi. Ammo haqiqat shundaki, katta kataklizmalar kichiklarni keltirib chiqaradi, bu sizga yoki yaqinlaringizga ta'sir qilishi mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimiz baxtsizligi keng tarqalgan yo'l qo'yuvchilik va nazoratning yo'qligi bo'lib, jinoyatchilikning ko'payishiga olib keldi. Bundan tashqari, jinoyatlar shafqatsiz va murakkablashadi. Bizning davrimizda eng ko'p uchraydigan jinoyatlar bu qotillik, giyohvand moddalar savdosi, avtoulov o'g'irlash, reket, talonchilik va o'g'irlikdir. Oddiy fuqarolar ham, taniqli insonlar ham ulardan sug'urtalanmagan.

Kundalik hayotda bizga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha baxtsizliklar va halokatlardan o'zimizni qanday himoya qilishimiz mumkin? Bu yerda xavfsizlik tushunchasi paydo bo'ladi, uning ta'minlanishi har qanday muammolardan ma'lum darajada sug'urta qilishga imkon beradi va hayotingizni va oila a'zolaringizni, shaxsiy mulkingizni saqlashga

qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. “Beshinchi nuqta” bo‘yicha enaganing baquvvat, ammo xushmuomalalik bilan urishi chaqaloqni hayot dunyosiga kiritadi, go‘yo buyruq berib: “Tirik.”, “Tirik qol!” Deb o‘pkasiga havo tortish imkoniyatini beradi. Xudoning nurida paydo bo‘lgan paytdan boshlab, inson xavf ostida. Ehtimol, ular insoniyat ustidan g‘alaba qozongan bo‘lar edilar, ammo aql-idrokli odam xavfli “jinlar” fitnalaridan himoya qilishning asosiy usuli – xavfsizlikka ega.

Zamonaviy jamiyat sharoitida hayot xavfsizligi masalalari keskin ravishda keskinlashdi va odamlarning omon qolish muammosiga xos xususiyatlarni oldi, ya’ni “tirik qolish, omon qolish, o‘zingizni o‘limdan himoya qilish”.

Shuning uchun ham o‘zingiz uchun, ham boshqalar uchun hayot xavfsizligi asoslarini bilishingiz kerak. Bu haydash paytida xavfsizlik kamaridan foydalanish bilan bir xil. Bu insonga bo‘lgan hurmatning ifodasıdir. Bu hayotni tasdiqlovchi pozitsiya. Keling, birgalikda xavfsizlik nima ekanligini “tajriba” qilaylik.

So‘zning etimologiyasi: YO‘Q + XAVFLI = XAVFSIZ.

Xavfli – “falokat, baxtsizliklar ehtimolini o‘z ichiga olgan”, “birovga zarar yetkazishi mumkin” va boshqalar. XI asr qadimgi rus yozuvlari yodgorliklarida u “xavfli” – “himoya, ehtiyyotkorlik” shaklida uchraydi. Xavfsiz (xavf - himoya, himoya) predlogli birikmasi asosida “xavfsiz” sisatdoshi – “tahdid qilmaydigan”, “himoyalangan” shakllanadi.

Hayotiy xavfsizlik – bu atrof-muhit holati, unda inson mavjudligiga zarar yetkazish ma’lum bir ehtimollik bilan chiqarib tashlanadi.

Qadimgi rimliklar orasida xavfsizlik tushunchasi (lot. Seciaitas) hokimiyat tomonidan kafolatlangan jamoat va shaxsiy xavfsizlikni aks ettirgan. Xavfsizlik va tirikchilik o‘zaro bog‘liqdir.

Hayotiy faoliyat – bu inson tanasida sodir bo‘ladigan murakkab biologik jarayon bo‘lib, u sog‘lik va mehnatni saqlashga imkon beradi. Biologik jarayonning zarur va ajralmas sharti bu faoliyatdir. Keng ma’noda, bu so‘z inson tomonidan uning mavjudligi va rivojlanishi

uchun sharoit yaratishning ko‘p qirrali jarayonini anglatadi. Inson faoliyatining asosiy turlari bu mehnat, o‘rganish, o‘yin.

Faoliyatning boshqa turlari – ijtimoiy-siyosiy, pedagogik, harbiy va boshqalar, har doim ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan mehnat tufayli paydo bo‘ldi.

Turli xil faol harakatlar jarayonida inson atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Ushbu konsepsiya bizni o‘rab turgan, kundalik hayotimiz va faoliyatimizga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan hamma narsalar sifatida tushuniladi.

Atrof muhit inson salomatligiga moddiy omillar orqali doimiy ta’sir qiladi: fizik, kimyoviy va biologik. O‘z-o‘zidan anglashiladiki, psixogen omillar insonga ijtimoiy mavjudot sifatida ham bevosita ta’sir qiladi.

Uzoq evolyutsiya jarayonida inson tabiiy muhitga moslashdi va undagi har qanday o‘zgarishlar uning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir qiladi. Inson tanasi o‘ziga xosdir. Insonning moslashuvchan qobiliyatları chegarasidan oshmasligi sharti bilan ma’lum ta’sirlarga og‘riqsiz chidash. Aks holda, tanaga zarar yetadi, bu ma’lum bir o‘zgarish darajasiga yetganida, baxtsiz hodisa (jarohat) yoki kasallik sifatida belgilanadi.

Tanaga zarar yetkazish bevosita tashqi ta’sir (mexanik, elektr, kimyoviy va boshqalar) va uzoqdan (issiqlik, yorug‘lik va boshqalar) ta’sirida sodir bo‘lishi mumkin. Zarar ta’sirlangandan keyin darhol yoki undan keyin ma’lum vaqt o‘tgach (masalan, radiatsiya ta’siridan keyin) sodir bo‘lishi mumkin.

Xavfli va zararli omillar, odatda, xavfli zonalar deb ataladigan tashqi ko‘rinishdagi fazoviy maydonlarga ega.

Xavfli zonada odamni topish tanaga zarar yetkazish shartlaridan biridir. Bunday holda, xavfli omil (xavf) tanaga zarar yetkazish uchun yetarli energiyaga ega bo‘lishi kerak. Ammo ko‘p hollarda, odamlar o‘zlarini yashirin xavfga ahamiyat bermaydilar va o‘zlariga zarar yetkazadilar. Xavfga beparvo munosabatning odatiy namunasi – yo‘l harakati qoidalarini buzish. Svetofor nima uchun o‘rnatilganligini bilmaydigan piyoda deyarli yo‘q va shunga qaramay, ko‘pchilik qizil

chiroqqa o'tmoqda. Natijada, yo'l-transport hodisalarining qariyb yarmiga piyodalar sabab bo'ldi.

Insoniyat jamiyatining rivojlanishi bilan texnogen xavf-xatarlar, ya'ni texnologiyadan kelib chiqqan holda tabiiy xatarlarga uzlusiz ketma-ketlik qo'shildi. Ilmiy-texnik taraqqiyot foyda bilan birga insonga ham, atrof-muhitga ham behisob ofatlar keltirdi.

Texnogen xavflar o'zlarini texnik nosozliklar, yong'inlar, portlashlar va boshqa bashorat qilish qiyin bo'lgan hodisalar shaklida namoyon qilishi mumkin. Bunday ekstremal vaziyatlarning ta'sir zonasiga kirib, odamlar turli darajadagi jarohatlar olishlari mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, inson o'zi ko'pincha xavf manbai hisoblanadi. O'zining harakati yoki harakatsizligi bilan u o'zi va atrofdagilar uchun hayot va sog'liq uchun haqiqiy tahdidni yaratishi mumkin. Odamlar tomonidan yetkaziladigan xavf juda xilma-xildir. Urushlar, ijtimoiy-siyosiy mojarolar, jinoyatlar, fohishabozlik, giyovandlik, OITS, ochlik, qashshoqlik, madaniyat yetishmasligi - insoniyat jamiyatining bu va boshqa illatlari ijtimoiy xavf hisoblanadi.

Shunday qilib, atrofdagi dunyoning xavfliligi shartli ravishda aniq aniqlangan uchta guruhga bo'linadi: tabiiy, texnogen va ijtimoiy.

Olimlar shunday xulosaga kelishganki, inson qanday faoliyat bilan shug'ullanmasin, qayerda bo'lmasin, uning yonida doimo unga tahdid soladigan yashirin kuchlar mavjud. Bu potensial, ya'ni mumkin bo'lgan xavf (lotin tilidan tarjimada "yashirin kuch" degan ma'noni anglatadi).

Atrofimizdag'i potensial xavf-xatarlarning doimiy borligi baxtsizlik ulbatta yuz berishini anglatmaydi. Buning uchun ma'lum shartlar talab qilinadi. Ushbu shartlar sabablar deb ataladi.

Baxtsiz hodisalar ko'pincha o'zimizning yoki boshqalarning beparvoligimizdan kelib chiqadi. Sog'lig'ingizni va hayotingizni saqlab qolish uchun siz potensial xavfni haqiqiy xavfga aylantirish sabablarini yaxshi bilishingiz va tezda bartaraf etishingiz kerak.

O'zingizni baxtsizlikdan himoya qilish har doim ham mumkin emas, chunki ba'zi xavflar bizning harakatlarimizga bog'liq emas, ular

to'satdan paydo bo'lib, mulohaza yuritish, najot uchun vaqt qoldirmaydi. Masalan, portlash, zilzila, bo'ron.

6.2. Shaxs erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi

Inson o'zining hayot faoliyatini tabiat va jamiyat bilan dialektik bog'liqlikda olib boradigan, tabiat qonunlari va ijtimoiy munosabatlarning obyekti va subyekti bo'lgan tabiiy-biologik mavjudot va ijtimoiy voqelikdir². Insonda tabiiy-moddiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy xususiyatlar mavjud bo'ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida insonning imkoniyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- shaxsiy mol-mulki, boyligining miqdori. Bu esa shaxsning ko'chmas va harakatdagi mulki, shaxsiy kapitalining jamisidan iborat bo'ladi;

- shaxs boshqaradigan kapital miqdori. Bu kapital kimniki va qanday shaklda bo'lishi ahamiyatsizdir;

- shaxsga ma'muriy, ixtiyoriy yoki majburiy ravishda bo'ysunuvchi yoki unga qaram jismoni shaxslar soni. Bularga kishilarning ongi va kayfiyatiga ta'sir ko'rsata oladigan hamda bilim, tarbiya, axborot olish, diniy ishlarda ma'lum ijtimoiy vazifani o'taydigan shaxslar ham kiradi.

Ushbu shaxs imkoniyatini belgilovchi parametrlar, asosan, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning amal qilishiga va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuni aytish joizki, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy va boshqa tizimlari inson uchun yashash muhiti hisoblanadi. Shu boisdan ularning amal qilish samaradorligini faqat inson manfaatlariiga qay darajada mosligi nuqtayi nazaridan baholash mumkin bo'ladi.

Inson va uning manfaatlari uchun oila muhim ahamiyat kasb etadi. Oila qarindoshlik aloqalari va maishiy hayot umumiyligi asosida ongli ravishda tashkil etilgan kishilarning kichik guruhidan iborat. Oilaning hayot faoliyati shaxsning, u a'zo bo'lgan oila va jamiyatning ijtimoiy,

² Abulqosimov H.P. Shaktlanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish yo'llari. – T.: TMI nashriyoti, 2005. 8-b.

iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish maqsadida amalga oshiriladi hamda o'zining uy xo'jaligini mustaqil ravishda yuritadi.

Insonning hayot kechirishi va faoliyat yuritish makoni jamiyatda demokratik yo'l bilan konstitutsion normalar doirasida kengaytirib borilishi kerak. Bu makonni revolyutsion yo'l bilan, o'rnatilgan konstitutsion normalarga zid yo'llar bilan o'zgartirishga urinishlar jamiyatda vayronagarchilik, zo'ravonliklarning vujudga kelishiga olib keladi. Inson hayoti va faoliyati ushbu makonda mustaqillik, erkinlik hamda jamiyat, davlat oldida o'z majburiyatlariga ega bo'ladi. Ushbu makonda inson hayotiy muhim manfaatlari ega bo'lib, ularga nisbatan tahdidlarning vujudga kelishi shaxs xavfsizligiga putur yetkazadi.

6.3. Shaxsning hayotiy muhim manfaatlari va uning xavfsizligiga tahdidlar

Insonning ehtiyojlari, manfaatlari salbiy ta'sir ko'rsatadigan, ularni ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladigan omillardan himoyalanganligi shaxs xavfsizligi deb ataladi. Shaxs xavfsizligi o'z ichiga uning hayoti, salomatligi, erkinligi va shaxsiy daxlsizligiga, qadr-qimmati, sha'ni va obro'siga, mol-mulkiga qilingan tajovuzlardan himoyalanishni oladi.

Shaxs manfaatlari va xavfsizligiga tahdidlar ko'p qirrali bo'lib, ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- shaxsning o'z oldiga noto'g'ri maqsadlarni qo'yishi;
- boshqa, tashqi ijtimoiy tizimlar tahdidi;
- ichki ijtimoiy tizimda vujudga keladigan tahdidlar;
- tabiiy tahdidlar.

Shaxs bilan bog'liq tahdidlar ichida ijtimoiy tahdidlar ham mavjud.

Ularga quyidagilar kiradi:

- ishsizlik;
- kambag'al bo'lib qolish;
- jamiyatda aholining ijtimoiy va mulkiy tabaqlanishi, daromadlarning tengsizlikning kuchayishi, kambag'al aholi qatlamlarining ko'payishi, aholi turmush darajasining pasayishi;

- mehnat sharoitlarining yomonlashuvi, ishchi kuchi malakasi va sifatining pasayishi;
- aholi o'rtacha umr ko'rish darajasi, davomiyligining qisqarishi, tug'ilish darajasining pasayishi, o'lim darajasining o'sishi, aholi tabiiy o'sishi sur'atlarining haddan tashqari pasayib ketishi;
- onalar va bolalar o'limi va kasallanishining o'sishi, turli infeksion, yuqumli kasalliklarning, jumladan, OIV/OITS va tuberkulez, gepatit, bezgak kasallari, norkomaniya tarqalishining o'sib borishi, mayib va majruhlar sonining ko'payishi;
- uysiz va ishsiz, daydi kishilar, gadoylar hamda qarovsiz bolalar, lyumpen proletariatning ko'payishi;
- xufyona iqtisodiyot ko'laming kengayishi, poraxo'rlik, korrupsiya, tovlamachilik, uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi;
- sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy communal xizmat ko'rsatish narxlarining haddan tashqari o'sib ketishi va sifatining pasayishi, aholi ko'pchilik qismining davolanish va ta'lim olish imkoniyatlardan mahrum bo'lishi;
- aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ommaviy axborot vositalari, Internetdagи madaniy-oqartuv tadbirlarida axloqsiz, buzg'unchi, ma'naviy qashshoq turmush tarzining zo'r berib targ'ib va tashviqot qilinishi juda xavfli tahdid hisoblanadi.

6.4. Shaxs xavfsizligini ta'minlash yo'llari va vositalari

Shaxs manfaatlari va xavfsizligiga tahdidlarga munosabatda insonning ruhiy holatini faollik, bag'rikenglik (tolerantlik), chidamlilik sifatida tavsiflash mumkin.

Faollik insonning o'z maqsadini tanlashi hamda unga erishishida kuch-qudrat, shijoat, jo'shqinlik bilan faoliyat ko'rsatish va mehnat qilishga shayligi hisoblanadi. Bu hol shaxsning ma'lum bilim, kasb-malaka, mahoratga ega bo'lib, o'zgaruvchan vaziyatlar va holatlarda ham o'ziga munosib joyni erkin egallashga, yuqori natija va samara bilan

ishlashga imkon beradi. Bunday holatdagi kishi raqobatbardosh, iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lib, o‘zining mehnati, mahorati, ishbilarmonligi tufayli ko‘pgina ehtiyojlarini qondira oladi.

Shaxsnинг xavfsizligi hozirgi davrda quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- aholining mehnat va tadbirkorlik faolligi;
- mehnat unumдорлигига ишлаб чиқарыш салардорлигининг о‘sishi, iqtisodiy o‘sishga erishish;
- tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatining yaxshilanishi;
- mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligining oshishi va ishsizlikning kamayishi;
- aholi daromadlari va iste’molining, o‘rtacha daromad darajasining o‘sishi;
- kishilarning bilim, kasb-malaka va madaniyat darajasining o‘sishi;
- ma’naviyatning rivojlanishi;
- fanning rivojlanish darajasi;
- kambag‘allik va qashshoqlikning kamayishi;
- aholi o‘lim darajasining kamayishi;
- aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasining o‘sishi.

Davlat shaxs xavfsizligini baholash uchun jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni vujudga keltirishi mumkin bo‘lgan quyidagi ko‘rsatkichlarni tuhlil qilib borishi kerak bo‘ladi:

- jamiyatda aholining tor doirada nihoyatda boy-badavlat va kelajagiga ishonchini yo‘qotgan nihoyatda kambag‘al kishilarga ajralishi, ularning daromadlari o‘rtasidagi farqning kattalashib borishi;
- ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan darajada ishsizlikning o‘sishi;
- kambag‘allik va qashshoqlik muammosini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan darajada aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishi;
- shaharlarda qishloqlardagiga nisbatan kambag‘al kishilarning ko‘payishi, narkomaniya, fohishalik, tashkiliy jinoyatchilikning o‘sishi uchun sharoitning vujudga kelishini oldini olish;

-jamiyatda va xo‘jalik faoliyatida korrupsiya va kriminallashuvning o‘sishi.

Shaxsnинг xavfsizligini ta’minlashda davlatning ijtimoiy siyosati muhim rol o‘ynaydi. Davlatning ijtimoiy siyosati, uni amalga oshirish mexanizmlari odamlarning mehnatdagi faolligi va tadbirkorligini o‘stirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilishi lozim.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida o‘tish davrida O‘zbekistonda davlatning ijtimoiy siyosati quydagilarga qaratilgan:

-fuqarolarning erkin iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat, kasb turlari hamda sohalarini erkin tanlash kabi konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash;

-mehnat motivatsiyasining kuchli mexanizmini kiritish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish uchun sharoitlar yaratish;

-aholini maqsadli va manzilli ijtimoiy himoya qilish hamda kam ta’minlangan guruhlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

-ta’lim, ijtimoiy sug‘urta, sog‘liqni saqlash tizimlarini isloh qilish yo‘li bilan aholining ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan zarur kafolatni ta’minlash¹. Shuningdek, davlat ijtimoiy siyosati aholining daromad va mulkka egalik darajasi bo‘yicha keskin tabaqalashuvining oldini olish hamda aholining fo‘lov talablarini keng miqdorda qondirish va uning o‘sishini ta’minlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi. Har bir shaxs, fuqaro xavfsizligini ta’minlashda fuqaroning o‘zi, u ishlaydigan mehnat jamoasi, davlat, jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorlikdagi faoliyati talab etiladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Shaxs xavfsizligi, hayotiy xavfsizlik, hayotiy faoliyat, evolyutsiya jarayoni, xavfli va zararli omillar, inson va uning manfaatlari, shaxs erkinligi, shaxsnинг iqtisodiy mustaqilligi, ishsizlik, tahdidlar, mehnat sharoiti.

Takrorlash uchun savollar

1. Shaxs xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
2. Shaxs xavfsizligini ta'minlash mohiyati va ahamiyati nimadan iborat?
3. Xavfli va zararli omillarga misollar keltiring?
4. Bozor munosabatlari sharoitida insonning imkoniyatlari nimalar bilan belgilanadi?
5. Shaxsnинг hayotiy muhim manfaatlari va uning xavfsizligiga tahdidlar deganda nimani tushunasiz?
6. Ijtimoiy xavfsizlik shakllari nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Davlat shaxs xavfsizligini baholash uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak?
8. Shaxsning xavfsizligini ta'minlashda davlatning ijtimoiy siyosati qanday ahamiyatga ega?
9. Odamlarning mehnatdagi faolligi va tadbirkorligini o'stirish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
10. Fuqaro xavfsizligini ta'minlashda asosan nimalarga e'tibor berish lozim?

7-BOB. FAVQULODDA HOLATLARDA XAVFSIZLIKNI BOSHQARISH

7.1. Favqulodda holatlarda xavfsizlikni ta'minlovchi organ faoliyatining maqsadi va vazifalari

Favqulodda holat – odamlar qurbon bo‘lishiga, ularning sog‘lig‘i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat.

Favqulodda holatlarning oldini olish – oldindan o‘tkaziladigan hamda favqulodda holatlar ro‘y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday holatlar ro‘y bergen taqdirda esa, odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi;

Favqulodda holatlarni bartaraf etish – favqulodda holatlar ro‘y berganda o‘tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda holatlar ro‘y bergen zonalarning kengayishiga yo‘l qo‘ymaslikka hamda xavfli omillar ta’sirini tugatishga qaratilgan qutqaruв ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar kompleksi.


O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagи 824-I-sonli “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunining 8-moddasida “Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha maxsus vakolatli davlat boshqaruв organi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligidir” deb belgilab qо‘yilgan.

- Favqulodda holatlarda xavfsizlikni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining maqsad va vazifalari quyidagilardan iboratdir: favqulodda holatlarning oldini olish, bunday holatlarda odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlash, moddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilish, shuningdek favqulodda holatlar oqibatlarini bartaraf etish va zararini kamaytirish yuzasidan choralar ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- aholini va hududlarni favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasida maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilishini tashkil etish;
- o'z vakolati doirasida vazirlik va idoralar, korxona, muassasa va tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qilish;
- boshqaruv organlarining, aholini va hududlarni muhofaza qilish kuchlari va vositalarining favqulodda holatlar sharoitida harakat qilishga tayyor bo'lishini tashkil etish;
- favqulodda holatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari boshqaruvini amalga oshiradi, boshqaruv punktlari, xabar berish va aloqa tizimlarini tuzish;
- favqulodda holatlar sharoitida avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar o'tkazilishini tashkil etish;
- aholini va hududlarni favqulodda holatlardan muhofaza qilish tadbirlari bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlar bo'yicha loyihalar va qarorlar yuzasidan davlat ekspertizasi o'tkazilishida ishtiroy etadi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

7.2. Favqulotda holatlarda xavfsizlikni ta'minlovchi organining boshqaruv tizimi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida" 1996-yil 4-

martdag'i PF- 1378-s'on Farmoniga muvofiq favqulodda holatlarda xavfsizlikni ta'minlovchi organning boshqaruv tizimini (1-rasm) quyida ko'rib chiqamiz.



1-rasm. Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkiliy tuzilmasi

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining usosiy vazifalari:

- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi hayoti va salomatligini, moddiy va ma'nnaviy qadriyatlarini muhofaza qilish, shuningdek, tinchlik va urush vaqtida favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararlarini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi xatti-hurakatlarni boshqarishning davlat tizimi(FVDT)ni tashkil etish va faoliyatini ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish;
- O'zbekiston Respublikasi hududida aholini, mamlakat hududini, respublikaning milliy boyligi bo'lgan obyektlarni muhofaza qilish, shuningdek, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqishni tashkil qilish hamda amalga oshirish;
- vazirliliklar, idoralar, Qoraqalpog'ston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklarining aholini va milliy boyliklarni muhofaza qilish, avariyalar, halokatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir faoliyatini muvofiqlashtirib borish;
- yirik favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga rahbarlik qilish, ushu maqsad uchun zarur bo'lgan kuch va vositalarni tashkil etish va ularning tayyorligini ta'minlash;
- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga, aholini, mamlakat hududini muhofaza qilishga hamda favqulodda vaziyatlar vujudga kelgan taqdirda xalq xo'jaligi obyektlari faoliyat ko'rsatishining barqarorligini oshirishga qaratilgan maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqishni tashkil etish va amalga oshirish;
- moliya, oziq-ovqat, tibbiyot va moddiy-texnika resurslarining davlat favqulodda zaxira fondlarini tashkil etishga doir ishlarni muvofiqlashtirib borish;

- aholini, FVDT mansabdon shaxslarini va tuzilmalarini favqulodda vaziyatlardagi harakatlarga tayyorlashni tashkil etish;
- vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlikni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri vakolatlari:

- vazirlik hamda unga qarashli korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va tuzilmalar faoliyatiga rahbarlik qiladi, O'zbekiston Respublikasining davlat va boshqa organlari hamda tashkilotlarda, shuningdek, xalqaro tashkilotlarda Vazirlik nomidan vakillik qiladi;

- vazir o'rinnbosarlari o'ttasida vazifalarni taqsimlaydi, ularning javobgarlik darajalarini hamda Vazirlik tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining javobgarlik darajalarini belgilaydi, belgilangan xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida Vazirlik markaziy apparatining tuzilmasini va shtatlar ro'yxatini shuningdek, tegishli davr uchun tasdiqlangan byudjet ajratmalari doirasida ularni mablag' bilan ta'minlash xarajatlari smetasini tasdiqlaydi;

- buyruqlar, direktivalar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;
- vazirlikning oliy ofitserlar tarkibi ishlaydigan lavozimlari ro'yxati to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga ko'rib chiqish uchun Favqulodda vaziyatlar vazirligi markaziy apparatida va unga qarashli tashkilotlarda oliy ofitserlar tarkibi ishlaydigan lavozimlarga tayinlashlar to'g'risida hamda xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarni lavozimdan ozod qilish to'g'risida, ularga oliy ofitserlar tarkibi harbiy unvonlari berish to'g'risida, ularni harbiy xizmatdan bo'shatish to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

- Mudofaa vazirligining ofitserlar tarkibi uchun belgilangan tartibda va muddatlarda ofitserlarga polkovnik (uni ham qo'shgan holda) darajaqigacha harbiy unvonlar beradi;

- favqulodda vaziyatlar hududiy boshqarmalari (bo'linmalari) boshliqlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi,

viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimlari bilan kelishgan holda havoziyiga tayinlaydi;

- vazirlilik tiziminining alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini davlat mukofotlari bilan taqdirlash hamda ularga faxriy unvonlar berish, shuningdek, idoraviy mukofotlar ta’sis etish to‘g‘risida belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

- xodimlarni, shuningdek harbiy xizmatchilarini xizmat safarlariga, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi xizmat safarlariga, belgilangan tartibda yuboradi;

- Favqulodda vaziyatlar vazirligini mablag‘ bilan ta’minlash uchun ajratiladigan kreditlarning bosh tasarrufchisi hisoblanadi;

- davlat byudjeti hisobidan ajratilgan moddiy mablag‘larni hamda xizmat resurslari uchun belgilangan muddatni o‘tab bo‘lgan moddiy-texnik vositalarni ro‘yxatdan chiqarishga oid hujjatlarni belgilangan tartibda tasdiqlaydi, obyektlar, texnik vositalar, asbob-uskunalar va qurol-yarog‘larga doir ishlab chiqilgan loyiha- smeta hujjatlari bo‘yicha loyihalash va texnik xulosalar berish yuzasidan topshiriqlarni tasdiqlaydi;

- avariya-qutqaruv tuzilmalari uchun qurol-yarog‘larning, texnika va texnik vositalarning yangi turlarini loyihalash yuzasidan topshiriqlarni, shuningdek, ilmiy- tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari uchun taktik-texnik topshiriqlarni tasdiqlaydi.

Moddiy-texnik ta’minot va moliya iqtisod bo‘yicha vazir o‘rnbosarining asosiy vazifalari:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining talablariga, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishi;

- Vazirlilikning nazorat qilinadigan tarkibiy bo‘linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va bevosita boshqarish, ularning xodimlari o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlash;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari bilan va Vazirlar Mahkumasining qarorlari bilan tasdiqlangan davlat organlari faoliyatini yuridika takomillashtirish, vazirlilikning unga tegishli yo‘nalishlari

to‘g‘risida konsepsiyalarni, kompleks dasturlarni va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishning tanqidiy va chuqur tahlilini o‘tkazish;

- Tarkibiy bo‘linmalar tomonidan nazorat qilinadigan prognoz ko‘rsatkichlariga erishishni mutlaqo kafolatlash chora-tadbirlarini ko‘rish, bo‘lim boshliqlarining hisobotlarini muntazam tinglash va ushbu ko‘rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish;

- Nazorat qilinadigan tuzilmalar bo‘linmalari rahbarlarining har choraklik rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishini nazorat qilish;

- Vazirlar kengashining qarorlarini, vazirlik buyruqlari va ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

- Nazoratchilar tarkibida kadrlarni tanlash va joylashtirish bo‘yicha takliflarni taqdim etish, ularning kasbiy mahoratini, malakasini, ish tajribasini, ishchanlikning yuqori darajasi axloqiy va ma’naviy sifatlarini ta’minlash, ularning kasbiy malakalarini oshirish, nazorat qilinadigan tarkibiy tuzilmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirish;

- Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilgan normativ-huquqiy hujjatlarning taklif va loyihamalarini to‘liq va ularning huquqiy, moliyaviy, iqtisodiy va boshqa tajribalari har tomonlama ko‘rib chiqish;

- Muhim samaradorlik tahlilini tizimli bajarish va nazorat qilinadigan tuzilmalar bo‘linmalari rahbarlari va xodimlarining shaxsiy hisobotlarini eshitishlari, Vazirlik hay‘atining majlislarida zaruriy chora-tadbirlarni qabul qilish;

- Vazirlikni takomillashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, faoliyat doirasiga oid masalalar, takliflar ishlab chiqish, qonunchilikni takomillashtirish va ularni Vazirga taqdim etish;

- Vazirga vazirlikni ilgari surish va jalb qilish bo‘yicha takliflar kiritish, nazorat qilinadigan tuzilmalar bo‘linmalari rahbarlari va xodimlarining intizomiy javobgarligini, shu jumladan o‘zlarining doimiy faoliyatini maqsadga muvofiqligini ko‘rib chiqish, funksional majburiyatlarni bajarish uchun ularning shaxsiy javobgarligini oshirish va tayinlangan vazifalar bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- Davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish, yetkazib berish sifati va imkoniyatlarini oshirish bo'yicha Vazirga takliflar kiritish;
- Davlat sirlari va maxfiy axborot sifatida tasniflangan axborot bilan ishlashda qonunchilik talablariga rioya qilish.
- Vazirlikning moliyaviy siyosatini belgilaydi;
- Vazirlikning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha choralar ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- Vazirlikning rivojlanish istiqbollari va strategik maqsadlaridan kelib chiqqan holda unga bo'ysunadigan moliyaviy boshqaruv va moddiy-texnik ta'minoti uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'lmalar faoliyatini nazorat qiladi;
- Buxgalteriya siyosatini takomillashtirish bo'yicha ishlarni olib boradi;
- Vazirlik binosi va inshootlarini kapital qurilish va rekonstruksiya qilish bo'yicha istiqbolli va davom etadigan rejalarни ishlab chiqishni nazorat qiladi, shuningdek, ma'muriy, uy-joy mulkdorlari shirkatlari, kommunal obyektlar madaniy va asosiy vositalarni, obyektlarni ishga tushirish rejalarini ishlab chiqadi;
- Moliyaviy tavakkalchiliklarni tahlil qilish va baholashni amalga oshiradi, ularni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi;
- Moliyaviy intizomga ryoja etilishini nazorat qilishni, shartnomaviy muajburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlaydi, daromad olish, yetkazib beruvchilar, mijozlar, kredit tashkilotlari bilan moliyaviy va biznes bitimlarni qayta ishslash tartibini, shuningdek tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi;
- Vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni joylashtirish, kreditlar olish manzillari bo'yicha, kredit tashkilotlari bilan o'zar hamkorlik qiladi;
- Buxgalteriya, soliq, statistika va boshqaruvni hisobga olish tufabnlriga muvofiq moliyaviy boshqaruv uchun axborot tizimini rivojlantirishni tashkil qiladi;

- Vazirlikning to‘lov qobiliyatini ta’minlash va daromadlarini oshirish, moliyaviy va investitsiya loyihalarining samaradorligini ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘radi;
- Ombor xo‘jaligi ishini tashkil qiladi, moddiy resurslarni to‘g‘ri saqlash va saqlash uchun sharoitlar yaratadi;
- Markaziy bo‘ysunishning tarkibiy bo‘linmalari va muassasalari faoliyati baholanadi va buning natijasida tegishli rag‘batlantirish choralar hamda jazolarni qo‘llash bo‘yicha vazirga takliflar kiritadi, yoki o‘zi ularga berilgan vakolatlar doirasida ularni buyurtma qiladi;
- Vazirlik faoliyatining moddiy-texnika va moddiy-texnik ta’minoti bo‘yicha tizimli ishlar olib boradi va amalga oshiradi.
- Xodimlarning malakasini oshirish bo‘yicha ish olib boradi va metodik yordam ko‘rsatadi;
- Fuqaro muhofazasi, aholi va hududlarni himoya qilish sohasidagi davlat siyosatini ishlab chiqishda bevosita ishtirok etmoqda;
- Fuqarolik muhofazasi manfaatlari yo‘lida foydalilaniladigan maxsus qutqaruв uskunalarini va jihozlari, himoya vositalari hamda boshqa moddiy-texnik vositalar uchun davlat buyurtmasini shakllantiradi;
- Davlat organlari, fuqarolik mudofaasi kuchlari va obyektlari hamda Favqulodda vaziyatlar davlat xizmatining aholi va hududlarni himoya qilishga tayyorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni moliyaviy qo‘llab- quvvatlaydi.

Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi bo‘yicha vazir o‘rinbosarining asosiy vazifalari:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining talablariga, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishi;
- Vazirlikning nazorat qilinadigan tarkibiy bo‘linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va bevosita boshqarish, ularning xodimlari o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari bilan va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlangan davlat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, vazirlikning unga tegishli yo‘nalishlari to‘g‘risida

konsepsiyalarni, kompleks dasturlarni va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishning tanqidiy va chuqur tahlilini o'tkazish;

- Tarkibiy bo'linmalar tomonidan nazorat qilinadigan prognoz ko'r-satkichlariga erishishni mutlaqo kafolatlash chora-tadbirlarini ko'rish, bo'lim boshliqlarining hisobotlarini muntazam tinglash va ushbu ko'rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy mas'uliyatini oshirish;

- Nazorat qilinadigan tuzilmalar bo'linmalari rahbarlarining har choraklik rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishini nazorat qilish;

- Vazirlar kengashining qarorlarini, vazirlik buyruqlari va ko'rsatmalarini o'z vaqtida va sifatlari bajarilishini ta'minlash;

- Nazoratchilar tarkibida kadrlarni tanlash va joylashtirish bo'yicha tukliflarni taqdim etish, ularning kasbiy mahoratini, malakasini, ish tujribasini, ishchanlikning yuqori darajasi va axloqiy va ma'naviy sifatlarini ta'minlash, ularning kasbiy malakalarini oshirish, nazorat qilinadigan tarkibiy tuzilmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirish;

- Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilgan normativ-huquqiy hujjat-larning taklif va loyihamini to'liq va har tomonlama ko'rib chiqish, ularning huquqiy, moliyaviy, iqtisodiy va boshqa tajribalari o'tkazish;

- Vazirlikni takomillashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, faoliyat doirasiga oid masalalar, takliflar ishlab chiqish, qonunchilikni takomillashtirish va ularni Vazirga taqdim etish;

- Vazirga vazirlikni ilgari surish va jalg qilish bo'yicha takliflar kiritish, nazorat qilinadigan tuzilmalar bo'linmalari rahbarlari va xodimlarining intizomiy javobgarligini, shu jumladan o'zlarining doimiy shayxitining maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish, funksional mujhuriyatlarni bajarish uchun ularning shaxsiy javobgarligini oshirish va tuyinlangan vazifalar bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- Davlat xizmatlarini samaradorligini oshirish, sifati va imkoniyatlarini oshirish bo'yicha Vazirga takliflar kiritish;

Davlat sirlari va tasniflangan axborot bilan ishlashda qonunchilik talablariga riyoq qilish.

- Aholini va hududlarni muhofaza qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablarini bajarilishini muvofiqlashtirish va nazoratni amalga oshiradi;
- Davlat hokimiyati organlarida favqulodda holatlardan, xo'jalik yurituvchi subyektlar va boshqa tashkilotlar bilan ta'minlaydi, ular o'z vazifalarini bajarishda zaruriy metodik va amaliy yordam ko'rsatadi;
- Aholi va hududlarni radiatsiyaviy tahdidlar, kimyoviy va biologik (bakteriologik) kontaminatsiya (ifloslanish) tahdidlaridan himoya qilish va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar sohasidagi davlat boshqaruv organlari bilan birgalikda rivojlanishni nazorat qiladi;
- Zilzilalar, xavfli geologik va gidrometeorologik hodisalar, texnogen falokatlar davrida aholiga va iqtisodiy obyektlarga tahidlarning oldini olishni tashkil qiladi;
- Tabiiy va texnogen xususiyatdagi tahiddilarni kamaytirish uchun fuqarolik muhofazasi va aholi bilan profilaktika ishlari sohasida iqtisodiy obyektlarning tayyorlanishini tashkil etadi;
- Aholi va boshqaruv xodimlarini o'qitishni tashkil etishni, shuningdek fuqarolik muhofazasi tuzilmalarini tayyorlashni boshqaradi;
- Favqulodda vaziyatlarning lokalizatsiya qilish va oqibatlarini bartaraf etish jaflayonida zararli moddalarni zararsizlantirish va dezinfeksiya qilish ishlarini tashkil etish va amalga oshirishni boshqaradi;
- Muntazam kimyoviy-radiometriyani tashkil qiladi, yerning biologik (bakteriologik) nazorati, axborot-tahliliy ishlarni olib borish va radiatsiyaviy, kimyoviy va biologik (bakteriologik) kontaminatsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan tabiiy, texnogen va ekologik vaziyatning oldini olish, oldini olish va tugatish sohasidagi takliflarni ishlab chiqadi;
- Fuqarolik muhofazasi zaxiralari va xo'jalik obyektlarida saqlanayotgan mol-mulk omborlarida radiatsiyaviy va kimyoviy himoya vositalarining laboratoriya tekshiruvlarini belgilangan tartibda amalga oshirishni tashkil etadi;
- Ommaviy qirg'in qurollari yoki uning tarkibiy qismlarini ishlatish bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish

bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirishga rahbarlik qiladi;

- Vazirlikning tuzilmaviy bo'linmalari, Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va aholida ularning harakatga tayyorlash bo'yicha vazirlikka yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlar, idoralar va vazirliklarning markaziy apparati mustaqil bo'linmalari, hududiy boshqarmalar boshliqlarining so'rovlarini talab qiladi.

7.3. Favqulodda holatlarda xavfsizlikni boshqarishning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagи 824-I-sloni "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining 9-moddasidan 13-moddasiga qadar favqulodda holatlarda davlat organlari va idoralarning favqulodda holatlarda xavfsizlikni boshqarish bo'yicha usosiy yo'nalishlari belgilab qo'yilgan.

9-modda. Vazirliklar va idoralar favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasida:

- o'z tasarrufidagi korxona, muassasa va tashkilotlarning favqulodda holatlар sharoitida harakat qilishga shay bo'lib turishini ta'minlashlari;

- tarmoqning va o'z tasarrufidagi obyektlarning favqulodda holatlар sharoitida barqaror ishlash imkoniyatini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari;

- favqulodda holatlardan muhofaza qilish bo'yicha harakatlar rejasini, nizomlar, qoidalar va yo'riqnomalarni kelishib olish uchun O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga taqdim etishlari;

- o'z tasarrufidagi obyektlar xodimlarini qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari tarkibida favqulodda holatlarda muhofazalanish usullarini va harakat qilishga o'rgatishlari;

- favqulodda holatlar to‘g‘risida xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishlari va ularni doimo shay holatda saqlab turishlari;
- aholining va hududlarning muhofazalanish holati to‘g‘risida belgilangan tartibda axborot berishlari, shuningdek tarmoq xodimlarini favqulodda holat tahdidi borligi to‘g‘risida xabardor qilishlari;
- moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratishlari;
- favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish rejalariga muvofiq o‘z tasarrufidagi ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarda hamda ularga tutash hududlarda avariya, qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlar tashkil etilishi, moliyalanishi va o‘tkazilishini ta’minlashlari;
- o‘ta muhim obyektlar va ularning xodimlarini favqulodda holatlar sharoitida o‘z faoliyatlarini davom ettirishlari ta’minlanadigan punktlarga evakuatsiya qilish tadbirlarini amalga oshirishlari;
- favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish maxsus kuchlari va vositalari tashkil etilishini, tayyorgarlikdan o‘tkazilishini va shay bo‘lib turishini ta’minlashlari;
- o‘z tasarrufidagi obyektlar loyihamanishi, qurilishi va rekonstruksiya qilinishi chog‘ida aholini va hududlarni muhofaza qilish masalalariga oid talablar bajarilishini nazorat qilib borishlari;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirishlari shart. 10-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasida:
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasida:
- favqulodda holatlar chog‘ida aholini va hududlarni muhofaza qilish bo‘yicha harakatlar rejasini ishlab chiqadilar;
- aholining va hududlarning muhofazalanishiga oid axborotlar belgilangan tartibda to‘planishi va almashinilishini, shuningdek favqulodda holatlar tahdidi borligi yoki ro‘y bergenligi to‘g‘risida aholi o‘z vaqtida voqif va xabardor etilishini amalga oshiradilar;

- moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratadilar, favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini moliyalashni amalga oshiradilar;
 - idoraviy mansubligidan qat'i nazar, korxona, muassasa va tashkilotlarning favqulodda holatlarda barqaror ishlash imkoniyatini oshirishga yordamlashadilar;
 - favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha korxona, muassasa va tashkilotlar kuchlari va vositalarining shay holda turishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;
 - avariya, halokat, tabiiy ofsatlar sodir bo'lgan zonalarda qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni amalga oshirish uchun avariya-qutqaruv kuchlari (shu jumladan tezkor harakat bo'linmalari) va maxsus tuzilmalarining doimo shay bo'lib turishini tashkil etadilar;
 - avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni tashkil etadilar hamda amalga oshiradilar, shuningdek bunday ishlar o'tkazilishi chog'ida jamoat tartibi saqlanishiga ko'maklashadilar;
 - qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.
- 11-modda. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasida:
- korxonalar, muassasalar va tashkilotlar favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasida:
 - xodimlar hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni favqulodda holatlardan muhofaza qilish bo'yicha zarur choralarни rejalashtirishlari, moliyalashlari va amalga oshirishlari;
 - xavf manbai yuqori bo'lgan obyektlar xavfsizligi to'g'risida belgilangan tartibda deklaratsiya taqdim etishlari;
 - xodimlarni favqulodda holatlar sharoitida qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari tarkibida muhofazalanish usullariga va harakat qilishga o'rgatishlari;
 - xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishlari va doimo shay holatda sinqlab turishlari hamda favqulodda holatlar tahdidi borligi yoki ro'y berganligi to'g'risida xodimlarni o'z vaqtida xabardor qilishlari;

- favqulodda holatlar sharoitida obyektlar ishi hamda xodimlar hayot faoliyatini barqaror kechishini ta'minlashlari;
- muhandislik-himoya inshootlari, zaruratga qarab, oldindan barpo etilishini ta'minlashlari hamda ularni doimo shay holatda saqlab turishlari;
- favqulodda holatlar ro'y berishi ehtimolini nazarda tutib, belgilangan tartibda moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratishlari;
- favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish kuchlari va vositalari yaratilishini, tayyorgarlikdan o'tkazilishini hamda shay bo'lib turishini ta'minlashlari;
- favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish rejalariga muvofiq o'z tasarrufidagi obyektlarda avariya-qutqaruv ishlari o'tkazilishini ta'minlashlari;
- belgilangan tartibda ixtisoslashgan xizmatlar va tuzilmalarni yaratishlari, ularni shaxsiy tarkib, texnika va anjom bilan to'ldirishlari;
- belgilangan tartibda evakuatsiyaga oid tadbirlarni o'tkazishlari va odamlarni joylashtirish uchun oldindan bazalar tayyorlab qo'yishlari;
- belgilangan tartibda favqulodda holatlardan muhofaza qilish sohasida axborotlar taqdim etishlari shart.

12-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishda:

- Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari;
- tegishli hudud, suv ta'minoti manbalari, uy-joylar, ta'llim muassasalarining sanitariya va ekologik holati ustidan nazorat amalga oshirilishiga ko'maklashadilar;
- fuqarolarni favqulodda holatlar oqibatlarini bartaraf etishga jalb qiladilar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa choralarini amalga oshiradilar.

13-modda. Jamoat birlashmalarining favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishda:

- Jamoat birlashmalari favqulodda holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirot etishlari mumkin.
- Jamoat birlashmalari favqulodda holatlar manbalari va ularni bartaraf etish choralari to‘g‘risida davlat hokimiyat va boshqaruv organlaridan, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan belgilangan tartibda axborot olish huquqiga ega.

Asosiy tayanch tushunchalar

Favqulodda holat, favqulodda holatlarning oldini olish, favqulodda holatlarni bartaraf etish, moliyaviy tavakkalchiliklar, buxgalteriya siyosati, moliyaviy intizom, xodimlar malakasi, fuqaro muhofazasi, fuqarolik mudofaasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Favqulodda holatlarning oldini olish va Favqulodda holatlarni bartaraf etish tushunchalarning qanday farqli jihatlari bor?
2. Favqulodda holat tushunchasiga izoh bering?
3. Favqulotda holatlarda xavfsizlikni ta‘minlovchi organining boshqaruv tizimi qanday?
4. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri vakolat-ligiga nimalar kiradi?
6. Favqulotda holatlarda xavfsizlikni boshqarishning asosiy yo‘nalishlariga misol keltiring?
7. Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi bo‘yicha vazir o‘rinnbosarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
8. Favqulotda holatlarda xavfsizlikni boshqarish shakllari nimalarda namoyon bo‘ladi?

VIII BOB. EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI BOSHQARISH

8.1. Ekologik muammolar va ekologik xavfsizlikka tahdidlar

Ekologiya – tirk organizmlarning o‘zaro va ularning yashash muhiti bilan bo‘ladigan munosabati haqidagi fan deb tan olinadi. Ushbu ta’rif uning grekcha atamasidan kelib chiqqan bo‘lib, grekchada “oikos”- uy, yashash joyi, yashash muhiti, “logos” – ta’limot degan ma’noni anglatadi. Fan va ta’lim rivojlangani sari ekologiya nafaqat mustaqil fan sohasi, balki fanlar tizimiga aylanib, hozirgi kunda mutaxassislarining hisoblariga ko‘ra, ekologik sohasiga oid 60 ga yaqin fan mavjud.

Tabiiy va mineral-xomashyo boyliklaridan vahshiyarcha, ekstensiv usulda, juda katta xarajatlar va isrofgarchiliklar bilan foydalanish hamda insonning tabiat imkoniyatlari va uning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olmay, jadal yuritilgan xo‘jalik faoliyati yer yuzida tuproq nurashi, o‘rmonlardan mahrum bo‘lish, baliqlarning, hayvonlarning haddan tashqari ko‘p ovlanishi, tuzli yomg‘irlar, atmosfera ifloslanishi, ozon qatlami buzilishiga olib keldi.

Urbanizatsiya jarayonlarining jadal sur’atlari bilan sodir bo‘layot-ganligi oqibatida shaharlarning ifloslanishi kuchaydi. Tarkibida oltingugurt qo‘soksidi va azot oksidi bo‘lgan tuzli yomg‘irlar yog‘ishi ko‘paydi.

Ekologik muammolarning kuchayishi, atrof-muhitning ifloslanishi, ishlab chiqarish chiqindilarining ko‘payishi, atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishning jadal o‘sishi, yer va suv resurslari kamayishi, sifatining, unumdarligining pasayishi ekologik xavfsizlik muammosini keltirib chiqardi.

O‘zbekistonning va butun Markaziy Osiyoning eng yirik daryolari – Amudaryo (1415 km) va Sirdaryodir (2122 km). Mamlakatning iqlimi – subtropik, keskin mintaqaviy bo‘lib, unga qurg‘oqchilik, issiqlik va yorug‘likning mo‘l bo‘lishi, kunduzgi va fungi, qishki va yozgi haroratlarning keskin amplitudasi xosdir. Respublikada eng sovuq yanvar

oyida shimolda harorat o'rtacha -10° C daraja, janubda $+2,-3^{\circ}$ C bo'lganda, Termiz shahri atrofida harorat o'rtacha $+18^{\circ}$ Cni tashkil etadi.

O'zbekiston uchta asosiy iqlim zonalari – cho'llar va quruq dashtlar, tog' yonbag'irlari va tog'larga bo'linadi. Cho'l va quruq dasht hududlarining deyarli barchasi, shu jumladan, Qizilqum sahrosi, Ustyurt platosi, Qarshi va Dalvarzin cho'llari dengiz sathidan 400 metr balandlikda va undan pastda yotadi.

Sobiq sho'ro hokimiyati davrida tabiat qonunlariga zid ravishda respublikamiz iqlim sharoitlari hisobga olinmay iqtisodning bir tomonlama, xomashyo, oraliq mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi, xalq xo'jaligidagi paxta yakkahokimligi, suv va o'rmon resurslaridan xo'jasizlarcha foydalanish cho'l maydonlarining kengayishi, tuproq qatlaming sho'rланishi, ekologiyaning buzilishiga olib keldi.

8.2. Ekologik kataklizmalarni nazorat qilish va muhofazasini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalar qatori ta'lim sohasiga ham yuqori darajada davlat e'tibori qaratildi ekologik halokatlarning kelib chiqishi, mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotiga ta'sirini o'rgatish bilan birga ularda ekologik madaniyat, ekologik tarbiya va ekologik ong tushunchalarini chuqur singdirishni maqsad qilib qo'ygan.

Ma'lumki, Toshkent va Navoiy mamlakatimizdagi yirik sanoatlashgan shaharlar hisoblaniladi. Navoiydagagi tog'-kon, mineral o'g'itlar va cement mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari O'zbekistonda yetakchi o'rinni egallaydi. Ekologik muammolar va ularni hal etish bo'yicha olib borilgan ekologik tadbirlar aynan shu korxonalar asosida, aniq dadillar bilan yoritilgan.

Inson tabiat bilan o'zaro aloqada bo'lib, uning hayotini tabiatdan alohida tasavvur qilish mumkin emas. Shu ma'noda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Ona zaminimiz – boyligimizning,

mustaqilligimizning va go'zal kelajakka ishonchimizning asosiy manbaidir" – degan so'zlarida juda katta ilmiy-falsafiy mazmun bor. Insoniyat yashayotgan zaminning o'z qonuniyati mavjud. Zaminda bitmaydigan, tugamaydigan ne'matning o'zi yo'q. Biz esa bundan ogoh bo'lishimiz zarur. Inson va jamiyat tabiatning ajralmas qismi.

Tabiiy resurslar, ya'ni yoqilg'i, ma'danlar, metallar, nafas olinadigan havo, ichiladigan suv, is'temol qilinadigan go'sht, sut, don sarxil mevalar, daryo va ko'llardagi baliqlar, har xil shifobaxsh giyohlar, turlituman xomashyolar bo'lmasa bir daqiqqa ham yashay olmasligimizni juda yaxshi bilamiz. Tabiiy boyliklar Oollohning odamzotga in'om etgan buyuk ne'matlaridir. Olloh taoloning barcha noz-u ne'matlari, tabiiy boyliklardan bahramand bo'lishning o'zi bir necha ming yillik tarixga ega. Bu tarix Yer yuzida insoniyat paydo bo'la boshlagan kezlardanoq boshlangan. Insoniyatning tabiat bilan bo'lgan aloqasi vaqtincha emas, balki doimiy va zaruriydir. Odamzot Koinotning gultoji sifatida ilk paydo bo'lgan davrdan, to hozirga qadar tabiatga ta'sir qilib, unga ta'sirni o'tkazib, bu ta'sirni bora-bora kuchaytirib, oqibatda tabiatni batamom o'zgartirib yubordi. Keyingi ming yilliklar davomida insonning tabiatga faol aralashishi natijasida Yer shari yuzasi iqlimi, o'simligi, hayvonot dunyosining tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketganligi bunga yaqqol misol bo'ladi. "Dunyo tarixida ilk daf'a inson faoliyati hayotning eng zarur sarchashmalarining buzilishi va yemirilishiga sabab bo'lmoqda.

Insoniyatning o'z kelajagi, ertangi kuni, istiqbolini o'ylamay qilgan o'zboshimchaliklari, ko'r-ko'rona qilmishlari tufayli tabiat behad ozor chekdi, ko'p a'mollardan abadiy judo bo'ldi. Har xil kosmik changlar, ilmiy texnikaviy taraqqiyot, ayniqsa, avtomobillar sonining tez darajada o'sib borishi, radioaktiv moddalar va boshqalar ta'siri ostida barcha jonli mavjudotning hayot manbai bo'lgan atmosfera havosi maksimal darajada ifloslanmoqda. Bunday dahshatli hodisalar dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida tez-tez sodir bo'lib turadi. Atrof-muhitning radioaktiv va kimyoviy chiqindilar bilan bulg'anishi, aholining, chorva mollarining, parrandalarning, daryo hamda ko'llardagi, suv omborlari va okeanlardagi

baliq va boshqa jonivorlarning ko'plab zaharlanishiga, Yevropa mamlakatlarida ko'plab ro'y berib turgan sigir, buzoq, qo'y, cho'chqalarning oqsil kasalliklariga sabab bo'imloqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat sanitariya epidimologiya nazorati bergen ma'lumotga ko'ra hozirda Respublikamiz sanoati va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida 3 milliondan ortiq kishi band bo'lib, shuning qariyb 1 millionga yaqini zararli sharoitlarda (chang, shovqin, titrash, ultra- va infratovushlar ta'sirida) mehnat qilmoqda. Zararli mehnat sharoitlari hisobiga kasb-patologiya kasalliklar ko'payishi kuzatilmoxda. Jumladan, Respublikada so'nggi besh yil davomida bu kasallik (har 10000 ishchiga nisbatan) 1,2 dan to 1,76 gacha ko'paygan, Navoiy tog'-metallurgiya kombinatida bu ko'rsatgich 1,62 dan to 3,2 gacha oshgan.


"Kimyoiy ekologiya" insoniyat tomonidan yo'l qo'yilgan xatoliklar oqibatida vujudga kelgan ekologik fojealarmi o'reganadi va tahlil qiladi, oldini olish uchun chora-tadbirlar izlaydi. Ekologik muammo deganda, butun insoniyatga xavf soladigan, ilmiy asoslangan muammolarni tushunish maqsadga muvofiq.

Respublikamizdagi eng muhim ekologik muammolarni va ularni oldini olish chora-tadbirlarini Sayyoramiz kelajagi, insoniyatning taqdiri hozirgi davrda ko'p jihatdan ekologik muammolar yechimiga bog'liq bo'lib qoldi. Ekologik muammo keyingi o'n yilliklar davomida yana keskinlashib ketdi. Havoning ifloslanishi, ichimlik suvning o'ta tuqchilligi, ona zaminning zaharlanishi, ekish va hosil olish mumkin bo'lgan unumdon yerlarning, yer osti va yer usti boyliklarining, o'simliklarning va hayvonlar nodir turlarining kamayib borayotganligi hamda atmosfera haroratining sezilarli darajada oshib borayotganligidan insoniyat behad azob chekmoqda. XX asr tugab XXI asrning dastlabki kunlarida, asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz nolisi juda katta ekologik xavfga duch keldi.

O'zbekiston Respublikasi dunyodagi barcha mamlakatlar, jumladan Mirkuziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan hamkorlik va hamjihatlikda tabiatni, atrof muhitni himoya qilish, tabiiy zaxiralardan

oqilona foydalanish masalalariga katta e'tibor va ahamiyat berib kelinmoqda. Buning natijasi o'laroq, atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlari Respublikamizda ko'plab qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida belgilab qo'yilganidek "Fuqarolar atrof, tabiiy muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishga majburlar".

Insoniyatning kelajakdag'i taqdiri hozirgi davrda mavjud ekologik muammolarni qanday hal qilishga, ekologik muammolardan aholini, tabiatni qanday muhofaza qilishga bog'liq bo'lib qoldi. Bunday deyilishida juda katta ma'no, tarixiy zaruriyat, obyektiv ehtiyoj bor. Chunki ekologik muammo zamirida alohida xalqlar millatlar va mintaqalarnigina emas balki butun insoniyatning kelajak taqdiri yotibdi.



Uzoq yillar davomida eski ma'muriy buyruqbozlik tizimi sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik muammolarga e'tibor berilmadi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga arzimas darajada kam mablag' ajratilardi. Bu mablag' tabiatga yetkazilgan zararni aslo qoplamasdi. Sobiq ittifoq zamonida atrof-muhit va atmosfera havosining ifloslanishi,

toza ichimlik suvi yetishmasligi tashvishli hol ekani haqida bilib, bilmaslikga olindi. Qonunlar rasmiyat uchun qabul qilinadi-yu, ammo ular hayotga joriy etilmadi. Sho'ro tuzumi davrida inson tabiatni o'z irodasiga bo'ysundirishi lozim degan soxta aqida usoq yillar ustuvorlik qildi. Natijada barcha hududlarda ekologik muvozanat qo'pol ravishda buzildi. Mintaqamizda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ham tashvishlanarli ekologik vaziyatlar yuzaga keldi.

O'zbekiston Respublikasiga sobiq ittifoqdan, eski mustabid tuzumdan ayтиб o'tganimizdek paxta yakka hokimligi va boy mineral xomashyo resurslaridan nazoratsiz, ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan iqtisodiyot og'ir meros bo'lib qoldi. Respublikamizga xomashyo yetishtirib beradigan chekka o'lka sifatida qaraldi. Mamlakatimizdan katta miqdorda yetishtirilgan paxta hosilining aksariyat hajmi tekinga tashib ketilar edi. Oltin, qimmatbaho va rangli metallar, strategik ahamiyatga ega materiallar jahon bozorining o'ta xaridorgir bo'lgan boshqa qimmatbaho mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishdan keladigan foya O'zbekiston xazinasiga tushmas edi.

Hududimizda yuz bera boshlagan ekologik inqiroz nihoyatda keskinlashib ketib, ijtimoiy tus ola boshladи. Ekologik tanazzuldan esa keng jamoatchilik tashvishga tushishi tabiiy hol, albatta. Odamlar qanday xavf qarshisida turganliklarini, atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar qanday ko'rgilklarga olib kelganligini yaqqol his etdilar. Tabiatga qo'pol vi takabburlacha munosabatda bo'lish odamlarning qirilib, genofondning yo'q bo'lib ketishiga muqarrar ravishda olib kelishini tushunib yetgan kishilar, olimlar, shoir va yozuvchilar, mutaxassislar, deputatlar bong ura boshladilar. Dunyoning hamma mamlakatlarida, boshqa mintaqalarda sodir bo'lganidek Markaziy Osiyoda, O'zbekistonda ham ekologik muammolar dolzarb bo'lib qoldi. O'zbekistonda eng xavfli ekologik muammolar toza havo, ichimlik suv, tuproq tarkibining buzilishi va Orol dengizi muammolari hisoblanadi, muzkur ekologik muammolarni o'rganish davomida bu muammolarning har birini ilmiy asoslangan holda qarab, tahlil qilib, oldini olish chor-

tadbirlarini belgilaydi. Hammamiz havoning ifloslanishi, suvning ifloslanishi, shaharlarning qayta cho'llanishini, bog'larning qurib qolishi va shunga o'xhash muammolarni birgalikda oldini olishimiz, bartaraf etishimiz kerak, yo'qsa shoir bashorat qilganidek tog'u bog'lar biz va bizning kelajak avlodlarimiz uchun bir butun shirin xayol bo'lib qolishi, armonga aylanishi mumkin:

Hozirgi vaqtida inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan borayapti. Inson Yer kurrasining qiyofasini o'zgartirishda katta geologik kuch sifatida vujudga kelganini V.I.Vernadskiy tomonidan takidlab o'tilgan edi. Insonning tabiiy jarayonlardan noto'g'ri foydalaniishi natijasida XX asrning o'rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotida, hayotda xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisa tushuniladi. (iqlim o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi) tabiatdagi muvozanatning buzilishi oqibatida turli miqyosdagi ekologik muammo lar shakllanmoqda. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

Global (umumbashariy). Regional (mintaqaviy). Lokal (mahalliy).

Global ekologik muammolar dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, tabiiy antropogen va sof antropogen ta'sirlar natijasida yuzaga kelib umumbashariyatga tegishlidir. Ana shunday ekologik muammolarning ba'zilari bilan tanishamiz:

Atmosferaning dimiqish hodisasi. Keyingi yillarda atmosfera tarkibidagi SO₂ miqdori ortib borayotganligi ma'lum bo'lib qoldi.

Natijada Yer yuzasining harorati oxirgi 100 yil ichida 0,5-1,0 gradus ortdi. Iqlimning keng ko'lamda o'zgarishi atmosferaning sanoat chiqindilari va avtovozsizlardan chiqayotgan gazlar bilan bog'liq. Yer yuzasining global isishi, ya'ni atmosferaning dimiqishi SO₂ ning havo tarkibida ortib ketishi, o'rmonlarning kesilishi, toshko'mir va benzin kabi yoqilg'ilarning yonishidan atmosferada to'planadigan SO₂ gazi tufaylidir. Ana shu zaylda ahvol o'zgarmasa XXI asrning o'rtalarida yer

yuzasining harorati 1,5-4,5 gradusgacha ortishi mumkin. Natijada: iqlimning o‘zgarishi ayniqsa, cho‘llanish jarayonining kuchayishi. Yog‘ingarchilikning o‘zgarishi. Dengiz va okeanlar sathining ortishi Muzliklarning Yerishi va kamayishi hamda boshqa hodisalar kuzatiladi.

Ozon qatlaming siyraklanishi:

Ozonosfera atmosferaning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u iqlimga va yer yuzasidagi barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlab turadi. Atmosferadagi azonning eng muhim xususiyati uning doimo hosil bo‘lib va parchalanib turishidir. Ozon quyosh nurlari ta’sirida kislород, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo‘ladi. Ozon kuchli ultrabinafsha nurlarni yutib qolib yer yuzidagi tirik organizmlarni himoya qiladi. Ultrabinafsha nurlar miqdorining ortishi tirik organizmlarga salbiy ta’sir qiladi. Hozirgi davrda freonlardan keng foydalanish tufayli hamda aviatsiya gazlari, atom bombalarini portlatishlar atmosferada yetarli miqdorda ozon to‘planishiga imkon bermayapti.

Chuchuk suv muammosi:

Quruqlikda chuchuk suv va uning biosferadagi roli nihoyatda katta. Giidrosferada chuchuk suv miqdori juda oz (2- 2,5 %). Jamiatning rivojlanishi bilan aholining chuchuk suvgaga bo‘lgan talabi ortib bormoqda. Bizning asrimizda chuchuk suvdan foydalanish 7 marta ortgan. Yiliga 3-3,5 ming km³ suv sarflanadi. Qurg‘oqchil zonalarda daryolar suvidan to‘liq foydalanilgan holda ularning suvi yetmay qolmoqda.

1980-yil boshlarida bunday holat Afrika, Avstraliya, Italiya, Ispaniya, Meksika, Nil, Amudaryo, Sirdaryo va ba’zi bir boshqa daryolarda kuzatila boshlandi. Daryolarning sanoat va maishiy zaharli moddalar bilan ifloslanishi o‘sib bormoqda. Sanoat yiliga 160 km³ sanoat va oqova suvlарини daryolarga tashlaydi. Bu ko‘rsatgich daryolarning umumiy suv miqdorining 10% ini tashkil etadi. Daryolardagi toza suvlarda yildan yilga har xil erigan moddalar, zaharli kimyoviy moddalar va bakteriyalarning miqdori ortib bormoqda. Pestitsidlardan foydalanish muummosi. Ular tuproq va suvlardan o‘simliklarga undan hayvonlar va odam organizmiga o‘tadi. Pestitsidlar har bir bo‘g‘inda zararli va ziyon

keltiradi. Pestitsidlarning zaharli ta'sirini oldini olish uchun quyidagi chora tadbirlarga amal qilish lozim:

1. Hayvon va odamlarga ta'sirini susaytirish.
2. Tuproq va suvlarda to'planishining oldini olish.
3. Tez parchalanuvchi va beqaror pestitsidlarni sintez qilish.
4. Pestitsidlardan foydalanishni iloji boricha cheklash.
5. O'simliklarni biologik himoya qilish.
6. Tirk tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi muammosi.

O'simliklar dunyosi, ayniqsa yer yuzidagi hayotni ta'minlashda o'rmonlarning ahamiyati juda katta. Aholi sonining ortishi xo'jalik faoliyatining kengayishi tufayli tabiatning inson qo'li tegmagan joyi qolmayapti. O'simliklar va hayvon turlarini davlat muhofazasiga olish qonunlar orqali ovchilikni to'g'ri yo'lga qo'yish, shuningdek qo'riqxonalar, zakazniklar, milliy bog'lar, botanika bog'lari va qizil kitoblar o'simliklar va hayvonlar turlarini saqlashda katta rol o'ynaydi.

Cho'llanish jarayoni. Yer kurrasи quruqligining 40 mln km.kv maydoni qurg'oqchilik mintaqasi bo'lib, dunyo aholisining 15% dan ortig'i ushbu hududga mujassamlashgan qishloq xo'jaligining tezkor rivojlanishi, sug'oriladigan yerlar va yaylovlardan noto'g'ri foydalanish oqibatida, o'rmonlarning betartib kesilishi natijasida cho'llanish darajasi yil sayin ortmoqda. Inson ta'sirida vujudga kelgan cho'llar 9,1 mln. km. kv.ga yetdi. Yer yuzasining ayrim mintaqalariga xos tabiiy-iqlim, ijtimoiy-ekologik, tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqalari natijasida yuzaga keladigan ekologik muammolar regional ekologik muammolar deb ataladi. Mintaqaviy ekologik muammolarga baho berishning mezoni havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziysi, yaylovarning ishdan chiqishi, o'rmonlarda daraxtlarning kesilishi. belgilangan miqdordan oshib ketishi va boshqalar hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi mintaqaviy ekologik muammolardan eng muhimmi Orol va Orol bo'yi ekologik muammosidir. Orol dengizi yaqin vaqt largacha eng yirik dengizlardan biri hisoblangan. U muhim baliqchilik, ovchilik, transport va rekreatsion

ahamiyatga ega edi. Sug'oriladigan dehqonchilikning rivojlanishi natijasida Amudaryo va Sirdaryoning suv quyishi 1970-yilga kelib 37,8 km³, 1980-yilda esa 11,1 km³ gacha kamayib ketdi. Suvning sho'rلانish darajasi litriga 9-10 g dan 34-37 g/litr gacha ortdi. Hozirgi kunda dengiz sathining yillik o'rtacha pasayishi 80-110 sm (oldin 53 sm bo'lgan 33 metrga tushsa orol 2 ga bo'linib qoladi, hech bo'l maganda 33,5 metr balandlikda saqlab qolish kerak). Orolning qurigan tubi yirik chang to'zon makoniga aylandi. Aholi ichadigan suv pestitsidlar bilan ifoslangan, keyingi 10 yil ichida o'lim 2 marta ortgan. Bolalar o'limi har tug'ilayotgan 1000ta chaqaloqdan 45-90 taga to'g'ri keladi. Ayollarning 80%ida kamqonlik xastaligi uchraydi. Bolalarning 90%ida siydigida tuzlar miqdori ortib ketgan. Orol muammosining hal qilinishining tub mohiyati suv resurslaridan oqilona foydalanishni amalga oshirishga bog'liq.

Orolni saqlab qolish uchun Markaziy Osiyo Respublikalari bilan birlgilikda qisqa vaqt ichida yiliga 20-21 kub km suv Orolga qo'yiladigan miqdorda yagona suv xo'jalik siyosatini ishlab chiqish bunda Orolbo'yidagi barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish e'tiborga olinishi lozim. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi respublikada ijtimoiy ekologik holatiga muayyan darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi.

8.3. O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash choraları

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining ilk davrlaridan mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab olingan:

1. Tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatish, havo va suv muhitini insонning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta'sir etdиган moddalar ifoslantirishini to'xtatish, qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish.

2. Qayta tiklanadigan zaxiralarni qayta ishlab chiqarishning tabiiy ravishda kengayishini ta'minlagan hamda qayta tiklanmaydigan zaxiralarini qat'iy mezon asosida iste'mol qilgan holda tabiiy zaxiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish, tog'-kon sanoatining chiqindilarini o'zlashtirishni yanada kengaytirish hamda buzilgan yerlarni qayta yaroqli holga keltirish.

3. Katta-katta hududlarda tabiiy sharoitlarni tabiiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta'minlaydigan darajada aniq maqsadga qaratilgan, ilmiy asoslangan tarzda o'zgartirish (daryolar oqimini tartibga solish hamda suvlarni bir havzadan ikkinchisiga tashlash, yerning namini ochirish, sho'rланishiga qarshi tadbirlarini va boshqalarni amalga oshirish).

4. Jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab qolish.

5. Shahar va tumanlarni rejalashtirishning ilmiy asoslangan, hozirgi zamон urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan tizimini joriy etish yo'li bilan shaharlarda va boshqa aholi punktlarida aholining yashashi uchun qulay sharoit yaratish.

6. Ekologik muammolarga jahon jamoatchiligi e'tiborini qaratish, xalqaro tuzilmalarning zaxiralari, imkoniyatlari va investitsiyalarini ana shu muammolarni hal qilishga jalb etish.

Ekologik muammolarni hal qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida O'zbekistonda siyosat ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Ekologik siyosat, avvalambor inson salomatligini ta'minlash uchun qulay muhit yaratishga qaratilgandir.

Inson salomatligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri – ekologik sog'lom muhitdir. Asosiy Qonunimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini, shu qatorda, sog'lom muhitda yashash huquqini ham kafolatlaydi. Shu ma'noda inson salomatligining barqarorligini ta'minlashda ekologik xavfsizlikni ta'minlash hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Ekologik

xavfsizlik davlatning hayotiy muhim manfaatlari, jamiyat va shaxsni himoya qilishning muhim jihatni hisoblanadi.

Mamlakatimizda ekologik siyosat barqaror rivojlanishning quyidagi tamoyillariga asoslanadi:

1. Ekotizimlarning ma'lum barqarorligini saqlab qolish uchun tabiatdan foydalanish jarayonlarining muvozanatiga erishish.

2. Antropogen kuchlar ta'siri yuqori bo'lgan tumanlarda barqaror rivojlanishni yangilash.

3. Ekologik muammolarining iqtisodiy muammolar ustidan ustunligini keng omma oldida tasdiqlash, shu bilan birga, davlat boshqaruvi jarayonlarini ekologizatsiya qilish.

Davlatning tabiatni muhofaza qilishga oid siyosati va suvdan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirayotgan chora-tadbirlari quyidagi asosiy tamoyillarga asoslangan:

- atrof-muhitni aholi turmush darajasini oshirishning muhim omili nisbatida saqlash va qayta tiklash bo'yicha iqtisodiy hamda ekologik siyosatni muvofiqlashtirish;

- tabiatning ayrim tarkibiy qismlarini muhofaza qilishdan ekotizimlarni umumiylashtirish va majmuaviy ravishda himoyalashga o'tish;

- jamiyat barcha a'zolarining atrof-muhitni muhofaza qilish, uning xilma-xilligini saqlash va vaziyatni yaxshilash, aholi hayoti uchun qulay shuroitlarni yaratish borasidagi javobgarligi.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari hamda boshqa vaziflik, idora va tashkilotlarning atrof-muhit muhofazasi hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida kelgusidagi ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat:

- tabiiy resurslardan, shu jumladan, suv, yer, mineral xomashyo, biologik resurslardan oqilona va kompleks foydalanish, respublikaning butun hududi bo'yicha atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini monitoriya-gigiyena normalarigacha pasaytirish;

ekologik talofat zonasini Orol bo'yida, shuningdek, mamlakatning ekologik jihatdan noqulay bo'lgan boshqa hududlarida ekologik holatni

mahalliylashtirish, qayta tiklash va sog‘lomlashtirishni ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish;

- muhofaza etiladigan yangi tabiiy hududlarni tashkil etish va mavjudalarini kengaytirish;

- respublika aholisini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlash;

- ekologik jihatdan toza va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha texnologiyalarni joriy etish;

- ekologiya sohasida ilmiy-texnika salohiyatini rivojlantirish hamda fan va texnika yutuqlaridan foydalanish;

- ekologik monitoring, prognoz va axborotlarning kompleks tizimini amalga oshirish;

- respublika hududlarini atrof muhitning transchegaraviy iflosanishini nazorat qilish va undan muhofaza etishning yagona xizmatini shakllantirish;

- ekologik qonunchilik, ta’lim, madaniyat va aholini ekologik ruhda tarbiyalash, shuningdek, ekologik bilimlarni targ‘ib qilish tizimlarini takomillashtirish;

- ekologik muammolarni hal etishda jahon hamjamiyati bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish.

Asosiy tayanch tushunchalar

Ekologik monitoring, prognoz, axborotlarning kompleks tizimi, ekologik qonunchilik, ta’lim, madaniyat va aholini ekologik ruhda tarbiyalash, ekologik siyosat, ekologik xavfsizlik, ozon qatlami, orol dengizi, chuchuk suv muammosi.

Takrorlash uchun savollar

1. Urbanizatsiya jarayonlari shaharlarning ifloslanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

2. Ekologik xavfsizlik tushunchasiga izoh bering?

3. Ekologik kataklizmalarni nazorat qilish va muhofazasini ta'minlashning ahamiyati nimada?
4. Ekologik halokatlarning kelib chiqishi, mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotiga ta'sir doirasi qanday?
5. Tabiiy resurslarning jamiyat hayotidagi o'rni qanday?
6. Respublikamizdagi eng muhim ekologik muammolarga misollar keltiring va ularni oldini olish chora-tadbirlari haqida fikr bildiring?
7. Sayyoramizdagи asosiy ekologik muammolar haqida fikr bildiring?
8. Atmosferaning dimiqish hodisasi deganda nimani tushunasiz?
9. Ozon qatlaming siyraklanishi haqida fikr bildiring?
10. Pestitsidlarning zaharli ta'sirini oldini olish uchun qanday chora tadbirlarga amal qilish lozim?

IX BOB. DAVLATNING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH

9.1. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligini boshqarishning mohiyati va ahamiyati

Butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalariga juda katta ahamiyat beriladi. Oziq-ovqat xavfsizligi masalalari 1996-yilda Rim shahrida bo'lib o'tgan Jahon oziq-ovqat forumida muhokama qilingan. Ushbu Forumning 130 mamlakat ishtirok etdi. Unda kam rivojlangan mamlakatlarga oziq-ovqat yordami berishga oid masalalar ko'rib chiqildi. Forumda, diqqat-markazida asosan, Yer shari aholisini qanday boqish kerak? degan savol qo'yilgan. Chunki ma'lumotlarga ko'ra dunyoda qashshoqlar shu qadar ko'PKI, ular kundalik yegulik ovqatga ham ega emas, ochlikdan azob chekmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini o'zi, mustaqil ta'minlashga qodirligini ifodaydi. Shuningdek, oziq-ovqat importiga o'ta bog'liqlikdan xalos bo'lganligini anglatadi. Ta'kidlash joizki, oziq-ovqat xavfsizligi faqat ichki o'zini o'zi to'liq oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bilan cheklanmaydi. Buning uchun oziq-ovqat importi ham e'tiborga olinadi.

Dunyo mamlakatlari aholisining oziq-ovqat bilan o'zini o'zi ta'minlash koeffitsientining pasayishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi;
- aholi sonining o'sishi;
- aholi jon boshiga iste'molning o'sishi;
- turli mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarning nomutanosibligi. Buning natijasida hosildorlik darajasi, ba'zi mahsulot turlari hajmi kamayishi yuz beradi;
- urbanizatsiya jarayonlarining jadallahuvi tufayli yerkarning bir qismi sanoat obyektlari, uy-joylar, yo'llar qurilishiga band etiladi. Buning oqibatida qishloq xo'jaligida foydalilaniladigan ekin maydonlari

qisqarib boradi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yetarli darajada yuqori sur’atlarda o’smasligi;

- ishlanadigan yer maydonlaridan foydalanish koeffitsientining punayib borishi;

- ishchi kuchining yetishmasligi;

- mamlakatga chetdan arzon narxlarda oziq-ovqat mahsulotlarining kiritilishi;

- ayrim qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligi o’sish sur’atining pasayishi;

- qishloq xo‘jaligida kimyoviy o‘g‘it va moddalarning haddan tushqari ko‘p ishlatilishi hamda irrigatsiya va melioratsiya ishlarining yetarli darajada, o‘z vaqtida bajarilmasligi, agrotexnika qoidalariga yetarli darajada e’tibor berilmaganligi tufayli yerlar sifatining yomonlashib, yer unumdarligining pasayishi.

Shuning uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

- qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan unumli, samarali foydalanishni ta’minalashga qaratilgan qonunchilikni mustahkamlash, tegishli tadbirlarni amalga oshirish;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushining yuqori bo‘lishini ta’minalash;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo’llab- quvvatlash, rag‘batlantirishning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlari majmuuni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlashning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish;

- urug‘chilik va naslchilikning sifatini oshirish;

- ilmiy va axborot ta’mintoni yaxshilash;

- kudrlar salohiyatini oshirish;

- ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish mexanizmini muntazam ravishda takomillashtirib borish, xo‘jalik yuritishning ilg‘or usullaridan foydalanish;
- oziq-ovqat mahsulotlariga ichki hamda tashqi bozorlarda talab va taklif mutanosibligini ta’minlash va h.k.

9.2. Mamlakatimizning qishloq xo‘jaligidagi tarkibiy o‘zgarishlar - oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning bosh maqsadi sifatida yer va yer munosabatlarni takomillashtirish, unga egalik qilish va undan samarali foydalanishdan ishlab chiqaruvchilar moddiy manfaatdorligini hal qilishga qaratildi. Shuni hisobga olib, mamlakatda O‘zbekiston Respublikasining “Yer haqida”gi, “Yer kodeksi”, “Yer kadastri to‘g‘risidagi” qonunlar qabul qilindi. Yer resurslaridan samarali foydalanishni tashkil qilish va uni nazorat qilish maqsadida maxsus qo‘mita - Yer resurslari Davlat qo‘mitasi tashkil etildi.

“Don mustaqilligi Dasturi” ning qabul qilinishi natijasida:

- siyosiy jihatdan mamlakatimizning don sotib olish uchun boshqa mamlakatga iqtisodiy qaram bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmadi, aholining don mahsulotlari bilan ta’minoti masalasi hal bo‘ldi, davlat tomonidan un va un mahsulotlarining narxi oshib ketishining oldi olindi;

- ijtimoiy jihatdan biz boshqa mamlakatlarning emas, balki o‘zimizning dehqonlarni ish joylari bilan ta’minladik. Chorvachilikni rivojlantirish va g‘alladan bo‘sagan yerkarda takroriy ekin ekib, qo‘srimcha daromad qilish imkoniyati paydo bo‘ldi, xalqning ertangi kunga ishonchi ta’mindandi;

- iqtisodiy jihatdan mamlakat valyuta zaxirasini saqlab qolish va bu valyutani boshqa zarur sohalarga ishlatish imkoniyati yaratildi, donni qayta ishlash sohasini rivojlantirishga real talab paydo bo‘ldi.

Qishloq xo‘jaligidagi tarkibiy o‘zgarishlar xo‘jalik yurituvchi subyektlar tarkibida ham yuz bermoqda. Mustaqillikning dastlabki

yillarida qishloq xo‘jaligi subyektlarining asosiy shakllari davlat xo‘jaligi (sovxo‘z), jamoa xo‘jaligi (kolxo‘z), shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari hisoblanar edi. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilgan mulkiy islohotlar natijasida quyidagilar amalga oshirildi:

- davlat mulki tugatilib, xususiy, jamoa, hissadorlik yoki xorij surmoyasi bilan shakllanadigan mulklar yuzaga keldi;
- qishloq xo‘jaligida mulk “davlat mulki” va “jamoा mulki” (shirkat va jamoa xo‘jaliklari) shaklidan “xususiy mulk” (dehqon va fermer xo‘jaliklari) shakliga o‘tkazildi (105 ta qorako‘lchilikka ixtisoslash-tirilgan shirkat xo‘jaliklari va ilmiy-tadqiqot institutlarining tajriba xo‘jaliklaridan tashqari);
- jamoa mulki bo‘lgan bog‘ va tokzorlar, chorva fermalari va mollari, texnikalar hamda boshqa mol-mulklar xususiylashtirildi;
- xususiy mulklarni himoya qilish va ularning rivojlanishini huquqiy jihatdan kafolatlash bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Ta’kidlash lozimki, iste’mol tarkibi sifatlari oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘proq iste’mol qilish hisobidan o‘zgarmoqda. Bunda uglevodlarga boy oziq-ovqatlarni (birinchi navbatda, non va non mahsulotlarini) iste’mol qilishning barqarorlashgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik yillarida aholi tomonidan iste’mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarning soni, turi o‘nlab barobar oshdi. Hozirgi vaqtida ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobidan aholining barcha asosiy iste’mol mahsulotlari bo‘yicha (shakardan tashqari) ehtiyoji deyarli to‘liq ta’minlanmoqda.

9.3. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash istiqbollari

O‘zbekistonda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadul yangilash biz uchun muhim ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Qishloq xo‘jaligini istiqbolli rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- agrar sohada iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mulkiy munosabatlар va xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish mexanizmini takomillash-tirish va samarali foydalanishni rag'batlantirish;
- suv xo'jaligi tizimini takomillashtirish, yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash;
- qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini viloyatlar va tumanlarning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda joylashtirish, mahsulotlar sifati va ekinlar hosildorligini oshirishga e'tibor qaratish;
- chorvachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish;
- o'rmon xo'jaligini kompleks rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligi xomashhyosini qayta ishlash tarmog'ini rivojlan-tirish, agrar sohaning eksport salohiyatini oshirish;
- qishloq joylarda servis xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligida moliya-kredit, soliq va sug'urta tizimini takomillashtirish;
- agrar sohaga oid fanni rivojlantirish va ilm-fan yutuqlarini, ilg'or xorijiy tajribalarni ishlab chiqarishga joriy etish;
- qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholi daromadlarini oshirish.

Agrar tarmoq raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish;
- ekinlar navlarini to'g'ri joylashtirish, mahsulot sifati va ekinlar hosildorligini oshirish;
- chorva mollarinaslini yaxshilash va chorvachilik tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va qayta ishlovchi subyektlar raqobatbardoshligini oshirish;
- qishloq xo'jaligiga servis xizmat ko'rsatish va servis korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish;

- global iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’min etish;
- suv tanqisligi salbiy oqibatlarini yumshatishda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tizimini takomillashtirish katta ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasida tarkibiy o‘zgartirishlarni umalga oshirish hamda yanada rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun moddiy-texnika resurslari bozorini shakllantirish va barqaror rivojlantirish lozim bo‘ladi.

9.4. Oziq-ovqat mahsulotlari importi xavfsizligini ta’minlash yo‘llari

Respublika oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining import ozuqaviy xomashyo zaxiralariga bo‘lgan talabidan ma’lumki, hozirgi kunda qandolatchilik, yaxna shirin ichimliklar, xamirturush patokasi, pivo xomash-yosi, konserva, sutli, go‘shtli mahsulotlar, ozuqaviy qo‘srimchalar ta’minotida tanqislik sezilmoqda, shu tufayli import qilinayotgan turdosh mahsulotlarga nisbatan raqobatbardoshlik saviyasi past bo‘lmoqda. Yuqorida zikr etilgan kamchiliklarning yuzaga kelishi sabablari quyidagilardan iborat:

- tabiiy sof ozuqa mahsulotlari xaridi uchun erkin moliyaviy mablag‘larning yetishmasligi (erkin valyuta);
- sisatli birlamchi ozuqaviy qo‘srimchalar zaxirasining yetishmasligi;
- bojxona tizimida ozuqaviy qo‘srimcha, ozuqa mahsulotlari iste’moli xavfsizligini aniqlash laboratoriylarida malakali mutaxassis va zamonaviy tekshirish texnik anjomlarning yetishmasligi;
- mahsulot dizaynining talab darajasiga yetkazish ustida ilmiy-amaliy izlanishlar sustligi;
- ekologik sof mahsulot talab va taklifga nisbatan texnologik egihuychanlikning pastligi;

- mehnat resurslarida ishlab chiqarish madaniyati saviyasining pastligi;

- mahsulot savdosida marketing amaliyoti saviyasining pastligi.

Xalqaro “Grinpis” tashkiloti oziq-ovqat mahsulotlari tahliliy natijalarida keltirgan iste’mol xavfsizligini ogohlantiruvchi ma’lumotlariga ko’ra dunyoga mashhur “Coca-cola” va “Snikers” kompaniyalar ishlab chiqargan mahsulotlari tarkibida inson salomatligiga zararli ekologik ifloslangan ozuqa mahsulotlari mavjudligi haqida ma’lumot beradi; AQSHda shu kunga qadar genetik ifloslangan mahsulotlar markirovkasida iste’molchiga mahsulot genetik ifloslanganligi, inson salomatligiga qay darajada zararli ekanligi haqida ma’lumot berilmaydi. Ushbu holatda “Grinpis” tashkiloti AQSHlik iste’molchilar uchun yagona, qaysi mahsulotlar genetik ifloslangan tarkibida GM - ingridientlari bo’lgan mahsulotlar iste’molidan saqlanish kerakligi haqida xalqni ogohlantiruvchi va ma’lumot yetkazib turuvchi tashkilotdir.

O’zbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlari iste’mol xavfsizligini ta’minlash yo’nalishida “O’zbekiston Respublikasi Bojxona qo’mitasi”, “Yog’-moy oziq-ovqatsanoat”, “O’zdonmahsulot” uyushmalari, “Uzumsanoat” xolding kompaniyasi, “O’zgo’shtsutsanoat” AK, O’zR.FA “O’simlik eksperimental biologiyasi va genetikasi instituti”, “O’zbekiston Respublikasi Standartlashtirish qo’mitasi”, “O’zbekiston Respublikasi Statistika qo’mitasi” tarmoqlari va hududiy tarmoqlar uyg’unlashgan holda yagona oziq-ovqat mahsulotlari iste’mol xavfsizligini ta’minlashning normativ huquqiy, texnik, iqtisodiy, moli-yaviy, biotexnologik amaliy mexanizmini takomillashtirish muhimdir. Xususan:

1. Respublika ozuqa zaxiralari ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda tabiiy, sof, raqobatbardosh oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish iste’mol talabi muvozanatiga erishish.

2. Tabiiy sof oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish uchun, tabiiy sof assortiment turkumdagи ozuqaviy qo’shimchalar ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish.

3. Turdosh oziq-ovqat mahsulotlari hamda ozuqaviy qo'shimchalarni mamlakatimizga rasmiy va norasmiy kirib kelishini huquqiy normativlar bilan qat'iy tartibga solish.

4. Qisqa davr mobaynida sun'iy ozuqaviy qo'shimchalar:

- qandolatchilikda;
- sun'iy hid, ta'm va rang beruvchilar, patoka, kraxmal, ingridientlar va boshqalar;
- yaxna ichimliklar ishlab chiqarishda sun'iy ta'm, hid va rang beruvchi konsentratlar (koka-kola, fanta, fiesta, pepsi-kola, oranj, limon, papaya, kiva, ananas, olma, nok, malina, olxo'ri, olcha) va boshqalar;
- kolbasa, sosiska, dudlangan go'sht, baliq va sabzavot konservalari ishlab chiqarishda sun'iy ziravor aralashma hajmida boyituvchi qo'shimchalar (soya, uni kraxmal) ta'mi, turli ozuqa va uksus kislotalari qo'llanilishini huquqiy me'yorlar asosida taqilashga erishish.

Oziq-ovqat iqtisodiy-ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashga konseptual yondashuv esa quyidagi amaliyotlarga bog'liq:

- mahalliy resurslarni jalb etgan holda, import o'rmini bosuvchi tabiiy sof mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;
- import o'rmini bosuvchi mahalliy xomashyodan iste'moli xavfsiz tabiiy sof ozuqaviy xomashyolarni ishlab chiqarish strategiyasini rivojlantirish asosida, sun'iy ozuqaviy xomashyolar importini kamaytirish;
- bojxona tizimi va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida malakali ishchixizmatchilarni tayyorlash eksperimental o'quv bazalarini yaratish;
- oziq-ovqat sanoati tarmoqlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa sohalarni mutanosib rivojlantirishni yo'lga qo'yish.

Asosiy tayanch tushunchalar

Oziq-ovqat xavfsizligi, import, eksport, qishloq xo'jaligi, urbani-zatsiya jarayoni, ishchi kuchi, yer maydonlari, kimyoviy o'g'it, kadrlar salohiyati, oziq-ovqat mahsulotlari, urug'chilik va naslchilik, o'rmon xo'jaligi, agrar soha.

Takrorlash uchun savollar

1. Dunyo mamlakatlari aholisining oziq-ovqat bilan o‘zini o‘zi ta’minlash koeffitsientining pasayishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
2. Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisi uchun qanday ahamiyatga ega?
3. Mamlakatimizning qishloq xo‘jaligidagi tarkibiy o‘zgarishlar – oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rnii qanday?
4. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning bosh maqsadi nimalardan iborat?
5. Qishloq xo‘jaligini istiqbolli rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlariga misollar keltiring?
6. Agrar tarmoq raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari qaysilar?
7. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasida tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish hamda yanada rivojlantirish uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirish lozim?
8. Oziq-ovqat mahsulotlari importi xavfsizligini ta’minlash yo‘llari nimalardan iborat?
9. Iste’mol tarkibi o‘zgarishi nimaga bog‘liq?
10. Dunyo mamlakatlari aholisining oziq-ovqat bilan o‘zini-o‘zi ta’minlash koeffitsientining pasayishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

X BOB. AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

10.1. Axborot xavfsizligini ta'minlashning mohiyati va unga tahdidlar

“Axborot” (arabcha, axbor – xabarlar, ma’lumotlar) – muayyan voqeа-hodisalar to‘g‘risidagi xabar yoki ma’lumot, ularni tushuntirish, tushunish va idrok etishda qadim zamonlardan buyon qo‘llanib kelayotgan, kibernetika va informatikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vuqtda yangi, keng ma’no kasb etayotgan tushuncha. Ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilinadigan ko’rsatuv va eshittirishlarning nomi, jurnalistika sohasidagi maxsus janr ham shunday ataladi. Biron voqeа haqidagi bat afsil ma’lumot, davlatlar o‘rtasidagi muzokaralar natijasida tuzilgan bitim yoki shartnomalar to‘g‘risidagi rasmiy xabar ham axborot deyiladi³.

Axborot vositalarining jadal rivojlanishi XXI asrning axborot asri deb atalishiga sabab bo‘ldi. Axborot texnologiyalari axborotlashgan jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborotlashgan jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, eng avvalo, axborotni ishlab chiqarish, unga ishlov berish, saqlash va jamiyat a’zolariga yetkazishga bog‘liq ekanini anglatadigan tushunchadir⁴.

Axborot resurslariga tahdidlar quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- turli yo‘llar orqali maxfiy axborotlar bilan tanishishga intilish;
- buzg‘unchilik maqsadida axborotlarni o‘zgartirish;
- axborot tizimini ishdan chiqarish, buzish va boshqalar.

Axborot xavfsizligining yaxlitligi, boshqaruvchanligi, mohiyati tasniflarining barqarorligini, shuningdek, obyektning potensiali, resurslarining reytingini ichki va tashqi tahdidlar, xavf-xatarlar hamda noxush axborot omillari ta’siridan saqlanishiga imkon beradigan holati

³ Махният: асосий тушунчалар изоҳли лугати. / Тузувчи ва масъул мухарриф К.Назаров –Т.: Фафур Гулом номидаги НМИУ. 2009. – 46-бет.

⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилл.-Т.: “Ўзбекистон Миллый Энциклопедияси” Давлат илмий шартийети. 2000. 529-бет.

va rivojlanish yo'nalishlarini ifodalaydigan xususiyat va sifatlari yig'indisini anglatadi. Umuman, axborot xavfsizligi – shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy zarur manfaatlarining himoyalanganlik holatidir.

Har bir shaxs axborot olish erkinligiga ega. Axborot olish kafolatlari va erkinligi - har bir shaxsning o'zi istalgan axborotni izlash, olish va tarqatishga haqli ekanligidir.

Axborot xavfsizligi obyektlarini davlat, tashkilot (korxona) va alohida shaxs darajasida turkumlash mumkin (1-jadval).

1-jadval

Axborot xavfsizligi obyektlari (AXB)⁵

Davlat AXB	Tashkilot AXB	Shaxs AXB
<p>Milliy madaniy qadriyat va an'analar. Axborot resurslari.</p> <p>Axborot resurslarining shakllanishi, tarqatilishi, foydalanimishi.</p> <p>Axborot texnologiyalari. Axborot infratuzilmasi.</p> <p>Fuqarolarning axborotlarni olish, tarqatish va foydalanish huquqlari, cheklangan axborotlarni va intellektual mulknini himoyalash</p>	<p>Tashkilotning korporativ madaniyatি.</p> <p>Tijorat siri. Kasb siri. Xizmat siri va boshqa cheklangan axborot.</p> <p>Intellektual mulk. Imij. Tashkilotning axborot infratuzilmasi.</p>	<p>Shaxs psixikasi, ruhiyati.</p> <p>Intellektual mulk. Shaxsiy oilaviy siri. Kasbiy siri. Shaxsiy ma'lumotlari.</p> <p>Ishbilarmonlik nufuzi.</p>

Axborot xavfsizligiga tahdidlar ichida axborot xuruji muhim rol o'ynaydi. Axborot xuruji iqtisodiy jihatdan milliy iqtisodiyot beqarorligini keltirib chiqarish korxona faoliyatini izdan chiqarishga, raqobat kurashida mag'lub bo'lish, uning bozorining kasod bo'lishi, bankrot bo'lish, shaxs iqtisodiy xavfsizligiga putur yetkazishga qaratilgan va axborot usullari yordamida davlat monopolistik birlashmalar, transmilliy korporatsiyalar ta'sir doirasini kengaytirishga intilishdir.

⁵ Концепция Т.Е. Экономическая безопасность Ростов на Дону: Феникс, 2007.-С.243; Богом К. Бизнес-разведка. Выявление передовых технологий: перс с азота под ред. Б.Л.Речицкого - М.: Вершина, 2006. -С.37.

10.2. Axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmi

Axborot xavfsizligini ta'minlash moddiy va intellektual xarajatlar qilishni taqozo qiladi. Shuningdek, davlat o'zining milliy manfaatlari doirasida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi demokratik huquqiy ta'sir vositalarining shakl hamda usullarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash vazifalari quyidagilardan iborat:

- axborot jarayonlarining globallashuvi sharoitida axborot tarmoqlarining shakllanishida milliy manfaatlarni himoya qilish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, tashkilot, korxona va fuqarolarni haqqoniy, to'liq ma'lumotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash. Bu esa ular uchun qaror qabul qilishga asos bo'lib xizmat qiladi;
- davlat, jamiyat, shaxs axborot xavfsizligiga ziyon keltiradigan darajada axborot resurslari butunligining buzulishi oldini olish;
- fuqaro, tashkilot va korxonalarining axborot faoliyati sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash va amalga oshirish;
- mamlakat axborot infratuzilmasini himoya qilish va takomillashtirish;
- xalqaro axborot muhitiga, maydoniga qo'shilishini ta'minlash;
- axborot sohasidagi tahdidlar va xavf-xatarlarga qarshi harakat qilish.

Mamlakatda axborot xavfsizligini iqtisodiyot sohasida ta'minlashning asosiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- statistik, moliyaviy, birja, soliq, boshxona ma'lumotlarini yaratish, yig'ish, qayta ishslash, saqlash, uzatish va himoyalash ustidan davlat nazoratini tashkil etish va amalga oshirish;
- axborotlarni himoya qilishning sertifikatlashgan milliy vositalarini ishlab chiqish va ularni statistik, moliyaviy birja, soliq, bojxona ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishslash, saqlash, uzatish tizimi va vositalariga joriy etish;

- elektron savdo va elektron pullar hamda ularning standartlashgan tizimlari bazasida himoyalangan milliy elektron to‘lovlar tizimini ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, ulardan foydalanishni tartibga soluvchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar bazasini ishlab chiqish;
- iqtisodiyotda axborot munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normativ bazani muntazam ravishda takomillashtirib borish;
- iqtisodiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va uzatish tizimlarida ishlash uchun xodimlarni tayyorlash va tanlash usullarini takomillashtirish.

Axborot xavfsizligini ta’minalash yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- axborot xavfsizligini ta’minalashda davlat siyosati va tizimini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish uchun axborot xavfsizligiga tahdidlarni aniqlash, baholash va prognozlashtirish shakllari, usullari va vositalarini takomillashtirib borish;
- axborot xavfsizligini ta’minalash tizim va vositalarining samaradorligini baholash tamoyillari, mezonlari va usullarini ishlab chiqish;
- axborot texnologiyalari xavfsizligini ta’minalash, axborotlarni himoyalashning zamonaviy usul va vositalarini ishlab chiqish;
- axborot xavfsizligini ta’minalash va axborot texnologiyalari sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yagona tizimini yaratish.


Axborot xavfsizligini ta’minalash usullari umumiyligi va xususiy turlarga bo‘linadi. Umumiy usullar, o‘z navbatida, huquqiy, tashkiliy-texnik va iqtisodiy usullardan iborat.

10.3. O‘zbekistonda axborotni himoyalash davlat tizimi

Axborot resurslari va axborot tizimlarining xavfsizligi quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta’minalash;

- axborot resurslarini qalbakilashtirish, o'g'irlash, yo'qotish, buzish, to'sib qo'yish va boshqa ruxsat etilmagan foydalanishlarning oldini olish;
- axborotni buzib ko'rsatish, ko'chirish, to'sib qo'yish bo'yicha noqonuniy harakatlarni va axborot resurslari hamda axborot tizimlariga boshqa ta'sir shakllarining oldini olish;
- davlat sirlari va maxfiy axborotlari mavjud bo'lgan axborot resurslarini saqlash¹ (11.12.2003y N 560 - II "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunning (yangi tahrir) 20-moddasiga ko'ra:



- axborot resurslari va axborot tizimlari muhofaza qilinishini tashkil etish tartibi ularning mulkdorlari, egalari tomonidan mustaqil belgilanadi;
- davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlарining muhofaza qilinishini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va Internet tarmog‘idan foydalanish xavfsizligini ta’minlashning milliy tizimini yanada takomillashtirish, ularga kompyuter xavfsizligiga tahdidlarni o‘z vaqtida aniqlash, bartaraf etish va ta’sirini yo‘qotish masalalarida ko‘maklashish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 5-sentyabrdagi “Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarining kompyuter xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha choralar to‘g‘risida”gi PQ-167-son Qarori asosida “Uzinfokom” markazi qoshida Kompyuter hodisalariga qarshi chora ko‘rish xizmati (UZ- CERT) tashkil qilingan.

Axborotning kriptografik himoyasi vositalarini loyihalashtirish, tayyorlash, ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ta’mirlash va ulardan foydalanish faoliyatini amalga oshirishda litsenziya talablari va shartlariga quyidagilar kiradi:

- litsenziat axborotning kriptografik himoyasi sohasidagi qonun hujjatlariga majburiy rioya qilishi;
- litsenziyalanadigan faoliyatning arizada ko‘rsatilgan turi bo‘yicha axborotning kriptografik himoyasi sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi texnik va metodik hujjatlarning, shu jumladan, ichki nizomlar, yo‘riqnomalar, metodikalarning mavjud bo‘lishi;
- axborotning kriptografik himoya vositalarini tayyorlash va ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlari hisoblanadigan kriptografik algoritmlarni yoxud axborotning kriptografik himoya vositalari sohasidagi vakolatli organ tomonidan tavsiya qilinadigan standartlarni qo’llash;
- muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘lgan axborotlarni kriptografik himoya qilish vositalaridan, shuningdek, axborotlarni kriptografik himoya qilish sohasidagi vakolatli organ bilan kelishilgan holda foydalaniладigan kriptotizimlardan foydalanish;
- davlat sirlariga tegishli deb topilgan ma'lumotlarga ega bo‘lgan axborotni, shuningdek, himoya qilinishi qonun hujjatlarida belgilangan

boshqa axborotni kriptografik himoya qilish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda davlat sirlaridan foydalanish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ruxsatnomaga ega bo'lgan mutaxassislarining litsenziya talablarida mavjud bo'lishi;

- normativ talablarga muvofiq bo'lgan texnik o'lhash va nazorat qilish vositalari, asboblar va qurilmalarning mavjud bo'lishi.

10.4. Kiber xavfsizlikni ta'minlash yo'llari

Bugungi kunda zamонавиј kompyuter texnologiyalari yordamida bir vaqtning o'zida ham ma'lumot olish, muloqot qilish, televizor ko'rish, musiqa tinglash, xarid qilish va hatto taomga buyurtma berish imkoniyati bor. Kompyuter va internet bilan qanchalik yaqin do'stlashmaylik, ayrim vaziyatlarda o'ta ehtiyyotkorlik zarar qilmaydi. Zero, kompyuterda tanishlar bilan miriqib suhbat qurayotganingizda, kimdir sizga tegishli ma'lumotlarni o'zlashtirib olayotgan bo'lishi mumkin.

"Xaker"mi – "Kraker"mi? Xaker deganda ko'z oldimizga birinchi navbatda kompyuterlarga noqonuniy yo'llar bilan kiradigan, dasturlarni buzib, bank pullarini o'maradigan, viruslar tarqatib, tizimlarni ishdan chiqaradigan kompyuter qaroqchilari keladi. Aslida ham shundaymi? Xakerlar o'zi kimlar, ular qachondan yomon otliq bo'lib qolishdi?

Agar "xaker" so'zining lug'aviy ma'nosiga qarasak, malakali axborot texnologiyalari mutaxassisi, kompyuter texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan shaxs degan tushuncha hosil bo'ladi. Darhaqiqat, bu so'z avvaliga kompyuter dasturlariga oid xatolarni turli usullar bilan tuzatib, muammolarni bartaraf etadigan sohaning eng bilag'on kishilariga nisbatan qo'llanilar edi.

Xususan, 1960-yillarda faqatgina eng kuchli va malakali das-turchilarni "xaker" deb ataganlar. O'tgan asrning 70-80-yillarda esa operatsion tizimlarning zaif tomonlarini bartaraf etish maqsadida tizim qaytadan ishlab chiqiladi. Aynan shu davrda kompyuter tarmog'ida avj olgan xufyona o'g'riliklar xakerlarga "buzg'unchi" degan tamg'aning

bosilishiga sabab bo'lgan. Lekin, bu xato. Aslida bunday shaxslarni kraker (crack – buzish) deb atagan to'g'riroq bo'lardi.

Jahon miqyosida axborot texnologiyalari rivojlanlanishi bilan proffesional xakerlar soni ham ortib bormoqda. Kompyuter olamidagi 80 foiz foydalanuvchilar xakerlarni o'sha-o'sha jinoyatchilar deb hisoblaydilar. Bunga kompyuter tizimida sodir etilayotgan o'g'riliklar sabab bo'lmoqda. Kompyuter texnikasi – xavfli quro!

Aytish joizki, jinoiy maqsadlarni amalga oshirishda kompyuter texnikasi asosiy qurol bo'lib xizmat qilmoqda va undan jinoyat sodir etish vositasi sifatida foydalanilmoqda. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, kompyuter huquqbazarliklari oqibatida sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti har yili milliardlab zarar ko'radi. Kompyuter jinoyatlarining o'ziga xos xavfi hamda uning jahon mamlakatlari sivilizatsiyasiga salbiy ta'sirini hisobga olgan holda, BMT doirasida ushbu jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarali yo'llarini izlab topish choralar ko'rilmoxda. Lekin yaqinda, ushbu yirik tashkilotning o'zi ham xakerlar nishoniga aylandi.

Xakerlarning hujumi oqibatida moliyaviy zarar ko'rish ko'rsatkichi AQSHda taxminan 100 milliard, Britaniyada 4,45 milliard, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarda 30 milliard AQSH dollarini tashkil qiladi. Aqchamni qayerda saqlay? "Team Poison" xakerlar guruhi o'z Twitter sahifasida BMTning mingdan ziyod xodimlariga tegishli elektron pochta va ularning kalit so'zlarini oshkor qilishganini e'lon qilishdi. BMTni "Global korrupsiya senati" deb atagan xakerlar, tashkilotning ayrim masalalar yuzasidan olib borayotgan siyosatini qoralashgan. Bi-Bi-Si ga intervyu bergen BMT vakili xakerlar chindan ham tashkilot serverini "sindirishgani"ni lekin xavotirga o'rinn yo'qligini ma'lum qilgan. Uning aytishicha, o'g'irlangan ma'lumotlar 2007-yilga oid bo'lib, bugun ulardan deyarli foydalanilmaydi.

Kompyuter jinoyatchiligi tarixan bir necha bosqichni bosib o'tgan. Xalqaro ro'yxatga kiritilgan va kompyuter jinoyati deb hisoblangan birinchi voqeа 1979-yil Vilnyus shahrida kuzatilgan. O'shanda xakerlar

EHM orqali 80 mingga yaqin rublni o'zlashtirib olishgan. Amerika sunoat xavfsizligi jamiyati va "Pricewater house Coopers" kompaniyasi ko'rsatmasiga ko'ra, 1999-yilning o'zida korporatsiyaning 45 milliard AQSH dollariga teng keladigan ma'lumotlarini o'g'irlashga urinishlar bo'lgan.

2000-yilda kompyuter viruslarining tarqalishi oqibatida taxminan 10 milliard AQSH dollari miqdorida moliyaviy zarar ko'rilgan. "LOVE" deb nomlangan 5 milliondan ko'proq kompyuterga tarqalib, hatto Pentagon va Britaniya hukumati kompyuterlariga ham zarar yetkazgan. Ma'lumotlarga ko'ra har ikki tashkilot ushbu virus tufayli 8,75 milliard AQSH dollarini yo'qotgan.

Virusning "yubileyi" Dunyodagi birinchi kompyuter virusi – Creeper dasturi yaratilganiga 40 yil to'ldi. U 1971-yilda AQSH mudofaa vazirligi agentligi tarmog'i – ARPANET3 ga xizmat ko'rsatuvchi kompaniya xodimi tomonidan yaratilgan. Amaliy jihatdan Creeper hech qanday zararli virus bo'lmagan. Muallif Bob Tomas shunchaki kompyuterlar bo'ylab harakatlanadigan dastur yaratgan xolos. Hozirgi viruslardan farqli o'laroq Creeper yangi kompyuterga o'tgach avvalgisidan o'chib ketaverган. "Virus" atamasi ancha keyin paydo bo'lgan. 1983-yili kaliforniyalik talaba Fred Koen o'z-o'zidan ko'payuvchi va tarmoqlarga turqab ketuvchi dastur ustida ish olib borgan, biroq u yaratgan virus ham zararsiz bo'lib, doimiy nazorat ostida edi. Lekin Koen baribir, kompyuter virusi muallifi sifatida tarixda qoldi. Uning so'zlariga ko'ra, bugun global muammo darajasiga yetib qolgan viruslarni 100% aniqlab, fosh eta oladigan algoritmni yaratishning iloji yo'q.

Kasperskiy laboratoriyasining ma'lumot berishicha, bugungi kunga kelib har kuni xalqaro internet tarmog'iда 310 mingdan ziyod zararlangan dasturiy viruslar tarqatilmoqda. 2006-yillarda ushbu ko'rsatkich 1,4 mingtani tashkil qilar edi. Bu esa xalqaro internet tarmog'i idagi kiberhujumlar diapazoni o'tgan o'n yil ichida kamida 200 marta oshganidan dalolat beradi.

Ayni paytda viruslar orqali amalga oshirilayotgan kiberhujumlar juda xatarli tus olmoqda. Tarqatilayotgan viruslarning aksariyati bank xizmatlarini ko'rsatadigan jahon axborot tarmog'ini zaiflashtirish orqali, u yerdan moliyaviy ma'lumotlarni o'g'irlashni ko'zlaydi.

2019-yil tahlillaridan ma'lum bo'lishicha, bank-moliya sohasidagi yirik muassasalar, onlayn to'lov jarayonlarini amalga oshiruvchi tizimlar, savdo majmualari, mehmonxona va savdo terminallari eng ko'p foydalaniladigan markazlar xakerlarning asosiy diqqat markazida turadi. Misol uchun, Carbanak kiber jinoyatchilik guruhi hamda uning SWIFT nomli xakerlari bank va bir qator moliyaviy institatlardan har yili 1 mln AQSH dollaridan ziyod mablag'ni o'g'irlaydi. Bu turdag'i jinoyatlarni amalga oshirish katta mablag' keltirgani hamda bu jinoyatlarni fosh etish qiyin bo'lgani sababli ham, bugun xakerlik jinoyatlari va shunga o'xhash axborot xurujlari soni ortib bormoqda.

Moliyaviy o'g'irliliklar 2019-yilda ko'zlagan fishing hujumlari son va professionallik jihatdan oshmoqda. Xususan, xakerlarning "ko'rinnmas qarmog'i" orqali axborot xurujlarini uyuشتirish 13,4 foizga oshib, jami moliyaviy kiber hujumlarni ko'zlagan xakerlik jinoyatlarining 47,48 foiz qismini tashkil qilgan. Jumladan, odamlarga bank xizmatlarini ko'rsatishni taklif qilish, soxta bank tizimlarini yaratish orqali zarur axborotlarni o'g'irlash, elektron pochtalar orqali bank tizimlariga hujum uyuشتirish, internet tarmog'ida turli xildagi qiziqarli aksiya va viktorinalarni tashkil etish orqali foydalanuvchilarining ma'lumotlarini o'g'irlash holatlari kuzatilmoqda.

Bank tizimlarini ishdan chiqarishni maqsad qilgan "troyan" viruslari soni 2016-yilda 30,55 foizga oshib, 1 088 900 taga yetgan. Ular orasida ayniqsa "Zbot" eng ko'p tarqalgan, "Gozi", "Nymaim", "Shiotob" ommalashayotgan zararli fayllar oilasi. Bunday virus hujumiga uchragan odamlarning 17,17 foizi tizimlardan korporativ shaklda foydalanuvchilar bo'lishgan. Bunday zararli fayllarning tarqalishi asosan Rossiya, Germaniya, Yaponiya, Vietnam hamda AQSHda ko'p kuzatilgan. Bugun

bu kabi viruslar tufayli moliyaviy zarar ko'rayotgan kichik firmalar soni ham ortib bormoqda.

Android tizimi foydalanuvchilariga uyuşhtirilgan hujumlari soni 2016-yilda 430 foizga oshib, jahon miqyosida 305 000 tani tashkil qilmoqda. Jumladan, Rossiya, Avstraliya, Ukraina davlatlarida bu viruslarning keng tarqalgani ma'lum bo'ldi. Xususan, Rossiya hududida "Asacub" hamda "Svpeng" nomli viruslar oilasi ommalashgan. Bu viruslar jamlanmasi ma'lum bir sayt egasi Google saytiga reklama qo'yishga ruxsat berishi evaziga undan pul olishi mumkin bo'lgan Google AdSense xizmati orqali tarqagan. Bunda Google reklamasi mavjud saytga kirgan Android foydalanuvchisi zararli faylni yuqtirib oladi va xakerlarning "qurboni"ga aylanadi.

Shu bois, axborot xavfsizligi sohasi mutaxassislari Android operatsion tizimida faoliyat ko'rsatuvchi devayslar egalariga internetdan foydalanishda ishonchli manbalarga kirishni maslahat bermoqdalar. Ayniqsa, bank-moliyaviy ilovalari o'rnatilgan mobil qurilmalarga zararli ilovalarni orttirib olish katta yo'qotishlarga sabab bo'lishi mumkin.

So'nggi yillarda xakerlarning veb-saytlarga uyuşhtirayotgan hujumlari soni tobora oshib bormoqda. O'tgan asrning 60-yillarida "xaker" so'zi kompyuter va axborot texnologiyalarini puxta bilgan insonlarga nisbatan ishlataligancha. Bugungi kunga kelib esa bu so'z axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yordamida noqonuniy harakatlarni bajaruvchi, axborot tizimlari va dasturlarini buzib kirib, ulardan ruxsatsiz foydaluuvchi, ilova hamda veb-sahifalar muhofazasini buzish va virus tarqatish orqali kiber jinoyatchilik uyuşhtiradigan shaxsga nisbatan ishlataladi.

AQSHning Arbor Networks dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari ma'lum qiliñchini, ishlab chiqarish, kompaniyalar o'rta sidagi raqobatning kuchayishi ularni virtual dunyoda ham raqibga aylantirgan va kompaniyalar ro'y়tilarining onlaysavdosi yoki tizimlarini ishdan chiqarish maqsadida, xakerlarni yollamoqdalar.

Zamonaviy kiberjinoyatchilik orqali bugun xakerlar ularni yollayotgan muassasalarga xizmatlarini sotishga muvaffaq bo'limoqdalar. Ular o'zлari kirgan tizimlardan ma'lumotlarni o'g'irlab, mijozlariga sotadilar. Yoki yollanma qotillar kabi, boshqa kompaniyaning axborot tizimlarini yo'q qiladilar. Ushbu xizmatlari uchun xakkerlarga soatiga 2,5 AQSH dollari miqdorida ish haqi to'lanar ekan. Ayniqsa, bir nechta kompyuterlar tarmog'ida xizmat ko'rsatishni rad qiluvchi zararli tizimlarning o'rnatilishi, ya'ni DDoS-hujumlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Taxminan har yili 15 mln nafar AQSH fuqarolariga, asosan kompaniya rahbarlariga oid 50 mln AQSH dollari miqdoridagi zararga teng bo'lgan shaxsiy ma'lumotlar internet tarmog'iga uyushtirilgan hujumlar oqibatida o'g'irlanadi. Tahlillar bu kabi jinoyatlarning asosan dam olish kunlarida sodir bo'lishini ko'rsatadi.

Arbor Networks tahvilchisi Dennis Shvarsning ma'lum qilishicha, xakerlarning soatiga 2-3 AQSH dollari ishlashlari kutilmagan holat. Boisi, rivojlangan mamlakatlarda xakerlik uchun jinoyatchilar qat'iy jazoga tortiladilar. Ularning arzimagan mablag' evaziga jinoyatga qo'llurishlari esa achinarli.

2017-yilning 7-fevral kuni Moskva shahrida bo'lib o'tgan Kiber xavfsizlik bo'yicha xalqaro forum (Cyber Security Forum-2017)da kiber jinoyatlar olamida bugun eng ko'p tarqalgan uchta xuruj qayd etildi. Ekspertlarning fikricha, birinchidan, fishing orqali ma'lumotlarni o'g'irlash, ikkinchidan, maxfiy maqsadga ega mobil ilovalar orqali elektron qurilmalarga kirib borish, uchinchidan, aloqaning himoya qilinmagan kanallarini tomosha qilish orqali bugun ko'pchilik internet foydalanuvchilari kiber jinoyatlarning qurbaniga aylanmoqda.

Bugungi kunda kiber jinoyatchilikda muayyan shaxsning yoki obyektning geografik joylashgan nuqtasi to'g'risida xabar tarqatish, shaxsiy ma'lumotlar bazasini buzib kirish kabi xizmatlar ommalashgan. Xakkerlar bu kabi ma'lumotlarni internet va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan turli elektron resurslarga ularning foydalanish shartlarini o'qimasdan turib kirishlari evaziga olishmoqda.

Yilni, biz ijtimoiy tarmoqda duch keladigan “Necha yil yashaysiz?”, “AQSH prezidenti siz haqingizda nima deydi?”, “Qaysi Gollivud aktyoriga o’xshaysiz” kabi xizmatlar aslida fishing bo’lib, siz ulardan foydalanish chog’ida ularning shartiga rozi bo’lasiz va o’zingiz to’g’ringizdagagi ma’lumotlarni ularga hadya qilgan bo’lasiz. Bu ma’lumotlar esa maxfiy ravishda tashkil etilgan yirik “qora axborot bozorlari”da katta mablag’ga sotiladi.

“Kasperskiy laboratoriysi” asoschisi va rahbari Yevgeniy Kasperskiy 2017- yil 27-fevraldan 2-martga qadar Barselonada o’tgan Mobile World Congress anjumani chog’ida zamonaviy texnika, jumladan, internetga ulangan avtomobil va uylarning xavfsizligi bilan bog’liq muammolarga to’xtalib o’tdi. Yevgeniy Kasperskiyning ta’kidlashicha, no’nggi vaqtarda “aqli uy” va internet buyumlar tizimlariga uyushtirilgan yirik xurujlar aniqlangan. Internetga ulangan har qanday gadjetning IP-manzili orqali “aqli uy”larning holati to’g’risida ma’lumotlarni o’g’irlash, kompyuterlar tarmog’i bo’lgan abonetlarga hujum uyushtirish mumkin.

Xakerlar nafaqat videokameralar, avtomobil, samolyot kompyuterlari, balki bugun ommalashyotgan “aqli chiroq”larni, bundan ham jiddiyroq xavfizlik tizimlarini masofadan turib ishdan chiqarishadi va ularning usidlin nazoratni qo’lga olishadi. Natijada, ular yirik avariya, yong’in va boshqa turdagи baxtsiz hodisalarini sun’iy ravishda keltirib chiqarishadi. “Kasperskiy laboratoriysi” tadqiqtolaridan ma’lum bo’ldiki, internetga ulangan deyarli barcha avtomobillarning raqamli kalitlarini tayyorlash va tizimlарini masofadan boshqarish mumkin.

Xakerlar 2016-yilda Ukraina va Germaniyadagi yirik elektrostandalynlarni virus yordamida o’chirib qo’yishlari bilan bog’liq xurujlar xakerlarning atom stansiyalariga ham uyushtirishi mumkinligi, bu esa lojenli texnogen halokatlarni keltirib chiqarishidan dalolat beradi.

Yevgeniy Kasperskiy xakerlarning xurujini inobatga olgan holda, yangi kuchli platforma yaratish g’oyasini ilgari surdi. Uning so’zlariga ko’rin, to’liq himoyalangan tizimni yaratish ilojsiz, biroq zamonaviy

xurujlarga moslasha oladigan turli qurilmalar uchun universal himoya tizimini yaratishning imkonи bor. “Kasperskiy laboratoriysi” xakerlardan himoya tizimlarini ishlab chiqish bo‘yicha tajribali mutaxassislarini ishga oladi. Kasperskiy har qanday tizimni ishlab chiqishda, avvalo, uning xakerlik xurujlariga chidamliligini hisobga olish kerakligini aytdi.

Yana bir qiziqarli dalil – Yevgeniy Kasperskiy smartfondan foydalanmaydi. Uning Jahon Mobil Kongressi chog‘idagi chiqishida tadbir boshlovchisi undan mobil aloqa vositasini ko‘rsatishini so‘raganida Kasperskiy Sony Ericsson brendidagi eski telefonni qo‘liga oldi. Uning so‘zlariga ko‘ra, “eski telefondan foydalanish uning uchun qulay, bu unga hech qachon pand bermaydi. Eng muhimi, u zamonaviy smartfonlar kabi nozik emas”.

“Kasperskiy laboratoriysi” ning guvohlik berishicha, O‘zbekistonda kiber xurujga uchrayotganlarning 1,6 foiziga bank-troyanlari zarar yetkazmoqda. Kiber-virus xurujiga uchraganlar orasidan bank-troyanlarining qurbaniga aylangan foydalanuvchilar ulushi bo‘yicha O‘zbekiston jahondagi eng yuqori ko‘rsatkichga ega 10 ta mamlakat qatorida 10-o‘rinni egallagan. Mobil qurilmalar xavf-xatari geografiyasiga muvofiq, O‘zbekistondagi mobil qurilmalarga yilda 1000 tadan 50 mingtagacha zararli virusga ega ilovalar zarar yetkazadi.

Bugun tadbirkorlik sohasi rivojlanayotgan, oldi-sotdi munosabatlari raqamli tizimlarga ko‘chayotgan bir paytda axborot xavfsizligini ta’minlash masalasining ahamiyati ham oshib bormoqda. Verizon Data Breach Report tahlilida yozilishicha, barcha kiber xurujlarning 71 foizi kamida 100 nafar xodim ishlaydigan katta kompaniyalarga uyushtiriladi. Bu hujumlar muvaffaqiyatlι yakun topsa, “jabrlanuvchi” muassasa kamida 36 000 AQSH dolları zarar ko‘radi. Kompyuter tizimlariga kirishga ruxsat beruvchi parollarni har 6 oyda bir marta yangilash zarurligini jahoning aksariyat kompaniyalari odatlariga aylantirishgan. Aksariyat xakerlar umumiylar bilan hujum uyushtiradilar.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, xodim – xavfsizlikning eng nozik nuqtasi. Fishing-hujumlar foydalanuvchining elektron pochtasi, ijtimoiy

turmog'idagi sahifalari orqali axborotlarni o'g'irlashga urinishadi. Xaker login va maxfiy so'zlarni aniqlashga urinib, xodimlarga soxta, asliga aynan o'xshash saytlarning manzilini yuboradi. Bu kiber jinoyat-chilikning oldini olish uchun esa xodim malaka va bilimga muhtoj.

Maxfiy ma'lumotlarning xakerlar qo'liga tushish holati ko'proq sobiq xodimlilar bilan bog'lanadi. Shuningdek, zaif veb-saytlar, ayniqsa onlayn to'lov hamda tizimlar o'rnatilgan saytlarda kuchli himoyalash choralarini ko'tish zarur.

Muhim informatsiya doimo shifrlangan shaklda saqlanishi lozim. Ya'ni, ma'lumotlarni shifrlash tizimlarini o'rnatish maqsadga muvofiq.

Mutaxassislarning fikricha, agar har bir internet foydalanuvchisi va xizmat ko'rsatuvchilar kiber olamda ham hayotdagi kabi ehtiyyotkorlikni unutmaysalar, aksariyat kiber jinoyatlarning oldi olingan bo'lar edi.

Shuningdek, kiber xurujlardan himoyanishning oddiy usullari ham mayjuddir. Kompyuterni xakerlar xujumi va viruslardan himoya qilishning 6 ta usuli. Kiber o'g'rilardan himoyalanish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish foydadan holi bo'lmaydi:

Shaxsiy kompyuterdan foydalaniladimi yoki tarmoq kompyuterlarimi, qat'i nazar 1. Kompyuterda litsenziyalı antivirus o'rnatish va uning bazasini tez-tez yangilab turish; 2. Operatsion tizim va dasturlarni vaqtli-vaqtli bilan yangilab turish; 3. Disk va papkalarga kirishga ruxsat nechmasdan yoki foydalanib bo'lgach ularni yana yopib qo'yish; 4. "Firewall" dan foydalanish va uni yangilab turish. Ushbu dastur kompyuterdagagi ma'lumotlarni saqlashga xizmat qiladi; 5. Ish tugagach, nigar lokal foydalanuvchi sifatida, virtual serverni o'chirish; 6. Kalit no'zlar (parol va kod) ni faqat so'z yoki harf emas, balki raqamlar hamda hir necha ramzlardan tuzish. Imkon boricha shaxsiy ma'lumotlarni kompyuterdu saqlamaslik lozim. Yuqoridaagi qoidalarga amal qilish, o'z savitligimi ta'minlash va axborot texnologiyalari rivojiga hissa qo'shilg'an bo'ladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Axborot xavfsizligi, xaker hujumi, axborot resurslari, maxfiy axborotlar, buzg'unchilik, axborot texnologiyalari, android tizmi, moli-yaviy o'g'irliklar, kiberjinoyatchilik, kiber hujum, muhim informatsiya.

Takrorlash uchun savollar

1. Axborot resurslariga tahdidlar deganda nimani tushunasiz?
2. Axborot xavfsizligini ta'minlashning mohiyati nimadan iborat?
3. Axborot xavfsizligi obyektlarini qanday turkumlash mumkin?
4. Axborot xavfsizligiga tahdidlar ichida axborot xuruji qanday ahamiyatga ega?
5. Axborot xavfsizligini ta'minlash vazifalari nimalardan iborat?
6. Mamlakatda axborot xavfsizligini iqtisodiyot sohasida ta'minlashning asosiy chora-tadbirlari nimalardan iborat?
7. Axborot xavfsizligini ta'minlash usullari qanday turlarga bo'linadi va ularning farqlari nimada?
8. Axborot resurslari va axborot tizimlarining xavfsizligi qanday maqsadlarda amâlg'a oshiriladi?
9. Kiber xavfsizlikni ta'minlash yo'llariga misollar keltiring?
10. Xakerlar hujumiga uchramaslik uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim?

XI BOB. TRANSPORT XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH

11.1. Transport xavfsizligini boshqarish mohiyati va ahamiyati

Transport tizimini majoziy ma'noda yaxlit xalq xo'jaligi majmui subyektlarining o'zaro uyg'unlikda harakatlanishini ta'min etuvchi mamlakat va iqtisodiyotning o'ziga xos qon tomiri sifatida ta'riflanadi. Tuhiiy geografik sharoiti nuqtayi nazardan Respublika maydoni 448,9 ming km² ga teng bo'lib, u g'arbdan sharqqa 1425 km ga, shimoldan Janubga esa 930 km ga cho'zilgan. O'zbekiston o'z maydoniga ko'ra Yevropaning Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Shveysariya, Avstriya kabi mamlakatlar maydonini qo'shib hisoblaganda ham ulardan kattalik qilindi. Transport aholi va moddiy ishlab chiqarishning yuk va yo'lovchi tushish borasidagi ehtiyojlarini qondiradi, mamlakat hududlarini tutushtiradi, tovar, mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqaruvchilarini bilan iste'molchilarni o'zaro bog'lovchi o'ziga xos ko'priq hisoblanadi. Hunday o'zaro bog'lovchi o'ziga xos aloqalarsiz bozor va bozor munosabatlарining mavjudligi ham amri mahol. Aynan shu sababli mamlakat transport majmuidagi buzilishlar mamlakat iqtisodiy xavfsizligini tu'minlash borasida jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash uchun uning jahon hamjamiyatiga kirib borishi uchun mukammal transport tizimi ega bo'lish kerak. Turli xil transport vositalari sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni iste'molchilarga o'z vug'ida, isrof qilmasdan yetkazishda faol ishtirok etadi. Aholini bir manzilidan ikkinchi bir manzilga yetkazishda ham transportning ahamiyati kattadir.

Transport ishlab chiqarish tizimida muhim o'rin tutishi bilan birga u huq qumday hudud xo'jaligi majmuasining muhim qismi bo'lib xizmat qiladi. Uning rivoji tufayli hududlarni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish va mintaqalashdirish mumkin. Transport infratuzilmasi va yo'l tarmoqlari ning suvrali rivojlanishi kadrlarning qishloqlarda mustahkam o'rnashib

qolishiga, mehnat resurslaridan unumli foydalanish imkonini yaratadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda transport va transport kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirish, tashishlarning yuqori darajadagi xavfsizligini ta'minlash, transport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, soha uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Transport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligi va eksport salohiyatini oshirish, transport kommunikatsiyalarini strategik rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagagi "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra⁶: Transport vazirligi avtomobil, temir yo'l, havo, daryo transportlari, metropoliten, shuningdek, yo'l xo'jaligini rivojlantirish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha davlat boshqaruvi organi hisoblanadi;

Transport majmui – bu yuk va yo'lovchi transport tizimining barcha: temir yo'l, avtomobil, dengiz, daryo, quvur, havo, sanoat va shahar transport turlarini o'z ichiga oluvchi yirik ko'p tarmoqli soha hisoblanadi. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida 2018-yilda O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot hajmining 12,6 %i transport va aloqa tarmog'iga to'g'ri keldi. Bu ko'rsatkich 1990-yilda 5,9 %, 1995-yilda 8,4 %, 2000-yilda esa 7,7 %ga teng bo'lган. Demak, transport va aloqa tarmog'inining yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i oshib bormoqda. Sanoat va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning o'sishi, keng miqyosdagi kapital qurilishi va transport moddiy texnika bazasining yuksalishi bilan hamohang holda yuk va yo'lovchilar tashish hajmlari ham ortdi. Jumladan, 2010-yildan

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagagi "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

2018-yilgacha yo'lovchi tashish 34,5 %, yo'lovchi aylanmasi 51,7 %, yuk tushish 37,9 %, yuk aylanmasi 19,1 % ga ko'paydi.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ O'zbekiston Respublikasi hududida joylnishgan sobiq O'rta Osiyo temir yo'llari bazasida 1994-yil 7-noyabrda tashkil topgan. Mamlakat temir yo'llarining umumiy uzunligi 2000-yillar bosorida 15-89 km ni tashkil etgan bo'lsa, hozirga kelib umumiy temir yo'l uzunligi 6,1 ming kmni tashkil etadi. Jumladan, elektrlashtirilgan temir yo'llar 1714 km.ga yetdi yoki ushbu ko'rsatkich jami temir yo'llarning 2019-yil holatiga 39 foizini tashkil etadi. Tarmoqda 54.7 mingdan ortiq xodimlar faoliyat ko'rsatadi. Yillik yukni ayirboshlash barcha turdag'i transportlarning yuk ayirboshlashi qo'shilmasining 90% tashkil etadi.

O'zbekistonda mavjud bo'lgan transport turlari orasida yetakchi va muhim o'rinni temir yo'llar egallaydi. Mamlakatda tashiladigan yuklarning 66 foiziga yaqini transportning ana shu tarmog'i zimmasiga tushadi va bu transport mamlakat transport tizimining negizini tashkil etadi.

Eksport va import qilinadigan yuklarning qariyb 80 foizi temir yo'l transporti orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo'l yordamida 2018-yil tashilgan yo'lovchilar soni qariyb 20 million kishini tashkil etgan. Temir yo'llorda yuk tashishning tannarxi avtomobilarda yuk tashishga nisbatan 15 marta, havo transportiga qaraganda esa 12-15 marta arzon tushadi.

Mazkur transport turida mehnat xarajatlari ham avtomobil va havo transportiga ko'ra ancha kam. Temir yo'l transportining boshqa transport turlariga nisbatan yana bir afzalligi shundan iboratki, bu transport atrof-muhitiga kum zarar yetkazadi, uning yuk va yo'lovchilar tashish qobiliyati juda yuqori bo'lib, ob-havo injiqqliklari bilan deyarli bog'liq emas va muntazam ravishda harakatda bo'ladi. Bu bilan u avtomobil va ayniqsa havo transportidan katta farq qiladi.

O'zbekiston transport majmuining boshqa mamlakatlarning transport majmuindan asosiy farqi shundaki, iqtisodiyotning real sektoriga xizmat ko'ntinshidagi magistral temir yo'llarning ahamiyati nihoyatda katta. Qulay

makroiqtisodiy shart-sharoit va yuk tashishlar bozorida raqobat kurashining shiddatli tus olishi sharoitida temir yo'l transporti yo'lovchi va yuk tashish borasida talabning barqaror tarzda qondirilishini ta'min etgani holda, moddiy ishlab chiqarishni imtiyozli rag'batlantirish asosida iqtisodiy rivojlanishga katta zamin yaratib berdi. Boshqa tarmoqlarning mahsulotlariga narxlarning erkinlashtirilishini hisobga olgan holda, temir yo'l tariflari davlatning qo'lida muhim makroiqtisodiy regulyatorga aylanib ulgurdi.

Temir yo'l transporti tizim tashkil etuvchi muhim tarmoqlar - ko'mir, neft qazib oluvchi va neftni qayta ishlovchi tarmoqlar, qora metallarni qazib olish va qayta ishslash, mineral, qurilish va boshqa materiallarni ishlab chiqarishda yuk tashishlarning asosiy qismini amalga oshiradi (asosiy yuklar bo'yicha tashish koeffitsiyenti 50 %dan ko'proqni tashkil etadi). Ushbu tarmoqlar milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'min etadi va bevosita mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda mazkur moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari samaradorligining pasayishi temir yo'l transportining ko'rsatkichlari, birinchi navbatda yuk tashish hajmi va temir yo'l transporti korxonalarining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bir qator tarmoqlar (masafan, oziq-ovqat sanoati) umumiy yuk tashish hajmida temir yo'l transporti katta ko'rsatkichni tashkil etmasada, temir yo'l transportidan asosiy yuk tashuvchi sifatida foydalanadilar. Biroq shunday bo'lsa ham, temir yo'l transporti milliy iqtisodiy xavfsizlikning funksional-tarmoq tashkil etuvchilari, xususan oziq- ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi.

Bugungi kunda amalga oshirilgan islohotlarga qaramasdan temir yo'l tarmog'ining rivoji talab darajadasida emas. O'zbekiston temir yo'l zinchligi bo'yicha nafaqat "Uzoq" xorij mamlakatlaridan, balki Ukraina, Belorussiya, Boltiqbo'yи davlatlaridan ham orqada turadi. Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona, Qashqdaryo viloyatlari temir yo'l tarmoqlari bilan biroz yaxshi ta'minlangan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Surxondaryo viloyatlari esa bu borada ancha orqada.

O'zbekiston Respublikasi hukumati 1995-yil avgust oyida G'uzor-Boysun - Qumqo'rg'on temir yo'lini qurish to'g'risida Qaror qabul qildi. Unshbu yo'l mamlakatimizning janubiy hududlari – Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tabiiy boyliklari hamda mavjud boshqa imkoniyatlardan unumli va samarali foydalanish imkonini beradi, mazkur hududda istiqomat qiluvchi aholining ish bilan bandlik darajasini ko'tarish imkonini ham yaratadi. G'uzor - Boysun - Qumqo'rg'on temir yo'li Surxondaryo viloyatidagi Sariosiyo stansiyasidan Qashqadaryodagi Qarshi stansiyasiga bo'lgan masofani qariyb ikki martaga qisqartiradi.

Amalga oshirilgan ishlarning eng muhim ahamiyati va mohiyati shundaki, dengiz sathidan 1800 metr balandlikda, qattiq qoya toshlardan iborat tog'li hududlar bo'y lab, yozning jazirama issig'i, garmsellari, qishning izg'irin shamollari ostida temir yo'l izlari yotqizilgani, Toshguzar va Dehqonobod, Oqrabot va Darband, Boysun va Qumqo'rg'on kabi 6 ta yangi stansiya va yo'lovchi platformalariga ega bo'lgan 9 ta bekat barpo etilgani misolida ham ko'rish mumkin.

Ayniqsa, barcha stansiyalarda yo'l xavfsizligini ta'minlaydigan ishlab chiqarish obyektlari, mакtab, tibbiyat maskanlari, suv va gaz tarmoqlari kabi ijtimoiy infratuzilma inshootlari barpo qilingani bu loyihaning eng zamonaviy talablar darajasida amalga oshirilganini ko'rsatadi. "Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on" temir yo'lining qurilishi jarayonida 43 ta ko'priklar, jumladan, temir yo'l ko'priklari va yo'l o'tkazgichlari ningari murakkab muhandislik inshootlari yaratildi. Bu ko'priklarning 9 taasi dengiz sathidan 1500 metr balandlikda bunyod etilgani, bu borada ulgari O'zbekiston tajribasida ko'rilmagan mislsiz ishlar bajarilganini ko'rsatadi.

Mazkur temir yo'lining qurib, ishga topshirilishi mamlakat rivojini hishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yo'l respublikaning janubiy inshootlari – Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarini boshqa hududlar bilan bog'laydi va butun mamlakat bo'y lab yagona hamda yaxlit temir yo'l transport kommunikatsiya tizimini barpo etishga imkon berdi.

11.2. Transport xavfsizligini ta'minlashdagi muammolar

Mamlakatimizda yaxlit temir yo'l tarmog'ini shakllantirish bo'yicha strategik yo'nalishlar belgilab olindi. Bu borada 1994-2001-yillarda uzunligi 700 kilometrga yaqin "Navoiy-Uchquduq-Nukus" temir yo'li qurib bitkazildi. Natijada, ushbu temir yo'l liniyasi ishga tushirilgan dastlabki yillardanoq, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatiga katta miqdorda har xil xalq iste'mol yuklari yetkazib berila boshlandi.

Bu yo'l O'zbekistonning chet davlatlarga, avvalo, Transafg'on temir yo'l koridori orqali yaqin kelajakda to'g'ridan-to'g'ri Hind okeani, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari portlariga chiqish va eksport imkoniyatini, shu bilan birga, respublikaning tranzit rolini kengaytirish borasidagi salohiyatini keskin oshirdi.

Temir yo'l tarmog'ining ishga tushirilishi natijasida yuk tashish va yo'lovchilar qatnovini tashkil qilish, temir yo'llarga xizmat ko'rsatish va yo'l xavfsizligini ta'minlash uchun 2,5 mingga yaqin qo'shimcha yangi ish o'rni yaratildi. Yangi tashkil etilgan korxonalar va xizmat shoxob-chalarida, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida esa qo'shimcha tarzda 4 mingdan ortiq kishi ish o'rinalariga ega bo'ldi.

Mintaqaning tabiiy yer osti boyliklarini o'zlashtirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tub burilishlarga yuz tutib, aholining turmush faravonligi oshdi. Yuk va yo'lovchi tashish masofasi 170 kilometrga, harakat vaqtiga esa 7 soatga qisqardi. Natijada temir yo'l bo'ylab tashilayotgan tranzit va mahalliy yuklar salmog'i sezilarli miqdorda ko'paydi. O'tgan yili mazkur temir yo'ldan bir yilda o'rtacha 5 million tonna yuk o'tkazilayotgani, shundan qariyb 80 foizi tranzit yuklar ekanligi ana shundan dalolat beradi.

Respublikaning xorijga, jumladan, mamlakatimiz janubidagi davlatlarga chiqishida Mashxad-Seraks-Tajan temir yo'lining qurilishi muhim voqeа bo'ldi. 1996-yil 13-mayda Eron Islom Respublikasining

Mashxad shahrida uzunligi salkam 300 km bo‘lgan bu temir yo‘l tarmog‘ining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Bu yo‘l eng qisqa masofa orqali Markaziy Osiyo mamlakatlarini Fors qo‘ltig‘i bilan bog‘laydi va tashqi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga keng imkoniyatlar ochib beradi.

Markiziy Osiyo hududida Toshkentdan Samarcandgacha ilk tezyurar yo‘lovchi harakatni tashkil qilish maqsadida 2008-yil “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va “Talgo” (Ispaniya) kompaniyasi o‘rtasida 2 ta tezyurar yo‘lovchi elektropoyezdlarni sotib olish to‘g‘risida bitim imzolandi. 2011-yil 8-oktyabrdan “Afrosiyob” (Ispaniyaning “Talgo” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan) yuqori tezlikda harakatlanadigan poyezdi Toshkent-Samarqand-Toshkent 161/162 sonli yo‘nalishga ishga tushirildi. Yangi tezyurar poyezd bu marshrut orqali xizmat ko‘rsatadigan boshqa elektr poyezdlar bilan birga, Toshkent va Samarcand shaharlari o‘rtasida harakat qiladi. Yuqori tezlikdagi “Afrosiyob” poyezdi ikki soat va o‘n besh daqiqa ichida 344 km temir yo‘l masofasini bosib o‘tadi. Maksimal tezligi soatiga 250 kilometrni tashkil etadi.

O‘zbekiston temir yo‘llarini doimiy tok asosida elektrlashtirish 1971-yilda boshlangan. So‘nggi loyihalardan biri To‘qimachi-Angren temir yo‘l uchastkasini elektrlashtirish edi, bu 2010-yilda amalga oshirildi. Ko‘rsatilgan temir yo‘l uchastkasini ishga tushirish hisobiga elektrlashtirilgan uchastkalar uzunligi 1601 km ga yetdi.

Butun uchastka bo‘ylab yangi texnologiyalar - SCADA masofadan boshqarish tizimi, aloqa tizimi, tortish podstansiyalari, mikroprosessor markazlashtirish tizimi, o‘q va telekommunikatsiya elektron hisoblash tizimlari joriy qilingan. Elektr ta’minot tizimi poyezdlarning soatiga 160 km gacha tezlik bilan harakatlanishini hisobga olgan holda qurilgan. Qurilish paytida umumiy uzunligi 265 m bo‘lgan 3 ta ko‘prik, 2258 ta elektr minoralar, elektr podstansiyalar, poyezdlar harakat xavfsizligini ta’minlovchi zamonaviy uskunalar va nazorat asboblar bilan jihozlangan mavbatchi punktlari va markazlashtirilgan elektr ta’minot postlari uchun 6 ta bino va inshootlar barpo etildi.

Maroqand-Qarshi, Qarshi-Termiz temir yo‘l uchastkalarini elektrlash-tirish, yangi elektrlashtirilgan Angren-Pop liniyasini qurish investitsion loyihalari amalga oshirildi. 2016-yilning 22-iyunda O‘zbekiston va Xitoy hamkorligining yirik va istiqbolli loyihasi ijrosi – Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo‘li hamda Qamchiq tunneli foydalanishga topshirildi. Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyasini barpo etishdan maqsad ham nafaqat Farg‘ona vodiysi viloyatlari va mamlakatimizning boshqa hududlari o‘rtasida temir yo‘l orqali yuk va yo‘lovchi tashish imkoniyatini yaratish, shu bilan birga, Xitoy – Markaziy Osiyo – Yevropa yangi xalqaro tranzit temir yo‘l koridorining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lishi nazarda tutilgan edi. Uzunligi 123,1 kilometr bo‘lgan Angren-Pop temir yo‘lining Qamchiq dovonidan o‘tgan qismida 19,2 kilometrlik tunnel barpo etildi.

Bugungi kunda ushbu temir yo‘l orqali Toshkent – Andijon – Toshkent yo‘nalishida har kuni zamonaviy tezyurar yo‘lovchi poyezdlari aholiga xizmat ko‘rsatmoqda. Andijon – Buxoro – Andijon yo‘nalishida haftasiga ikkita yo‘lovchi poyezdi, haftada bir marotaba Andijon – Urganch – Andijon, Andijon – Moskva – Andijon yo‘nalishlarida yo‘lovchi poyezdlari qatnovi tashkil etildi. Bundan tashqari, bir sutkada o‘nlab yuk poyezdi Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo‘li orqali o‘tib, yuklarni o‘z manziliga yetkazmoqda. Xususan, mazkur temir yo‘l orqali, bir yil davomida 413 ming 162 nafardan ortiq yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatildi, 7395,6 ming tonna yuk tashildi. Shuningdek, 1718 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Mustaqillik yillarda Xovos–Bekobod, Xovos–Jizzax liniyalari va Maroqand– Qarshi, Maroqand-Buxoro yo‘nalishlarini elektrlashtirish ishlari yakunlandi. Natijada poyezdlardan foydalanish xarajatlarini 20 foizga kamaytirish, yo‘lovchi va yuk tashish tezligini 1,3 barobar oshirish imkoniyati yaratildi. Bundan tashqari, temir yo‘l infratuzilmasi va harakatlanuvchi tarkib uchun ehtiyyot qism, uzel va detallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va import o‘rnini bosishni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

O'zbekistonda temir yo'l transportining hozirgi holatini va uni rivojlantirish tendensiyalarini tahlil qilish uning barqaror ishlashi quyidagi qator muammolar mavjud bo'lishini istisno etmasligini ko'rsatdi:

1. Asosiy jamg'armalar (infratuzilma va harakatlanadigan tarkib) eskirishining yuqori darajasi joriy saqlab turish va ta'mirlash uchun katta xurajatlarni talab qiladi, temir yo'l transporti texnologik mustahkamligi yo'qotilishi xavfini yaratadi.

2. Temir yo'l transporti samaradorligi darajasi, xizmatlar sifati va turi hozirgi zamон talablariga to'liq javob bermaydi.

3. Tariflarni boshqarish borasida temir yo'l transporti faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tizimi yetarlicha samarali emas (yuklar va yo'lovchilarni tashishning ayrim turlari sanasini yozish masalalari bo'yicha normativ baza mukammal emas).

4. Yuk ortilgan harakatlanadigan tarkib xavfsizligi uchun tashish jurnayoni ishtirokchilarining aniq javobgarligi yo'q.

Mustaqil tashuvchi kompaniyalarga infratuzilmadan teng huquqli loydalanish imkoniyatini berish va ular faoliyati uchun qulay muhit yaratish mexanizmi mavjud emas.

Temir yo'l transporti samarali ishlashini ta'minlash harakatlanadigan tarkib saroylarini yangilash, yo'l xo'jaligi infratuzilmasini, aloqa vositalari va axborot ta'minotini modernizatsiyalash va kuchaytirish, xalqaro yo'laklar doirasida elektr ta'minoti, signalizatsiya hamda aloqa texnik vositalarini modernizatsiyalash, tashish jarayonini tartibga solish va boshqarish tizimini takomillashtirish, ma'lumotlar o'tkazish hirmog'ini yaratish, transport vositalarini ta'mirlashning texnik bazasini rivojlantirish uchun katta investitsiya mablag'larini talab qiladi.

Bugungi kunda yuk va yo'lovchi harakatlanishida elektrovozlar keskin yetishmasligi, shuningdek, manyovr qiladigan lokomotivlar yetishmasligi kuzatilmoqda.

Magistral teplovozlar saroyining o'rtacha amortizatsiya eskirishi 28,2 foizini, manyovr teplovozlar saroyi eskirishi 49,0 foizni, elektrovozlar

saroyining eskirishi 48,8 foizni, yuk vagonlari inventar saroyining eskirishi 75 foizni, yo'lovchi vakonlari saroyining eskirishi 65,4 foizni va refrijerator seksiyalarining, vagon- termoslarning o'ttacha amortizatsiya eskirishi 90 foizdan ortiqni tashkil etadi. O'tkazish optik-tolali tizimi yaxlit magistral tarmog'ining mavjudligi — O'zbekiston temir yo'llaril AJ telekommunikatsiya tarmog'ining muhim tarkibiy qismi – o'tkazish optik-tolali tizimining (O'OTT) yagona magistral tarmog'ini barpo etishdir.

Temir yo'l transporti sohasida muammoni hal qilish va 2030-yilgacha yuqori natijalarga yetishish bo'yicha qo'yilgan vazifalarga erishish maqsadida quyidagi vazifalarni hal qilish taklif etilmoqda:

1. Temir yo'l transporti infratuzilmasini rivojlantirish va harakatlanadigan tarkibini yangilash, moddiy va nomoddiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish.

2. Transport yaxlitligini, mustaqillikni, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash va fuqarolarning tashishlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish uchun infratuzilma negizi sifatida qulay va barqaror transport tizimini shakllantirish.

3. Temir yo'l transportini xalqaro transport tizimlariga integratsiyalash asosida – O'zbekiston temir yo'llaril AJ tranzit salohiyatini ro'yobga chiqarish.

4. Zamonaviy yuqori samarador elektrovozlar xarid qilish hisobiga lokomotivlar saroyini yangilash.

5. Iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va mehnat resurslari mobilligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

6. Umumiyl transport xarakatlarini kamaytirish, shu jumladan, temir yo'l transporti faoliyati samaradorligini oshirish hisobiga kamaytirish.

7. Tashishlar sifati va xavfsizligini temir yo'l transportini texnologik va texnik rivojlantirish asosida aholi talablariga va jahoning eng yaxshi standartlariga muvofiqlashtirish.

8. Temir yo'l transportining investitsiyalar jalb etuvchanligini oshirish.

9. Respublika fuqarolarining qulay atrof muhitga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash.

Temir yo‘l transporti sohasida yuqorida sanab o‘tilgan vazifalar hal etilishi 2030-yilga kelib quyidagi ko‘rsatkichlarga erishilishiga olib keladi:

Yo‘lovchilar xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha

1. Yangi yo‘lovchilar vagonlarini xarid qilish va qurish hamda umuldag‘i yo‘lovchilar vagonlari saroyini modernizatsiyalash, vagonlar xizmat muddatini kamida ikki-uch baravar oshirish.

2. Toshkent yo‘lovchi vagonlarini qurish va ta’mirlash zavodini rivojlantirish.

3. Toshkent - Qarshi - Kitob, Toshkent - Buxoro - Urganch - Xiva, Toshkent - Xiva yo‘nalishlarida tezyurar harakatlanishning qo‘srimcha marshrutlarini tashkil etish.

4. Davlatlararo va ichki davlat ahamiyatidagi yangi marshrutlarni ochish.

5. Yo‘lovchi vagonlariga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni joriy ta’mirlash bo‘yicha ta’mirlash bazasini rivojlantirish hamda modernizatsiyalash.

11.3. Transport xavfsizligini ta’minlash yo‘llari

Avtomobil yo‘llari. O‘zbekiston hududida avtomobil yo‘llari turmog‘i ancha keng. Har 1000 km² maydonga avtomobil yo‘llarining zinchligi 210 km ga yetadi. Qator avtomobil yo‘llari xalqaro va davlat ahamiyatiga ega. Bugungi kunda avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi 90 ming km dan ortiq. Mamlakatimiz hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan avtomobil yo‘llari jumlasiga, eng avvalo Toshkent, Samarkand, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa viloyatlar orqali o‘tgan Katta O‘zbek avtomobil trakti kiradi. 1940-yili qurib bitkazilgan va 700 km dan ortiq uzunlikka ega bo‘lgan ushbu ravon yo‘l qanchadan-

qancha yuk va yo'lovchilar tashishga va hududlar orasida transport xizmati ko'rsatishni yaxshilashga olib keldi.

Ikkinci jahon urushi boshlanishidan oldin Farg'ona vodiysidagi uch viloyat va qator shaharlarni, jumladan Qo'qon, Marg'ilon, Asaka, Andijon, Namangan, Chust shaharlarini bog'lab turuvchi aylanma yo'l qayta qurildi. Shuningdek, Toshkent — O'sh, Samarqand — Ashxobod — Turkmanboshi, Toshkent halqa yo'li, Nukus — G'uzor, Qo'ng'iroq — Beynov kabi yana qator avtomobil yo'llari ham O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda qo'shni Tojikistonda vujudga kelgan vaziyat sababli mamlakatimizning markaziy va g'arbiy qismlaridagi hududlarini Fargona vodiysi viloyatlari bilan aloqasini bog'lashda ancha muammolar yuzaga keldi. Shuni e'tiborga olib Respublika hukumati Toshkent-O'sh yo'lining Angren suv omboridan Farg'ona vodiysiga kirib borguncha qismini qayta qurish bo'yicha maxsus Qaror qabul qildi. Bu maqsadni ko'zlab Qamchiq va Rezak dovonlarida avtomobil transport harakati uchun mo'ljallangan tunnellar qurish borasida katta ishlar boshlab yuborildi va bu ishlar muvaffaqiyat bilan amalga oshirildi.

Qamchiq tunnelining uzunligi 890, Rezak tunnelining uzunligi esa 368 metrga teng bo'ldi. Bu tunnellarning ishga tushirilishi tufayli Qamchiq dovoni orqali amalga oshiriladigan avtomobil transporti aloqalarida avvallari tez-tez uchrab turadigan xavf-xatarga chek qo'yildi. Qamchiq va Rezak tunnellaridan bir kecha-kunduzda 12 mingga yaqin avtomobillar o'tish imkoniga ega. Shunday qilib mazkur yo'l Farg'ona vodiysini Respublikaning boshqa hududlari bilan bog'lab turadigan eng yaqin va qulay yo'l bo'lib qoldi.

Shaxsiy foydalanishdagi yengil avtomobillar sonining doimiy o'sishi jamoat transporti tomonidan bajarilayotgan ish hajmining sezilarli darajada qisqarishiga olib kelmoqda. Bugungi kunga kelib, mamlakatda avtobus orqali yo'lovchi tashish

42 %ga qisqarganligini, shahar atrofi temir yo'l qatnovlari sezilarli darajada kamayganligini ko'rshimiz mumkin. Avtomobillar sonining

muttasil o'sib borishi asnosida shahar transport tizimlarining barqarorligi va xavfsizligi borasida jiddiy muammolar paydo bo'lmoqda.

Transport turlarining rivojlanishi moddiy ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, mahsulot qiymatida xarajatlar ulushini qisqartiradi, ijtimoiy masalalarni ijobiy hal etishga ko'maklashadi. Ayni chog'da transport aloqalarining yetarlicha rivojlanmaganligi milliy iqtisodiyotda katta yo'qotishlarga olib keladi.

Mamlakatda qo'llaniluvchi tarmoq standartlari, norma va normativlarga rioya qilgan va mazkur sohada dunyoning ilg'or mamlakatlarida to'plungan boy ijobiy natijalarini inobatga olgan holda, yo'lovchi va yuk tashish borasida aholi, xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat organlarining talablarini to'laqonli qondirish imkoniga ega bo'lgan transport tizimini yaratish va uning barqaror faoliyat ko'rsatishiga erishish milliy iqtisodiyotda yo'l-transport xavfsizligini ta'minlashning mohiyatini tashkil etadi. Yo'l-transport xavfsizligi ko'rsatkichlari tizimida yo'l-transport hodisalari soni va ulardan ko'rilgan zarar va yo'qotishlar (o'lim va nogironlik); avtomobil, suv, havo va temir yo'llarining uzunligi va sifati; transport xarajatlari (sotish hajmiga nisbatan %da) kubilar muhim o'rintutadi.

O'zbekiston aholisining mobililik darajasi ham taraqqiy etgan mamlakatlarga nisbatan birmuncha past hisoblanadi, zero, mazkur ko'rsatkich melumat va turizm bozorining taraqqiy etganligi, aholi daromadlari va xarajatlarining o'sishi va o'z navbatida mamlakat umumiqtisodiy taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Mustaqillikka erishish tufayli respublikamizni xalqaro miqyosda bog'laydigan avtomobil yo'llari qurish ishlariiga ham e'tibor kuchaydi. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasiga chiqish uchun imkon tug'diradigan Andijon - O'sh Ergashtom - Qashqar avtomobil yo'lining qurilishiga O'zbekiston o'z himonini qo'shmoqda.

Ko'pgina mamlakatlarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham xalqaro yo'mulishlarda yuklarni atvomobillarda tashish bo'yicha Uyushma tashkil

etilgan. Jeneva shahrida avtomobil transporti Xalqaro uyushmasi kongressida O'zbekiston ham bu nufuzli tashkilotga a'zo bo'lib kirdi. Ushbu uyushma Respublikamiz hududida boshqa mamlakatlar yuk tashuvchilarining manfaatlarini muhofaza qiladi va avtomobil yo'llari holati, yoqilg'i narxi, yo'l uchun to'lov bahosi va boshqa masalalar bo'yicha zarur ma'lumotlar bilan xabardor etib turadi.

Mamlakatda turli hajmda yuk ko'taradigan yangi yuk tashuvchi avtomobillar, qulay va shinam avtobuslar hamda yengil avtomobillar soni yil sayin oshib bormoqda. Respublika poytaxti Toshkent shahrida 1977-yili metro qurilib ishga tushirildi. Aholisi ikki milliondan ziyod shahar uchun ushbu transportning bu vositasi mohiyatini to'la ifodalash qiyin.

Biroq shu bilan birga tarmoqda xavfsizlikka ta'sir etuvchi qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan avtomobil yo'llari tarmog'i yetarlicha rivojlantirilmagan. Umumiyligida foydalananiladigan yo'llar tarmog'i umumiy uzunligining 9 foizidan ortig'ini tashkil etuvchi xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo'llari barcha avtomobil tashuvlarining qariyb 40 foizini ta'minlaydi. Yuqori sifatli yo'llarning real uzunligi yetarli emas. Temir yo'l va asosiy avtomobil yo'llari bilan kesishgan chorrahalarda turli darajadagi yo'llar ostin-ustun o'tadigan chorrahalar mavjud emas. Xalqaro ahamiyatga ega ko'pchilik yo'llarning o'tkazish qobiliyati ularga berilgan toifalar bo'yicha normativ qobiлиyatdan 20-30 foizga past.

Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan avtomobil yo'llarida, ayniqsa hududlar markazlari va boshqa yirik shaharlarga kirishda avtomobil transporti harakati juda katta. Misol uchun Toshkent shahridan chiquvchi yo'llardagi harakat intensivligi sutkasiga 30 mingdan 70 minggacha avtomobilni, aholisi 500 mingdan ko'p bo'lgan boshqa yirik shaharlarda sutkasiga 20 mingdan 40 minggacha avtomobilni tashkil etadi va hudud markazlaridan uzoqlashgani sayin avtomobil harakati intensivligi pasayadi.

Umumiyligida foydalananiladigan yo'llar umumiy uzunligining qariyb 25 foizi yo'llarga tushadigan yuklanmaning maqbul darajasidan oshadigan

rejimda, 30 foizi maqbul darajadagi rejimda va 25 foizi erkin harakatlanish rejimida ishlaydi. Xalqaro ahamiyatga ega yo'llar umumiy uzunligining uchdan bir qismidan ortig'ida zamonaviy katta yukli transport vositalari o'tishi uchun yo'l qoplamasini zudlik bilan kuchaytirish talab etiladi.

Havo transporti. Mustaqil Respublika transporti haqida so'z yuritilganda havo transportining mohiyati tobora ortib borayotganini ham ko'rsatib o'tish lozim. Transportning bu xili o'z ishini birinchi marta 1924-yili boshlagan edi. O'sha yilning 12-may kuni Toshkent-Bishkek-Olmaota shaharlari orasida havo transporti aloqasi yo'lga qo'yilgan edi. Ana shundan beri o'tgan davr ichida transportning bu xili tez rivojlanib ketdi. Hozir havo transporti orqali asosan yo'lovchilar tashiladi. Shu bilan birga bir manzildan ikkinchi bir manzilga tez yetkazish zarur bo'lgan yuklarni, ayniqsa tez buziladigan yuklarni ham tashishda havo transportidan foydalilanadi.

1993-yili "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasi tashkil topishi havo yo'li transporti taraqqiyoti sohasida qo'yilgan muhim qadam bo'ldi. Bu kompaniya xizmati tufayli Toshkentdan Nyu-York, London, Tokio, Pekin, Parij, Istambul, Dehli, Tel-Aviv, Seul, Kuala-Lumpur, Jidda, O'rumechi kabi jahoning ko'pgina shaharlari bilan havo transporti qatnovi amalga oshirilmoqda. Keyinchalik Toshkentdan samolyotlar qatnaydigan manzillar ro'yxati yanada kengayishiga shubha yo'q. "O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi bilan AQSHning "Boing" kompaniyasi o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra 1996-yil avgust oyidan boshlab Toshkent bilan jahoning qator shaharlari, jumladan Nyu-York, Afina, Jakarta, Singapur kabi shaharlar orasida "Boing" samolyotlari uchishi yo'lga qo'yildi.

2010 – 2018-yillarda havo transporti yo'lovchi aylanmasi hajmi 5,8 dan 7,5 mlrd.yo'lovchi/km oshdi, yo'lovchi aylanmasi bu davrda 4,7 barobar oshdi. Mustaqillik yillarda havo kemalari parki "Boeing-757-200", "Boeing-767", "Boeing 767-300 ER", "Boeing 787-8", "Dreamliner", "Airbus", "A 310", "A320- 200", "RJ-85" va yuklarining

“Boeing-767-300BCF” va Airbus “A300- 600” kabi zamonaviy yo‘lovchi samolyotlar bilan to‘ldirildi. Shu bilan birga, aviakompaniya tarkibida faoliyat yuritayotgan Markaziy Osiyodagi yagona so‘nggi avlod aviatsiya texnologiyasiga xizmat ko‘rsatish markazi 300 dan ortiq xorijiy samolyotlarga xizmat ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda “Navoiy” aeroporti negizida tashkil etilgan xalqaro intermodal logistika markazi mintaqadagi eng yirik va eng yuqori texnologik havo yuklari komplekslaridan biridir.

MDH davlatlari hududida “Navoiy” xalqaro intermodal logistika markazi mahsulotni yuklash, tushirish, joylashtirish, ularni qisqa vaqt ichida omborlarga joylashtirish bilan shug‘ullanadigan yagona markazdir. Havo sharoitlariga qaramasdan, zamonaviy aviatsiya uskunalarini bilan jihozlangan xalqaro intermodal logistika markazi turli xil avialaynerlarni qabul qilishga muvaffaq bo‘ldi.

Bugungi kunda O‘zbekistonni asosiy logistika markazlari Yevroosiyo - Frankfurt, Milan, Bryussel, Vena, Bazel, Zaragoza, Dubay, Dehli, Inchon, Tyanjin, Guangjou, Xanoyi va Shanxay bilan bog‘laydi. Aeroportning yuk terminali turli xil harorat sharoitlariga -25 dan +2 daraja haroratgacha bo‘lgan maxsus xonalar bilan jihozlangan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishslash va saqlashning keng imkoniyatlar mavjud, shuningdek, katta hajmli, og‘ir, xavfli va nostonart yuklarni eksport va import. Uning sig‘imi kuniga 300 tonnagacha yukni saqlash va qayta ishslash imkonini beradi. Xalqaro standartlarga muvofiq 11 aeroport (Toshkent, Nukus, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Qarshi, Namangan, Andijon, Farg‘ona va Navoiy shaharlarida) modernizatsiya qilindi. Toshkent aeroporti Markaziy Osiyodagi eng yirik aeroport hisoblanadi. Buxoro, Samarqand va Urganch aeroportlari ham xalqaro aeroport maqomiga ega.

Uzbekistan Airways AJ faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilar nazarda tutildi:

1. Hayo kemalari saroyidan samarali foydalanish, shu jumladan, yangi yo‘nalishlarni o‘zlashtirib va parvozlar geografiyasini kengaytirib foydalanish.

2. Ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning zamonaviy tizimi va texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, aviasaroyni modernizatsiya-lash, texnologik qayta jihozlash va yangilash.

3. Havo kemalari bortida yo'lovchilarga ko'rsatiladigan servis xizmatlarining, aviatsiya texnikasiga, shu jumladan, xorijiy aviakompaniyalar aviatsiya texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash ishlaringning sifatini oshirish.

4. Kompaniyaning raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida yo'lovchilar, yuk, pochta va bagaj tashish sohasida qulay tarif siyosatini amalga oshirish.

5. Investitsiyalar, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb qilish, shu jumladan, aksiyalar va korporativ obligatsiyalar chiqarish orqali jalb qilish.

6. Parvozlarni amalga oshirishda xavfsizlikning yuqori darajasini, shuningdek, havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish sifatini ta'minlash.

7. Aviakompaniyani aviatashuvchilarning xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalash, aviatashuvtar sohasida mintaqaviy yetakchi darajasiga erishish.

Magistral quvurlar. O'zbekiston hududida yirik tabiiy gaz, neft konlarining topilishi va ishga tushirilishi sababli quvur transporti rivojlandi, muhim ahamiyatga ega bo'lgan gaz quvurlari vujudga keldi. Neft va neft mahsulotlarini quvurlar orqali tashish temir yo'l va daryo yo'llari orqali tashishdan ikki-uch marta arzon, yo'l davomida mahsulotning tabiiy yo'qolishi kamayadi, tashish jarayoni muntazamlashadi. Quvur orqali yuk tashish jarayonini avtomatlashtirish ancha oson bo'lib, ko'p sonli ishlovchilarga zaruriyat bo'lmaydi. 1980-yilda truboprovodagi neft mahsulotlarini tashish tannarxi bir tiyindan ham kam, bu temir yo'lga nisbatan 2,6 mlrd.so'm iqtisod qilish imkonini bergen.

Neft va gaz industriyasi sanoatning flagmani va iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i hisoblanadi. U mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-tirishda muhim rol o'yaydi. 2018-yil 1-yanvar holatiga respublika

bo'yicha magistral quvurlarning uzunligi 13895,7 km ni tashkil qildi (11.1-rasm).



11.1-rasm. 2018-yil 1-yanvar holatiga magistral quvurlar uzunligi, km

Gaz quvurlari barcha magistral quvurlarning 99,2 %ni tashkil qiladi. Neft quvurlarining ulushi 0,8 % ni tashkil etadi.

Magistral quvurlarning muhim afzalliklari quyidagilardan iborat:

- 1) Yuklarni tashishning arzonligi (ular orqalineft tashish temir yo'l transportiga qaraganda 3 baravar kam xarajat qiladi);
- 2) quvur liniyalari qurilishi uchun nisbatan kam xarajatlari (bir xil quvvatga ega magistral yoki temir yo'l qurilishidan 2 baravar kam);
- 3) to'g'ri ishlaydigan quvurlar ishonchli, iqlim sharoitiga bog'liq emas, yil bo'yи ishlaydi;
- 4) minimal yo'qotishlar kam (temir yo'l bilan taqqoslaganda 1,5 baravar kam va suv transportiga nisbatan 2,5 baravar kam);
- 5) yuqori o'tkazish qobiliyatiga ega.

Ushbu transport turining kamchiliklari: yuklarni tashish tezligining pastligi va ekologik halokat xavfini tug'diradigan avariylar xavfi bilan izohlanadi, metall sarfining ko'pligi kiradi. Quvur diametri 24 dyum bo'lgan 1 km quvurga 123 tonna metall sarflanadi.

Quvur transporti rivojlantirish muammolari. Quvur transporti oldiga qo'yilgan ulkan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun magistral quvurlar miqdorini ko'paytirish bilan birga ularning ish samaradorligini oshirish ham katta ahamiyatga egadir.

Ish samardorligini oshirishda tarmoqda hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarga quvurlar umumiy miqdorini yanada ko'paytirish, ularning

o'tqazuvchanlik qobiliyatini oshirish, quvurlarni karroziyaga qarshi neft bitumlari bilan qoplash, boshqarish ishlarida telemekanika va avtomatlashtirish asboblarini keng qo'llash va boshqalar kiradi.

Quvur transportining yuqori samaradorligi hisobga olinib, ko'pchilik davlatlarda og'ir uglerod-etan, etilen, propan, propilen va boshqalar, suyuq va gazsimon moddalar-kislorod, ammiak, vodorod, azot, xlor, har xil uralashmali tuzlar hamda ayrim oziq-ovqat (sut) buyumlari ham quvur orqali tashilmoqda.

Ko'p vaqtlardan beri ayrim qattiq moddalar ham gidprotransport orqali eritma (pulpa) shaklida tashilayotir. Hozir ba'zi bir qattiq moddalarni (ko'mir, madan va boshqalar) kapsulalarga joylashtirilib, gaz yoki suyuq neft mahsulotlari bilan yuborish masalalari ham ishlab chiqilmoqda.

Qattiq moddalarni quvurlar orqali yuborish ancha murakkablligi tusayli bu masalan hal qilish ustida hali juda ko'p tadqiqotlar o'tkazish zarur. So'nggi yillarda qum shag'al va boshqa materiallarni konteynerlarga joylashtirib (2-3 tonnalik) katta bosim yordamida trubaprovod orqali yuborish ustida sanoat miqyosida tajribalar o'tkazilayotir. Bunday konteynerlarda yuk yuborish tezligi 40-5 km/s atrofidadir. O'tkazilayotgan tajribalar keljakda yuklarni mana shunday usulda tashish tejamli bo'lishini ko'rsatilmoqda.

Transport infratuzilmasining rivojlanganligi ishlab chiqarish quvvatlari, resurslardan keng foydalanish, mamlakat hududlarini bir butun yuxtilikda rivojlantirish, haqida fikr yuritish va ayni paytda mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda milliy iqtisodiyot miqyosida tafqidiy faoliyatni rejalashtirish imkonini beradi. Transport oqimlarini boshqarish, jamoat transportini rivojlantirishga investitsiyalar kiritish orqali davlat transport infratuzilmasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi tulab etiladi.

Bularning barchasi tovar narxining transport tashkil etuvchisining qlymatini pasaytiradi, hududlar o'rtaсидagi tafovutlarni bartaraf etadi,

yangi bozorlarga kirib borish imkoniyatlarini oshirgan holda, raqobat-bardoshlik darajasini oshiradi, kooperatsiya va ishlab chiqarish integrasiyasining rivojlanishiga ko'maklashadi. Buning natijasida quyidagilar ta'min etiladi:

- a) avtomobil, temir yo'llari va aeroportlarning sifat tavsiflari yaxshilanadi;
- b) mavjud sanoat quvvatlaridan samarali foydalanish ta'min etiladi;
- d) avtomatlashgan boshqaruv tizimlarini joriy etish evaziga transport jarayonlari takomillashtiriladi.

Barcha o'zgarishlar transport xizmatlarining sifatiga ta'sir ko'rsatadi va mamlakatda iqtisodiy o'sishning ta'minlanishiga xizmat qiladi. O'zbekistonda so'nggi yillarda transport infratuzilmasi modernizatsiya qilindi, bu esa yo'lovchi va yuk tashishlariga bo'lgan talabni qondirish bilan bir qatorda, istiqbolda rivojlanish uchun keng imkoniyatlar ochib bergenligini qayd qilishimiz lozim. O'zbekiston barcha zamонавиyy transport turlariga ega, mamlakat transport kommunikatsiyalarining joylashishi va tarkibi mamlakatning barcha ichki va tashqi zamонавиyy transport-iqtisodiy aloqalariga to'la javob bersadi, biroq uni bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish talab etiladi.

Transport korxonalari xo'jalik yuritishning yangicha shart-sharoitlariga asta-sekinlik bilan moslashib borayotgan bo'lsada, erkin bozor munosabatlarining rivojlanishi va qaror topishi sharoitida transport va transport infratuzilmasini rivojlantirish borasida bir qator muammolar o'z yechimini kutib turibdi. Yaxlit holda transport tizimi va uning bir qator asosiy segmentlari (temir yo'l transporti va ichki suv yo'llari infratuzilmasi, avtomobil yo'llari) muntazam investitsiyalarga ehtiyoj sezadi va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash zaxirasiga ega emas. Mamlakat transport tizimi texnik darjasining nochorligi va uning ishlab chiqarish bazasining qoniqarsiz ahvolda ekanligi asosiy muammolar sirasiga kiradi.

Infratuzilma obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish hajmlarining yetarlichcha emasligi va shuningdek, harakatdagi transport vositalari,

boshqan yuk va yo'lovchi tashish texnikalarini yangilashning talab **durrusidu** emasligi so'nggi yillarda mamlakat transport tizimi texnik **holatlari** va ishchanlik qobiliyatining sezilarli darajada yomonlashishiga **oltib keldi**.

Temir yo'l transporti infratuzilmasining texnik qurollanish darajasi **ning yetarlicha emasligi** sharoitida temir yo'l transporti infratuzilmasining yuklanish darajasi ortib borganligini ko'rishimiz mumkin. Temir yo'l turmog'i uzunligi deyarli o'zgarmagan bir sharoitda temir yo'lning 1 km. ekspluatatsion uzunligiga to'g'ri keluvchi yuklanganlik o'rtacha turmog bo'yicha 24,9 mln. t-km/km.dan ko'proqni tashkil etmoqda, bu **endi** boshqa mamlakatlarning temir yo'l transporti infratuzilmasining yuklanganlik darajasidan sezilarli darajada yuqoridir. Buning natijasida **transport infratuzilmasi** uchastkalarining o'tkazish qobiliyatiga nisbatan muammoli (tig'iz uchastkalar) asosiy temir yo'l yo'nalishlarining 16%ini yoki 7,6 ming km.ni tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda milliy investorlar **mablag'lari** hisobiga tashkil etilgan bor yo'g'i 5 ta logistika markazi **muoliyut ko'rsatmoqda**.

Quyidagilar xalqaro tashuvlarni amalga oshirishga salbiy ta'sir **ko'rnatadi**:

1. Chegarada avtotransport vositalari turib qolishi (ma'lumot uchun: O'zbekistonda o'tkazish vaqt 2 sutkadan 5 sutkagacha vaqtini, YI mamlakatlarda 12 soatdan 24 soatgacha vaqtini, Rossiyada 1 kunni tashkil etndi).

2. O'tkazish punktlarining inspeksiya-tekshiruvdan o'tkazish majmulari, avtotransport vositalarining hajmi va gabaritini aniqlaydigan (muntaqani o'lchaydigan) zamonaviy o'lhash uskunalari bilan yetarlicha **texnik jihozlanmaganligi**.

3. Zamonaviy va xavfsiz avtomobil turar joylari, haydovchilar dam **oltib joylari**, avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash **punktlari**, yuqori ekologik standartdagи yoqilg'i quyish imkoniyatiga ega

zamonaviy avtomobilga yoqilg'i quyish stansiyalari (AYOS) yetishmasligi.

4. Eksport-import yuklarini saqlash, qayta ishlash va o'ramlashni tashkil etish uchun foydalinish mumkin bo'lgan logistika va kommunikatsiyaning infratuzilmaviy obyektlari yetarlicha rivojlanmagan.

Iqtisodiy taraqqiyot talablari va aholi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yo'l tarmoqlari uzunligi va ularning holatini talab darajasiga keltirish masalalarini hal etish qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi, ularni yetkazib beruvchi mahalliy ta'minotchi va ishlab chiqaruvchilarning monopol mavqega egaliklari bir qator qiyinchiliklarni tug'dirmoqda. Xususan, bir qator qurilish materiallarining narxi bozor narxlariga qaraganda tezroq o'sishi hisobiga yo'l ishlariga sarflanuvchi xarajatlar tarkibida zarur xomashyo materiallarini sotib olish uchun umumiy xarajatlarning qariyb 60 foizi sarflanmoqda.

Innovatsion faoliyat sohasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan bevosita yo'llarning sifatiga, ularning uzoq muddat xizmat qilishiga ta'sir ko'rsatuvchi materiallarni ishlab chiqarishning texnologik taraqqiyot darajasi hanuz pastligicha qolmoqda. Keng xalq iste'moli va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish innovatsion asoslarda tashkil intilayotgan bir paytda, ko'pchilik qoldiq tamoyili bo'yicha qurilish materiallarini ishlab chiqarishni afzal biladilar.

Mehnat unumdorligining pastligi, eskirgan transport texnika va texnologiyalari, harakatdagi tarkib va infratuzilma obyektlarini ta'mirlash xarajatlarining yuqoriligi va shuningdek, daromad stavkasi o'sishining transport tomonidan iste'mol qilinuvchi yoqilg'i, elektr energiyasi, materiallar va texnik vositalar narxining o'sishidan orqada qolishi evaziga yuk va yo'lovchi tashish past rentabellikka ega bo'lmoqda va ko'pchilik holatlarda esa transport korxonalari o'z egalariga zarar keltirmoqda.

Ajratilayotgan budjet subsidiyalari yo'lovchi va yuk tashish tariflarini davlat tomonidan tartibga solish natijasida vujudga keluvchi transport

kompaniyalarining yo‘qotishlarini to‘lig‘icha qoplash imkonini berdi.

Yuqorida tilga olib o‘tilgan sabablar va omillar mulkchilik shaklidan qut‘i nazar barcha transport korxonalarining faoliyatiga o‘z salbiy ta’minini ko‘rsatmoqda. Davlat tasarrufida bo‘lgan va tabiiy monopoliya tarmoqlaridan biri sifatida qaraluvchi magistral temir yo‘l transportining ham rentabellik ko‘rsatkichlari pastligicha qolmoqda. Transport korxonalari investitsion imkoniyatlarining pastligi, uzoq muddatli qarz muhlig‘larini jalg qilishdagi qiyinchiliklar, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog‘liq holda transport tarmog‘iga investitsiyalarni jalg qilish borasida bir qator dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda. Hozirgi paytda aksariyat hollarda rivojlanishning kapital sig‘imi past bo‘lgan modelidan foydalanimoqda va bunday vaziyatda xizmatlar hajmining o‘sishi mavjud asosiy fondlardan foydalanishni oshirish evaziga ta’minlanmoqda.

Transport xizmatlari sifatini oshirish masalalarini tartibga solish, transport korxonalarining mobilizatsion tayyorligini oshirish va ular tomonidan harbiy-transport majburiyatlarining bajarilishini ta’minlash, davlat va investorlar o‘rtasida huquq-majburiyatlar va tavakkalchiliklarning qonuniy tarzda taqsimlanishini ko‘zda tutuvchi davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini rivojlantirish, shuning bilan bir qatorda transport sohasida mazkur mexanizmlardan foydalanishning ustuvor yo‘nalishlarini ko‘zda tutuvchi transport tizimi va transport xizmatlari bozorini rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish kuni tartibidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Yana bir muhim muammolardan biri jahon transport xizmatlari bozorida mahalliy transport kompaniyalari va umuman olganda muumlakat transport tizimi raqobatbardoshlik darajasining pastligidir.

Mazkur vaziyat yuqorida tilga olib o‘tilgan muammolar bilan bir qatorda mahalliy transport korxonalarining jahon bozorida raqobatlashish borasidagi imkoniyatlarining cheklanganligi, shu jumladan xalqaro tranzit tushushilar sohasida O‘zbekistonning geosiyosiy ustunliklaridan

yeterlicha samarali foydalana olmayotganligi bilan ham bog'liqdir. Xalqaro transport yo'laklarining texnik va texnologik parametrlari mahalliy transport korxonalarining xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo'lishiga imkon bermaydi.

Transport xizmatlarining xalqaro va mintaqaviy bozorlariga integratsiyalashuv raqobat kurashining avj olishini, O'zbekiston bozoriga xorijiy tashuvchilarning kirib kelishini, ma'muriy va tarifli to'siqlarning olib tashlanishini bildiradi, bu esa o'z navbatida mahalliy transport kompaniyalarining ahvolini yanada yomonlashishiga olib keladi. Transport xizmatlari bozori rivojlanishining dunyoviy tendensiyalari dunyoda hech bir mamlakat kuchli transport tizimi va mavqeyiga ega bo'lmasdan o'z iqtisodiyotidagi mavjud xavf-xatarlarni nazorat qila olmasligini ko'rsatadi. Transport rivojlanishining dunyodagi tendensiyalari quyidagilardan dalolat bermoqda:

- tashuvchilar va transport turlariga nisbatan cheklovlar davri o'z nihoyasiga yetdi. Ko'pchilik mamlakatlar transport tizimining raqobatbardoshligini oshirishga, kvotalash tizimi va shuningdek tarifli va shu kabi to'siqlardan voz kechishga va buning o'rniga transport sohasini tartibga solish borasidagi qonunchilikni xalqaro qonunchilik bilan uyg'unlashtirishga intilmoqdalar;

- transport xizmatlari bozori murakkablasha borib, transport jarayoni va logistikaning barcha segmentlari o'zaro integratsiyalashmoqda. Bu esa o'z navbatida transport infratuzilmasining yangi tipi o'zaro hamkorlikning yaxlit birlashgan tizimini tashkil etuvchi transport-logistika va tovar-transport majmuining rivojlanishiga turtki berdi;

- transport markazlari tizimning boshqaruvchi elementiga aylanishi butun yo'l davomida tashish narxlarini maqbullashtirish imkonini berdi. Bu esa foya nuqtasini tashishning jismoniy ko'rsatkichlari va jarayonlaridan transport-logistika xizmatlari tomon siljishiga olib keldi. Transport yo'laklari tushunchasi o'z mohiyatini birmuncha o'zgartirdi. Transport yo'laklari avvallari yo'nalishlarning umumiyligini ifoda etgan bo'lsa, endilikda ular transport tugunlari va tashishlarni boshqarish

munkazi tizimiga aylandi va shu asnoda ular tarif siyosatini boshqarish funksiyasini ham asta-sekinlik bilan o'z zimmasiga oldi;

- transport xizmatlarining sifati va ularning raqobatbardoshlik darujasi bugungi kunda o'zining yuqori rivojlanish cho'qqisiga erishdi. Tulub yuqori bo'lgan transport bozori segmentlarida raqobat kafolatlungan transport xizmatlari sifati uchun musobaqaqlashish ko'rinishini oldi. Mazkur holatda raqobat kurashida asosiy urg'u narx orqali raqobatlashishga qaratilganligini ta'kidlash lozim. Raqobat kurashining kuchayishi asnosida transport turlarining ekologik jihatdan ma'lum bir tulublarga javob berishiga ham alohida e'tibor qaratila boshlandi. Ekologiya va xavfsizlik borasida belgilangan me'yorlarga qat'iy rioxaya qilish bilan bir qatorda mahsulotning yakuniy narxida transport xurajatlarini imkon darajasida maqbul darajada bo'lishiga intilish muhim o'rinn egallashini unutmaslik lozim.

O'zbekiston transport tizimi uchun rivojlanishning ushbu darjasini hali imkon darajasida emas. Tashuvchilar va transport tugunlari operatorlarining raqobatbardoshligini oshirish, transport tizimiga xizmat ko'rsatuvchi texnologiyalarning o'zaro integratsiyasini ta'minlash, transport xizmatlari sifatini bosqichma-bosqich yaxshilanib borishini rag'batlantirish lozim. Mazkur tadbirdirlarning amalga oshirilishi barobarida transport xizmatlari narxi darajasini ham maqbullahtirishga erishish mumkin. Transport turlariga nisbatan belgilangan ekologik va xavfsizlik talablari bu borada eng asosiy cheklov hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi transport tarmog'i uchun xos bo'lgan tizimli muammolar sirasiga quyidagilar kiradi:

- transport infratuzilmasini rivojlantirish borasida hududiy va turkibiy nomutanosibliklarning mayjudligi;
- mamlakat aholisi mobillik darajasining pastligi va transport xizmatlari narxining qimmatligi;
- transport xizmatlari sifatining talab darajasida emasligi;
- tranzit salohiyatidan yetarlicha foydalanmaslik, transport xizmatlari eksporti darajasining pastligi;

- transport xavfsizligini ta'minlash borasidagi chora-tadbirlarning yetarlicha emasligi;

- transportning atrof-muhitga salbiy ta'sirining kuchayib borishi.

Shunday qilib, O'zbekistonda transport tizimi taraqqiyotining yetarlicha taraqqiy etmaganligi iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda sezilarli to'siqlarni vujudga keltirmoqda. Shu bois, 2030-yilgacha bo'lgan muddatda mamlakat transport tizimini rivojlantirishning maqsadli va asosiy strategik yo'nalishlarini belgilab beruvchi yangilangan uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish talab etiladi.

Transport majmui faoliyatini yo'lga qo'yish borasida mahalliy va xorijiy tajribani tahlil qilish yuqori darajada yo'l-transport xavfsizligini ta'minlashning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- mos hududiy infratuzilmani yaratish asosida multimodal yuk tashish tizimlari va barcha transport turlarini kompleks rivojlantirish;
- shahar ichi va hududiy yo'l xo'jaligini modernizatsiyalash;
- shaharlarda transport qatnovi va transport majmuini boshqarish tizimini qayta tashkil etish;
- ishlab chiqarish chiqindilarini yig'ish, tashish va ularni keyinchalik qayta ishlashning zamonaviy tizimini barpo qilish.

Transport tizimini kompleks rivojlantirish quyidagilarni nazarda tutadi:

- transportni boshqarishning mezo va mikroiqtisodiy funksiyalarini alohida ajratib olish: yaxlit tizim sifatida elektr, avtomobil, havo, daryo, dengiz va temir yo'l transportini rivojlantirish strategiyasini aniqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan mezo iqtisodiy funksiyalar davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilsa, tijorat asosidagi tashishlarni tashkil borasidagi mikroiqtisodiy funksiyalar – firmalar va davlat ulushi mavjud bo'lgan ochiq turdag'i hissadorlik jamiyatlari tomonidan amalga oshiriladi;

- transport harakatini va shuningdek logistika markazlarini boshqarish bo'yicha shahar va hududiy organlarni tashkil etish;

- davlat tasarrufidan chiqarilmaydigan va xususiy lashtirilmaydigan regional transport infratuzilmasi obyektlari (dengiz va daryo portlari, aeroportlar, terminallar, vokzallar va boshqalar) ni hududlar yoki munitsipial tuzilmalar ixtiyoriga berish;

- transport qurilishi va infratuzilma obyektlaridan foydalananish borasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish;

- shahar ichida yo'lovchi va yuk tashish tarkibini maqbullashtirish.

Shahar transportini rivojlantirish strategiyasi transport infratuzilmasi, eng avvalo yo'llar, terminallar va logistika markazlarini taraqqiy ettirish istiqbollarini hisobga olishi lozim. Mazkur infratuzilma holatini baholashning quyidagi ko'rsatkichlar tizimi farqlanadi:

- 1,0 ming km² maydon, 1 mln. aholiga to'g'ri keluvchi yo'llar uzunligi;

- qattiq qoplamali va zamonaviy muhandislik kommunikatsiyalariiga ega bo'lgan yo'llarning ulushi (transport tugunlari; yo'l o'tkazgichlar, to'sinlar; yo'l ayrimalari; ko'priklar va boshq.);

- yo'l-transport hodisalari;

- zamonaviy yo'llarga ega bo'lgan aholi yashash manzillari, yuk tashuvchilar va yuk qabul qiluvchilar ulushi;

- zamonaviy avtomobil yo'llarining o'sib borish sur'atlari;

- bir nechta transport turlari yordamida amalga oshiriluvchi intermodal tashishlarning ulushi;

- harakatni boshqarishning telematik vositalari bilan jihozlangan yo'llarning uzunligi;

- 1 mln. tonna yuk hisobida zamonaviy terminallarning quvvati.

O'zbekistonning transport majmui va bugungi kunda mavjud bo'lgan transport xavfsizligi muammolari yaxlit tarzda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti sifatida qarab chiqishni taqozo etadi. Bunday xavflarning vujudga kelish sabablari orasida quyidagilarni nijratib ko'rsatishimiz mumkin:

- ayrim yo'l uchastkalari o'tkazish quvvatining yetarlicha emasligi yoki umuman bunday imkoniyatga ega emasligi;

- uchinchi mamlakat orqali tranzit yuk va yo'lovchi tashish shartlarining noqlayligi;
- transport vositalarining mayjud emasligi;
- transport tariflarining haddan tashqari yuqoriligi;
- ma'lum bir yo'llar va yo'nalishlarda yuk va yo'lovchi tashishning ishonchlik darajasining pastligi.

11.4. Transport xavfsizligini ta'minlash choraları

Transport tizimini rivojlantirishning strategik maqsadi - iqtisodiyot va jamiyatni innovatsion, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, sifatli va raqobatbardosh transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishdan iboratdir. Transport tarmog'ida samarali raqobat muhitini rivojlantirish, infratuzilmani taraqqiy ettirish borasida zaxira va imkoniyatlarni to'liq ishga solish, texnika va texnologiyaning ilg'or yutuqlaridan keng foydalanish, ijtimoiy va ekologik omillarga katta e'tibor qaratish, transport tizimiga bog'liq bo'lgan milliy, iqtisodiy va shu kabi boshqa xavfsizlik masalalariga alohida urg'u berish hisobiga yuqorida tilga olib o'tilgan strategik maqsadga erishilishini ta'minlash mumkin.

Avtomobil yo'llari tarmog'i konfiguratsiyasi ko'p jihatdan mukammal emas va ulangan qator aylanma hamda halqa yo'llar bilan to'ldirilgan yaqqol ifodalangan keskin tuzilmaga ega, bu esa yirik shaharlar atrofidagi magistral yo'llarning band bo'lgan uchastkalarida transport oqimlari to'planishini va atrof muhitga zarar yetkazgan holda ko'p ortiqcha yo'l bosib o'tilishini keltirib chiqarmoqda.

Mamlakatimiz yo'llari nafaqat texnik darajasiga ko'ra, balki yo'l chetida servis obyektlari, yuksak darajada xizmat ko'rsatiladigan zamonaliv kempinglar (to'xtash joylari, mehmonxona, ovqatlanish punktlari, dushxonalariga ega hojatxonalar) qurilishi jihatidan ham xorijdagi yo'llardan ancha ortda qolmoqda.

Yo'llarning yetarlicha uzun emasligi va texnik darajasi pastligi avtomobilda tashishda katta xarajatlarni keltirib chiqarmoqda. Tashishlarning tannarxi rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi shunga o'xshash ko'rsatkichlardan 1,3 baravar, yoqilg'i sarfi esa 20 foizga ortiq.

Oxirgi yillarda O'zbekiston yo'l xo'saligini moliyalashtirishda yuzaga kelgan vaziyat umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlab turish uchun ajratilayotgan mu'blag'lar ta'mirlash oralig'idagi muddatlarni aniqlash bo'yicha talab etiladigan normativ hujjatlarning qariyb 35 foizini tashkil etishini ko'rsatmoqda.

Samarali va raqobatbardosh transport tizimini yaratish uchun quyidagilar talab etiladi:

- 1)raqobatbardosh va yuqori sifatli transport xizmatlarini ko'rsatish;
- 2)raqobatbardosh va yuqori sifatli transport xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xavfsiz va ish unumдорligi yuqori transport vositalarini yaratish va transport infratuzilmasini barpo etish;
- 3)kuchli raqobat muhitini yaratish maqsadida transport xizmatlari tuklifining talabdan ortiq bo'lishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish.

Yuqori sifatli transport xizmatlarini shakllantirish uchun eng avvalo sifat standartlari va o'lchamlarini aniqlashtirish, ularning bajarilishini va sifat standartlariga javob beruvchi samaradorligi yuqori bo'lgan texnologiyalar yaratilishini rag'batlantirish, davlat tomonidan tartibga solish usullari va huquqiy asoslarini takomillashtirish, hududlarda samaradorligi yuqori bo'lgan bir qator texnologiyalarni sinov tariqasida joriy etish talab etiladi.

Yuk va yo'lovchi tashish korxonalari va transport turlari o'rtaida ichki raqobatni va shu bilan bir qatorda xalqaro tranzit transport tizimlari o'rtaida tashqi raqobatni rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi. Ichki raqobat tovar va xizmatlar harakatining muromiyligi va tezlashishini, transport xarajatlarining qisqarishi, transport xizmatlaridan foydalanishning arzonlashishi, investitsion iqlimning yaxshilanishini va pirovardida esa bozor munosabatlarining

taraqqiy etishini ta'min etadi. Bu esa o'z navbatida tashqi raqobatbardoshlikka va mamlakatning tranzit salohiyatining ortishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Raqobatbardosh transport xizmatlari bozorini yaratish quyidagilarni ko'zda tutadi:

- transport xizmatlari ko'rsatish sohasida me'yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish (xavfsizlik, ekologik jihatdan soflik, transport xizmatlari sifati, transport xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solish usul va vositalarini rivojlantirish). Ushbu vaziyatda monitoring va boshqaruv, transport tizimini nazorat qilish tizimini yo'lga qo'yish ko'rinishida samarali teskari aloqani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi;

- yuk tashish, shu jumladan temir yo'l transportida yuk tashish va shuningdek jamoat transportida yo'lovchi tashish sohasida raqobatni rivojlantirish;

- raqobatbardoshlik darajasi yuqori bo'lgan transport xizmatlari ko'rsatilishini ta'min etuvchi, unumdorligi yuqori bo'lgan transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish (ushbu holatda tezlik va ishonchhlilik muhim sanaladi);

- transport xizmatlari sifati va tejamkorligi, ekologik jihatdan sofligi va xavfsizligi bofasida standartlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida ilg'or texnika va texnologiyalarni izchil joriy etish.

Transport infratuzilmasini muvozanatlashgan va jadal rivojlanishini ta'minlash transport tizimini rivojlantirishning muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishni amalga oshirish transport xizmatlariga aholi va iqtisodiyot sektorlarining ehtiyojlarini tadqiq qilish va shuningdek transport tizimini rivojlantirishning turli variantlarini bashoratlash va modellashtirish maqsadida matematik modellashtirishning usul va vositalaridan foydalanish, statistik hisobot tizimini rivojlantirish, transport-iqtisodiy balansini tuzish asosida transport infratuzilmasining barcha elementlarini o'zaro hamohang va kompleks ravishda rivojlantirilishini anglatadi.

Transport tizimining barqarorligi va ishonchliligin ta'minlash 2030-yilgacha bo'lgan davrda transport sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvorliklaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu o'z navbatida texnologik va infratuzilmaviy zaxiralar yaratilishi ko'zda tutadi. Bunday zaxira va qo'shimcha imkoniyatlarning yaratilishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yuk va yo'lovchi tashishga tabiiy o'zarishi va uning istiqbolda o'sish sur'atlariga ega bo'lishi sharoitida mamlakat transport tizimining aholi va biznes tuzilmalariga atrof-muhit va inson sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda, o'z vaqtida va kerakli joyda arzon va sifatli transport xizmatlari ko'rsatishini ta'min etadi.

Transport tizimini rivojlantirish strategiyasini samarali amalga oshirishda transport infratuzilmasiga davlat qo'yilmalarining samaradorligini oshirish va qulay investitsion iqlimni yaratish, shu asosda transport tizimining muvozanatlashgan barqaror rivojlanishini ta'minlash muhim o'rinn tutadi.

Transport tizimining barqaror o'sish sur'atlari davlat budgetidan ujratalayotgan moliyaviy mablag'larning yetishmasligi sharoitida davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish asosida transport majmuuni rivojlantirishga xususiy investitsiyalarning ulushini oshirish hisobiga ta'min etilishi lozim. Shu bilan bir qatorda davlat va xususiy sektor tomonidan moliyalashtirish nisbatlarining o'zgarishi sharoitida Transport strategiyasida ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarning amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan umumiy investitsiyalar hajmining saqlanib qolishiga erishish talab etiladi.

Yuqori samarali transport texnologiyalaridan keng foydalanish va transport korxonalarining transport parklarini zamonaviy transport vositalari bilan boyitish imkoniyatini beruvchi va iste'molchilarning talab va ehtiyojlarini to'laqonli tarzda qondirish qobiliyatiga ega bo'lgan barqaror transport infratuzilmasini yaratish muhim o'rinn tutadi. Bunday vazifalarning amalga oshirilishi, barcha turdag'i transport korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va rivojlantirish, ularning barqaror

ishlashlari uchun infratuzilma borasida zaruriy shart-sharoitlarning yaratilishi ta'minlanadi. Buning asosida yuk va yo'lovchi tashish sohasida transport xizmatlari sifatining yaxshilanishiga va transport xizmatlari narxining arzonlashuviga erishiladi. Aholining turli ijtimoiy qatlamlari tomonidan transport xizmatlariga bo'lgan talabga muvofiq aholi mobilligining barqaror o'sishi-ijtimoiy transport standartlarining amalga oshishi ta'min etiladi.

Transport xizmatlari sifatini oshirish transport tizimida asoslangan zaxiralar yaratilishini talab etadi, bu esa birinchi navbatda asosiy yuk va yo'lovchi tashish oqimlarida raqobatni rivojlantirishni taqozo etadi. Me'yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish transport qonunchiligin uyg'unlashtirish, transport va kommunikatsiya borasida dunyo standartlariga integratsiyalashish, transport xizmatlari sifatini belgilab beruvchi me'yorlarni aniqlashtirish, ularga rioya etilishi borasida javobgarlik choralarini belgilash va shuningdek, iste'molchilar huquqini himoya qilishni ko'zda tutishi zarur.

Mamlakat transport tizimi raqobatbardoshligini oshirish transport sohasida mamlakatning manfaatlarini butun dunyo miqyosida ilgari surish va himoya qilish borasida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan o'zaro uyg'unlashishi lozim. Bunday chora-tadbirlarning amalga oshirilishi asosida mamlakatning transport salohiyatini barqaror amalga oshirish va mamlakat transport tizimining dunyo transport xizmatlari bozoridagi o'rmini mustahkamlashga erishiladi.

Barqaror transport tizimini yaratishda transport vositalari va transport infratuzilmasi obyektlarining texnik va texnologik xavfsizligini oshirish borasidagi siyosatni bosqichma-bosqich amalga oshirish, shu bilan bir qatorda transport korxonalari faoliyatiga noqonuniy aralashishlarning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Transport strategiyasini amalga oshirish davlatning ekologik omillarga bo'lgan e'tiborini kuchaytirishni taqozo etadi. Transport sohasida ekologik siyosat tamoyillarini ishlab chiqish va uni amalga

oshirish transport tizimining rivojlanishini cheklovchi emas, balki uni huruqtalniruvchi kuchga aylanishini unutmasligimiz lozim.

Transport-logistika xizmatlarini ko'rsatish, transport infratuzilmasi obyektlari va transport vositalarini ekspluatatsiya qilish, transport tizimini rivojlantirish borasida turli loyihalarning amalga oshirilishini ta'min etuvchi mehnat resurslari bilan transport tizimi korxona va tushkilotlarini ta'minlash tizimini takomillashtirish transport strategiyasini hayotga izchil joriy etishda muhim o'rinni tutadi.

Transport strategiyasini hayotga izchil joriy etishda loyiha boshqaruvi mexanizmlarini rivojlantirish, davlat tomonidan boshqarish va tartibga solish samaradorligini oshirish hisobiga transport tizimini rivojlantirishni boshqarish va nazorat qilish darajasini oshirish muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalihsida respublika va mahalliy hududlar darajasida transport-iqtisodiy balanslar asosida transport infratuzilmasini rivojlantirishning davlat tomonidan strategik rejalashtirishning kompleks tizimini yaratish muhim o'rinni egallaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan transport tizimini rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalihsilari asosida Transport strategiyasining asosiy maqsadli mo'ljallari, uning maqsadlari, ustuvorliklari, amalga oshirish vazifalari va mexanizmlari shakllantiriladi.

Transport faoliyati turlaridan kelib chiqqan holda, Transport strategiyasining bosh strategik ustuvorliklari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

Umumijtimoiy ustuvorliklar:

- aholining mobilligi, transport xizmatlarining arzon va qulayligi;
- transport turlari bo'yicha xavf-xatar va to'qnashuvlar darajasining pusayishi;
- atrof-muhitni ifloslanishida transport ulushining pasayishi.

Umumiqtisodiy ustuvorliklar:

- transport tarmog'i tomonidan yalpi ichki mahsulotning rejalash-turilgan o'sish hajmini ta'min etishga xizmat qiluvchi yuqori sifatli transport xizmatlarining to'liq hajmda ko'rsatilishiga erishish;

- mahsulot va xizmatlarning yakuniy narxida transport xarajatlarining raqobatlashadigan darajada bo'lishini ta'min etish;
- tovar va mahsulotlar partiyasi harakatining maromiyligi va tijorat tezligini oshirish;
- transport infratuzilmasini barpo qilish va uni saqlab turishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish;
- transport xizmatlarini ko'rsatish borasida davlatning samarali tarif siyosatini amalga oshirish;
- iqtisodiy raqobat muhitini, shu jumladan, davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlaridan keng foydalanishi yo'lga qo'yish;
- yondosh tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari va strategiyalarini muvofiqlashtirish;

Umum transport ustuvorliklari:

- transport korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish;
- transport tizimlari rentabelligini ta'minlash;
- transport infratuzilmasi fond qaytimini oshirish;
- energiya sig'imini pasaytirish;
- milliy tashuvchilarining raqobat ustunliklarini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish va ularning raqobatbardoshligini oshirish;
- transport borasida jahonda erishilgan ilg'or natijalarga mos keluvchi innovatsion tovar transporti texnologiyalarini izchil joriy etish;
- yuqori texnologiyali mahsulotlarni tashishni yo'lga qo'yish;
- transport tarmog'ining jadal rivojlanishini ta'min etuvchi investitsiyalash uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish;
- transport strategiyasining amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan transport mashinasozligi va unga butlovchi va ehtiyoq qismlar yetkazib beruvchi tarmoqlarni rivojlantirish.

Asosiy tayanch tushunchalar

Transport tizimi, transport infratuzilmasi, transport majmui, temir yo'l transporti, yo'l xavfsizligi, temir yo'l tarmog'i, magistral teplovozlar,

iqtisodiy integratsiya, yo'lovchi xo'jaligi, avtomobil yo'llari, havo transporti.

Takrorlash uchun savollar

1. Hozirgi zamон sharoitida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasida transport tizimining ahamiyati qanday?
2. Hududlarni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish va mintaqalashtirishda transport tizimi qanday ahamiyatga ega?
3. Transport infratuzilmasi deganda nimani tushunasiz?
4. Transport majmui nima va ushbu sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar haqida fikr bildiring?
5. O'zbekistonda mavjud bo'lган transport turlari orasida yetakchi va muhim o'rinda qaysilar deb hisoblaysiz?
6. O'zbekiston transport majmuining boshqa mamlakatlarning transport majmuidan asosiy farqi nimadan iborat?
7. Transport xavfsizligini ta'minlashda qanday muammolarga duch kelishimiz mumkin?
8. Transport aloqalarining yetaricha rivojlanmaganligi milliy iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatadi?
9. Magistral quvurlarning muhim afzallikkari nimalardan iborat?
10. O'zbekiston Respublikasi transport tarmog'i uchun xos bo'lган tizimli muammolarga misol keltiring?

XII BOB. XAVFSIZLIKNI BOSHQARISH VA NAZORAT QILISH MEXANIZMLARI

12.1. Xavfsizlikni boshqarish tamoyillari

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, tashkilot xavfsizligini ta'minlash quyidagi prinsiplarga muvofiq bo'lishi kerak:

- *uzlucksizlik* – xavfsizlik choralarini amalga oshirish ichki va tashqi tahdidlarni qaytarishga doimo tayyor bo'lishga asoslangan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, bu jarayon uzilishlarga yo'l qo'ymaydi;
- *murakkablik* – tashkilotning barcha tarkibiy bo'linmalarida va uning faoliyatining barcha bosqichlarida moliyaviy, moddiy, axborot va inson resurslarini himoya qilishning barcha vositalaridan foydalanish;
- *vaqtilik* – proaktiv choralar yordamida xavfsizlikni ta'minlash;
- *qonuniylik* – mamlakatimiz qonunchiligi asosida xavfsizlikni ta'minlash;
- *faoliyat* – xavfsizlikni yetarlicha qat'iyatilik darajasi va mavjud kuch va vositalar manevidan keng foydalanish bilan ta'minlash;
- *universallik* – ularning qo'llanilish joyidan qat'i nazar ijobjiy samara beradigan choralarни qo'llash orqali xavfsizlikni ta'minlash;
- *iqtisodiy maqsadga muvofiqligi* – mumkin bo'lgan zararni va xavfsizlikni ta'minlash xarajatlarini taqqoslash (har qanday xavf turi uchun);
 - *o'ziga xoslik va ishonchlilik* – xavfsizlik uchun ajratilgan manba-larning aniq va ishonchli turlarini aniqlash;
 - *professionallik* – xavfsizlik choralarini amalga oshirish faqat professional o'qitilgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi kerak;
 - *o'zaro hamkorlik va muvofiqlashtirish* – tegishli bo'limlar, xizmatlar va mas'ul shaxslar o'rtasidagi aniq munosabatlar asosida xavfsizlikni ta'minlash;
 - *boshqaruvni va avtonomiyani markazlashtirish* – barcha himoya obyektlarini muhofaza qilishni tashkil etish jarayonining avtonomligini

ta'minlash va umuman tashkilot xavfsizligini ta'minlashni markazlashtirilgan boshqarish.

Tashkiliy tamoyillar – bu xavfsizlik uchun faoliyatni ilmiy tashkil etish pozitsiyasini amalga oshiradigan prinsiplar. Tashkiliy tamoyillar quyidagilarni o'z ichiga oladi.

A) Vaqtni muhofaza qilish prinsipi xavfga duchor bo'lish sharoitida odumlarning qolish muddatining xavfsiz qiymatlarini kamaytirishni nazarada tutadi. Ushbu prinsip ionlashtiruvchi nurlanish va shovqindan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu prinsipni qo'llashning namunasi – to'plangan charchoqni yo'qotish va sog'liq va hayotni yaxshilashga yordam berish uchun mo'ljallangan ta'tilning davomiyligini belgilash.

Yana bir misol sifatida ish vaqtini ko'rsatish mumkin. Zararli mehnat sharoitlari hali bartaraf etilmagan hollarda, amaldagi qonunchilikda kusbiy xavfni qoplash tizimi ko'zda tutilgan. Kompensatsiya turlaridan biri bu ish kuni davomiyligini qisqartirishdir.

B) Me'yorlashtirish prinsipi – bu shartlarning tartibga solinishi, unga rioya qilish xavfsizlikning ma'lum darajasini ta'minlaydi. Ratsionga ehtiyoj mutlaq xavfsizlikka erishish deyarli mumkin emasligi bilan bog'liq.

Standartlar xavfsizlik choralarini hisoblash va tashkil qilish uchun dastlabki ma'lumotlar. Standartlashtirishda insonning psixofizik xususiyatlari, shuningdek texnik va iqtisodiy imkoniyatlari hisobga olinadi. Zararli omillarni normallashtirishning cheklovchi ko'rsatkichi - sog'liq holatida patologik o'zgarishlarning yo'qligi. Bunday me'yorlarga zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasi, mikroiqlim parametrlarining qiymatlari, jismoniy ta'sirlarning ruxsat etilgan maksimal darajalari va boshqalar kiradi.

C) Mos kelmaslik prinsipi xavfsizlik nuqtayi nazaridan ularning o'zaro ta'sirining xususiyatlarini hisobga olgan holda real dunyo obyektlarini (moddalar, materiallar, uskunalar, binolar, odamlar) fazo-viy va vaqtincha ajratishni nazarada tutadi. Ushbu ajratish obyektlarning

o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan xavfli vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan.

Ushbu tamoyil, masalan, sanoat va kommunal xonalarni rejalash-tirishda amalga oshiriladi. Uy-joy binolari ishlab chiqarish binolaridan ajratilgan. Ishlab chiqarish binolari ba’zi ustaxonlardan kelib chiqadigan toksik moddalar bilan ba’zi binolarning havosini ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun rejalashtirilgan. Portlash va yong‘in xavfsizligini oshirish va sanitariya sharoitlarini yaxshilash maqsadida korxonalarini bosh rejalarini ishlab chiqishda hududlarni rayonlashtirish qo‘llaniladi. Zonalashtirishning mohiyati – turli xil obyektlarni texnologik aloqa va ularga xos bo‘lgan xavf-xatarlar xususiyati asosida korxona tarkibiga kirdigani guruhlarga (zonalarga) hududiy birlashtirish.

D) Ergonomikaning prinsipi xavfsizlikni ta’minalash uchun odamning antropometrik, psixofizik va psixologik xususiyatlarini hisobga olishni o‘z ichiga oladi.

Antropometrik talablar asbob-uskunalar, ish joylari, mebellar, kiyim-kechak, PPE va boshqalarni loyihalashda odamning kattaligi va holatini hisobga olgan holda qisqartiriladi. Psixofizik talablar obyektlarning xususiyatlarini inson sezgi organlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga mos kelishini o‘rnatadi. Psixologik talablar obyektlarning insonning ruhiy xususiyatlariga muvofiqligini belgilaydi.

Yaqin vaqtgacha murakkab texnik tizimlarning xavfsizligini boshqarish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish asosan asbob-uskunalar, boshqaruva tizimi va xodimlar sifatiga talablarni oshirish, atrof-muhit va odamlarga mumkin bo‘lgan texnogen ta’sirlarni cheklash yo‘lida davom etdi.

Xavfsizlik mezonlariga muvofiq texnik tizimlarni loyihalash yanada istiqbolli yo‘nalishdir. Shu bilan birga, bunday tizimda ish jarayonida odatdagи vaziyat xavfli sharoitlarga olib kelmaydigan, ammo ma’lum bir qator vaziyatlarda favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqaradigan hodisalar zanjirlari paydo bo‘lishi mumkinligi hisobga olinadi.

Xavfsizlik mezonlari bo'yicha muhandislik tizimlarini loyihalashda qiyidagi ilmiy asoslangan tamoyillarga amal qilish kerak.

Mustaqillik va xilma-xillik prinsipi xavfsizlik tizimlari nuqsonlar, xatolar, nosozliklarning tizimning ishlashiga ta'siri minimal darajada bo'lishi uchun ishlab chiqilganligini nazarda tutadi. Shu bilan birga, mustaqillikka jismoniy, funksional va fazoviy xilma-xillik, xilma-xillik – jismoniy, uslubiy va apparatli xilma-xillik orqali erishiladi.

Xatolar xavfsizligi prinsipi shuni anglatadiki, xavfsizlik tizimlarining ehtimoliy nosozliklari tizimning noto'g'ri ishlashiga yordam beradi va shu bilan avariya xavfini ochib beradi.

Ishonchlilik va omon qolish prinsipi shuni anglatadiki, tizimning eng muhim elementlari ishlashining yuqori darajadagi ishonchliligi ta'minlanishi kerak.

Tabiiy texnik xavfsizlik prinsipi avtonom maxsus himoya vositalarini loyihalash va ulardan foydalanish, texnik tizimni eng soddalashtirilgan va ishonchli dizayni, saqlanadigan energiya va zararli moddalar darajasini minimallashtirish, shuningdek favqulodda vaziyatlar jarayonlarini ishlab chiqish uchun operatorlarning xatolari orqali amalga oshiriladi.

Ushbu tamoyillarga rioya qilish natijasida aviatsiya, kosmik, temir yo'l, qurilish inshootlarida, ayniqsa avariylar va vayronalar aholi, atom energetikasi, shu jumladan qayta ishlash, tashish va yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan xavf bilan bevosita bog'liq bo'lgan joylarda jiddiy avariyalarning oldini olish uchun texnik tizimlar yaratiladi.

Xavfsizlik nuqtayi nazaridan, inson faoliyat jarayonida bo'lgan joyni (ish maydoni yoki gomasfera) va xavf-xatar doimiy ravishda mavjud bo'lgan yoki vaqt- vaqt bilan yuzaga keladigan (noxosferalar) makonni birlashtirish mumkin emas. Shu bilan birga, xavfsizlikni ta'minlash uchta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi:

1)masofadan boshqarish, avtomatlashtirish, robotlashtirish, tashkil etish va h.k.lardan foydalanish orqali gomasfera va noksosferani fazoviy yoki vaqtinchha ajratish;

- 2) xavflarni bartaraf etish orqali noksosferani normallashtirish;
- 3) insonni tegishli muhitga moslashishi va uning xavfsizligini oshirish, bu kasbiy tanlash, o'qitish, psixologik ta'sir, shaxsiy himoya vositalari uchun imkoniyatlardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

12.2. Xavfsizlikni nazorat qilish va baholash usullari

Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning xavfsizligini ta'minlashda davlat markaziy rolni o'ynaydi. Bu boradagi davlatning vazifalari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- davlatni mikro va makro darajada iqtisodiy tartiblash ko'lamlarini o'z ichiga oladigan strategik qarorlarni asoslash, qabul qilish uchun dastaklar bilan ta'minlash;
- iqtisodiy va ma'muriy dastak, vosita hamda yordamida iqtisodiy strategiya va joriy dasturlarni amalga oshirish, erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash, mavjud sharoitlarga mos ravishda ko'rilibotgan chora-tadbirlarga tuzatishlar kiritish;
- boshqa mamlakatlar bilan o'zaro aloqalar tizimida xavfsizlikni rag'batlanadirish rejimlarini ko'zda tutadigan qonunlar va "me'yoriy hujjatlarni hayotga tatbiq etish orqali mamlakatning iqtisodiy suverenitetini huquqiy va siyosiy himoyalashni ta'minlash;
- iqtisodiyotda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni tezlikda hal qilish uchun davlat boshqaruvi organlari hamda mansabdar shaxslarning huquqlari, vazifalari mas'uliyatini oqilona taqsimlash va ularning o'zaro bir o'lchamdagisi faoliyatini uyg'unlashtirish.

Mamlakatda xavfsizlikni ta'minlashni boshqarish tizimi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- tashkiliy tuzilmalar;
- kommunikatsiya va o'zaro aloqalar tizimi;
- axborotlar;
- har tomonlama tayyorlangan kadrlar.

Mamlakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv ishlari ikki, o'zaro bog'liq yo'nalishda olib boriladi:

- xavfsizlikning manbalari va ularning subyektlariga qarshi kurashish;

- barcha qonun, me'yoriy hujjatlar hamda boshqaruv qarorlarini iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash talablariga mosligini aniqlash uchun ekspertizadan o'tkazish.

Xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti ijtimoiy-iqtisodiy jarayoni boshqarishning bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligini oshirish hisoblanadi. Zero mamlakatda xavfsizlik darajasi uning iqtisodiy va harbiy salohiyati bilan belgilanadi. Bu salohiyat milliy iqtisodiyot resurslari, zaxiralari, amalga oshirilayotgan iqtisodiy va harbiy siyosatning samaradorligi, bozor strukturasi, boshqarish tizimi, sanoatni tashkil etish hamda tashqi bozor konyunkturining o'zgarishlarga moslashuvchanligi boshqa mamlakatlarning qo'llab-quvvatlashi, xalqaro uyushma va tashkilotlarda ishtirok eta olishi bilan ifodalanadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun asosiy mahsulotlar bo'yicha importga bog'liqlikka barham berish, tayyor mahsulotlarni eksport qilishni kuchaytirish lozim bo'ladi. Shuningdek, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini ichki va tashqi bozorda himoya qilishga qaratilgan oqilona proteksionizm siyosatini amalga oshirish lozim. Bu siyosat quyidagilarni ko'zda tutishi kerak:

- monopolistik faoliyatni cheklash;

- tayyor ishlab beruvchi sanoat mahsulotlarini, asosan, mashina va asbob-uskunalarni eksport qilishni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlarini, imtiyozli kreditlash usullarini qo'llash;

- turli ishlab chiqarish tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni, yangi tashkil topgan xo'jalik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ular uchun qulay sharoitlar yaratish;

- ichki bozorga noqonuniy yo'llar bilan arzon, iste'molchilar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tovarlarni kirib kelishining oldini olish;

- ichki bozorda milliy tovar ishlab chiqaruvchilar manfaatini ko‘zlash, ularni tashqi bozorga chiqishlarini qo‘llab-quvvatlash;
- yirik ishlab chiqarish birlashmalarini qo‘llab-quvvatlashning oqilona tizimini yaratish.

Mamlakat xavfsizligini ta’minlash uchun iqtisodiyotning kriminalla-shuviga qarshi kurashish kerak. Jinoiy guruhlarning iqtisodiyotga kirib kelishining oldini olish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

- daromadlarni deklaratsiya qilish tizimini takomillashtirish;
- nodavlat xo‘jalik subyektlarining ayrim faoliyat turlarini qonun yo‘li bilan cheklash;
- ro‘yxatga olinmasdan turib tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ulanishni man qilish;
- iste’molchilar salomatligiga zarar yetkazuvchi mahsulotlarni va litsenziyasiz, sifat sertifikatisiz tovar sotishni man qilish;
- bankrotlik qonuni talablarini hayotga qat’iy tatbiq etish;
- huquq-tartibot organlarida iqtisodiy qonunbuzarliklarga qarshi kurashish bo‘limlari faoliyatini kuchaytirish;
- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turli nazorat va davlat organlarining tadbirkorlar xo‘jalik faoliyatiga noqonuniy aralashishlarini cheklash va bunga qarshi kurashish;
- iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmlari erkin amal qilishini ta’minlash bilan bir qatorda, davlat organlarining iqtisodiyotni tartibga solish faoliyati samaradorligi va ta’sirchanligini oshirish kabilar maqsadga muvofiqdir.

12.3. Xavfsizlikni boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish

Xavfsizlikni boshqarishda xavfsizlikni ta’minlash iqtisodiy, siyosiy, harbiy, tashkiliy va boshqa xarakterdagи chora-tadbirlarni qo‘llashni,

shuningdek, uni ta'minlaydigan ko'p sonli organlar va tashkilotlarning faoliyatini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xavfsizlik idoralariga umumiy rahbarlikni, xavfsizlik idoralari faoliyatini muvofiqlashtirishni va tezkor qurorlarni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi hukumati davlat xavfsizlik idoralariga rahbarlik qiladi; davlat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur choralarни ko'radi; qurol-yarog', harbiy texnika, moddiy va moliyaviy vositalar, kuchlar va xavfsizlik idoralari resurslari va boshqalar bilan jihozlashni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashi (faoliyatni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshqaradi). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti shaxsning, jamiyatning va davlatning hayotiy manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalashni ta'minlash, xavfsizlikni ta'minlash sohasida yagona davlat siyosatini yuritish va hokazolarni tayyorlashga mas'uldir.

Maxsus xavfsizlik organlari - bu O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xavfsizlik xizmati hisoblanadi.

Xavfsizlik menejmenti tizimi Mehnat xavfsizligini boshqarish - bu mehnat sharoitlari holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar to'plamining belgilangan qiymatlarini olish uchun "odam - mashinasozlik muhit" tizimiga ta'sir qilishning muntazam jarayoni. Boshqarish jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi: mehnat sharoitlari parametrlarini baholish; maqsadlarni belgilash va maqsadlarni belgilash; dasturlarni tuzish; dasturlarni tezkor boshqarish; dasturni yetkazib berish samaradorligini buholash; ijrochilarни rag'batlantirish. Mehnat xavfsizligini boshqarish boshqaruв organi, shu jumladan korxona ma'muriyati, tarkibiy bo'limlari rahbarlari, nazorat obyekti holati to'g'risidagi ma'lumotlarga usoslangan mehnatni muhofaza qilish xizmati yordamida amalga oshiriladi.

Boshqaruв funksiyalari davlat xavfsizligini boshqarish muammolarini hal qilishda faoliyat yo'naliшини belgilaydi va har bir vazifa yuqorida sanab o'tilgan barcha funksiyalar orqali hal qilinadi.

Xavfsizlikni boshqarishga yo'naltirilgan funksiyalar bir-biri bilan bir-birini to'ldiradigan organik ravishda bog'liqdir. Bitta boshqaruv funksiyasining bajarilishini e'tiborsiz qoldirish yoki pasaytirish boshqasining bajarilishiga salbiy ta'sir qiladi. Shunday qilib, obyektning holatini hisobga olish, tahlil qilish va baholash funksiyasini to'liq bajarilmaganligi boshqarish funksiyasining samaradorligini keskin cheklaydi, ayniqsa ishlarni rejalashtirish va prognozlashda. Boshqa tomondan, rag'batlan-tiruvchi funksiyalarni to'liq va har tomonlama amalga oshirish xavfsizlikni ta'minlash uchun boshqaruvga jalb qilish va boshqa boshqaruv funksiyalarining samaradorligini oshirish, shuningdek, davlat xavfsizligini boshqarish muammolarini hal qilish samaradorligini oshirishga imkon beradi. Shunday qilib, davlat xavfsizligini boshqarish tizimi tashkiliy tuzilmani (obyekt va boshqaruv organi), rejalashtirish faoliyatini, amaliy ishlarni, protseduralarni, maqsadlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va amalga oshirish uchun resurslarni o'z ichiga olgan davlatni boshqarishning umumiy tizimining bir qismidir. Shu bilan birga, davlat xavfsizligini boshqarish jarayoni xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qonunchilik va normativ hujjatlar tizimiga asoslanadi.

Davlatning xavfsizligini boshqarish turli darajalarda ta'sir ko'rsatish zaruriyati, shuningdek ushbu darajalarning o'zaro bog'liqligi xavfsizlikni boshqarishda tizimli yondashuvni ishlab chiqish va undan foydalanishni talab qiladi. Ushbu yondashuv odatda iqtisodchilar tomonidan amalga oshirilgandan ko'ra hodisalar va jarayonlarni kengroq o'rganishni o'z ichiga oladi, bundan tashqari, uning tarkibiga ichki va tashqi muhitni taqsimlash, shuningdek ularning o'zaro bog'liqligi kiradi. Tizimli yondoshish nuqtayi nazaridan xavfsizlik tashqi va ichki tusdag'i turli tahdidlarga qarshi turg'un va barqaror ishlashini va rivojlanishini ta'minlaydigan tizimning sifati sifatida belgilanishi mumkin. Bu tizimning shunday sifati bo'lib, u har xil tabiatdagi beqarorlashtiruvchi omillarning salbiy ta'sirini minimallashtirishga va eng yaxshisini butunlay oldini olishga imkon beradi. Tizimning barqarorligini boshqarishning asosiy vazifasi barcha funksional, hududiy va boshqa

qayi tizimlarni rejalashtirish, tahlil qilish va boshqarish jarayonlarini o'rgunish bilan bog'liq.

Tizimning ma'lum bir holati sifatida xavfsizlik tahlili, bu salbiy yoki istalgan tashqi va ichki ta'sirlar sharoitida tizimning uzlusiz tizimini ta'minlaydi, xavfsizlikni boshqarish tizimi murakkab ochiq tizim ekanligini ko'rsatadi. Xavfsizlik darajasiga va uning tarkibiy murakkabligiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar xavfsizlik va uni boshqarishning yetarli tavsifi uchun ko'plab tuzilmalarni ajratib olish imkonini beradi. Bunga asoslanib, boshqaruva ta'sirini aniqlash jarayoni avval tizimning xavfsizligi va boshqariladigan tizimning holati tahdidlarini tahlil qilishdan iborat bo'lishi kerak, xususan, xavfsizlikni boshqarish nafaqat ma'lum tahdidni amalga oshirish natijasida yo'qotishlarni kamaytirishga, balki tahdidning oqibatlarini samarali bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunday yondashuv xavfsizlikni samarali boshqarish deb ataladi.

Xavfsizlikni boshqarishni takomillashtirish uchun zarur element bu uning miqdorini miqdoriy baholash bo'lib, u jiddiy buzilishlar yoki og'ish holatlarida tizimning tashqi va ichki ta'sirlarga javoban o'zgarishi oldindan aytib bo'lmaydigan holatlarda uning barqarorlik chegarasiga yuqinlik darajasini aniqlashga imkon beradi. Amaliy jihatdan xavfsizlikni boshqarishda ikkita asosiy yondashuv mavjud - tarmoq va funksional-hududiy. Sektorlarni boshqarish tizimi Sovet Ittifoqi davrida shakllangan va davlatni iqtisodiyotning buyruq tizimidan meros qilib olgan. Uning fuoliyatining asosiy uslubiy tamoyili - bu nazorat harakatlarining asosi sisutida iqtisodiyotni tarmoqlar bo'yicha tabaqlashtirish ularning turmoqlararo aloqalari va o'zaro ta'sirini hisobga olmasdan tabaqlash-tirilganligi munosabati bilan boshqarishdir.

Ijtimoiy soha masalalarining aksariyati hududlarning ta'sir doirasiga o'tdi. Biroq, amaliy jihatdan, mintaqaviy ijroiya hokimiyatlari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, soliq tushumlarini shakllantirish va atrof-muhitni saqlash bilan bog'liq juda ko'p masalalarni hal qilishlari kerak edi. Asosan, mavjud bo'lgan barcha moliyaviy va moddiy

resurslar markazlashtirilgan va ma'muriy vositalardan keng foydalanish asosida taqsimlandi. Asosiy rolni markaziy ijro hokimiysi (vazirlik va idoralar) o'ynadi. Dunyo mintaqaviy jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini hisobga olgan holda, hududiy darajada iqtisodiy jarayonlarni boshqarish uchun yetarli tizimsiz hududiy rivojlanish va rejalashtirish mumkin emas. Mintaqaviy iqtisodiy tizim iqtisodiyotni, ijtimoiy sohani va atrof-muhitni muhofaza qilishni boshqarishi, bu jarayonni amalga oshirish uchun vakolatlari, usullari va boshqarish vositalariga va tegishli boshqaruv tuzilmalariga ega bo'lishi kerak.

Xavfsizlikni boshqarish asoslarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim omili bu xavfsizlikni ta'minlashning strategik maqsadi bilan o'xshashligi, shuning uchun ushbu qoidalarni aniqlash mumkin. Iqtisodiy rivojlanishning aniqlangan jarayonlari ishlab chiqarish va texnologiyalarining tarmoqlar kombinatsiyasi (tarmoqlararo xarakterga ega) asosida yuzaga keladigan tobora kengayib borishiga olib keladi. Bozor iqtisodiyoti faoliyatiga yo'naltirilgan korxonalar ko'rsatmalar bilan emas, balki faqat bozor sharoitlari bilan belgilanadigan mahsulotlar ishlab chiqarishga, ishlar va xizmatlarni bajarishga majbur bo'lmoqdalar. Shu sababli, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida iyerarxiyaning turli darajalarida iqtisodiyotni sohaviy boshqarishni davom ettirish obyektiv ravishda mumkin emas, iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan hududlarning avtonomiyasini sezilarli darajada kengaytiradigan xavfsizlikni boshqarishning funksional-hududiy tizimiga o'tishni talab qiladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Xavfsizlikni boshqarish, qonuniylik, universallik, professionallik, tashkiliy tamoyillar, me'yorashtirish, ergonomika, tashkiliy tuzilmalar, kommunikatsiya, monopolistik faoliyatni cheklash, nazorat qilish mexanizmlari.

Takrorlash uchun savollar

1. Xavfsizlikni boshqarish tamoyillari tushunchasiga izoh bering?
2. Tashkilot xavfsizligini ta'minlash qanday printsiplarga muvofiq bo'lishi kerak?
3. Standartlashtirish deganda nimani tushunasiz?
4. Ergonomikaning printsipi xavfsizlikni ta'minlash uchun qanday xununiyatlarni o'z ichiga oladi?
5. Xavfsizlikni ta'minlash qandaytarkibiy qismni o'z ichiga oladi?
6. Mamlakatda xavfsizlikni ta'minlashni boshqarish tizimi nimalardan iborat?
7. Mamlakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruvi ishlari qaqnday amalga oshiriladi?
8. Xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti nima?
9. Jinoiy guruhlarning iqtisodiyotga kirib kelishining oldini olish uchun nimalarni amalga oshirish lozim bo'ladi?
10. Xavfsizlikni boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarining mohiyati nimadan iborat?

XIII BOB. XAVFSIZLIKNI BOSHQARISHDA QAROR QABUL QILISH

13.1. Qaror qabul qilish jarayonida xavfsizlikni boshqarishning o‘rnvi va ahamiyati

Xavfsizlikni boshqarishda xavfni miqdoriy aniqlash uchun bir qancha usullar mavjud bo‘lib, biz ularni 2 katta guruhga ajratamiz:

Birinchisi: dalilsiz (oldindan) xulosa berish guruhi. Ikkinchisi: tajribaga tayanib yondoshilgan guruhi.

Dalilsiz xulosa berish birinchi navbatda nazariy qoidalarga tayanadi va ma’lum bir qaror natijalari talabalarni ifodalaydi. Xavfsizlikni boshqarish bunday vaziyatda tajribadan kelib chiqib emas, mantiqiy xulosaga tayanib xavf miqdoriy hisoblab chiqiladi. Axborotlarni qayta ishlash asosida ommaviy omillar va hodisalarni umumlashtirib, o’tgan holatlarini o‘rganish asosida ekstrapolyasiyalab, bashorat qilinayotgan xavflarni qarab chiquvchi tajribaga tayanib yondoshilgan guruhi keng tarqalgan. Bu yerda, axborotlarni muhim roli, uni qayta ishlash, sistemalashtirish qarorlarni qabul qilishda asos sifatida qo’llanilishi ko‘rinadi. Xavflarni miqdoriy baholashda xavflarni vujudga keltiruvchi sabablarning real o‘lchami va kutilayotgan zarar o‘lchamini farqlash lozim. Chunki xavflarning real o‘lchami qaror qabul qilish paytidayoq ma’lum bo‘ladi, ammo kutilayotgan zarar o‘lchami esa ma’lum bir noaniqlik darajasi asosida aniqlanadi. Xavfsizlikni boshqarish va xavflarni aniqlash usullari qanchalik takomillashtirilgan bo‘lsa, noaniqlik omillari shuncha katta darajada kamaytirilgan bo‘ladi.

Xavfsizlikni boshqarishda qabul qilinayotgan qarorlar orasidagi bog‘liqlikdan kelib chiqib shu qayd etish mumkinki: “qarorda biriktirilgan organ, xavfni bartaraf etish ma’suliyatini shu organ zimmasiga yuklanadi. Qaror ijrosi uchun javob bermaydigan organlar xavfning ma’suliyatini yuklash kutilayotgan natijalarni keskin tarzda yomonlashtiradi”. Bu ta’rifni ko‘p martalab takrorlashning muhimligi

shundu-ki, ba'zibir qarorlar qoidaga ko'ra, yordamchi qaror emas balki, qarorlar tizimining muhim qismi bo'lishi yoki mazkur qaror, boshqa qarorlar tizimining natijasi bo'lishi mumkin. Qarorlar qabul qilinishiga ko'tu gorizontal va vertikal bo'lishi, gorizontal guruh ichida xalq xo'jaligi, tarmoqlar, obyektlar qarorlari bo'ladi vertikal guruh qarorlar turkibiga esa korxona darajasidan tortib, barcha xalq xo'jalik boshqaruv durujusida qabul qilingan qarorlar kiradi.

Xavfsizlikni boshqarishda iqtisodiyotni hamma darajasidagi qarorlarini biz quyidagilarga ajratamiz:

- siyosiy xo'jalik qarorlari;
- aniq rivojlanish yo'nalishi bo'yicha qarorlar;
- kon'yunkturali qarorlari.

Siyosiy xo'jalik qarorlari hamma vaqt o'z oldiga asosiy iqtisodiy o'sish konsepsiyasini shakllantirish, uni optimal rivojlanish sur'atini ta'minlash, ma'lum iqtisodiy strukturani yaratish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek barcha bu yo'l yo'riqlarni amalgga oshirishni bosh maqsad qilib oladi. Ayni paytda siyosiy xo'jalik qarorlari nafakat iqtisodiy va ishlab chiqarishni anglashga ta'sir ko'rsatadi, balki xavfsizlikni bilvosita shaklda namoyon bo'luchchi siyosiy (ijtimoiy, mudosha va x.z) omillar va sabablarga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu katta durajadagi xavflar bilan bo'liq bo'lgan kichik natijalarni oldindan darak beruvchi zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilish imkonini anglatadi.

Xavfsizlikni ta'minlashning aniq yo'llari to'g'risida chiqarilgan siyosiy qarorlar bilan belgilangan sohalarda birinchi bosqichda xavfsizlikni ta'minlashning muhim yo'nalishlarini ancha aniq belgilovchi xo'jalik qarorlari darajasida qoluvchi qarorlar tashkil etadi.

Ikkinci boqichga amaliyotda ko'zlangan rejadagi konseptual elementlarni aniq belgilovchi mintaqaga darajasidagi qarorlar kiradi.

Hammadan oldin butun xalq xo'jaligi darajasida xavfsizlikni ta'minlashga rahbarlik qiluvchi organ butun xalq xo'jaligining tegishli strukturasini uni sektorlari va tarmoqlarini tashkillantirishga uning umumiy o'sish sur'atiga ayni paytda bu sohadagi xavfsizligiga ma'sul

bo‘ladi. Qarirlarni qabul qilishda xavfsizlikni oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan vazifalarni o‘z ichiga oladigan bo‘lishligi kerak. Shu asosida qarirlarni qabul qilish jarayonida xavfsizlikni boshqarishning o‘rnini va ahamiyati oshib boradi.

13.2. Boshqaruv qarorlari va ularni ishlab chiqishda xavfsizlik choralar

Qaror – bu umumiy maqsadlar yo‘nalishida imkoniyatlardan birini tanlashdir.

Boshqaruv qarori - bu boshqaruv faoliyatini oxirgi natijasidir. Agar boshqaruvda mehnat predmeti axborot bo‘lsa, uning mehnat (natijasi) mahsuloti – boshqaruv qaroridir.


Qaror ishlab chiqish va qabul qilish – bu shunday boshqaruv faoliyatining asosiy shakliki, unda rahbar mehnatining mazmuni, uning jamoaga maqsad sari yo‘naltirilgan harakat jarayonidir.

Boshqaruv qarori ikki holatda ishlataladi:

birinchi holatda – kimningdir yoki nimaningdir tomonidan o‘rnatilgan boshqaruv hujjati, qabul qilingan harakat rejasi, qaror qilish va boshqalar; ikkinchi holatlarda – bu bir necha variantlardan bitta ma’qul variantni tanlash.

Qaror pishib yetilgan muammo mavjud bo‘lganda qabul qilinadi.

Boshqaruv qarorlari elementlari:



Boshqarish qarorlarining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Maqsadlar
2. Masalalar
3. Masalalarni yechish usullari (texnologiya)
4. Resurslarga nisbatan talablar
5. Qarorning ta'sir doirasi
6. Qarorning bajarilish muddatlari
7. Qarorni amalga oshirilish mexanizmlari (masalalar strukturasi)

Boshqaruv qarorlar ma'lum xususiyatlarga ega bo'lishi zarur:

1. Qarorning ilmiy asoslanganligi
2. Qarorlarning birligi
3. Qarorlarning adolatligi – haqqoniyligi
4. Qarorlarning to'g'ri yo'naltirilganligi
5. Qarorlarning qisqaligi
6. Qarorlarning vaqt bo'yicha aniqligi
7. Qarorlarning operativligi

Qaror asosan rejalahtirilgan va rejalahtirilmagan turlarga bo'linadi.

Rejalahtirilgan qarorlar takrorlanuvchi, ilgaridan aniq vaziyatlarga tegishli bo'lib, ularni qabul qilishga mulohazali yondashish imkoniyati mavjud.

Rejalahtirilmagan qarorlar asosan tashqi muhit ta'siri natijasida tushkilotda shakllanuvchi favquloddagi vaziyatlarni (muammolarni) hal qilish bilan bog'liq.

Boshqarish qarorlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Har qanday boshqaruv qarori jiddiy maqsad yo'nalishiga ega bo'lishi, paydo bo'layotgan muammolarni yechimog'i kerak.
2. Boshqaruv qarori kuchga ega bo'lmog'i kerak. U rahbar ega bo'lgan huquq doirasida qabul qilinmog'i darkor.
3. Boshqaruv qarori zamonaviy bo'lmog'i kerak. Qabul qilingan vaqt muammoni taraqqiyot topish bosqichiga to'g'ri kelishi lozim, qaror qabul qilishda shoshma-shosharlik va kechikib qolishga yo'l qo'ymaslik kerak.

4. Qaror qarama-qarshi bo‘lmasligi kerak, boshqa qarorlar bilan kelishilgan bo‘lishi, shakli bo‘yicha tushunarli, aniq ifodalangan va ixcham bo‘lishi kerak.

5. To‘g‘ri boshqaruv qarori vaziyatni barcha xususiyatlarini hisobga olgan va ilmiy yondashuv asosida tuzilgan bo‘lmog‘i, ijtimoiy-iqtisodiy qonunlarni ta’sirini hisobga olgan holda va ishlab chiqarish ahvolini tahlili asosida qabul qilinishi kerak.

6. Qaror tejamli bo‘lishi, ya’ni maqsadga erishishni eng kam xarajatlar evaziga ta’minlashi kerak.

7. Qaror amalga real oshuvchi bo‘lmog‘i kerak. Uni qabul qila turib, barcha obyektiv va shaxsiy cheklanishlarni, boshqariluvchi tizimning aniq imkoniyatlarini, mavjud resurslarni va ularni ishlatalishini real sharoitlarini hisobga olish kerak.

Boshqaruv qarori turkumlanishi:

1. Ta’sir ko‘rsatish davri bilan - strategik va taktik turlarga bo‘linadi.

2. Ma’nosi va ta’sir qilish tavsifi bilan, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik, ijodiy va boshqalar.

3. Mehnat hajmining ko‘lami va darajasiga qarab murakkab va oddiy qarorlar.

4. Takrorlanishi va yangilik darajasi bo‘yicha – oddiy va ijodiy qarorlar.

5. Boshqaruv subyektida bor bo‘lgan axborotni to‘lalik darajasiga qarab – aniqlik, tavakkalchilik, noaniqlik sharoitida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan qarorlar.

6. Muhimligi bo‘yicha – bir lahzali va kechiktirilgan qarorlar.

7. Ushbu obyektga nisbatan – tashqi va ichki qarorlar.

8. Mazmun va paydo bo‘lishiga qarab – andozali va noandozali qarorlar.

9. Ta’sir sohasi bo‘yicha – umumiyligi va shaxsiy.

Boshqaruv qarorlarini tayyorlashda xavfsizlik nuqtayi nazaridan bosqichlar:

1. Muammoga diagnoz qo‘yiladi.

2. Qurorning chegaralari va me'zoni aniqlanadi.

3. Imkoniyatlar aniqlanadi.

4. Imkoniyatlar solishtiriladi va baholanadi.

5. Imkoniyatlardan biri tanlanadi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xavfsizlik nuqtayi nazoridan bosqichlar:

1. Informatsiya yig'ish.

2. Informatsiyani keraksiz ma'lumotlardan tozalash.

3. Qurorning turli loyihalarini ishlab chiqish.

4. Loyihalarni solishtirma tahlil qilish.

5. Hal qiluvchi tanlov - loyihalardan birini tanlash jarayoni.

6. Qarorni joylarga yetkazish.

7. Qarorni bajarilishini nazorat qilish.

13.3. Xavfsizlikni boshqarishda qarorlarni ishlab chiqish

Xavfsizlikni boshqarish masalasidagi qaror, vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavfni bartaraf etishi uchun normativ tulablarga mos tushishi bilan birga aniq shaklga taaluqli bo'lishi shart. Qurorning asosiy shakllari:

- yakkaboshchilik prinsipi asosida qabul qilingan qarorlar;
- kollegiallik (ko'pchilik fikri) asosida qabul qilingan qarorlar;
- konsesus prinsipi asosida qabul qilingan qarorlar;
- "Ringli" usul asosida qabul qilingan qarorlar.

Xavfsizlikni boshqarishdagi qarorlarni ishlab chiqishda qaysi turga tualluqligidan qat'i nazar, ularda normativ talablar saqlangan bo'lishi lozim. Bular:

Qarorning samaradorligi. Tanlangan alternativa xavfli vaziyatni konstruktiv bartaraf etishni ta'minlashi va ehtimolda tutilganlardan eng yaxshisi bo'lishi kerak.

Qarorning asoslanganligi. Qabul qilinayotgan alternativa nafaqat real vaziyatning xususiyatlarini adekvat aks etdirishi va uni bartaraf

etishning konkret yo'llarini ko'rsatishi, balki shu qaror bilan aloqador odamlarga ham tushunarli bo'lishi kerak.

Qarorning o'z vaqtidaligi. "Absolyut to'g'ri" qarorning o'zi yo'q. Har qanday qaror u yoki bu davrda yuzaga keladigan, harakatchan va birlarini almashtirib turadigan vaziyatlar vaqtida to'g'ri bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'z-o'zicha to'g'ri qaror o'z vaqtida emasligi – kechikkanligi yoki vaqtidan ilgariroq qabul qilinganligi oqibatida xato qaror sifatida baholanishi mumkin.

Qarorning bajarish imkoniyati. Har qanday yaxshi, asoslangan, o'z vaqtidagi qaror ham agar amalga oshirilmasa befoyda qarorga aylanadi. Bu holda ba'zida fikran (mavhum) yaxshi qaror varianti bilan real – bajariladigan variantlar o'rtasida go'yoki kompromiss variant sifatida ijro etiladi (qarorning oldingi variantini o'zgartirib kelishuvchanlikka borish holatlari).

Qarorning konkretligi va reglamentligi. Yaxshi qaror nafaqat muammoli vaziyatdan chiqishning umumiyligi – prinsipial yechimini beradi, balki bu qarorni amalga oshirish va harakatlar ketma-ketligini – ya'ni rejasini ham o'z ichiga oladi. Bu holat qaror ijrosini nazorat qilish va shu orqali xavfga konstruktiv yondoshish imkonini beradi.

Qarorda qat'tiylik va egiluvchanlikka amal qilganligi. Agar qaror qabul qilindimi, u bajarilishi kerak, degan qoida bor. Shuning uchun ham qabul qilingan qarorni bajarilishida qattiqlik namoyon qilinishi kerak. Shu ma'lumki, ba'zi hollarda qabul qilingan qarorning xatoligini payqab qolamiz. Bunday hollarda "zaxiradagi variantlar" ishga tushishi orqali xatonni to'g'rilash mumkin bo'ladi.

Qarorda "cheklovchi omil" prinsipini inobatga olinganligi. Bunda bir nechta alternativalar ichidan muhim tanlab olinayotganda inson cheklovchi yoki hal qiluvchi omillarga e'tibor berib ularni aniq anglashi kerak.

Qaror qabul qilish jarayoni ko'p qirrali jarayon hisoblanib, majmuaviy yondashishni taqozo etadi. Nazariy jihatdan qaror qabul qilish jarayoni bir nechta bosqichlarga amalga oshiriladi.

Quror qabul qilishning birinchi bosqichi – xavfni o'rganish – bir nechta etaplardan tashkil topadi:

1. Xavfni yoki maqsadni aniqlashtirish.
2. Dastlabki muammo (maqsad)ni qo'yish.

Agar xavfsizlikni boshqarish (maqsad) noto'g'ri qo'yilgan bo'lsa, keyingi barcha harakatlar va xarajatlar samarasiz bo'ladi. Xavfsizlikni boshqarishning noto'g'ri tanlanishi malakaning (ayniqsa rahbarlik malakasining) pastligi bilan, keskin kasbiy ustanovkalar (chegaradan chiqish umuman mumkin emasligi talabi) bilan, shuningdek, xavfning o'z vaqtida emasligi yoki "yuqoridan majbur qilishlar bilan yoki yuqorining qarorlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu bosqichda konkret qiyinchiliklarni, xavf tabiatini (u nima uchun paydo bo'lganini) anglash, xavfni bartaraf etish maqsadlarini o'ylab chiqish, erishilgan maqsadlar muvaffaqiyati mezonlarini ajratib olish, erishilishi lozim bo'lgan pirovard natijani aniqlashtirish zarur bo'ladi.

3. Vakolatlarni taqsimlash.

Qaror qabul qilishda xavflarni bartaraf etish va boshqarishga imkon beradigan vakolatli organlarga biriktirish maqsadga muvofiq. Ular qaror qabul qilish uchun axborotni to'plashlari, muammoni qarab chiqishlari mumkin. Vakolatlarni taqsimlamaslik oqibatida barcha ishni qilishga ulgurmasdan, stereotip va hatto xato qarorlarni qabul qilish mumkin. Vakolatni to'la taqsimlamaslik ham yaxshi samara bermaydi.

4. Zaruriy axborotni jamlash va uni tahlil qilish. Nafaqat "o'zining" axborotini, balki "begona" axborotini inobatga olishi shart.

5. Xavfli vaziyatning konseptual modelini tuzish. Bu xavfni tushunish bo'yicha tasavvurlarni, umuman ushbu xavfga nisbatan qarashlar tizimini nazarda tutadi. Xavfga tor nuqtayi nazardan, g'oyaviy ustanovkalar va eskirgan qarashlar nuqtayi nazaridan munosabatda bo'lish kerak emas. Bu xavfni yaxlit, konseptual tushunishni buzilishiga olib kelishi mumkin.

6. Konkret vaziyatni asoslash va uning formallashgan modelini tuzish. Bunday model grafik yoki maqsadlar daraxti (yechimlar daraxti) ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Qaror qabul qilishning ikkinchi bosqichi – g‘oyalar ishlab chiqish – xavfning yechim yo‘llarini shakllantirishdan iborat. G‘oyalar ishlab chiqishning samarali metodlaridan biri “aqliy hujum” (breystorming) metodi hisoblanadi.

Qaror qabul qilishning uchinchi bosqichi – g‘oyalarni baholash – har bir g‘oyaning qiymatini, ustunliklarini, uning samaradorligini va xavf darajasini baholashdan iborat.

Har bir g‘oya(tanlov)ning samaradorligini va xavfni boshlang‘ich “yechimlar daraxtini” qurish yordamida baholash mumkin. Bu daraxt mavjud alternativalar va ularning ehtimoliy oqibatlari sxemasidan iborat bo‘ladi. Bunday sxemalarni tuzish, ayniqsa izchil qaror qabul qilishda samarali bo‘ladi.

Qabul qilingan qaror samaradorligining mezoni – bu yuzaga kelgan xavflarni bartaraf etish va xavfsizlikni boshqarish samaradorligiga erishishdir.

Qaror qabul qilishning to‘rtinchi bosqichi – bu yakuniy tanlov (boshqaruvda buyruq shakllantirish va ifodalash) – bu bosqich qaror bajarilishini rejalashtirishni ta’miňlab beradi. Bunda, mazkur qarorni bajarish dasturi qabul qilinadi, muddati belgilanadi.

Qaror qabul qilishning beshinchi bosqichi – qaytarma aloqa va qarorni tahlil etish – bunda xavfsizlikni boshqarish bo‘yicha qabul qilingan qarorni amaliy bajarish nazarda tutiladi.

Qabul qilingan qarorni bajarishning yakuniy bosqichida xavfsizlikni boshqarishdagi qaror natijalari tahlil qilinadi, zarur hollarda o‘zgartirishlar (korrektirovka) kiritiladi. Xavfsizlikni boshqarishdagi qabul qilingan qarorning o‘z vaqtida bajarishini ta’minlash xavfning kelgusida paydo bo‘lishini oldini oladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Siyosiy xo‘jalik qarorlari, boshqaruv qarorlari, javobgarlik, vazifa, muddat, vosita, qarorning bajarilish muddatlari, rejalashtirilgan qarorlar, qarorning samaradorligi, qarorning konkretligi va reglamentligi.

Takrorlash uchun savollar

1. Xavfsizlikni boshqarishda xavfni miqdoriy aniqlash uchun qanday usullar mavjud?
2. Qaror qabul qilish jarayonida xavfsizlikni boshqarishning o‘rnini qanday ahamiyatga ega?
3. Boshqaruv qarori deganda nimani tushunasiz va qanday holatlarda ishlataladi?
4. Boshqarish qarorlarini asosiy tarkibiy ismlariga nimalar kiradi?
5. Xavfsizlikni boshqarishdagi qarorlarni ishlab chiqishda asosan nimaga e`tibor berilishi lozim?
6. Nazariy jihatdan qaror qabul qilish jarayoni qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
7. Xavfsizlikni boshqarishda qarorlarni ishlab chiqish deganda nimani tushunasiz?
8. Qabul qilingan qaror samaradorligining mezoni nimadan iborat?
9. Xavfsizlikni boshqarishning noto‘g‘ri tanlanishi nimalarga bog‘liq bo‘lishi mumkin?
10. Qaror qabul qilish jarayoni qanday amalga oshiriladi?

XIV BOB. TERRORIZMGA QARSHI KURASHISHNI BOSHQARISH

14.1. Terrorizmga qarshi kurashning ahamiyati va zaruriyati

Terrorizm (lot. terror – qo‘rinch, dahshat) – siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo‘qotish yoki qo‘rqtish, aholi o‘rtasida vahima va tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadidagi zo‘ravonlik harakatlari (ta’qib qilish, buzish, garovga olish, qotillik, portlatish va b.). Terrorizm yakka tartibdagi va guruhli terrorizm (mas., ekstremistik siyosiy to‘dalarning harakatlari kabi) toifalarga bo‘linadi. Siyosatshunoslikda davlat terrorizmi tushunchasi ham qo‘llanadi (diktatorlik va totalitar rejimlarning repressiyalari). Terrorizm o‘rta asrlardan boshlab barcha mintqa va mamlakatlarda uchrab turgan. Lekin o‘tgan asrning oxirlaridan uning yangi ko‘rinishlari vujudga keldi (chet el davlatlari va hukumatlari rahbarlarini, ularning diplomatik vakillarini o‘ldirish yoki o‘g‘irlash, elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlarning binolarini portlatish, aeroportlar va vokzallarda portlashlar sodir etish, havo kemalarini olib qochish, odamlarni garovga olish va h. k.). Xalqaro terrorizm keng tarqalib, Terrorizm oshkora siyosiy tus ola boshladı. Terrorchilar ayrim mamlakatlar hukumati va unga yaqin tuzilmalardan madad oladigan hollar yuzaga keldi. Ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi ortdi. Terrorchilar qo‘liga yadroviy, kimyoviy, biologik qurol tushib qolishi xavfi kuchaydi, elektron terrorchilik paydo bo‘ldi. Ko‘p hollarda Terrorizm diniy ekstremizm, narkobiznes, separatizm bilan bog‘likdagi, chatishib ketishi kuzatila boshladi.

Terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirish bo‘yicha aksariyat mamlakatlarda ko‘p tomonlama konvensiyalar va qonun aktlari qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida” maxsus qonun qabul qilindi (2000-y. 15-dek.). Ushbu qonunda Terrorizm — siyosiy, diniy, mafkuraviy va b. maqsadlarga

erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va b. obyektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni bironbir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar qilishga, aholini qo‘rqtishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasining JKda javobgarlik nuzarda tutilgan zo‘rlik, zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqtish yoki boshqa jinoiy qilmishlar deb ta’riflanadi. Qonunda davlat organlarining Terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari, terrorchilikka qarshi operatsiyaning o‘tkazilishi, terrorchilik harakati oqibatida yetkazilgan zararni qoplash va jabrlangan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiyasi kabi masalalar huquqiy asoslab berilgan.

Ma’lumki, islom dinini niqob qilib odamlarni bir-biriga qarshi qo‘yib qon to‘kishni tashkil qilayotgan, amalda o‘zining huzur-halovatini o‘layotgan kimsalarni Yevropada fundamentalistlar Markaziy Osiyoda aqidaparastlar yoki ekstremistlar deb ataydilar. Uning qanday turlari borligi borasida ma’lumotga ega bo‘lish ogohlilikka da’vatdir.

Ekstremist lotincha so‘z bo‘lib “o‘ta”, ya’ni ijtimoiy-siyosiy xarakterdagи muammolarni hal etishda, o‘ta keskin chora-tadbirlar fikr qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyat. Ekstremizm mazmuniga ko‘ra diniy va dunyoviy, namoyon bo‘lishiga ko‘ra hududiy, mintaqaviy va xalqaro shakllarga bo‘linadi. Ekstremistik qarashlar juda chuqur ildizlarga ega bo‘lib, hech qachon chegara bilmagan, din, millat, hududni tan olmagan. Ekstremizmning siyosiy-iqtisodiy va mafkuraviy ko‘rinishlari mavjud bo‘lgani holda, u barcha dinlar doirasida rivojlangan.

Diniy ekstremizm islom olamida ham keng tarqalgan, diniy ekstremistlar qayerda faoliyat ko‘rsatmasin asosiylar maqsadi diniy davlatni barpo etish bo‘lib, bu maqsadga o‘zaro nizolar, qurolli to‘qnashuvlar

orqali, yana qon to‘kish va zo‘ravonlik bilan erishishni ko‘zlaydilar. Bu esa mustaqillikka ham, jamiyat taraqqiyotiga ham katta g‘ov bo‘ladi. Ekstremistik guruhlarning yagona maqsadi hokimiyatni qo‘lga kiritish bo‘lib, bu yo‘lda ular eng jirkanch usullardan foydalanadilar.

Ekstremizm xavfi haqida to‘xtalib, aslini olganda, xavfsizlikka solinayotgan tahdidlar ancha serqirra, ular siyosiy ekstremizm, shu jumladan, diniy ruhdagi ekstremizmni, millatchilik va milliy mahdudlikni, etnik va millatlararo mahalliychilik va urug‘-aymog‘chilik asosidagi biddatlarni, korrupsiya va jinoyatchilikni, ekologiya muammlarini o‘z ichiga oladi.

Mafkuraviy nuqtayi nazardan ekstremizm har qanday boshqacha fikrlarni inkor etadi, o‘zining mafkuraviy va diniy qarashlarini qo‘pol ravishda, majburlab, qabul ettirishga harakat qiladi. O‘z muxoliflarini turli vositalar bilan majburlaydi. Ekstremistlar o‘z tarafдорларидан ularning har bir buyruqlarini so‘zsiz bajarishni ularga ko‘r-ko‘rona ishonishni talab qiladi, o‘z qarashlarini himoya qilarkanlar aqlga emas, his-tuyg‘ularga suyanadigan, ommaning to‘daning, instinctiga suyanadilar. Hozirgi kunga kelib, diniy-ekstremistik oqimlar va terroristik guruhlar o‘z saflarini kengaytish maqsadida turli usullarni qo‘llamoqdalar. Jumladan, ular ko‘pincha hali mavkuraviy jihatdan to‘liq shakllanmagan yoshlarga diniy ta‘lim berish niqqobi ostida, har xil aldon yo‘llari bilan o‘zlarining qo‘poruvchilik g‘oyalarini singdirib, keyinchalik davlatimizda notinch vaziyatni yuzaga keltirish orqali, o‘zlarining diniy davlat qurishga bo‘lgan urinishlarini amalga oshirishda foydalanishga harakat qilib kelmoqdalar.

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan kelib chiqib qayd etish mumkinki ekstremizm, aqidaparastlik, fanatizm, terrorizm garchi tarixiy kelib chiqishi va boshqa juz’iy jihatlari bilan bir-biridan farq qilsa-da, lekin bir-birini to‘ldirib kelgan. Diniy fundamentalizm va ekstremizm mavjud ekan, terrorizm xavfi va tahdidi hamma vaqt saqlanib qoladi. Zero, terrorizm o‘zining g‘oyaviy va mafkuraviy ozig‘ini ulardan oladi va ularga tayanadi. Diniy fundamentalizm va ekstremizm asosida vujudga

kelib, terrorchilik usullarini qo'llayotgan islom niqobidagi turli tashkilotlar va harakatlarga qarshi samarali mafkuraviy kurash olib borishda, ularning g'ayriinsoniy mohiyatini anglab yetish muhim ahamiyat kasb etdi.

Global terrorchilik 2018-yilda kamroq odamning halokatiga sabab bo'ldi, biroq uning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri keng ko'lamni egalladi. Bu haqda Iqtisodiyot va tinchlik institutining Global terrorchilik indeksi ma'lumotnomasida keltirilgan.

Unda keltirilishicha, terrorizm qurbanlarining umumiyligi soni ketma-ket to'rt yil davomida 15,2 foizdan kamayib 2018-yilda 15912 kishini tashkil etdi. Bu 2014-yilga nisbatan 53 foizga kam degani.

Ko'rsatkichlarning pasayishida Yaqin Sharqdagi urushlarda qozonilgan g'alaba hamda mintaqadagi harbiy harakatlarning imkon qadar kamaytirilishi sabab etib ko'rsatilgan.

"Shunga qaramay, dunyo bo'ylab terrorizm xavfi oldi olinishi va unga qarshi kurash uchun sarflanayotgan pul miqdori ortib bormoqda. Hisob-kitoblar 2018-yilda terrorchilik jahon iqtisodiyotiga 34 mlrd dollar zarar keltirgan", deyiladi ma'lumotda.

Iqtisodiyot va tinchlik institutining Yaqin Sharq va Yevropa bo'yicha direktori Serj Strubentsning ta'kidlashicha, so'nggi 20 yil ichida G'arb tashqi siyosati va G'arbning aralashuvi dunyoning turli mintaqalarida terrorizm darajasiga ta'sir ko'rsatgan.

14.2. Terrorizm va ekstremizmning xavfsizlikka tahidlari

Ekstremistik harakatlardagi tahidlari:

- konstitutsiyaviy tuzum asoslarini majburan o'zgartirish va mamlakat yaxlitligini buzish;
- terrorizm va boshqa terroristik faoliyatni ommaviy asoslash;
- ijtimoiy, irqiy, milliy yoki diniy adovatni qo'zg'atish; shaxsning ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy yoki lingvistik mansubligi yoki denga munosabati asosida eksklyuzivligi, ustunligi yoki pastligini targ'ib qilish;

- shaxs va fuqaroning ijtimoiy, irqi, milliy, diniy yoki lingvistik mansubligi yoki dinga bo‘lgan munosabatiga qarab huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi;
- fuqarolarning saylov huquqlarini va referendumda ishtirok etish huquqlarini amalga oshirishga to‘sqinlik qilish yoki zo‘ravonlik yoki undan foydalanish tahdidi bilan birgalikda ovoz berish sirini buzish;
- davlat organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, saylov komissiyalari, jamoat va diniy birlashmalar yoki boshqa tashkilotlarning zo‘ravonlik yoki undan foydalanish tahdidi bilan birlashtirilgan qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilish;
- natsistlar atributlarini yoki ramzlarini yoki fashistalik buyumlarga o‘xshash belgilarni yoki belgilarni yoki chalkashlik darajasiga qadar bo‘lgan belgilarni targ‘ib qilish va ommaviy namoyish qilish;
- ushbu harakatlarni amalga oshirishga yoki bila turib ekstremistik materiallarni ommaviy tarqatishga, shuningdek ularni ommaviy tarqatish maqsadida ularni ishlab chiqarishga yoki saqlashga jamoat chaqiriqlari;
- ushbu hujjatlarni tashkil etish va tayyorlash, shuningdek ularni amalga oshirishga undash;
- ushbu hujjatlarni moliyalashtirish yoki ularni tashkil qilish, tayyorlash va amalga oshirishda, shu jumladan o‘quv, matbaa va moddiy- texnika bazasini, telefon va boshqa aloqa turlarini ta’minlash yoki axborot xizmatlarini ko‘rsatish orqali boshqa yordam.

Terroristik faoliyat predmetining mohiyati bo‘yicha terrorizm quyidagilarga bo‘linadi.

Uyushmagan yoki individual (yolg‘iz terrorizm) – bu holda terroristik hujumni (kamroq hollarda, bir qator teraktlar) hech bir tashkilot tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaydigan bir yoki ikki kishi sodir etadi. Ko‘pincha bunday terroristik harakatlar ruhiy kasallar tomonidan faqat ular tushunadigan motivlar ta’sirida sodir etiladi;

Uyushgan, kollektiv - terroristik faoliyat ma’lum bir tashkilot tomonidan rejalashtirilgan va amalga oshirilgan (Xalq irodasi, sotsialistik

inqilobchilar, Al-Qaida, IShID, Qizil terror va boshqalar). Uyushgan terrorizm zamonaviy dunyoda eng keng tarqalgan.

Maqsadlili jihatidan terrorizm quyidagilarga bo'linadi.

Millatchi – separatistik yoki milliy ozodlik maqsadlarini ko'zlaydi;

Diniy – din tarafdrorining o'zaro (hindular va musulmonlar, musulmonlar va yahudiyalar) va bir xil e'tiqod doirasidagi (protestant kotonliklari) kurashi bilan bog'liq bo'lishi mumkin va dunyoviy hokimiyatni buzish va diniy hokimiyatni o'rnatishni maqsad qilgan;

Mafkuraviy jihatdan belgilangan ijtimoiy - mamlakat iqtisodiy yoki siyosiy tizimidagi tub yoki qisman o'zgarishlarni maqsad qilib oladi, jumiyat e'tiborini har qanday o'tkir muammoga jalb qiladi. Ushbu turdag'i terrorizm ba'zan inqilobiy deb nomlanadi. Anarxist, sotsialistik-inqilobiy, fashistik, yevropalik "chap", qizil terror, oq terror, ekologik terrorizm va boshqalar mafkuraviy jihatdan berilgan terrorizmga misoldir.

Terrorizmnning bunday bo'linishi shartli hisoblanadi va o'xshashlik barcha shakllarda uchraydi.

14.3. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari

Bugungi kunda ekstremizm va terrorizm nafaqat alohida mamlakatlarning milliy xavfsizligiga, balki jahon hamjamiatiga jiddiy tahdid solayotgan omilga aylandi. So'nggi paytlarda tobora kuchayib borayotgani mazkur muammoning naqadar dolzarb ekanligini nazarda tutib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga 2017-yilgi Murojaatnomasida: "Ayni vaqtida dunyoning ba'zi mintaqalarida yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga, bu esa, o'z navbatida, terrorizm va ekstremizmning tarqalishiga hamda ularning global muammolardan biriga aylanishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda milliy davlatchiligimiz, mustaqilligimiz, aholimizning tinch va

osoyishta hayoti va xavfsizligimizni saqlash biz uchun eng ustuvor vazifaga aylanib bormoqda”, – deya ta’kidlab o’tgan.

Qayd etish joizki, turli ekstremistik va terroristik tashkilotlar Markaziy Osiyo respublikalaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga qaratilgan faoliyatini davom ettirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbari jahon hamjamiyati e’tiborini Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash, terrorizm va ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariiga qarshi samarali kurashishni BMT preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda, shuningdek, MDH, SHHT, EXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida o’zaro hamkorlik, mintaqaga mamlakatlari o’rtasidagi amaliy hamkorlik mexanizmlari doirasida ta’minlash mumkin ekaniga, xavfsizlikka tahidlarni “o’ziniki va o’zgalarniki” deb ajratishdan voz kechish, “yaxlit xavfsizlik” tamoyiliga amalda rioya qilish zarurligiga qaratmoqda.

O’zbekiston terrorizm tahdidlari va uning zararli oqibatlarini o’z boshidan kechirgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Yurtimizda ushu illatlarga qarshi kurashish, uning oldini olish bo‘yicha jahon hamjamiyatiga namuna bo‘la oladigan darajada o‘ziga xos tajriba shakllangan. Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmnинг ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi, shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekanini ta’kidladi.

Sir emaski, islom dini tarixiga salmoqli hissa qo’shgan buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy-ma’rifiy meros nafaqat islom olamida, balki butun jahonda alohida e’tiborga loyiqligi e’tirof etilmoqda. Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo‘lishni talab etmoqda.

Islom dinini o'zlariga niqob qilib olgan ayrim guruhlar va toifalar dindan soydalaniib, g'araz maqsadlarni ko'zlagan holda, jamiyatda buzg'unchilik, begunoh odamlarning qoni to'kilishi kabi salbiy holatlarni avj oldirib, fuqarolar tinchligini buzib, xalq va dindorlar o'ttasida nizo chiqarishga, nifoq solishga harakat qilmoqda. O'zlarini "Islom dini va musulmonlarni himoya qiluvchi xaloskor firqa" deb e'lon qilgan holda, begunoh fuqarolarning o'limiga sabab bo'lmoqda. Eng yomoni, ular o'z xatti-harakatlarini asoslash uchun har bir musulmon uchun muqaddas bo'lgan Qur'oni Karim va Hadisi sharifni o'zlarining g'araz muqsadlariga moslab tafsir va ta'vil qilib, musulmonlar o'ttasida nifoq chiqarishga urinmoqda.

Islom dini har qanday og'ir sharoitda ham ekstremizm va terrorchilik kabi keskin harakatlarni amalga oshirishga ruxsat bermaydi. Uning tu'llimotiga ko'ra, nohaq qon to'kish eng og'ir gunoh hisoblanib, buning juzosi ham og'ir ekani ma'lum. Hozirgi kunda terrorizm, ekstremizm, diniy aqidaparastlik, mutaassiblik kabi illatlar tinchlik-osoyishtalikka ruxna solyapti. Terrorizmni biror millat yoki dinga nisbat berish mutlaqo noto'g'ri. Zero, terrorizmni hech qaysi din, hech qaysi millat oqlamaydi. U kimning va nimaning nomidan sodir etilishidan qat'i nazar, bunday buzg'unchilikni amalga oshiruvchi shaxs qonunga muvofiq jazolanadi.

Aqidaparastlar sodir etayotgan jinoyatlari uchun javobgarlikka tortilar ekan, jamoatchilikni, rasmiy imom xatiblarni va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar vakillarini qoralash maqsadida inson huquqlari poymol etilayotir, vijdon erkinligi ta'minlanmayotir va bizni qyinoqqa solishyapti, degan turli fisq-u fasodlarni tarqatishmoqda. Bu tuhmatlar, albatta, noto'g'ri ekanligi o'z isbotini topayotganiga qaramay, bu bo'htonlarni chetdan turib uyushtirayotgan va qo'llab- quvvatlayotganlar ham bor.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan huquqimizga ko'ra, har bir shaxs aniq sodir etgan g'ayriqonuniy harakati uchun jazoning muqarrarligi sud hukmiga ko'ra ta'minlanadi. Hech kim nohaq ayblanishiga yo'l qo'yilmaydi. Sud adolat prinsiplariga asoslanib,

guvochlarning ko'rsatuvlari va aniq asoslantirilgan dalillar majmuiga ko'ra hukm chiqaradi. Bu chiqarilgan hukmning asosligi nazorat tartibida, kassatsiya va appelyatsiya tartibida yuqori sud instansiyalari tomonidan nazorat qilinadi. Shu bilan birga, bir shaxs sodir etgan jinoyatga boshqa shaxs, uning yaqinlari (albatta, agar jinoyatga aloqador bo'lmasa) mas'ul bo'lmaydi va javobgarlikdan ozod etiladi.

Terrorizm kishilar, jamoatlar yoki davlatlarning dini, joni, ongi, moli, nomusiga buzg'unchilik bilan dushmanlik qilishdir. Uning doirasiga qo'rqtish, aziyat yetkazish, tahdid qilish, nohaq o'ldirish, mol-mulkni tortib olish, yo'lto'sarlik, zo'ravonlik, tahdidning barcha turlari bilan yakka yoki jamoaviy tarzda jinoiy rejani amalga oshirish kiradi. Ushbu harakatlarning maqsadi kishilar orasida qo'rquv, tahlika solish, aziyat yetkazib qo'rqtish yoki boshqalarning hayoti, erkinliklari va mol-mulkini xavf-xatarga qo'yishdir. Bularning barchasi buzg'unchilik qilish bo'lib, Alloh Qur'oni Karimda musulmonlarni bu ishdan qaytargan. Aqidaparastlik, buzg'unchilik bugungi kunda paydo bo'lgan dolzarb masalalar emas, bu muammoga nisbatan buyuk allomalar ham ko'p murojaat etib, ularning salbiy oqibatlariga huquqiy va fiqhij jihatdan baho bergan.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni e兹gulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi" – degan edi. 2018-yilning 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. Loyihasi O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi. Rezolyutsianing qabul qilinishi Prezidentimiz ilgari surgan tashabbusning amaliy ifodasi bo'ldi. Ushbu rezolyutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni

ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamtsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilganligi ta'kidlandi.

Mazkur holatlarni e'tiborga olgan holda, hozirgi kunda islom dunyoning barcha olim-u ulamolari hamkorlikda muqaddas dinimizning sof ta'llimotini asl holda asrab-avaylash, uning ahkomlarini buzib ko'rsatishga harakat qilayotgan yovuz kuchlarga qarshi ma'rifiy usullar bilan kurashishni yanada faollashtirishni zaruriy ishlardan deb hisoblaydi.

Mutaassiblikni ko'pincha din bilan bog'lash va terrordan foydalaniib hamdu musulmonlar uchun muqaddas bo'lgan islom niqobi ostida o'zining dahshatli ishlarini amalga oshirayotgan, mohiyatan, mintaqada vuziyatni beqarorlashtirayotgan bir qator tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq voqealarga e'tibor qaratgan holda, dinshunos olim, jamoat arbobi Ali Apsheronining fikrlarini keltirish o'rnlidir. "Islom, – deb yozadi u, – o'tu ketgan mutaassib inqilobchilarga muhtoj emas, aksincha, u chuqur va samimiy e'tiqodga ega bo'lgan, boshqacha fikrlovchi, boshqa tilda no'zlatyldigan yoki boshqa dinka e'tiqod qiladigan kishilarga nisbatan bug'rikenglik va ochiqlik xos bo'lgan taqvodor va xudojo'y kishilarga muhtojdir".

Umumlashtirgan holda aytganda, terrorizm illatiga qarshi kurashishda zamonaviy huquq manbalaridan tashqari, muqaddas dinimizning asosi hisoblangan Qur'oni Karim va Hadisi sharif hamda buyuk ajodolarimizning tavsiyalariga amal qilsak, yurtimizda tinchlik-xotirjamlikni ta'minlashga o'zimizning munosib hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

14.4. Terrorizmga qarshi kurashishning zamonaviy yo'llari va choralari

Bizning asrimizda insoniyatga ikki global ofat: ekologik ofat va terrorizm tahdid qilmoqda.

Terrorizm bizning hayotimizga kirib keldi, begunoh odamlarga o'lim, qon va azob keltirdi. Beslan, Budennovsk, Volgodonsk, Volgograd,

Moskva shaharlarida yuzlab odamlarning, shu jumladan bolalarning hayotini olib ketgan fojiali voqealardan so'ng, terrorchilar o'z maqsadlariga erishish uchun hech narsadan to'xtamasliklari aniq bo'ldi.

Muammoning jiddiyligi shundan iboratki, terrorizm yangi rivojlanish bosqichida, suv, aloqa, transport, aviakompaniyalar, energiya manbalari, kompyuter tizimlari va zamonaviy jamiyatning barcha infratuzilmasi hujumning nishoniga aylanishi mumkin. Zamonaviy terrorizmning o'ziga xos xususiyati uning ofatlarning ahamiyatini beradigan xalqaro xarakteridir. Terrorizm, qaysi bayroq rangida bo'lishidan qat'i nazar - yashil, qizil, to'q sariq, qora yoki boshqa ranglardan qat'i nazar, barcha ko'rinish va turlarida bizning davrimizning eng xavfli va dahshatli global muammolaridan biriga aylandi.

Uyushgan jinoyatchilikning, shu jumladan terroristik faoliyatning o'z-o'zini rivojlantirishning bo'ronli jarayoni uning chegaralarini kengayishiga olib keldi, uyushgan jinoiy guruhlari jinoiy faoliyat hududidan chiqib ketmoqda. Terroristik harakatlar tashkilotchilari va buyurtmachilarining asosiy maqsadi nafaqat shaxsiy boyitish uchun, balki siyosiy va xudbin manfaatlar - uchun saylov kampaniyalarini moliyalashtirish uchun foydalilaniladigan mansabdar shaxslar, jinoyat guvohlari uchun pora olish uchun ishlataladigan daromad olishdir. Masalan, Dog'istonning sobiq meri, shuningdek uning ehtimoliy sheriklari terrorizm va noqonuniy qurol savdosida gumon qilinmoqda. Tergov ma'lumotlariga ko'ra, Amirov, uning jiyanı Yusup Djaparov va Xasavyurt prokurorining sobiq yordamchisi Magomed Abdulgalimov respublika Milliy assambleyasi deputati Sagid Murtazaliyevni portativ zenit-raketa tizimidan uchishi kerak bo'lgan samolyotni urib tushirish orqali yo'q qilishni rejalashtirgan. Keyinchalik, tajovuzkorlar ushbu qirg'inni jangarilarda ayblamoqchi edilar.

Bugungi kunda hech kim bunday xavfdan sug'urta qilinmaydi, chunki uyushgan jinoiy guruh va hamjamiyat uchun terrorizm ularning muammolarini - siyosiy, milliy, diniy va shaxsiy yechimini topadigan, odamlarning ommasiga kuchli psixologik bosim o'tkazadigan yo'lga

nylandi. Terrorizm rivojlangan mehnat bozori va kapital qo'yilmalari bilan daromadli biznesga aylandi.

Ko'pchilik terrorizmnинг sabablarini diniy qarashlardan topishga hukumat qiladi. Darhaqiqat, islomiy fundamentalistlar (ayniqsa, vahhobiyilar) ning vafosiz ruhiy rahbarlari bilan yaqinlashib kelayotgan g'azot muqarrarligi niqobi ostida ular "muqaddas urush" ga yollovchilarni muvaffaqiyatli jalb qilishmoqda. XVIII asr oxirida shayx Muhammad Abdulvahhobning vazifasi o'sha hudud, milliy mentalitet va shu bilan bir qutorda juda cheklangan edi: arablar allaqachon vasvasalar va buzuqliklarga berilib, Qur'on islomidan uzoqlashgan edilar. Vahhib ulurni to'g'ri yo'liga, ya'ni Rabbimiz yo'liga qaytarish uchun keldi. Mafkura juda zo'r edi, ammo strategiya jirkanch va qonli edi. U o'zini charchatdi. Ushbu eskirgan diniy ta'limotni olib kirish madaniy darajasi juda past bo'lgan mamlakatlardagina muvaffaqiyatli bo'ladi. Ularga kosirlarga qarshi kurashayotganga o'xshaydi, lekin aslida – turmush darajasining farqi uchun. Dinni siyosiy qarorlardan ajrata olish kerak.

O'tgan asrnинг 60-70-yillari boshlarida islomchilarning ijtimoiy-siyosiy faolligining o'sishi dunyoviy millatchilik g'oyalaridan umidsizlik to'lqinida boshlandi. Aktivizatsiya uchun eng muhim turtki ko'p musulmonlar uchun Amerikalashtirish bilan bir xil bo'lgan globallashuv jarayonining rivojlanishi bo'lib, ular doimo "musulmon qalbi" ga tahdid ko'rgan.

G'arbiy dunyodagi AQSH gegemonligi va bu davlatning sotsializm qulagandan so'ng, so'nggi paytlarda ko'plab mamlakatlarning (Liviya, Iraq), shu jumladan Rossiyaning ichki ishlariga aralashgan yagona super kuchga aylanishi oqibatida o'zi yoqtirmagan rejimlarni agressiya va yo'q qilish yo'lini tutdi. Juhon sivilizatsiyasining boshqa mamlakatlari dunyo yovuzligi va islomiy hayot tarziga taraqqiyot tahdidining ramziga aylandi. Shu sababli, ko'plab ilg'or kuchlarning, shu jumladan haddan tushqari islomchilarning (vahobiylar) maqsadi Amerikaning qudrati va ta'siriga putur yetkazish, butun dunyoga Islom dini uchun

kurashganlarning kuchi va irodasiga qarshi turishga qodir emasligini ko'rsatish va uni islomiy yoshlar oldida obro'sizlantirishdir.

Agar ilgari terrorizm jamiyat farovonligi uchun o'zini qurbon qilish, o'zini tasdiqlash vositasi sifatida ko'rilgan bo'lsa, bugungi kunda terror ham shakl, ham mazmun jihatidan xilma-xil bo'lib qoldi. Zamona viy terrorizmning maqsadi hokimiyatni qo'lga kiritish va jamiyatda vahima qo'zg'atishdir. Terrorizm anonim bo'lib qoldi, o'tgan asrlarda terrorchilarga etib bo'lmaydigan zo'ravonlik harakatlarini amalga oshirish texnologiyalarini o'zlashtira boshladi.

Terrorizm paydo bo'lishining yana bir sharti bu madaniyatning qulashi. Terrorizm, albatta, oqlanishni, odamlarning katta qismi ongida o'zgarishni talab qiladi, aks holda yoshlar hech qanday pul evaziga jangarilar safiga qo'shilmaydi. Buzilgan qiymatlar tizimini tiklash terrorizmga qarshi kurashda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, men mamlakatdagi islomiy tuzilmalar, ularning rahbarlari va faollarining diniy ekstremizmga qarshi kurashda ishtirokini faollashtirishni samarali deb bilaman.

"Beg'ubor qalbni, hatto bitta jonni ham o'ldirgan odam hech qachon jannat hidini sezmaydi. Va Robbing tomonidan poklangan jonni o'ldirma." Qur'onda shunday deyilgan. Terroristik harakatni sodir etgan kishi musulmon ham, nasroniy ham yahudiy bo'lishni to'xtatadi. U jinoyatchi.

Zamona viy O'zbekiston uchun janob Pars turli davlat tuzilmalari: maxsus xizmatlar, huquqni muhofaza qilish idoralari va jamoat tashkilotlarining birgalikdagи sa'y-harakatlari bilan terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha samarali ishlarni talab qildi. Birinchi navbatda, profilaktika davlat va jamiyat xavfsizligiga tahdidlarning markaziy bo'g'iniga aylanishi kerak. Buning uchun fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish uchun asos sifatida huquqiy asos bo'lishi kerak. Qonunchilik, iqtisodiyot va ijtimoiy muhitning yetishmasligi oqibatida terrorizmni ko'payish maydonidan mahrum qilish muhimdir.

Ammo, terrorizm, uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish kerak, deb o'ylayman. Hozirda, biz ko'rib turganimizdek, ekstremistik guruuhlar terrorchilik faoliyatini, shu jumladan Toshkentda ham davom ettirmoqdalar. Xavfsizlik kuchlarining faol qo'shma hunkatlari tufayli ushbu guruh zararsizlantirildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda terrorizmning namoyon bo'lishiga bir nechta bashoratl baho berish kerak. Terrorizm, ehtimol, miqdoriy va sifat jihatlari bilan ajralib turishi mumkin, ammo umuman olganda uning jinoiy tarkibi sezilarli darajada o'zgarib ketmaydi.

Biroq yaqin kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, migratsiya siyosati va millatlararo munosabatlarda sezilarli yaxshilanishlar bo'lmaguncha, terrorizmning shaxsiyati va jinoiy xatti-harakatlar mexanizmi o'zgarmaydi.

Jamiyatning tobora kuchayib borayotgan terroristik tahdidiga bo'lган munosabati, u hozirgi kabi, va kelajakda passiv bo'lib, asta-sekin moslashish va "odatlanib qolish", doimiy xavf sharoitlariga moslashish istagiga qaytadi. Shuning uchun terrorizmga qarshi kurash butunlay maxsus xizmatlarga topshiriladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Terrorizm, ekstremizm, diniy aqidaparastlik, diniy ekstremizm, global terrorchilik, millatchi, uyushmagan, fashistik, islomiy tuzilmalar, globallashuv jarayoni, tahidilar, uyushgan jinoyatchilik

Takrorlash uchun savollar

1. Terrorizm qanday toifalarga bo'linadi va ularni izohlang?
2. Terrorizm va ekstremizm tushunchalariga ta'rif bering?
3. Terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirish bo'yicha qanday choratubirlar amalga oshirildi?
4. Terrorizm va ekstremizmni qanday farqlari va o'xshashliklari mavjud?

5. Ekstremistik harakatlardagi tahdidlarga misol keltiring?
6. Terroristik faoliyat predmetining mohiyati bo'yicha terrorizm qanday turlarga bo'linadi?
7. Diniy ekstremizm va diniy aqidaparastlik tushunchalariga ta'rif bering?
8. Inqilobiy terrorizm qanday namoyon bo'ladi?
9. Diniy ekstremistlar qayerda faoliyat ko'rsatmasin asosiy maqsadi nimadan iborat bo'ladi?
10. Ekstremistik guruhlarning yagona maqsadi nimadan iborat?

GLOSSARY

Afera – qalloblik, muttahamlik, vijdonsiz harakat yoki ish.

Barqaror rivojlanish – hozirgi davrdagi jamiyat taraqqiyotining eng muhim modellaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra eng asosiy vazifa rivojlanishning uzviyiligini ta’minlashdir. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa komponentlarni o‘z ichiga olgan holda nafiqat bugungi avlodlarning ehtiyojlarini qondirish, balki kelajakdagi avlodlar uchun ehtiyojlarining kafolatlanishini ham maqsad qiladi.

Byurokratizm – 1) totalitar davlatga xos boshqarish sistemasi; bu boshqarish sistemasi amaldorlarning (davlat xizmatchilarining), hukmonron partiya va miliitsiya (politsiya) apparatining keng quloch yoygan tarmoqlari va xalq ommasi ustidan hukumronlik qiladigan, totalitar davlat yoki bir xovuch partokratiyaning manfaatini ko‘zlab, mehnatkashlarga zulm o‘tkazuvchi va ular ustidan zo‘ravonlik qiluvchi boshqa rasmiy ma’muriy shaxslar yordamida amalga oshiriladi; 2) quruq rasmiyatchilik, qog‘ozbozlik, sansalorlik, masalani ishning mohiyatiga va mehnatkashlarning ehtiyojiga zarar yetkazgan holda yuzaki hal qilish.

Valyuta siyosati – davlat va markaziy banklar tomonidan pul va valyuta muomalasi doirasida pulning xarid quvvatiga hamda mamlakat iqtisodiyotiga tu’sir ko‘rsatish maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlar majmuasi.

Davlat qarzi – davlatning o‘z fuqarolari, banklar, korxona va tushkilotlar, xorijiy mamlakatlardan qarzi. Davlat o‘z xarajatlarini daromadi bilan qoplay olmay qarz oladi, qarz hisobidan o‘z byudjetining kamomadini vugtincha qoplaydi. Davlat zayomlar chiqarib, ularni aholiga, korxona va tushkilotlarga sotadi.

Investitsiya – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kapital kiritish (qo‘yish). Moliyaviy investitsiya, aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog‘ozlarni sotib olish; real investitsiya mamlakat ichkarisida va chet ellarda ishlab chiqarishga kapital kiritish (qo‘yish), shuningdek, yosh mustaqil davlatlarga qarz va subsidiyalar berish shakllarida amalga oshiriladi.

Informatsion xavfsizlik – shaxs, jamiyat va davlat hayotiy muhim manfaatlариниң axborot urushi, interventsiya hamda dezinformatsiya tazyiqларидан himoyalanganligidir. Informatsion xavfsizlikning mohiyati davlatning informatsion resurslarini saqlash, axborot sohasida shaxs va jamiyatning qonuniy huquqlarini himoyalashdan iboratdir.

Informatsion xavfsizlik obyektlari – axborot resurslari, ularning shakllanish, tarqalish va foydalanish tizimi, infrastrukturasi, tizim faoliyatini ta'minlovchi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar.

Informatsion xavfsizlik resurslari – davlat va korxona, tashkilot va muassasalarning hujjatlar shaklidagi (kutubxona, arxiv, fond) axborotlar, kompyuter dasturlari, bilim va axborot bazalari hamda boshqa tashkilot turlaridan iborat.

Inflyatsiya (lot. inflatio – shishish, ko'chish, ko'tarilish) – pulning qadrsizlanishi; muomaladagi pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi.

Ishsizlik – aholi iqtisodiy faol qismining o'ziga ish topa olmasdan qolishi. Mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmagan ishchi kuchi.

Iqtisodiy jinoyatlar – milliy iqtisodiyotga, uning tarmoqlari yoki sohalariga, korxona, tashkilot va muassasalar hamda fuqarolarga ziyon yetkazadigan yoinki ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan, jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir. Bunday jinoyatlarning sodir etilishi natijasida jamiyat, davlat, xo'jalik subyektlariga, ayrim fuqarolarga moddiy ziyon yetkaziladi, jamiyatning iqtisodiy negizlariga tajovuz qilinadi. Ularga: 1) o'zgalar mulkini talon-taroj qilish; 2) o'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lмаган jinoyatlar; 3) iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar; 4) xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar kiradi.

Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar – mamlakat manfaatlарига xilof ravishda bitimlar tuzish, qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish, valyuta bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish, chet el valyutasini yashirish, soxta tadbirdorlik, soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish, bojxona to'g'risidagi qonunlarni buzish, rangli metallar, ularning

purcha va rezgi chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda **notish** qoidalalarini buzish kabilar kiradi.

Iqtisodiy manfaatlar – iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari (**subyektlari**)ning o‘zлari tomonidan anglangan va ularni faoliyatga undovchi hayotiy ehtiyojlari, iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuch. Amal qilish darajasiga ko‘ra yakka shaxs, guruhiy yoki korporativ, milliy yoki umum davlat miqyosidagi iqtisodiy manfaatlar mavjud.

Iqtisodiy mustaqillik – milliy iqtisodiyotning chet davlatlarga bog‘liqligini kamaytirish va milliy manfaatlarga xizmat qilishi uchun shart-shuroitlarning ta’milnishi. Uning quyidagi mezonlari mavjud:

Iqtisodiyotning ochiqligi – mamlakat iqtisodiyotining chet el tovarlari, kўpitali, ishchi kuchi migratsiyasi uchun muayyan darajada ochiq bo‘lishini taqozo etadi. Mamlakat chet el bilan iqtisodiy aloqalarini o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda va erkin yuritadi;

Iqtisodiy siyosat – mamlakat maqsadlari, vazifalari, manfaatlariga muvofiq holda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga muayyan yo‘nalish berish, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish sohasidagi davlat, hukumat fuoliyatining bosh yo‘nalishi, tadbirlari tizimi. I.S. agrar, tarkibiy, investitsiya, moliya-kredit, ijtimoiy, tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnika, soliq, byudjet sohalaridagi siyosatni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy xavfsizlik – iqtisodiy kategoriya bo‘lib, iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘sish ta’milangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarish amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarning himoyalangandagi holatini ifodalaydi. I.X.milliy iqtisodiyot mustaqilligining, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o‘z-o‘zidan takomillashib borishga qodirligini tauminlovchi shart-sharoitlar va omillar yig‘indisidir. I.X.iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining shunday holatdaki, bunday holatda mamlakat milliy manfaatlarining kafolatli himoya qilinganligi, mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ijtimoiy yo‘naltirilganligi, ichki va tashqi jarayonlarining eng noqulay sharoitlarida ham mudofaa salohiyati yetarli darajada tauminlangan bo‘ladi.

Ichki iqtisodiy xavfsizlik – tabiiy, texnikaviy, iqtisodiy, infratuzilma-
viy, ijtimoiy, mikro va makro iqtisodiy rivojlanishning hamda turli
beqarorlikni, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar
taüsiridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bog‘liqdir.

Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy ko‘rsatkichlari – iqtisodiyot
sohasidagi milliy manfaatlarning miqdor jihatdan ifodalananishi.

Iqtisodiy razvedka – xorijiy davlatlarning, raqobatchi korxona (firma)
larning iqtisodiy salohiyati, iqtisodiy siyosati va iqtisodiy holatiga,
doiralariga oid muhim mahfiy ma’lumotlarni yashirinchha to‘plash.

Iqtisodiy tahdid – jamiyat, davlat va ularning subyektlari alohida
shaxsnинг normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarni ro‘yobga chiqarishga
to‘sinqinlik qiluvchi, ularga ziyon, zarar-zahmat keltiruvchi, xavf-xatar
tug‘diruvchi omillar, shart-sharoitlar va voqeliklarni ifodalaydi.

Iqtisodiy shpionaj – raqibiga zarba berish, raqobat kurashida yengish,
xo‘jalik faoliyatida o‘zib ketish maqsadida tijorat siri hisoblangan
ma’lumotlarni yashirinchha to‘plashga qaratilgan xufyona faoliyat.

Iqtisodiy qonunbuzarlik – xo‘jalik yuritish amaliyotida belgilangan va
qaror topgan qonun-qoidalar va mezonlarga zid xatti-harakat yoki
harakatsizlik.

Kompensatsiya – ko‘rilgan zararni, xarajatlarni qoplash, qarzni
qaytarish, o‘rnini qoplash, tovon to‘lovlar majmui.

Kontrabanda (ital. contrabando) – davlat chegarasidan mollar,
qimmatbaho buyumlar va boshqa narsalarni qonunga xilof (yashirinchha)
usullarda o‘tkazish, shuningdek, ta‘qiqlangan mollarni olib o‘tish uchun
noqonuniy harakatlar qilish.

Korxona (firma)ning iqtisodiy xavfsizligi – uning hayotiy muhim
manfaatlariiga xavf soluvchi ichki va tashqi tahdid, tajovuzlardan
ma’muriyat va personal tomonidan amalga oshirilgan huquqiy, tashkiliy-
iqtisodiy, injenerlik-texnika tavsifdagi chora-tadbirlar tufayli vujudga
keltirilgan himoyalanganlik holatidir.

Korrupsiya – mamlakat iqtisodiy resurslariga, davlat mulkini taqsim-
lash jarayonlarida uning bir qismiga ega bo‘lish maqsadida uyushgan jinoiy
guruhning shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug‘-aymoqlarining

manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yuvchi davlat xizmati umoldorlarini o'z domiga ilintirib, ulardan foydalanishi va ular bilan birikib, qo'shib ketishidir.

Moddiy zarar – 1) talofat, katta xarajat, mol-mulk va pul mablag'lardan muhrum bo'lish, to'liq olinmagan foyda; 2) istalmagan o'zgarish va yo'qotishlar, bir subyekt faoliyati, harakatlari orqali boshqa subyekt, tabiiy utrof-muhitga, odamlarga yetkazilgan zarar. Moddiy zarar korxona yoki xo'jalik faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlarining daromaddan oshib ketishi natijasida vujudga keladi.

Narkobiznes – sof narkotik moddalar va tarkibida shunday moddalar bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish orqali daromad topish.

Proteksionizm (fran. protectionnisme, lot. protectio – himoya) – davlatning milliy iqtisodiyotining chet el raqobatidan ichki bozorni chet el tovarlarining kirib kelishidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosati. Proteksionizm eksportni rag'batlantirish, importni cheklash, import mollaridan boj haqlarini oshirish va shunga o'xshash boshqa tadbirlarida o'z ifodasini topadi.

Soxta ishbilarmonlik (tadbirkorlik) – kredit olish, soliqlardan ozod bo'lish, foyda ko'rish yoki taqiqlangan faoliyatni yashirish maqsadida hech qanday ishbilarmonlik yoki bank faoliyatini olib borishni mo'ljallamagan kommertsiya tashkilotini tuzish. Fuqarolarga, tashkilot yoki davlatga katta zarar keltiruvchi iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy faoliyat sohasidagi jinoyatchilik hisoblanadi.

Strategiya – korxonaning resurslarini taqsimlash va nazorat qilish orqali belgilangan uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan umallarning umumlashtiruvchi majmuidir.

Tahdid – jamiyat, davlat va ularning subyektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladigan, ziyon-zahmat keltiradigan, xavf-xatar tug'diradigan omillar va shart-sharoitlar.

Ichki tahdidlar – mamlakat ichida vujudga keladigan tahdidlar.

Tashqi iqtisodiy sohada xavfsizlik – mamlakatning jahon bozorlaridagi raqobatga bardoshliligi, milliy valyutaning barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvolining barqarorligi bilan tavsiflanadi.

Siyosiy terrorizm – siyosiy arboblarga, ular o'tkazayotgan siyosatga, hukumatlarga ta'sir o'tkazish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar.

Axborot sohasida terrorizm – jamiyat a'zolarining ruhiyatiga, xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish.

Iqtisodiy sohadagi terrorizm – terroristlarning iqtisodiy manfaatga erishish maqsadida raqiblariga, aholining turli qatlamlari va guruhlariga, davlatlar va ularning boshliqlariga ta'sir o'tkazishi.

Ijtimoiy terrorizm – jinoyatchilik miqyoslarining kengayishi, kriminal vaziyatning keskinlashuvi, umumiy ijtimoiy beqarorlikning vujudga kelishi.

Tijorat siri – ishlab chiqarish va savdo-sotiqning bevosita ishtirok-chilarigagina ma'lum bo'lgan va boshqalarga e'lon qilinmaydigan ma'lumotlar. Yangi texnika-texnologiya, ishlab chiqarishni yangichasiga tashkil etish, yangi materiallarni qo'llash, boshqalarda bo'Imagan, hayotiy sikli uzun bo'lgan tovarlarni o'zlashtirish sir tutiladi.

Xo'jalik faoliyati sohasidagi iqtisodiy jinoyatlar – sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish etil spirtili, alkagollni mahsulot va tamaki mahsulotlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish, savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish, savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish faoliyati bilan litsenziyasiz shug'ullanish, qonunga xilof ravishda axborot toplash, uni oshkor qilish yoki undan foydalananish, raqobatchilikni obro'sizlantirish kabilardan iborat.

Xavfsizlik – har qanday xavf-xatardan o'zini himoyalangan deb hisoblovchi inson ruhining xotirjam holati; insoniyat hayotining turli sohalarida vujudga keladigan xavf-xatar, tahdidlardan himoyalanganlik, kafolatlangan.

Xavf-xatar – jamiyat, davlat, xo'jalik subyekti, shaxs hayot faoliyatiga, rivojlanishga tahdid soluvchi potentsial yoki real kuch, omil, shart-sharoit, vaziyat.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik – har bir davlat, ya’ni dunyo hamjamiyati u’zosining o‘z ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti strategiyasini erkin tanlash va amalga oshirish imkoniyatlarining ta’minlangandagi holati.

Xufyona (yashirin) iqtisodiyot – davlat statistika organlarida hisobga olinmagan, g‘ayriqonuniy va iqtisodiy faoliyatga teskari bo‘lgan harakatlar yig‘indisi. Xufyona iqtisodiyot – bu jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan tovar moddiy boyliklar va xizmatlarning harajati. Alovida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi davlat boshqaruv organlaridan yashirinadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi.

Yashirish yoki norasmiy iqtisodiyot – rasmiy hisobotlarda va rasmiy shartnomalarda aks ettilirmaydigan xo‘jalik munosabatlari yig‘indisi.

Chayqovchilik – turli mollarni arzon olib, qimmat sotish bilan daromad topishni ko‘zlaydigan faoliyat, man etilgan tijorat ishi; xufyona iqtisodiyotning bir qismi. Chayqovchilik obyekti taqchil (defitsit) tovarlardir.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi – uning hayotiy manfaatlarining, ya’ni yashash va shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish, mulkdor bo‘lish, hayotiy iste’mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, bilim olish va kasbga ega bo‘lish, qariganda ijtimoiy ta’minot olish huquqlarining himoyalanganligini ifodalaydi.

Embargo (isp. ta’qiqlab qo‘yish) – 1) Mamlakat tashqarisiga mol, oltin, valyuta va boshqalarni chiqarish yoki kiritishni ta’qiqlab qo‘yish, chet mamlakatga qarashli kemalar, yuklar va jihozlarni ushlab qolish; 2) Boshqa mamlakatlarning huquqni buzish harakatlariga javoban hukumat tomonidan boshqa mamlakat yoki o‘z kemalarining mamlakat portidan chiqib ketishini talab etishi. Embargo iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko‘ra hukumat tomonidan joriy etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Qonunlar va boshqa huquqiy, siyosiy, rasmiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 2017 yil 3 yanvardagi 419-sonli Qonun.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa Doktrinasi to‘g‘risida”gi 2018 yil 9 yanvardagi O‘RQ-458-sonli Qonun.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistan Respublikasida ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2017 yil 8 sentyabrdagi PF-5185-sonli Farmoni.

5. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 17 yanvardagi PF-4933-sonli Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy lashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 18 apreldagi PQ-2895-sonli Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarning eksport qilinishi va raqobatdoshligini ta‘minlashni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 25 maydagi PF- 5057-sonli Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 4 sentyabrdagi PQ-3254-sonli Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari xalqaro standartlarga

muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 18 maydagi PF-5995-sonli Farmoni.

11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi (O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 sentyabrdagi «Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ- 564-son Qonuni) 2020 yil 22 apreldagi PF-5983-sonli Farmoni.

12.“O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida”gi 2018 yil 5 apreldagi O'RQ-471-sonli Qonuni.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asar va ma'ruzalari

13.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak: Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. - T.: “O'zbekiston”, 2017.

14.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olajanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi // Xalq so'zi, 2016 yil 15 dekabr.

15.O'zbekistan Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr // Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr.

16.Mirziyoyev Sh.M. Konstitusiya erkin va farovon xayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2018 yil 8 dekabr.

17.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr // Xalq so‘zi, 2018 yil 29 dekabr.

III. Kitob va risolalar

18.Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. - T.: “Fan va texnologiya”, 2013. - 476 b.

19. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot // Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 4-nashri. - T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyot davlat korxonasi, 2018. - 592 b.

20. Абдурахманов К.Х., Абдуллаев А.М., Дадабаев Ш.Х. Региональная экономика и управление. Учебник // Под ред. Акад. С.С.Гулямова. - Т.: Изд-во “Fan va texnologiya”, 2007.

21. Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma. - T.: Akademiya, 2006. - 224 b.

22. Abulqosimov X.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. - T.: Akademiya, 2012. – 320 b.

23. Abulqosimov X.P. O‘zbekistonda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va kichik tadbirdorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishlari. Monografiya. - T.: Ilmiy-Texnika Axboroti-Press, 2017. - 208 b.

24. Abulqosimov X.P. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Noshrlik yog‘dusi”, 2018. - 520 b.

25. Abulqosimov X.P., Farmonov K.Z., Sodikov A.X. Bojxona va iqtisodiy xavfsizlik. - T.: Iqtisod-Moliya, 2009. – 134 b.

26. Abulqosimov X.P., Rasulov T.S. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash yo‘llari. Risola. - T.: Fan va texnologiya, 2015. – 88 b.

27. Абулкасимов Х.П., Сайдахмедова Н.И., Абулкасимов М.Х. Экономическая безопасность предпринимательской деятельности. Учебное пособие. - Т., 2016. – с. 168.

28. Abulqosimov X.P., Rasulov T.S. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jixatlari va yo'nalishlari. Monografiya. - T.: Fan va texnologiya, 2017. - 152 b.
29. Абулқасимов Х.П., Расулов Т.С. Особенности научно-технической и инновационной политики стран СНГ, Ближнего и Среднего Востока. Учебное пособие. - Т.: Таш-ГИВ, 2017. – с. 380.
30. Abulqosimov X.P., Abulkosimov M.X. Iqtisodiyotga oid atama va tushunchalarining izohli lug'ati. - T.: "AVU MATBUOT-KONSALT", 2017.
31. Abulqosimov X.P., Rasulov T.S. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va raqobatbardoshligini ta'minlaigning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. - T.: LESSON PRESS, 2018.
32. Azizov N.P. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. - T.: Akademiya, 2018.
33. Авдийский В.Н., Дадалко В.А., Синявский Н.Г. Национальная и региональная экономическая безопасность России. Учебное пособие. - М.: Инфра-М, 2017. – с. 364.
34. Безденежных Т.И. Разработка стратегии обеспечения экономической безопасности на макро-, мезо- и микроуровнях: учебное пособие. СПб.: СПбГЭУ, 2015. – с. 119.
35. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность. - СПб: Изд. "Вектор", 2007.
36. Гафнер В.В., Петров С.В., Забара Л.И. Опасности социального характера и защита от них: учеб. пособие. - М.: Флинта: Наука, 2012. - 320 с.
37. Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб.-метод пособие. - М.: Финансы и статистика, 2012.
38. Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государств. Аналитический доклад. - М., 2009.
39. Дмитриев Ю.А., Васильева Л.П. Региональная экономика. Учебник. - М.: КноРус, 2016. – с. 262.

40. Елфимова О.С. Основы национальной и экономической безопасности. Учебное пособие. Елфимова О.С. – 2-е изд. – СПб.: Троицкий мост, 2018. – с. 226.
41. Карапина Е.В. Экономическая безопасность. На уровне государства, региона, предприятия. - СПб.: Интермедиа, 2017. – с. 412.
42. Кардашова И.Б. Основы теории национальной безопасности. Учебник. - М.: Юрайт, 2018. – с. 302.
43. Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность. -Ростов на Дону: Феникс, 2007.
44. Кунцман М.В. Экономическая безопасность: учебное пособие // М.В.Кунцман. - М.: МАДИ, 2016. – с. 152.
45. Литвинов В.А. Основы национальный безопасности России. - М., 2018. – с. 320.
46. Криворотов В.В. Экономическая безопасность государства и регионов. Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015. – с. 350.
47. Мельников А.Б., Маханько Г.В. Экономическая безопасность: учебное пособие. - Краснодара КубГУ, 2015. – с. 171.
48. Обшая теория национальной безопасности. Учебник. - М.: РАГС, 2013.
49. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2005.
50. Экономическая безопасность: учебник для вузов // Под общ.ред. Л.П.Гончаренко. - 2-е изд., перераб.и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2018. – с. 340.
51. Экономическая безопасность: учебное пособие для вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления // В.А.Богомолов и др.; додред. В.А.Богомолова. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИДАНА, 2019. –с. 295.
52. Экономическая безопасность России: Общий курс: Учебник // Под ред. В.К.Сенчагова. 2-изд. - М.: Дело, 2005. – с. 895.

53. Экономическая безопасность: теория, методология, практика // Под науч. ред. Никитенко П.Г., Булавко В.Г.; Институт экономики НАН Беларуси. - Минск: Право и экономика, 2009. – с. 394.

54. Экономика и организация безопасности хозяйствующих субъектов, 2-е изд - СПб.: Питер, 2004.

55. Qobilov Sh.R. Milliy xavfsizlikning iqtisodiy muammolari. - T.: O'zR IIV Akademiyasi, 2006.

56. Qobilov Sh.R. Globallashuv va xavfsizlik. - T.: O'zR IIV Akademiyasi, 2006.

57. Чувилова О.Н., Романюта И.В., Берсей Д.Д., Ионов Ч.Х.-Б., Рыбина Ю.В. Региональные аспекты экономической безопасности страны в условиях глобализации. - М.: Проспект, 2017. – с. 94.

IV. Jurnal va gazetalar, ilmiy to‘plamlardagi maqolalar va tezislар

58. Abduganiyev O.A. Mintaqaning oziq-ovqat bilan ta’milanganligini baholash usullari va mezonlari // Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2018. - №3.

59. Abulqosimov X.P., Abulqosimov M.X. O’zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash omillari // Iqtisod va moliya, 2015. - № 8. 44-51-b.

60. Abulqosimov X.P. O’zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashning ayrim masalalari // O’zbekiston iqtisodiyotini institusional rivojlantirish: yutuqlar, muammolar, yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar va ma’ruzalar tezislari to‘plami. 1-qism. - T.: Fan va texnologiya, 2016. - 32-35 b.

61. Abulqosimov X.P., Rasulov T.S., Mamaraximov B.E., Sharipov K.B. O’zbekistonda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish istiqbollari // J. Ucheniy XXI veka, 2016. - № 5-4 (18). - 77-83 b.

62. Abulqosimov X.P. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligiga tahdid va uni bartaraf etish yo’llari // J. “Moliya”, 2016. - №4. - 137-142 b.

63. Abulkasimov X.P., Saidaxmedova N.I. Supplying food safety issues in Uzbekistan // J. European journal of economics and management sciences, Austria, Vienna, 2017. - № 1. – p. 17-21.

64. Abulqosimov X.P. Firibgarlik-tadbirkorlik iqtisodiy xavfsizligiga tahdid // J. Iqtisod va moliya // Ekonomika i finansi, 2017. - №3. - 33-37 b.
65. Abulqosimov X.P. Tadbirkorlik faoliyati xavfsizligini ta'minlashning nazariy jixatlari // J. Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar: Ilmiy- metodologik va ilmiy-uslubiy jurnal, 2018. - №2. - 25-32 b.
66. Abulqosimov M.D. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsnинг iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jixatlari va yo'llari // J. Iqtisod va moliya, 2017. - № 5. - 46-53 b.
67. Abulqosimov X.P. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'naliishlari // J. Biznes-ekspert, 2017. - № 11. - 47-50 b.
68. Abulqosimov M.X. Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga taxdidlar va ularning oldini olish yo'llari // J. Iqtisod va moliya, 2017. - № 12. - 19-25 b.
69. Abulkosimov X.P. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish-shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muxim sharti // J. Iqtisod va moliya, 2018. - № 4. - 56-61 b.
70. Алексеев С.Л., Киямов И.К., Сергеева Ю.С., Киямова Л.И., Николаева А.Р. Противодействие коррупции в обеспечении экономически безопасного развития государства на современном этапе // Вестник НЦ БЖД. – 2018. – №2 (36). – с. 55-61.
71. Борисова Д.И., Тимошенко К.В. Экономическая безопасность в социальной сфере: проблемы или возможности? // Молодой ученый. - 2016. - №6.3. - с. 10-13.
72. Гуреева М.А. Экономическая безопасность личности в России // Международный научный журнал "Символ науки", 2016. №4. - с. 57- 63.
73. Дронов Р. Подходы к обеспечению экономической безопасности // Экономист, 2011.- №2.
74. Значение транспорта в обеспечение национальной экономической безопасности // Transport Busines in Rossia, 2016. - №6. - с. 10-13.

75. Исажонов А.А. Конкурентоспособность национальной экономики: мировой опыт и современные тенденции развития // Экономический вестник Узбекистана, 2014. - №6.
76. Маглакелидзе Т. Экономическая и экологическая безопасность: взаимосвязь и влияние на экономический рост // Экономист, 2012. - № 6.
77. Макроэкономические и региональные аспекты моделирования устойчивого экономического роста, форум экономистов Узбекистана: [материалы], Ташкент // Под ред. д.э.н. А.М.Садыкова; Ин-т прогнозирования и макроэкономических исследований, Программа Развития ООН.
78. Mamaraximov B.E. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sanoatini rivojlantirish // Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2016. - №5.
79. Прохожев А., Корнилов М. О проблеме критерииов оценок экономической безопасности // Общество и экономика, 2013. - № 4-5.
- V. Xorijiy nashrlardagi kitob va maqolalar**
80. Arcudi G. (англ.) русск.. La securite entre permanence et changement // Relations Internationales (фр.) русск, 2016. - № 125. - с. 97-109.
81. Bilgin P. Individual and Societal Dimensions of Security // International Studies Review (англ.) русск. - 2013. - Vol. 5, № 2. - p. 203-222.
82. Buzan B., Kelstrup M., Lemaitre P., Tromer E., Waever O. (англ.) русск. Identity, Migration and the New Security Agenda in Europe (англ.) русск. - Pinter, 2013. – p. 221.
83. Buzan B., Waever O. (англ.) русск., Wilde J. de (англ.) русск.. Security: A New Framework for Analysis (англ.) русск.. Boulder, London: Lynne Rienner Publishers (англ.) русск., 2018. – p. 240.
84. Distributed Ledger Technology & Cybersecurity: Improving information security in the financial sector (2016).

85. McSweeney B. (англ.) русск.. Identity and Security: Buzan and the Copenhagen School // Review of International Studies (англ.) русск.. –2016. - № 22. - p. 81-96.

86. Mc Connell, Brue. Economics. 17th edition. McGraw-hill/Irwin, USA, 2014.

87. N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th Edition. Amazon, USA 2016.

VI. Statistik tuplam va manbalar

88. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. Statistik to‘plam 2015-2019 yil. – Toshkent, 2020.

89. O‘zbekiston raqamlarda. Statistik to‘plam 2015-2019 yil. – Toshkent, 2020.

90. Экономика Узбекистана: информационно-аналитический бюллетень за 2019 год. – Т., 2020.

VII. Internet saytlar

91. www.gov.uz

92. www.lex.uz

93. <http://parliament.gov.uz>

94. <http://strategy.regulation.gov.uz>

95. <https://www.shs-conferences.org> - System performance indicators of regional economic security

96. <https://dspace.kpfu.ru> - Economic Security Policy of the Russian Federation

97. <https://www.researchgate.net> - Threats to economic security of the region

98. <https://journals.aserspublishing.eu> - Economic Security of Regions